


Raqamli kommutatsiya tizimlari

GROUP SWITCH (GS)

Бөлкем 1 Бөлкем 2 Бөлкем 3



N.A. ZAYNUTDINOVA, N.S. XODJAYEV,
M.X. NURILLAYEVA, I.A. SULTONOV

RAQAMLI KOMMUTATSIYA TIZIMLARI

Kashb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

157530



QIROATXONA

**“FARHOD” MS
KUTUBXONASI**

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2008*

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya ergan

Taqrizchilar:

N.X. Gulto'rayev – texnika fanlari nomzodi,
X.O. Toshxo'jayev – Toshkent Aloqa kasb-hunar kolleji
Kommutatsiya tizimlari kafedrasi mudiri, oliy toifali o'qituvchi

O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlariga Alcatel 1000 S-12, EWSD (Siemens), NEAX-61 (NEC), DTS 3100, 1100A, 2000 (DAEWOO) kabi raqamli kommutatsiya tizimlari kiritilmoqda. Shu bois mazkur o'quv qo'llanmada raqamli kommutatsiya tizimlarining hamda yuqorida ko'rsatilgan raqamli kommutatsiya tizimlarining har birining to'liq ma'lumoti, tavsifi, apparat va dastur vositalarining qurilish tamoyillarini o'rganish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlari talabalarini uchun mo'ljalangan bo'lib, undan shu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Z 4108130000-148 -2008
360(04)-2008

ISBN 978-9943-05-169-0

© Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- y.

SO'ZBOSHI

Keyingi yillarda telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi va texnikaning bir avlodidan ikkinchisiga o'tish davrining yildan-yilga qisqarishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng telekommunikatsiya tarmoqlarini jahon standartlari asosida rekonstruksiyalash va rivojlantirish ishlarini tubdan jadallashtrishga talab hamda imkoniyat yaratildi. Bu jarayon Respublika telekommunikatsiya tarmog'iga katta hajmdagi investitsiyalarni kiritish va tarmoqni yangi texnika hamda texnologiyalar asosida qayta qurishga olib keldi. Sarflangan xarajatlarni qoplash va bu murakkab texnika vositaliarining uzlusiz hamda samarali ishlashini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sohada xizmat qilayotgan mutaxassislarining malakasidir. Shu sababli sohada mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini doimiy ravishda oshirishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ustuvor masalalardan biridir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash asosida yagona axborot makonini yaratish Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilan masalani yechishda texnik adabiyotlar, xususan, davlat tilida tayyorlangan o'quv va ilmiy texnika adabiyotlarining mavjudligi katta o'rinni egallaydi.

Ushbu qo'llanma III bobdan iborat. Bu qo'llanmaning birinchi bobida raqamli kommutatsiya tamoyillari, ikkinchi bobida raqamli aloqa tarmoqlari, uchinchi bobida esa raqamli kommutatsiya tizimlari bo'yicha to'liq ma'lumotnomalar bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma aloqa kolleji talabalariga yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi.

I BOB.
RAQAMLI KOMMUTATSIYA TAMOYILI

**1.1. IKM-30 tizimida sinxronlash. Bitli, siklli va
tarmoqli sinxronlash**

Dastlab impuls kodli modulyatsiyali (IKM) uzatish tizilmalarining rivojlanishi mahalliy va ichki mintaqaviy tarmoqlarda keng tarqalgan quyi chastotali kabellarning juftlarini zichlashtirish zarurligi tufayli kelib chiqqan edi. Bu tarmoqlarning an'anaviy usullar bilan keyingi rivojlanishi telefon kanallarga o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish g'oyatda qiyin edi. Yagona samarali usul bo'lib qo'llanilayotgani — bu kabel tarmog'ining juftlarini zichlashtirishdir. Biroq mayjud kabel liniyalarini tonal chastotalar diapazonida qo'llanish ko'zda tutilganligi uchun bu kabellardagi o'zaro ta'sir qiluvchi parametrlari kanallarni chastotali taqsimlash (KCHT) ko'p kanalli tizimlarni tatbiq etish imkoniyatini bermadi.

Yarimo'tkazgichlar texnikasi sohasidagi sezilarli taraqqiyot kanallarni vaqt bo'yicha ajratish va impuls kodli modulyatsiyaga asoslangan uzatish tizimining apparatursining yaratilishi haqiqiy va iqtisodiy asoslanishiga olib keladi. Raqamli signallarning xalaqit bardoshligi IKM li uzatish tizimlarini mayjud quyi chastotali kabellarni zichlashtirish imkoniyatini beradi. Shu tufayli ekspluatatsiyadagi kabel tarmog'i o'z ichiga bir necha stansiyalararo ulash liniyalarini oladi. IKM li uzatish tizimlarini tatbiq etish ulash liniyalarining kerakli sonini ta'minlash muammosini yechganligi sababli ko'pgina mamlakatlarda shu tizimni yaratish bo'yicha jadal ishlar boshlandi. Mahalliy tarmoqlarni rivojlantirish masalalarining tez yechimini maqsad qilib olgan bu ishlar apparaturaning bir necha turlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bularga quyidagilar kiradi:

- AQSH — IKM-24 uzatish tizimi (T1), uzatish tezligi 1544 Kbit/s;
 - Angliya — IKM-24 uzatish tizimi, uzatish tezligi 1536 Kbit/s;
 - Fransiya — IKM-36 uzatish tizimi, uzatish tezligi 1746 Kbit/s;
 - Sobiq ittifoq — IKM-12 uzatish tizimi, uzatish tezligi 704 Kbit/s;
 - Yaponiya — IKM-24 uzatish tizimi, uzatish tezligi 1544 Kbit/s;
 - Polsha — TSK-24 uzatish tizimi, uzatish tezligi 1544 Kbit/s.
- Bu uzatish tizimlari uzunligi uncha katta bo'Imagan aloqa liniyalarida, asosan, elektromexanik turidagi ATS lar orasida ulash liniyalarini tashkil etishda qo'llaniladi. Telefon va Telegrafiya bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasida (TTXMQ) IKM-24 tizimining para-

metrlarini qoidaga solish bo'yicha olib borilgan ishlar davomida G'arbiy Yevropa mamlakatlari IKM-24 tizimidan ba'zi tomonlari bilan ustun bo'lgan, tezligi 2048 Kbit/s bo'lgan IKM-30/32 tizimini taklif etadi. Natijada TTXMQ da IKM li ikkita birlamchi tizim qoidaga solindi:

1. IKM-24 — 1544 Kbit/s tezlik bilan;
2. IKM 30/32 — 2048 Kbit/s tezlik bilan.



Iqtisodiy o'zaro yordam kengashi mamlakatlarida ham qabul qilingan IKM-30 tizimi integral aloqa tarmoqlarida qo'llanish uchun mo'ljallangan. IKM-30 tizimining parametrlarini hisobga olgan holda elektron ATS lar loyihalashtirilgan, ular o'rtaqidagi raqamli signallar IKM-30 tizimining liniyaviy traktlari bo'yicha uzatiladi.

Bu birlamchi uzatish tizimi ikkilamchi raqamli tizimlarini yaratish uchun asos bo'ladi. IKM-24 va IKM-30 tizimlari davr tuzilishi orasidagi farq ularning o'zaro ishlari uchun jiddiy to'siq bo'la olmaydi, chunki 8 KHz ga teng bir xil va IKM-24 Polsha yaratgan variant bilan $A = 87,6/3$ segmentga teng bir xil kompressiya qonuni bo'lganligi tufayli ular nutqli signallar uchun bir xil davr davomiylikka ega.

1.1- rasmda IKM li birlamchi uzatish tizimi apparaturasining tuzilish chizmasi keltirilgan. Unda ikkita asosiy qismni ajratish mumkin: oxirgi qurilma va liniyaviy trakt qurilmasi. Oxirgi qurilmaning uzatuvchi qism vazifasi bir qancha kirish signallarni diskretlash, hosil bo'lgan diskretlarni vaqt bo'yicha birlashtirish, keyin kvantlash va kodlashdir. KODEK chiqishida olingan ikkilamchi signal liniya bo'yicha to'g'ri uzatish uchun noqulay bo'lganligi uchun liniyaga uzatishdan oldin o'zgarmas tashkil etuvchisi bo'lмаган impuls qutblari navbatma-navbat keluvchi (IKN) kodli signalga aylantiriladi. IKM-30 tizimida ko'proq qo'llaniladigan HQB-3 kodi sezilarli darajada IKM kodiga nisbatan regeneratorlarning ishlash sharoitini yengillashtiradi. Raqamli signalni uzatish jarayonida yuzaga keluvchi so'nishlar va buzilishni har bir regeneratsiya uchastkasida liniyaviy regeneratorlar bartaraf qiladi.

Qabul qiluvchi oxirgi qurilma teskari o'zgartirishlarni amalga oshiradi, ya'ni kodli kombinatsiyalar ketma-ketligidan diskretlar ketma-ketligini tiklaydi, ularni demodulyatsiyalaydi va mos TCH kanallar chiqishiga uzatadi.

IKM uzatish tizimlarining asosiy afzalliklari uzatilayotgan raqamli signallarning buzilishlarga bardoshliliqi va apparaturaning past qiymatligi hisoblanadi. Shu tufayli ularni shahar ATS lari va SHATS lari o'rtaqidagi liniyalarda, ya'ni kanallar sonining doimo ko'payishini talab qiluvchi va TCH kanallar qo'llaniladigan tarmoqlarda o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. IKM uzatish tizimlariga bo'lgan qiziqishning yana bir sababi IKM signallarining bevosita kommutatsiyalanishi imkoniyatidir. Bu stansiyalararo ularni zichlashtirishga ketadigan xarajatlarni kamaytirish va amalda integral aloqa tarmog'ini yaratish imkonini beradi.



I. I- rasm. IKM li birlamchi uratish tizimining tuzilishi.

Ko'rsatilgan afgallikkaldan tashqari IKM uzatish tizimlari yana bir qator ijobji sifatlarga ega, jumladan:

- ketma-ket regeneratsiya uchastkalarida hosil bo'luchchi raqamli liniya traktlarda shovqinlarni qoshish yuz bermaydi;
 - signal amplitudasi yarmidan kichik bo'lgan qiymatli xohlagan shovqin regenerator o'zida yo'qotiladi;
 - raqamli signalning shovqinga past sezgirligi o'tishlar ta'siridan himoyalanganligi bir necha o'n detsibel tartibida yo'l qo'yadi, bu esa o'z navbatida, simmetriyaga zaruriyat bo'Imagan holda past sifatlari kabel juftlarini qo'llanish imkonini beradi;
 - raqamli signal uzatilayotgan uzatish traktining so'nishlar o'zgarishini ham his qiladi, shu sababli TCH kanallarning qoldiq so'nishlarining katta barqarorligini olish mumkin. Natijada IKM uzatish tizimida qoldiq so'nishning kattaligini kanal barqarorligini ta'minlangan holda 2 detsibelgacha pasaytirish mumkin;
 - kanalning qoldiq so'nish chastotali tavsisi uzatish liniya tavsiflariga bog'liq emas;
 - IKM uzatish tizimlarini yaratish uchun katta aniqlik va elementlarning parametrлari barqarorligini talab qilmaydigan raqamli xemalar qo'llanilgan. Integral mikrosxemalar qo'llanilganda qurilmaning vazni va o'lechamlari kichrayadi va bir yo'la uning ishonchliligi ortadi;
 - IKM uzatish tizimi bitta TCH kanaliga bir necha signalizatsiya kanallari bilan jihozlanadi, shu tufayli ATS bilan ishlash uchun murakkab bo'Imagan va shuning uchun arzon elektron moslashtiruvchi qurilmalardan foydalanish mumkin;
 - IKM uzatish tizimida qo'llanilayotgan signal, ma'lumotlar uzatishda qo'llanilayotgan signal tuzilmasi bilan bir xil bo'lganligi sababli, ular uchun umumiyl trakt qo'llanish imkoniyati tug'iladi;
 - IKM uzatish tizimlarida qo'llaniladigan davrli sinxronizatsiya usullari, davrli sinxronizatsiyani ushlab turish va tiklash usuli hamda davr ichida davrli sinxrosignal simvollarini joylashtirish bo'yicha farqlanadi.
- Davrli sinxronizatsiyani ta'minlash usullaridan quyidagilar eng ko'p qo'llaniladi:
- bir takli siljitchish usuli, bunda davrli sinxronizmdan chiqish topilishi har biridan keyin qabul qiluvchi qurilmaning takli generatori bitta rakt intervaliga faza surilishi yuz beradi;
 - ko'p takli siljitchish usuli, bunda takli generator fazasini siljitchish kattaligi bir necha takli oraliqlarni tashkil etadi, bu degani, agar davrli sinxrosignalning n — pozitsiyasida sinxronizmdan chiqish aniqlansa, unda faza n — ta takli oraliqqa suriladi;
 - davrli (o'ta davr) sinxrosignalini aniqlashga va davrli sinxrosignal topilgan qabul qiluvchi qurilma generator qurilmasini mos pozitsiya

(fazaga) o'rnatishga asoslangan usul. Bu usulda kelayotgan impulslar ketima-ket tekshirishdan iborat bo'ladi. Tizim davrli sinxronizindan chiqqanida, davrli sinxrosignal topiladi va generator faza surilish bajariladi;

— o'z navbatida davrli sinxrosignalning simvollarini joylashtirish usullaridan kelib chiqqan holda sinxronizatsiyaning ikkita asosiy usuli farqlanadi;

— taqsimlangan simvollar (tarqatilgan sinxronizatsiyani) usuli, bunda sinxrosignalning simvollari davr ichida teng intervallarga bittadan joylashtirilgan;

— jamlangan simvollar usuli, bunda davrli sinxrosignalning simvollar davrning bitta joyida, masalan, birinchi kanal intervalida joylashadi.

Davrli sinxronizatsiya usulini tanlash yo'l qo'yilgan tiklanishning o'rtacha vaqt iqtisodiy muvofiqlik bilan aniqlanadi. Davrli sinxronizatsiya javob berishi kerak bo'lgan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

— nutq va boshqarish signallarini uzatishda buzilishlar vujudga kelmasligi uchun davrli sinxronizatsiyani tezda tiklash imkoniyati, bu talab, ayniqsa, IKM uzatish tuzilishining kanallari bo'yicha ma'lumotlarni uzatishda muhimdir;

— davrli sinxronizatsiyaning yuqori barqarorligi, ya'ni sinxrosignalndan liniya trakti kiritayotgan yakka tartibdagi xatolarni IKM tizimida qayd qilinmaydi va bir vaqtning o'zida davrli sinxronizmdan chiqishga yetarli darajada sezgir bo'lishi kerak;

— soxta davrli sinxrosignal bilan olingen davrli sinxronizmga kirishini aniqlash va qidirilayotgan sinxronizmni qidirib topish imkoniyati;

— ishning yuqori ishonchiligi.

Davrli sinxronizatsiya tizimlariga yuqorida keltirilgan talablar ichida qarama-qarshiliklar mavjud va davrli sinxronizatsiya usulini tanlash ba'zi kelishuvni oldindan belgilab beradi, masalan, davrli sinxronizatsiyani tiklash vaqt, sinxrosignal davomiyligi va qurilma bahosi o'rtasida. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinish turibdiki, raqamli uzatish tizimi qurilmasining parametrleridan biri — bu davrli sinxronizmni tiklash vaqtidir. Bu vaqt davrli sinxronizatsiya usulidan mustaqil ravishda uchta tashkil etuvchidan iborat:

t₁ — himoyaning boshlang'ich vaqt;

t₂ — davrli sinxronizatsiyani tiklash vaqt;

t₃ — himoyaning oxirini ko'rsatuvchi vaqt.

Izoh: t₁ — vaqt himoya sxemasini qo'llanish bilan asoslangan, shu tufayli davrli sinxronizatsiya tizimi davrli sinxrosignalndagi ayrim xatolarga sezgir emas. Bu xatolar kommutatsiya qurilma tomonidan o'tishlar ta'siri natijasida vujudga keladi, qisqa vaqt oralig'ida harakat qiladi va jamlangan xarakterga ega bo'ladi, davrli sinxronizatsiyadan haqiqiy chiqish bo'lganda kuzatilayotgan xatoliklar uzlusiz xarakterga ega bo'ladi.

Boshlang'ich himoya vaqtini aniqlash uchun asos bo'lib, jamlangan xatoliklar to'plamining davomiyligini statistik aniqlash hisoblanadi.

t2 – vaqt, bu davrli sinxronizmning tiklash jarayonini davomiyligidir. U davr sinxrosignalda qo'llaniladigan simvollar soniga va davrli sinxronizmni tiklash usuliga bog'liq.

t2 – vaqt, bu vaqt davomida davrli sinxronizmni tiklash jarayoni tugagandan so'ng tiklangan davrli sinxronizm haqiqiyligini tekshiradi. Bu vaqt shunday usul bilan tanlanadiki, unda yuzaga keladigan raqamli xatoliklar ehtimolligi juda ham kichik bo'lishi kerak va bir vaqtning o'zida davrli sinxronizmni tiklashni tekshirish mumkin bo'lsin.

IKM-30 impuls – kodli modulyatsiyali uzatishning zamonaviy birlamchi tizimlariga kiradi. U mahalliy va hududiy aloqa tarmoqlarining kabellari juftlarini zichlashtirish va telefon signallarini uzatish uchun mo'ljallangan. IKM-30 quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi:

1. Uzatish tezligi, Kbit /s	2048.
2. Davr davomiyligi, mks	125.
3. Davrdagi vaqt kanallar intervallarining soni	32.
4. Vaqt kanal intervalidagi simvollar soni	8.
5. TCH kanallar soni	30.
6. TCH kanal chastota diapazoni, Hz	300 – 3400.
7. O'ta davr davomiyligi, ms	2.
8. O'ta davrdagi davrlar soni	16.
9. Bitta TCH kanaldagi signal kanallari soni	2 – 4.
10. Diskretlash chastotasi, KHz	8.
11. Kvantlash qadami soni	256.
12. Kompressiya qonuni	A = 87,6.

$$13. \text{ Bitta vaqt kanalining davomiyligi: } \tau = \frac{T}{32} = 3,9 \text{ mks.}$$

$$14. \text{ Bitta kod elementining davomiyligi: } t = \frac{\tau}{8} = 0,49 \text{ mks.}$$

$$15. \text{ Kod elementining ketma-ketlik chastotasi } f = fg \cdot k \cdot n = 8 \cdot 32 \cdot 8 = 2048 \text{ kg.}$$

$$16. \text{ Bitta vaqt kanal tezligi } v = 64 \cdot 32 = 2048 \text{ Kbit/s.}$$


$$17. 32 ta kanal tezligi v = 64 \cdot 32 = 2048 \text{ Kbit/s.}$$

1.2- rasmda IKM-30 tiziminining davr va o'ta davr vaqt tuzilmasi ko'rsatilgan. IKM-30 tizimi davrinining vaqt tuzilmasi yetarli darajada murakkab bo'lganligi uchun uni ko'rib chiqamiz. IKM-30 tizimi davr davomiyligi 125 mks ga teng. Kanalli vaqt intervali 32 ta teng. Ulardan 30 tasi TCH kanallarni tashkil etishga qo'llaniladi. Kanal vaqt intervalida simvollar soni 8 ta. Bu simvollarning barchasi nutq signalini kodlash uchun qo'llaniladi. IKM-30 davrli vaqt tuzilmasining boshqa tashkil

488 NS davomiyligidagi bitta simvol
B

3,9 mks davomiylikdagi 8 simvoldan iborat bitta kanal vaqt intervali

B1 B2 B3 B4 B5 B6 B7 B8



I.2-rasm. 1KM-30 tizimi davr va o'ta davr vaqt tuzilmasi.

etuvchilarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro nomenklaturaga muvosiq «So» deb belgilangan birinchi kanal vaqt intervali, asosan, davrli sinxrosignalni uzatish uchun qo'llaniladi. Ko'rinish turibdiki, davrli sinxrosignal faqatgina juft davrlar R_0 , R_2 , $R_4 \dots R_{14}$ da bo'lishi mumkin.

R_1 , $R_3 \dots R_{15}$ bilan belgilangan toq davrlarda S_0 vaqt intervali maxsus qo'shimcha axborotni uzatish uchun mo'ljallangan.

Keyingi kanal vaqt intervallari $S_1 - S_{15}$ hamda $S_{17} - S_{31}$ intervallari TCH kanal (nutq kanal)larini tashkil etish uchun qo'llaniladi. R_0 davrning S_{16} kanal intervali o'ta davr sinxrosignalini V_1 , V_2 , V_3 , V_4 simvollar θ qiymati bilan uzatish uchun qo'llaniladi. O'ta davrni sinxronizmdan chiqqanligi to'g'risidagi axborot uzatish uchun esa V_6 simvoli, ya'ni Y qo'llaniladi. X_1 , X_2 , X_3 simvollar qo'shimcha axborot kanalini hosil qilish uchun qo'llaniladi, qolgan $R_1 - R_{15}$ davrda har bir TCH kanal uchun 2-4 gacha signal kanallari hosil qilinadi va a , b , s , d harflar mos ravishda TCH kanaliga biriktirilgan 4 ta signal kanallarining simvollarini ko'rsatadi. R_0 va R_1 dan R_{15} gacha qolgan 15 davrlar 2 ms davomiylikdagi o'ta davrni tashkil etadi.

Davrli sinxronizatsiya jarayonida vujudga kelgan sharoitlarga qarab quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

— IKM-30 tizimida «davrli sinxronizmdan» chiqish mezonı — bu sinxrosignalga ega bo'lgan uchta davr ketma-ketligidagi davrli sinxrosignalndagi xatolarni topish hisoblanadi. Davrli sinxronizmni tiklash mezoni bo'lib, quyidagilardan so'ng keladigan holat hisoblanadi:

- davrli sinxrosignalni topish ($n =$ davrda);
- navbatdagi davrda ($n+1 =$ davrda) davrli sinxrosignalning mavjud emasligini tekshirish;
- navbatdagi davrda ($n+2 =$ davrda) davrli sinxrosignalni topish.

Ikki yoki uchta ketma-ket davrdagi davrli sinxrosignallar topilganda sinxronizatsiya sxemasi (1.3- rasm) birinchi qabul qilingan sinxrosignalndan ikkita davr masofada davr sinxronizmini izlash jarayonini boshlaydi. Sxema xuddi shunga o'xshash ishni sinxrosignalni topganidan so'ng ikki davrdan keyin uni yana topmaganidek bajaradi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar davrli sinxronizmni tiklashga olib keluvchi davrli sinxronizatsiya sxemasi ishining har xil variantlarini ta'riflab, grafni tushunish uchun bilish zarur. 1.3- rasmida shu graf keltirilgan.


Davrli sinxronizmni izlashning eng qiziqarli hollariga quyidagilar kiradi:

1. A, A (td), a (jd).

2. A, A (td), A (jd).

A — davrli sinxrosignal;

A — davrli sinxrosignal yo'qligi;



1.3- rasm. Davrli sinxronizatsiya sxemasining ishlash grafi.

ikkala holda ham sinxronizmni izlash jarayoni «davrli sinxronizmdan chiqish» holatiga qaytadi. Yuqorida keltirilganlardan quyidagi xulosani chiqarish mumkin: birinchi topilgan davrni sinxrosignal soxta signal edi. Shu tufayli sxema birinchi qabul qilgan sinxrosignalidan ikkita davr masofada sinxronizatsiya holatini yangi izlashni boshlaydi, bu soxta davrli sinxrosignalni uzlusiz ajratishdan xoli bo'lish imkonini beradi. Graf sinxronlash sxemasi ishining «sinxronizm» va «davrli sinxronizmdan chiqish» oxirgi holatlari o'rtaсидаги барча mumkin bo'lgan holatlarni tasvirlaydi.

IKM-30 apparaturasi uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmadagi davrli sinxronizatsiya sxemasidan tashqari o'ta davrli sinxronizatsiya sxemasi bilan ta'minlangan. Bundan tashqari bu apparatura ma'lumotlarini uzatish qurilmasi bilan hamkorlikda ishlaydigan sxemaga ega bo'lishi mumkin, bu IKM-30 tizimi yordamida teleaxborot signallarini uzatish imkonini beradi.

Kompanderlash va analogli signallarni raqamliga hamda raqamlilarni analoglilarga o'zgartirish masalalarini yechish bu tizimda boshqa tizimlarga nisbatan o'zgacharoq amalga oshirilgan. Jumladan, IKM-30 tizimida liniyaviy kodlovchi qo'llanilgan, u har bir TCH kanalning diskretini 12 simvolli raqamli signaliga o'zgartiradi, bulardan birinchi simvolli diskretning ishorasini aniqlaydi, qolgan 11 tasi esa maksimal kattalikdagi darajalar $2^{11}=2048$ bilan kvantlangan amplitudani aniqlaydi. Kodlangan signal raqamli kompressorga keladi, u 12 simvolli kodli kombinatsiyalarni 8 simvollikka o'zgartiradi. O'xshash sxema bo'yicha bajarilgan qabul qiluvchi qismidagi diskovodga teskari jarayonni amalga oshiradi, ya'ni 8 simvolli kodli kombinatsiyalarni 11 simvollariga o'zgartiradi.

jd – just davr;
td – toq davr.

Bulardan birinchisi toq davr (td) da davrli sinxrosignalning topilganligini, ya'ni u joylashishi mumkin bo'lmagan joyda topilganligini bildiradi, shuningdek, yana davr sinxrosignalni just davrda (jd) topilganligi (sinxrosignalni to'g'ri joylashishini) anglatadi.

Ikkinchi hol birinchisidan shu bilan farq qiladiki, unda uchinchi qismida davrli sinxrosignal aniqlanmaydi, holbuki u o'sha yerda joylashgan bo'lishi kerak. Natijada

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

1.2. Sinxron va asinxron tarmoq

Raqamli kommutatsiya tizimida barcha stansiyalarning uskunalarini chastota va faza bo'yicha sinxronlashtirilgan bo'lishi kerak. Chunki hamma kommutatsiya tugunlarida vaqt bo'yicha bo'lingan kanallar bilan uzatish tizimi IKM ning sikl fazalariga aniq mos kelishi kerak. Bu maqsadni amalga oshirish uchun hamma uzatish tizimlari bir xil chastota bilan ishlashi va hamma yo'naliishlar bo'yicha aloqa liniyalaridan uzatilayotgan guruhli signalarni ushlab qolish yoki bir xil, yoki sikl davrining butun soniga ($t_3 = n \cdot T$) bo'linadigan bo'lishi kerak. Shunday qilib, raqamli kommutatsiya tizimida ikki turdag'i takt chastotasi bo'yicha va faza sinxronlash bajarilishi kerak.

O'zaro hamkorlikdagi ishlaydigan stansiyalarning takt generatorlari ham sinxron ishlashi kerak. Bir necha stansiyaga ega aloqa tarmoqlari ikki turda sinxronlashni amalga oshirishi mumkin: **sinxron va asinxron**.

Sinxron tarmoqda har bir kommutatsiya stansiyasida takt generatori o'rnatiladi. Bu generatorlarning ishechi chastotalari sinxronlash tufayli bir xil yoki bir-biriga maksimal yaqin bo'lishi kerak. Barcha kirib kelayotgan liniya traktlarining sikllari bir xil davomiylikka ega hamda ularning boshlanish vaqtini bir onda bo'lishi kerak.

Alovida stansiyalardagi takt generatorlarining sinxron ishlashi bitta markaziy generator – bosh generatorni qo'llanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu generator alovida stansiya generatorlarini sinxronlashtiradi. Bu sinxronlash tizimi soddaligi bilan ajralib turadi. Lekin tarmoqda ko'p stansiya bo'lsa, bu usulni qo'llab bo'lmaydi.

O'zaro sinxronlash usuli mavjud. O'zaro sinxronlash tizimi alovida stansiyalardagi generatorlarning teng huquqligini bilan xarakterlanadi. Alovida kommutatsiya tugunlaridagi generatorlarni sinxronlash uchun qo'llaniladigan umumiy chastota, tarmoqdagi hamma generatorlar chastotasining o'rta qiymatiga teng. Shu o'rta qiymat yordamida generatorlar chastotasi to'g'rilanadi.

Asinxron tarmoqda har bir stansiya shaxsiy generatorga ega. Har bir stansiya uchun bog'liq bo'lman holda generatorga chastota belgilanadi. Bu holda har xil stansiyalar generatorlarining chastotasi bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunday tarmoqda har bir stansiyaga aloqa o'rnatishda signal qaysi stansiyadan uzatilganiga bog'liq ravishda raqamli signalning uzatish tezligi aniqlanadi. Bu stansiyada kommutatsiya sikli xotira qurilmasi (XQ) va bog'lovchi liniya terminallari yordamida bajariladi. XQ yordamida sinxronlash bajariladi. Har bir liniyaviy trakti uchun alovida sinxronlash bajariladi.

IKM-30 tizimida sikl 0 va 16- kanallar bilan ikkita qismiga ajralgan. Bu 0 va 16- kanallar kommutatsiyaga taalluqli bo'lman axborotiga ega. 16- kanal signallash uchun, 0- kanal esa sinxronlash uchun

qo'llanilgan. Liniyaviy traktdan uzatilayotgan raqamli signal siklning buferli xotira qurilmasiga yoziladi. Bunga 0 va 16- kanalning axboroti yozilmaydi. Bu kanal axborotlari ajratib olinib, sinxronlash va signallash qurilmalariga berildi. Sinxronlashning yo'qligi, kirgan raqamli signalning takt chastotasi stansiya generatori chastotasidan farqlanishi bilan aniqlanadi. Bundan tashqari kanalning kodli kombinatsiyasining boshlanishi turli vaqt daqiqasida paydo bo'lishi mumkin. Agar kelayotgan raqamli signalning takt chastotasi stansiyaning mahalliy generatorining chastotasidan kichik bo'lsa, unda mahalliy generator siki deb belgilangan oraliq vaqtida uzatish tizimi siklining faqat bir qismini tashkil qiluvchi simvollarning guruhini qabul qiladi. Agar kelayotgan raqamli signalning takt chastotasi mahalliy generator chastotasidan katta bo'lsa, unda mahalliy generator siki deb belgilagan vaqlari oraliqda bitta uzatish tizimi siklida bo'lган simvollaridan ko'п simvollarni qabul qiladi.


Xotira qurilmasiga yozish mazkur stansiya mahalliy generatori chastotasi asosida bajariladi. Shuning uchun oldingi ko'rilgan holat uchun sikldagi simvollar kam yoki ko'п bo'ladi.

Sinxronlashtirishning boshqa usullari ham bor. Liniya signalidan ajratilib olinadigan doimiy signal yordamida uyg'onadigan shaxsiy generatorni qo'llanish mumkin. Shu generator chastotasi yordamida kanal intervali va liniya traktining siki adresini sinxron aniqlovchi hisoblash qurilmasi yordamida aniqlash mumkin. Bundan tashqari kommutatsiya tizimiga axborotni o'tkazish uchun kanal intervali adresini aniqlovchi shaxsiy hisoblash qurilmasini qo'llanish mumkin. Ko'rsatilgan hisoblash qurilmalarining o'zaro bog'liqligi yo'li bilan sinxronlash bajariladi.

Sinxronlashtirish raqamli kanallarning razryadi (ketma-ket) va har bir guruhli traktdagi siki bo'yicha guruhli signalndagi axborotni ajratib olish yo'li bilan bajariladi. Simvol bo'yicha sinxronlashtirish guruhli signaldan asosiy takt chastotasini ajratib olish bilan bajariladi. Siki bo'yicha sinxronlash sikldagi kanal intervalining sonini ko'rsatuvchi axborotni ajratib olish bilan bajariladi. Sinxronlash uchun kerak bo'lган axborot ikki uslubda ajratib olinishi mumkin: *i* yo'nalish bo'yicha yoki yo'nalishga teskari. Yo'nalish bo'yicha uslub sxemasi sodda, lekin xarakteristikasi ikkinchi uslubdan yomon. Ikkinci uslubda faol funksiyalar bajariladi. Masalan, teskari aloqa. Yo'nalish bo'yicha uslub sodda va tejamliligi uchun regeneratorlarda simvol bo'yicha sinxronlashtirish qo'llaniladi.

Oxirgi jihozlarda sifatlari simvol va siki bo'yicha sinxronlashtirish uchun yo'nalishga qarshi uslub qo'llaniladi. 1.4- rasmida simvol bo'yicha sinxronlashtirish strukturaviy sxemasi ko'rsatilgan.

Yo'nalish bo'yicha sinxronlashtirish sxemasida (q) tebranish konturi (TK) bor. Bu kontur takt chastotasiga to'g'rilangan. Ajratilgan signallar



1.4- rasm. Siyval bo'yicha sinxronlashtirish strukturaviy sxemasi.


impulslarni shakllantiruvchiga ish yuboradi. ISH takt impulslarini zarur shaklda berishini ta'minlaydi.

Yo'nalishga teskari sinxronlashtirish sxemasida (b) TK va ISH orasiga faza bo'yicha moslashtirish qurilmasi FMK (ustroystvo fazovoyi podstroyki) ulangan. FMK faza komparatoridan FK, filtrdan F va o'zgaruvchan chastotali generatorlardan (O'CHG) iborat. O'CHG ni teskari aloqasi yordamida tushayotgan impuls va O'CHG ishlab chiqayotgan impuls orasidagi fazalar farqi minimumga tushirilgan.

Sxema kirishiga ulangan signal shaklini o'zgartiruvchi (SSHO') liniya signalingining shaklini o'zgartiradi. Masalan: liniyali bipolyarli signalni bir polyarli signalga o'zgartiradi. Bu ikki yarim davrli to'g'rilagich yordamida bajariladi. Yo'nalish bo'yicha va yo'nalishga teskari sikl sinxronlashtirish tamoyili 1.5- rasmida ko'rsatilgan. Sikl sinxronlashtirishi har bir siki boshida beriladigan, oldindan ajratilgan kodli kombinatsiyani bir kanalda q'llanishga asoslangan.

Surish registri (SR) ega bo'lgan kirish kombinatsiyasi solishtirish qurilmasidagi (SQ) sinxronlash kombinatsiyasi bilan taqqoslanadi. Bu kombinatsiya sinxronlash kombinatsiyasi xotirasida saqlanadi. Qabul qilingan kombinatsiya oldindan belgilangan sikl sinxronlash mos tushganida kanal intervalini taqsimlovchi (KIT) ishni boshlaydi. KIT kanallarni identifikatsiya qiladi.

Solishtirish qurilmasi chiqishida sinxronlashtirishni ishga tushiruvechi signalni kelmaguncha KIT ishlamaydi. Ikkinci uslub barqarorroq



1.5- rasm. Yo'nalish bo'yicha va yo'nalishga teskari sikl sinxronlashtirishi.

sinxronlashtirishni ta'minlaydi. Mos kelish sxemasi va kanallarni taqqoslovchi orasida qo'shimcha himoya sxemasi kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi, mos kelish sxemasi o'z ichiga SR, SQ oladi. Himoya sxemasi kanallarni taqsimlovchi signalning noto'g'ri ishlashining oldini oladi. Agar sinxrosignal buzilsa yoki uzatishda buzilish bo'lsa, KT noto'g'ri ishlashi mumkin. Agar axborotlar ketma-ketligida tasodisan sikl sinxronlash kombinatsiyasi paydo bo'lsa, u sinxrosignalning buzilishiga olib kelishi mumkin. Mos tushmaganliklarini hisoblash yo'li bilan himoyalash amalga oshiriladi. Ularning soni belgilangan qiymatga yetganida qayta sinxronlash boshlanadi.

1.3. Signalizatsiya. Chiziqli va registrli signalizatsiya.

Raqamli tizimlarda ko'p chastotali signalizatsiya.


Ajratilgan kanal bo'yicha chiziqli signalizatsiya.

Registrli signalizatsiya: umumkanal signalizatsiyasi

CCS – №7 (7- sonli UKS)

Signalizatsiya – bu tarmoqdag'i foydalanuvchilar orasidagi ulashni hosil qilish, qo'llash va uzishni boshqarish uchun kerak bo'lgan axborotlar bilan ikkita tarmoq elementlari orasidagi axborot almashinushi. Abonent va stansiyalararo signalizatsiya mavjud. Abonent signalizatsiyasi oddiy mulolajalardan iborat: «Men aloqa olishni xohlayman» bildiruvchi harakat mikrotelefon go'shangini ko'tardi yoki tugmani bosdi; akustik signallarni uzatish; abonent raqam terdi; u tergan raqamga xizmat ko'rsatmaydi, ISDN signalizatsiyasi va hokazolarni bildiruvchi e'lolnarni abonent eshitishi. Buni User- Network Interface (UNI) interfeysida, ya'ni abonentni ulash tarmog'ida signalizatsiya deb atash mumkin. UNI interfeysidagi keng tarqalgan signalizatsiya nomerini impulsli terish va quyi chastotali terish DTMF deb atash mumkin. Bu interfeysning zamonaviy misoli ISDN ni asosiy ulash imkonisi, ya'ni 2V+D tezligi 144 Kbit/s. Bunda ikki axborot *V* kanalga umumiyl bo'lgan *D* signal kanal xizmat ko'rsatadi.

Stansiyalararo signalizatsiya, ya'ni Network-to –Network Interface (NNI) interfeysida signalizatsiyaga misol bo'lib, ikkita ajratilgan kanal bo'yicha signalizatsiyasi 2 AKS, «6 dan 2» kodli ko'p chastotali signalizatsiyasi 7 sonli signalizatsiya tizimi 7- sonli UKS va boshqalar hisoblanadi. 1.6- rasmda kanallar kommutatsiyasi bilan tarmoqda ulash o'rnatishga misol soddalashtirilgan ssenaruysi ko'rsatilgan. Stansiyalararo signalizatsiya tarmoqdag'i bir necha tugun va stansiyalarni ulash uchun kerak. Bunda bitta ulashni tashkil etish ko'pgina turli signalizatsiya tizimlari qo'llaniladi. Chaqiriqqa xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan signalizatsiya axboroti xalqaro va milliy tarmoqlarning turli tugunlar va stansiyalari o'rtasida yuzlab signalizatsiya axborotlarini ko'chiradi.



1.6- rasm. Ulanish o'rnatishning soddalashtirilgan ssenariysi.

Kerakli ularshni tashkil qilish tadbirida qatnashgan elektromexanik ATS ning liniyaviy komplektlari elektr signallari bilan almashganligi tutayli «signalizatsiya» so'zining dastlabki ma'nosiga hozirgiga qaraganda o'sha davrda juda yaqin bo'lган. Umumiy holda stansiyalararo signalizatsiya ulanishni tasvirlab berishning quyidagi aspektortari bilan bog'langan: birinchidan, stansiya telefon raqamini yoki juda bo'limiganda kerakli qismini qabul qilishi lozim, shu raqam yordamida yoki ularsh o'tishi kerak bo'lган kommutatsiya tugunlari va stansiyalar zanjiridan keyingi ATS ga adres axborotini o'tkazadi; ikkinchidan, stansiya kerakli aloqa kanalini tanlashi kerak va zanjirdagi keyingi stansiyaga aynan qanday kanalni tanlagan xabarlar; uchinchidan, stansiyalar davriy ravishda **bu** qo'llanilayotgan aloqa kanalini tekshirib turishi va nihoyat, **to'rtinchidan**, aloqa tugashi bilan kanalni bo'shatishi kerak. Barcha bosqichlarda stansiya (tugunlari)ning ishini qo'llab turish nehum ular o'rtasida mos axborot almashinuv zarur bo'ladi. Bu almashinuv **stansiyalararo signalizatsiya** deyiladi.

15733C

Zamonaviy stansiyalararo bayonnomalari oddiy signalizatsiya tizimidan hanuzgacha matnlakatimiz umumiy foydalanishdagi telefon tarmoqlarida (UFTT) samarali ishlab kelmoqda.

Stansiyalararo signalizatsiya tizimining evolyutsiyasiga quyidagi uch bosqichni ajratish mumkin:

- impulsli signalizatsiya;
- ko'p chastotali signalizatsiya;
- umumkanal signalizatsiya.

Birinchi ikkita signalizatsiya turlari shu kunga qadar butunjahon UFTT ning uchdan ikki qismi ATS larning o'zaro hamkorlik vositasи bo'lib xizmat qilmoqda.

Stansiyalararo signalizatsiya evolyutsiyasining oxirgi uchinchi bosqichi kommutatsiya tuguni dasturiy boshqarish kiritilishi bilan bir vaqtda boshlanadi.

Elektr signallari ketma-ketligidan tashkil topgan signalizatsiya ko'p sonli telefon kanallariga tegishli bo'lган ma'lumotlari o'rnashishiga bo'yicha uzatish bayonnomasiga aylandi va shundan, **"FARHOD" MS KUTUBXONASI**


«umumkanal signalizatsiyasi» nomi yuzaga keldi. 7- sonli umumkanal signalizatsiya tizimi XX asrning telekommunikatsiya 10 yilligida to'la ravishda o'zgarishlarga mos kelar edi. Ularga ISDN tarmog'ining yuzaga kelishi, tarmoqning xizmatlarini kiritish, mobil aloqa xizmatlari va hokazolar kiradi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib quyidagi ta'riflarni berish mumkin. Signalizatsiya – bu tarmoq elementlari o'rtaSIDA xizmat axboroti bilan almashinuv bo'lib, uning asosida tarmoq o'zining abonentlariga ko'rsatadigan xizmatlariga qo'llaniladigan bog'lanishlarni yaratadi, kuzatish va tuzatishni ta'minlaydi. Shu bilan birga shuni aytilb o'tish kerakki, kanallar kommutatsiyasi tarmog'ida (xususan, telefon tarmog'i shunday tarmoqdir) ularash tashkil etishda ishtirok etgan tarmoq resurslari aloqa xizmatidan foydalanishning hamma vaqtida kanallarga biriktirilib qo'yiladi va boshqa ularishlarda qo'llanilishi mumkin emas. Kanallar kommutatsiyali tarmoqlar uchun signalizatsiya tizimlarini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlarni uzatish 70- yillar boshida paydo bo'lgan edi va bunda «sukunat» davrlari bilan aralashib ketadigan qisqa paketlar ko'rinishida foydalanuvchilarga axborot uzatiladi. Bitta axborot oqimining paketlari orasidagi pauzalarni boshqa axborot oqimlarining paketlarini uzatish uchun qo'llanish mumkin bo'lganligi uchun aynan bitta tarmoq resurslarini biror-bir bitta oqimni mavjud bo'lishi davrida, faqat unga berib qo'yish zaruriyati yo'q. Bunday tarmoq sifatida internet tarmog'ini keltirish mumkin. Uning imkoniyatini IP- telefoniya texnologiyasida qo'llanilgan. Aloqa tarmoqlarida signalizatsiya tizimining qo'llanish tamoyillari shu tarmoqdagi tugunlar va stansiyalarda chaqiriqqa xizmat ko'rsatishning kommutatsiya hamda boshqarish tamoyillariga, stansiyalararo ulovchi liniyalarni tashkil etuvechi texnik vositalarga bog'liq.

- a) bevosita telefon kanali bo'yicha signalizatsiya (1.7- a rasm);
- b) ajratilgan signalli kanal (ASK) bo'yicha signalizatsiya (1.7- b rasm);
- d) 7 sonli umumkanal signalizatsiyasi (1.8- a rasm);
- e) N323 MG CP yoki SIP turidagi IP- telefoniya signalizatsiyasi (1.8- b rasm).


Dastur bilan boshqaruvchi raqamlı ATS lar paydo bo'lguniga qadar, barcha signallar nutq uzatilgan trakt bo'yicha uzatilar edi. Bu usul **ichki kanalli signalizatsiya** deb yuritiladi (in- band). Telefon kanali bo'yicha o'zgarmas tok, tonal chastotalar toki ko'rinishida signallar uzatilishi mumkin. Stansiyalararo ularash liniyalari rivojlangani sari ASK bo'yicha signalizatsiya usuli tarqaldi. So'zlashuv kanali bilan his etish bu usulning inglizcha Channel associ ated signaling (CAS) nomi bilan yaxshi aks ettirilgan.




1.7- rasm. Signalizatsiya.

- a – bevosita telefon kanali bo'yicha;
 b – ajratilgan signalli kanal bo'yicha (ASK).

Ajratilgan signalli kanallar bo'lib, 1KM traktining 16 vaqt kanalidagi ma'lum bitlar yoki 3825 Hz va boshqa chastotali «So'zlashuv» spektridan tashqaridagi ajratilgan chastota kanali bo'lishi mumkin. Lekin istalgan variantda ham signalizatsiyaniing «So'zlashuv» kanah bilan bevosita bog'liq bunday qo'llanishi stansiyalararo ularash liniyalarni qo'llanishi samaradorligi yetarlicha bo'lmaydi. Chaqiruv tushganda kerakli kanallar «So'zlashuv» boshlanguncha oldindan barcha tarmoq bo'yicha band qilinadi. «So'zlashuv»dan oldin bu kanallar orqali nomer raqamlarini uzatish va chaqirilayotgan abonentga «Chaqiriq» signalini uzatadi. Shu bilan birga turli bahonalarga ko'ra «Chaqiriq»larning 20÷35% abonent bandligi, tarmoqning o'ta zichlanishi yoki abonent «Chaqiriq»ga javoh bermasligi tufayli «So'zlashuv» bilan tugamaydi. Shunday qilib, roydal axborotni uzatish uchun qo'llanishi muunkin bo'ladigan kanallar, sh. jumladan, tugallanmagan ularishlarda ham signalizatsiya uchun ishlitildi.



a)



b)

1.8- rasm. Signalizatsiya: a — umumkanal; b — IP- telefoniya.

Umumkanal stansiyalararo signalizatsiya telefon tarmog'iga ustma-ust joylashganday, umumiylar signalizatsiya tarmog'i asosida amalga oshiriladi. Telefon kanallari tarmog'idan alohida UKS tarmog'inining signalizatsiya uchun qo'llanilishi, ularni unumsiz band qilinishini bartaraf etadi va abonentlarga yangi, yanada rivojlangan xizmatlar ko'rsatilishi imkoniyatlarini ochadi. Signalizatsiyaning uch tamoyilini mayjudligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri, ATS lardagi chaqiriqqa xizmat ko'rsatishni boshqarish tamoyili bilan bog'liq u yoki bu ATS qo'llaydigan signalizatsiya tizimini o'zaro aloqasi bilan shartlanishi orqali hisoblanadi.

Birinchi sind signalizatsiya tizimi DQ-ATS bilan bevosita boshqarish tamoyilini amalga oshiruvchi assotsiatsiya qiladi. O'zgarmas tok bilan telefon kanalidan signallarni uzatish galvanik, shleyfli yoki batareyali usulda amalga oshirilishi mumkin. Batareyali usulda signallar «a», «v» yoki «s» similari bo'yiga ATS ning stansiya batareyasini va teskari sim sifatida yerni qo'llanib uzatiladi.

Ikkinchi sind signalizatsiya tizimi vositali boshqarishni amalga oshiruvchi K-ATS bilan assotsiatsiyalanadi. Signal axboroti so'zlashuv

o'tgan yo'ldan uzatiladi, lekin stansiya ichida ular ajratiladi. Bu yerda o'zgaruvchan tokli signalizatsiyaning har xil usullari qo'llaniladi.

Ajratilgan signalli kanal bo'yicha signalizatsiya

Telefonli signalizatsiya 1890- yil Kanzas-sitilik Almond Stroudjer tomonidan ixtiro qilgan ATS tarkibiy qismida yuzaga keldi. Bu ATS impulsli to'plam ko'rinishida telefon nomerini qabul qila olar edi. Keyingi yuz yil davomida signalizatsiya tizimining rivojlanishi kommutatsiya qurilma taraqqiyoti bilan birga yuz berdi. 1890—1976- yillar ichida barcha signalizatsiya tizimlari quyidagi umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- ular oddiy telefon xizmatlariga mo'ljallangan edi (POTS-Plain Old Telephone);
- ular faqat ikkita terminal orasida ularshni yaratish va uzishni ta'minlagan edi;
- ular signallarni yoki nutq uzatilgan kanal (fizik liniya) bo'yicha, yoki belgilangan so'zlashuv kanaliga biriktirilgan ASK bo'yicha uzatishini ko'zda tutgan. Demak, «So'zlashuv» va «Signal» kanallari orasida o'zaroma'nodosh moslik bor.

ASK bu stansiyalararo uzatish traktining resursi bo'lib (analog uzatish tizimidagi chastota yoki tizimidagi vaqt intervali), mazkur uzatish traktining ma'lum «So'zlashuv» kanali bilan assotsiyatsiyalanadi. Raqamli ikki uzatish tizimlarida nazariy jihatdan har bir nutq kanal uchun bittadan to'rttagacha ASK ni tashkil etish imkonи bor. Amalda esa signalizatsiya bitta (1ASK) yoki ikkita (2ASK) ajratilgan signalli kanal signalizatsiyasi uchun qo'llaniladi. IKM-15 tizimida (1024 Kbit/s) ASK da signalizatsiya uchun nolinchi kanal intervalining («O»KI)1, 2 bitlari qo'llanilishi mumkin. IKM-30 tizimida (2048 Kbit/s) o'n oltinchi kanal intervalining 0,1 bitlari 1/15 «So'zlashuv» kanallari uchun, 4,5 bitlari esa 17/31 so'zlashuv kanallari uchun signal axborotlarini uzatish mumkin. Chastotali ajratilgan kanallli uzatish tizimlarida «So'zlashuv» spektridan tashqaridagi chastotada, masalan, 3825 Hz yoki 4000 Hz chastotada bitta ASK tashkil etish imkonи bor. Ikkinchи ASK ning «So'zlashuv» spektridagi, masalan, 2000 Hz chastotada tashkil qilish mumkin.

ASK bo'yicha signalizatsiya tizimiga quyidagi bayonnomalarining tashkili: ikki tomonlama qo'llaniladigan universal ularsh limiyalari (UL) uchun 1ASK signalizatsiyali (induktiv kod); UL va UL shaharlarga bog'lamlari bilan tashkil etilgan bir tomonlama UL uchun 1 ASK signalizatsiyasi («Norka» kodi); UL va UL shaharlararo aloqati bog'lamlari bilan bir tomonlama UL uchun 2 ASK signalizatsiyasi; ikki tomonlama qo'llaniladigan universal UL uchun 2 ASK. Induktiv kod qishloq tarmoqlarida qo'llaniladi. Bu tarmoqning OS-TS va OS—MS

qismlarida liniyaviy qurilmalarning juda qimmat bo'lganligi tufayli ikki tomonlama rejimda mahalliy va shaharlararo UL larning (universal UL) umumiy bog'lamlarini qo'llanish tavsiya etiladi. I ASK signalizatsiya («Norka» kodi) shahar telefon tarmog'i hamda qishloq telefon tarmoqlarining OS-TS, OS-MS, TS-TATS, RATS-ShATS qismlarida ulash o'rnatishda qo'llaniladi. Ikki tomonlama qo'llaniladigan universal UL lar uchun 2ASK signalizatsiyasi qishloq telefon tarmog'ining OS-TS, TS-MS qismlarida qo'llaniladi. UL larning stansiya komplektlari turiga qarab bu bayonnomma ikkita usulda amalga oshiriladi.

Birinchi usul: ASK yo analog uzatish tizimlarida «So'zlashuv» spektridan tashqaridagi chastotada raqamli uzatish tizimining nolinchi yoki birinchi kanal intervalida, 2 ASK esa «So'zlashuv» kanalining 2600 Hz chastotasida tashkil etiladi.

Ikkinci usul ikkala signal kanal raqamli uzatish tiziuning nolinchi yoki o'n oltinchi kanallni intervalida tashkil etiladi.

Ko'p chastotali signalizatsiya

Yuqorida ko'rilgan dekadali terish bilan 2 ASK signalizatsiyasi stansiya qurilmalarni samarasiz band etish uchun qo'shimcha ulash o'rnatish jarayonini sekinlashtiradi.

U o'z ichiga bitta ATS dan ikkinchisiga nomerni translatsiya qilish va A abonentni B abonent bilan aloqa olishining kutish vaqtini oladi. Butundan shu vaqt davomida abonentlar o'rtasida «So'zlashuv» boshlangunga qadar aloqa tarmog'ining xizmatlariga to'lovlar yozilmaydi, bu esa afsuski, abonentlarning qimmat tarmoq resurslaridan foydalanganliklari uchun tegishli korxona foyda ko'rmaydi. Bundan tashqari signalizatsiyaning bunday «sekin ishlashi»ni abonentlar sezishadi va ranjiyidilar.

Ko'p chastotali signalizatsiya bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi. Unda qo'llaniladigan signalli kodlarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholashadi: mumkin bo'lgan kodli kombinatsiyalar soni; kodli kombinatsiyani uzatish vaqtini; turli xildagi liniyalar bo'yicha signalarni uzatish imkoniyati (fizik va zichtashtirilgan analogli yoki raqamli uzatish tiziimlari); uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalarning murakkabligi; xalaqit bardoshliligi; xatolarni aniqlash to'g'rilashga ishonchtlilik va qobilligi.

Ko'p chastotali kodning har bir kombinatsiyasi ikki yoki undan ortiq elementar signallardan iborat bo'sib, turli chastotalarga ega; ko'proq «m dan» turidagi ko'p chastotali kodlar qo'llaniladi (K ATS da «5 dan 2» va «6 dan 2» kodlar qo'llaniladi). Ularda elementar signallarni shakllantirish uchun «m» ma'lumi chastotalar qo'llaniladi. Bunday turdag'i ko'p chastotali kodlarda har bir kodli kombinatsiyani shakllantirish birikmalar soni bilan aniqlanadi:


$$C_m^n = \frac{m}{n : (m - n)}.$$

Xususan «5 dan 2» kodi uchun $C_5^2 = \frac{5 : 4}{2 : (5 - 2)} = 10$

«6 dan 2» kodi uchun $C_6^2 = \frac{6 : 5}{2 : (6 - 2)} = 15$.

Har bir kombinatsiya aynan bir xil sondagi chastotalardan iborat bo'lgani uchun kodning xalaqit bardoshliligi yaxshilanadi. Bu kodlar o'z-o'zini tekshiruvchi kodlarga kiradi, chunki ular unga murakkab bo'lmasligi, ikkitadan ortiq chastotalarning mavjudligi). Zaruriyat tug'ilsu, xatolik bilan qabul qilingan kombinatsiyani qayta uzatishni so'rash mumkin. Bu uzatish ishonchhliligini oshirish imkonini beradi. Ko'p chastotali kodda «So'zlashuv» chastotalar qo'llaniladi va shuning uchun bu kod zichlashtirilgan liniyalar bo'yicha signallarni uzatish uchun $f_1=700$; $f_2=900$; $f_3=1100$; $f_4=1300$; $f_5=1500$; $f_6=1700$ Hz chastotali qo'llanilgan ($0,1,2,4,7$ va 11 indekslar shunday tanlanadigan har bir kombinatsiyadagi ularning yig'indisi shu kombinatsiyani bildiradigan raqamni berishi kerak bo'ladi, 0 raqami bundan mustasno). 1.9- rasmida ko'rsatilgan kodli kombinatsiyalarni uzatish usuli «impulslari» to'quv matosining to'g'ri va teskari harakatlarini eslatadi va quyidagi tarzda yuz beradi. Chaqirayotgan qurilma (masalan, markyor)ga ulash va axborot uzatishga tayyor ekanligi to'g'risida axborot beradi.

Markyor «So'rov» signalini yuboradi va unga javoban registr axborotning ma'lum bir qismini uzatadi. So'ngra markyordan yana «So'rov» signali keladi (yoki qabulni tasdiqlovchi signal), registr axborotning navbatdagi qismini uzatadi va hokazo. Butun axborotni uzatib registr bo'shaydi. Bunday usulda axborot ishonchhliligi ortadi, lekin uni uzatish vaqt ham ortadi. Bu usul murakkab tuzilmalijarmoqda qo'llaniladi.



1.9- rasm «Impuls moki» umumi registr signalizatsiyasi.

U registrda yig'ilgan axborotni turlicha uzatish imkonini beradi. So'rovning turiga qarab registr nomerining birinchi yoki keyingi raqamini yoki takror raqamni uzatish hamda signallarni uzatishni bir usullikdan ikkinchisiga o'tishi mumkin. 1.9- rasmdan ko'rinish turibdiki, signallar bilan almashinuv teskari yo'nalishdagi signaldan boshlanadi. Teskari yo'nalishdagi deyarli har bir signalga to'g'ri yo'nalishdagi javob signallari to'g'ri keladi. Signal davomiyligi 45 ± 5 ms ni tashkil etadi, qabul va uzatish orasidagi interval 60 ms dan kam emas. Navbatdagi signalni kutish kiruvchi ATS uchun 200–250 ms, chiquvchi esa $3,5 \pm 4$ s. Registr signallarini uzatish uchun «impulsli moki» usulidan tashqari «impulsli paket» usullari qo'llaniladi. Ular yig'ilgan axborotni katta tezlikda uzatish zarur bo'lganda qo'llaniladi, bu, odatda, mahalliy ATS va SHATS o'zaro hamkorlikda talab qilinadi. Quyidagi 1.1- jadvalda SHATS dan uzatiladigan signal tarkibi ko'rsatilgan. Signallarni «impuls paketi» usuli bilan uzatishda, yig'ilgan kodli kombinatsiyalar bitta buyruq bo'yicha birin-ketin qabul qilish qurilmasi navbatdagi kombinatsiyani qabul qilishga to'g'rilanishga zarur bo'lgan interval bilan uzatiladi. Signallar bilan almashinuvda quyidagi vaqt oraliqlari qo'llaniladi:

$T_1 = 50 \pm 5$ ms – uzatilayotgan paketdagi impuls va pauzalar, ular o'rtasidagi davomiylik;

$T_2 = 10S$ – band etishning tasdiqlash signali olingandan keyin SHATS dan so'rovni ATS da kutish vaqt;

$T_3 = 3 S$ – paket uzatilgandan so'ng teskari signalni kutish vaqt.

1.1- jadval

SHATS dan uzatilayotgan signallar

T/r	Chastotali signal, Hz	Mazmuni	
1.	700–1100	Axborotni uzatishni so'rovi	Davomiyligi 70 ± 100 ms. Tanish vaqt 30 ms.
2.	700+1700	Nomer to'g'ri qabul qilindi	
3.	1100+1300	Nomer noto'g'ri qabul qilindi	

Har xil turdag'i chaqiriqlarda paket tarkibi 1.2- jadvalda keltirilgan.

1.2- jadval

Chaqiriqlar turi va impuls paketi tarkibi

Shaharlараро чагириқ	AVSavxxxx Ка defxxxx «11» (19 рақам)
Ionki mintaqaviy chaqiriq	«2» avsxxxx Ка defxxxx «11» (17 рақам)
Xalqaro chaqiriq	«8»–«10» n1...ni Ка defxxxx «11» (19–26 рақамлар) (0–0)
Xalqaro kommutator chaqiriq	«8»–«9» L Ка defxxxx «11» (12 рақам) («0»)

Chaqirayotgan abonent nomerini Identifikasiya bilan shaharlararo kommutatordan chaqiriq	«8» S Ka defxxxx «11» (11 raqam) (``0``)
Chaqirayotgan abonent nomerini Identifikasiysi bilan shaharlararo kommutatordan chaqiriq	«8» S «11» (9 raqam) («0»)

«Intervalsiz impuls paketi» usuli mahalliy stansiyadagi abonent liniya nomerlarini avtomatik aniqlaydigan apparatura (ANAA) ish jarayonida qo'llaniladi. Bunda ATS va SHATS o'rtasida chaqirayotgan abonent liniya nomeri va yig'ilgan signal axboroti ANAA yordamida «intervalsiz impuls paketi» usulida uzatiladi. Bu esa uzatish vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi. Qabul qilish tomonida kod kombinatsiyalarini ajratish, tashkil etuvchi chastotalarning o'zgarishini topishga asoslanadi. Agar uzatilayotgan raqamlar ketma-ketligida ikkita yoki bir necha raqamlar ketma-ket bir xil bo'lsa, bir xil raqamlarning justlari «Torlan» signali bilan almashtiriladi. Umumiy foydalanishdagi telefon tarmoqlarining istalgan ATS, birinchidan, o'ziga ulangan chaqirilayotgan abonent liniya nomeri va kategoriyasini aniqlashni bilish kerak, bu chaqirayotgan tomon so'rovi bo'yicha bu axborotni uzatish imkoniyatiga ega bo'lish uchun qilinadi va ikkinchidan, qarama-qarshi stansiyadan SHATS dan yoki maxsus xizmat tugunidan (MXT) yoki chaqiriqnı taqsimlash bosqichidan shunga o'xshash axborotni so'rash va qabul qilishni «bilish» kerak.

MXT olgan axboroti asosida xizmat to'lovlarini yozadi hamda she xizmatdan foydalanishga abonentning huquqini aniqlaydi.

ATS ANAA dan pastdan qilingan chaqiriqning manbasini aniqlash uchun foydalaniлади. ATS ANAA dan axborotni ularsh o'rnatishning quyidagi bosqichlarida so'rab olishi mumkin: ularsh liniya band etilgandan so'ng (SHATS ga aloqa o'rnatilayotganda), javob kutilganda: chaqirilayotgan abonent javobida; so'zlashuv vaqtida.

ANAA ga 500 Hz signal 10±400 ms dan keyin «Javob» signalidan keyin tushinish mumkin. Ikkita so'rov orasidagi minimal vaqt 0,3±0,05 s tashkil etadi. SHATS aloqada minimal vaqt 1,2±0,1 s so'rovlarning maksimal soni 3 ta.

Bitta paketda 13 ta raqam bo'lishi mumkin. Paket ichida raqamlarning kelish ketma-ketligi: uzatish boshi; abonent kategoriya raqami; nomerning birlik raqami; o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik, yuz minglik, million raqamlari, uzatish boshi. Agar mahalliy telefon tarmog'ida 5,6 raqamli nomerlash qo'llanilgan bo'lsa, 7 raqamli bo'lguncha oldiga 2 yoki 0 yoki av tizimli tarmoq indeksi qo'shiladi. Shunday qilib, «intervalsiz paket» usulida uzatilayotgan ANAA axboroti «0 dan 2» ikki chastotali kodli kombinatsiyalarning orasida pauza mavjud bo'lмаган ketma-ketlikdir. Har bir kombinatsiyani uzatish davomiyligi 40±1 ms teng.

Ko'p chastotali signalizatsiya bir qator kamchiliklarga ega: signallar axborot mazmuni, tezkorligi, xalaqit-bardoshliligi chegaralanganligi, so'zlashuv spektridagi shunga o'xshash chastotalarni signal axborotidek qabul qilish imkoniyati borligi. Bu esa tarmoq ishini ANAA ishini buzishga yoki operatorni aldashga olib keladi.

7- sonli umumkanal signalizatsiyasi

Kommutsiyalanadigan aloqa tarmoqlarida stansiyalararo signalizatsiyani tashkil etishning ikkita tamoyili quyidagicha asoslangan: ma'lum stansiyalararo kanal ishtirok etgan, shu kanallarga biriktirilgan resurs yordamida stansiyalar orasida ularshni yaratish, qo'llash va uzish uchun kerak bo'lgan signallar almashinuvi amalga oshiriladi. Boshqa tamoyil stansiyalar o'rtaida xizmat signallari bilan almashinuv uchun signalli kanal qo'llaniladi, u ma'lum bir stansiyalararo kanallar guruhi yoki (va) ularishlar uchun umumiyyatdir. Bu tamoyil inglizcha CCS (Common Channel Signaling) so'zidan olingan bo'lib, **umumkanal signalizatsiyasi** deb ataladi.

Telefoniya va telegrafiya bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi (SSITT – Commite Consultatif International Telegraphique of Telephone) hozirgi elektr aloqa xalqaro ittifoqi telekommunikatsiyani standartlash sektori (ITU-T – International Telecommunications Union Standardization Sector) turli yillarda bir necha xil stansiyalararo signalizatsiya tizimlari uchun standartlar ishlab chiqdi. Ularning har biriga o'zining tartib raqami berilgan 1 dan 5 gacha nomerli tizimlar SAS tamoyili bo'yicha, 6 va 7 sonli tizimlar esa CCS tamoyili bo'yicha tuzilgan 1+5 tizimlarda signallarni liniyaviy va registrliga ajratish mavjud, ularni uzatish uchun esa 300+3400 Hz diapazonidagi chastota yoki diapazondan katta, lekin 4000 Hz kichik chastotalar qo'llaniladi.

Ularni ko'rib chiqamiz.

1- sonli signalizatsiya. 1934- yil Budapeshtda bo'lib o'tgan ITU-T ning X yalpi assambleyasida qabul qilingan 1- sonli signalizatsiya qush usuli bilan o'rnatish xalqaro kanallari uchun mo'ljallangan.

U 20 Hz chastotali impuls ko'rinishida uzatiladigan 500 Hz liniyaviy signallarni ko'zda tutadi.

2- sonli signalizatsiya yarim avtomatik aloqani 2 simli liniyadan amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Bunda 600 va 750 Hz chastotalar bilan signallar qo'llaniladi (1938- yil).

3- sonli signalizatsiya 1960- yil bir chastotali signalizatsiyani ITU-T standartlashtirdi. Tizim liniyaviy va registrli signalizatsiya uchun 2280±5 Hz bitta chastotani qo'llaniladi va bir tomonlama aloqa kanallarida ish uchun belgilangan.

4- sonli sognalizatsiya – bu ikki chastotali signalizatsiya tizimi. 1954-yilda Yevropada qo'llanildi. Liniyaviy va registrli signalizatsiya uchun so'zlashuv standartidagi 2040 Hz va 2400 Hz chastotalar qo'llanilgan.

5- sonli signalizatsiya 1964 ITU-T qit'alararo aloqa uchun standartlashtirildi. Registrli signallar ko'p chastotali kod «6 dan 2» asosida uzatiladi. Liniyaviy signallar o'z-o'zini tekshiruvchi ichki yo'lakli ikki chastotali 2400 Hz va 2600 Hz signallar asosida uzatiladi. U ikki tomonlama UL qo'llaniladi.

R1 signalizatsiya tiziminining bayonnomasi regional standartining birinchisi hisoblanadi (Shimoliy Amerikada qo'llaniladi). Bunda «6 dan 2» kodi registrli ko'p chastotali signalizatsiya va yo'lakli liniyaviy signalizatsiya qo'llanilgan. Liniyaviy signalizatsiya analog kanallardan ikkala yo'nalishda 2600 Hz chastotali uzlusiz signal ko'rinishda uzatiladi.

Raqamli variantda liniyaviy signal 2600 Hz bilan tarkibiy kanal va ikkita ASK bo'yicha uzatiladi. R2 signalizatsiya tizimi bayonnomasi ITU-T ning ikkinchi regional standarti hisoblanadi. Bu tizim hamma davlatlarning milliy va xalqaro UL uchun qo'llaniladi. (1962-yilda qabul qilingan). Analog variantda liniyaviy signal so'zlashuv chastotalari yo'tagidan tashqaridagi tonal signallarni qo'llash bilan uzatish amalga oshiriladi.

CHAK li uzatish tizimlarida 3825 Hz chastota qo'llaniladi. Raqamli variantda (R2D) bir yo'nalishli UL ning IKM-32 raqamli traktuning ASK qo'llaniladi. Registrli signallar «Oxiridan-oxiriga» u yoqdan bu yoqqa o'tgan, o'z-o'zini tekshiruvchi «6 dan 2» kodli ikki chastotali signalizatsiya yordamida uzatiladi. Bunda 12 ta chastota tanlab olingan. Ulardan oltitasi teskari yo'nalishda: 1140, 1020, 900, 780, 660, 540 Hz va oltitasi to'g'ri yo'nalishda 1380, 1500, 1620, 1740, 1860, 1980 Hz qo'llaniladi.

1968-yilda 6- sonli signalizatsiya ishlab chiqildi. 6- sonli signalizatsiya tizimi signalizatsiyani to'liq so'zlashuv traktidan chiqarib tashlaydi va alohida umumiy signalizatsiya zvenosini qo'llaniladi, bu zvenodan bir necha traktlar uchun hamma signallar uzatiladi. Lekin uzatish tezligi 2400±4200 bit/s, shuning uchun milliy tarmoqda qo'llanib bo'lmaydi, manzil qismi chegaralangan, xalaqit-bardoshligi katta enas. Bu kamchiliklar hisobga olinib 7- sonli tizim ishlab chiqildi. 6 va 7- tizimlarda signallarni bunday ajratish mavjud bo'lsa ham, bu an'ana bo'yichadni, chunki istisnosiz barcha signallar signal axboroti ko'rinishida bir xil uzatiladi va bir xil qurilmalar bilan qabul qilinadi. Ikkala tizim faqat dasturli boshqarish stansiyalarida amalga oshiriladi. 7- sonli tizim esa amalda faqat Raqamli uzatish tizimli tarmoqlarda uchraydi.

7- sonli UKS eng zamонавиб бо'лиши билан бирга универсалdir, chunki u telefon tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish tarmoqlariga, ham u ham bu tarmoqlarning ISDN bilan tutashuvida va ISDN o'zida hamda

harakatdagi Aloqa tarmoqlarida va hokazolarga mo'ljallangan 7 UKS ning funksiyanal arxetekturnasi ko'p sathli bo'lib, uchta quyi sathlari, birligida signal xabarlarini jo'natuvchining stansiyasidan oluvchining stansiyasigacha ko'chirishni ta'minlaydi va tizimni qo'llaniladigan hamma variantlarida kerak bo'lgan MTP Message Transter Part – xabarlarni uzatish tizimchasi, platformasini tashkil etadi.

Yuqori sath funksiyalar esa har bir variyant spessifik mos ravishda shu platformadan foydalanuvchi tizimchasi bajaradi. Xususan, UFTT va ISDN da MTP platforma qo'llanilganida «yuqorida» ISUP foydalanuvchi tizimchasi hamda SCCP signalli ularishlarni boshqarish tizimchasi bilan to'ldiriladi. SCCP UKS tarmog'iда virtual ularishlar yaratishni ko'zda tutadi. Bu tarmoq orqali axborot (faqat signalli emas)ni uzatish uchun ularish yaratiladi. 7 sonli UKS tizimiga qo'shiluvchi har xil amaliy tizimchalar (TSAR, OMAR, INAP va boshqalar) UKS tarmog'ini texnik ekspluatatsiyasini, xizmatlarini boshqarish tugunlari va intellektual (aqqliy) tarmoqdagi xizmatni kommutatsiya tuguni orasida axborot almashinuvini va hokazolarni ta'minlaydi.

7 sonli tizimning muhim xususiyati zarur bo'lganda unga yangi tizimchalarini kiritishga ruxsat berishi ma'nosida u ochiq hisoblanadi. 7 sonli UKS tizimini qo'llanuvchi aloqa tarmog'i 1KM traktlari bilan o'zaro bog'langan ko'pgina kommutatsiya tugunlaridan iborat bo'lib, ularishlarni boshqarishda 7 sonli UKS xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tugunlardan har biri signal xabarini shakllantirish, uzatish, qabul qilish va integrallashga qodir bo'lgan signalizatsiya punkti (SP-Signaling Point) funksiyasini bajara oladigan vositaga ega bo'lishi kerak.

Signalizatsiya punktlari SP o'zaro bir-biri bilan signal axborotini ikki tomonlama uzatishni ta'minlovchi signalli zvenolar funksiyasini bajaruvchi raqamli kanallar bilan bog'langan bo'lishi kerak. Signalizatsiya punktlari va signalli zvenolar to'plami 7 UKS tarmog'ini tashkil etadi. SP funksiyasini kommutatsiya stansiyalar va tugunlardan tashqari quyidagilar bajarishi mumkin:

— aloqa tarmoqlarini ekspluatatsiya boshqarish markazlari (OA & MC- Opeation Administration and Maintenance Centres);


— intellektual tarmoq xizmatlarini boshqarish tugunlari Tranzit signalizatsiya punktlari (STP-Signaling Transter Points); har bir SP ga o'zining noyob kodi biriktiriladi. Signal axboroti almashinuvi mumkin bo'lgan ikkita istalgan SP signali bog'langan bo'ladi. Ikkiti SP ning signali aloqasi yo signalli zvenolarning to'g'ri bog'lami, yoki tranzit tashkil etish bilan UKS tarmog'i vositasi ta'minlashi mumkin. Birinchi holda signalizatsiya punkti (UKS tarmog'i tuzilmasi nuqtai nazaridan) qo'shni, ikkinchi holda qo'shni bo'limgan. UKS tarmog'iда ham qo'shni, ham qo'shni bo'limgan SP-ning uchta signalizatsiya rejimi mavjud bo'lishi bilan farqlanadi: bog'langan, bog'lanmagan va kvazi bog'langan.

Bog'langan rejimda ma'lum SP signalli aloqasiga tegishli signal axborot, u SP bevosita ulaydigan signal zvenosi bo'yicha uzatiladi. Bog'lanmagan rejimda shunga o'xhash axborotni uzatish uchun ketma-ket bir necha signal zvenolar qo'llaniladi, signalli aloqani tashkil etishga tranzit signalizatsiyev punktlarini jalb etiladi. Kvazi bog'langan rejimda bog'lanmagan rejimning xususiy holati bo'lib, unda signal axborot tarmoq orqali o'tadigan yo'li oldindan belgilanadi va shu vaqt davomida qayd qilgan bo'ladi.

7 sonli UKS tizimi signalizatsiyani bog'langan va kvazi bog'langan rejimlarini qo'llaydi. UKS tarmog'i tuzilmasining turli variantlari mayjud. U yoki bu variantni tanlashga UKS tarmog'i xizmat ko'rsatayoitan aloqa tarmog'ining tuzilmasi hamda boshqa amallar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar UKS tarmog'i faqat kommutatsiyani boshqarish uchun zarur bo'lgan signalli aloqalarni shakllantirishga mo'ljallangan bo'lsa, unda ko'proq eng ma'qul bo'lgan rejimini qo'llashga qaratilgan tuzilma bo'ladi va unga ko'p bo'lmagan darajada – kvazi bog'langan rejim (kam yuklangan signalli aloqalar uchun) qo'llaniladi.

Agar UKS tarmog'i uning imkoniyati ichida barcha ehtiyojlarni qondirish uchun umumiylar resursdan barpo etilsa, unda yuqori ishonchligini ta'minlash uchun ularni zaxiralash bilan birga signalli zvenolarning yuqori mahsurдорligi, asosan, kvazi bog'langan rejimga mo'ljallangan tuzilmaga olib keladi va bunga qo'shimcha tarzda niisbatan katta bo'lmagan sondagi signalizatsiyaning bog'langan rejimida qo'llanuvchi signalli zvenolarning to'g'ri bog'lamlari (va o'ta yuklangan) bilan to'ldirilgan bo'ladi. Signalizatsiyaning faqat bog'langan rejimidan foydalilaniganda UKS tarmog'i tuzilmasi u xizmat ko'rsatayotgan tarmoq tuzilmasi bilan mos keladi. Faqat kvazi bog'langan rejim qo'llanilganda 1.10- rasmda soddalashtirib ko'rsatilgan bog'langan rejimga mo'ljallangan UKS tarmog'ining tuzilmasi eng ratsional bo'ladi.

Bunday tuzilmada signalli zvenolarning istalgan bog'lashi bir necha signalli aloqalarni qo'llaydi (faqat bog'langan rejimga mo'ljallangan



1.10- rasm. Bog'langan rejimga mo'ljallangan UKS tarmog'ining tuzilmasi.


tuzilmadagidan bitta emas). Demak, bu tuzilmada signalli zvenolarning bog'lamlari ko'proq qo'llaniladi. Bundan tashqari SP-ning ma'lum bir sonidan boshlab 1.11- rasmida tuzilma UKS tarmog'idagi signalli zvenolarning umumiyligi sonini bog'langan rejim uchun aytilgan tuzilmaga nisbatan kamaytiradi va UKS tarmog'i natijada arzonlashadi. Ya'ni, shuni ta'kidlash lozimki, bunday tuzilmada UKS tarmog'i lokal o'ta yuklanishlarga barqarorroqdir, ishonchlikning juda yaxshi ta'siriga ega va har bir signalli aloqa uchun uni tashkil etish bir necha mumkin bo'lgan yo'llar bor, ya'ni bir necha har xil signal marshrutlar mayjud.

UKS tarmoqlarining imkoniyatlari faqat kommutatsiyani boshqarish bilan bog'liq bo'lган funksiyalar bilan chegaralanmaydi. Bu turdag'i signalizatsiyani qo'llash uchun eng tabiiy bo'lib bog'langan rejimi hisoblanadi, chunki u kanallar kommutatsiya tarmog'ida kommutatsiyalanadigan aloqalarni tashkil etish xususiyatlariga bog'liqdir, xususan, telefon tarmoqlarida ular har doim ketma-ket qadamlar bilan o'rnatiladi. Chiquvchi stansiya belgilangan stansiyaga yo'nalishni tanlab, eng yaqin tranzit stansiya (masalan) CHXT orqali signalli axborot bilan almashadi, so'ngra chiqish xabarlar tuguni (CHXT) boshqa tranzit stansiya KXT orqali signalli axborot bilan almashadi, u esa, o'z navbatida, belgilangan stansiya bilan aloqa o'rnatadi.

Xuddi shu bog'lanishni buzishda ham yuz beradi. Agar UKS tarmog'i orqali qo'shni bo'lмаган SP lar axborot almashsa, tranzitning funksiyasini istalgan SP bajarishi mumkin. UKS tarmog'i tuzilmasi bog'langan rejimiga mo'ljallangan bunday almashinuvni ham ta'minlaydi. Biroq UKS tarmog'i orqali o'tuvchi axborotning umumiyligi hajmida uning hissasi ortib borgan sari, bu tuzilma tejamsizroq bo'lib boradi va ko'proq bog'lanmagan (kvazi bog'langan) rejimni ko'zda tutuvechi tuzilma maqsadga muvofiq bo'lib boradi. UKS barcha g'oyalari asta-sekin tatbiq etilgan. 1970- yil oxirida Amerikaning ATVT si o'zining barcha tarmog'ida 6 sonli UKS signalizatsiya tizimini tatbiq etadi. 1980- yilda esa 7 sonli UKS standartlandi. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, turli mamlakatlarda 7 sonli UKS ning turli variantlari qo'llanilmoqda. Masalan: AQSH, Kanada, Yaponiya va qisman Xitoyda Amerika milliy standartlash institutining ANSI varianti Yevropa elektr aloqa standartlash instituti ETST variantini qo'llashmoqda. Oldingi ko'rilgan signalizatsiyani uzatishning ikki varianti: So'zlashuv trakti va ajratilgan kanal orqali signalizatsiyani uzatish quyidagi kamchiliklarga ega:


- uzatish tezligi past;
- yetarli moslashishga ega emas;
- iqlisodiy tomondan qaraganda qimmatga tushadi;
- o'tkazuvchanlik qobiliyati chegaralangan.

Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun 1980- yilda 7 sonli signalizatsiya yaratildi. Bunda aloqa tarmog'idan mantiqan ajratilgan



ASE-servisli amaliy element;
OMAST-OMAP tizimi servisi amaliy element.

III- ruzin 7 soni UKS hayotning tutashuvlari.



1.12- rasm. Signalizatsiya tarmog'i.

xizmat ko'rsatishi mumkin. Umumiy kanal signalizatsiyasida signal axborotlari dupleks kanallari bo'yicha uzatiladi. Bu kanallardan ma'lumotlar paketi uzatiladi. Umumikanal signalizatsiyasi modeli 1.13-rasmda keltirilgan. Bu ma'lumotlar paketi signal birligi (SU) deb ataladi.

Umumiy kanal signalizatsiyasi CCS №7 ning afzalliklari:

- tezligi — 1 sekundda aloqa o'rnatadi;
- yuqori unumdorlikka ega.

Har bir signalizatsiya raqami (signal zvenosi) bir paytda bir necha ming telefon chaqiruvlariga xizmat ko'rsata oladi;

- tejamkorligi. Zarur uskuna soni kamayadi;
- ishonchligi. Signalizatsiya tarmog'ida qo'shimcha marshrutarining qo'llanilishi asosiy aloqa tarmog'inинг ishonchligini oshiradi;
- epchiilligi. Ixtiyoriy ma'lumotlarni uzata oladi.

7- sonli signalizatsiya o'zaro hamkorligi OSI etalon modelining uchta darajasiga mos keladi: fizik sath, kanal sathi, tarmoq sathiga mos keladi. CCS № 7 arxitekturasida quyidagi nomlardagi tizimchalar mavjud: NSP — xizmat ko'rsatish tizimchasi; MTP — xabarlarni uzatish tizimchasi; SCCP — signalizatsiyani bog'lashni boshqarish tizimchasi.

Demak, CCS №7 4 ta funksiyani bajaradi:

1. Xabarlarni uzatish tizimchasingin birinchi darajasi MTR1 (signalizatsiya ma'lumotlar zvenosi) — bu ikki yo'naliishli uzatish yo'li, ya'ni ikkita fizik kanal tushuniladi. Bu kanallar qarama-qarshi yo'naliishda bir vaqtning o'zida, bir xil tezlik bilan signalizatsiya xabarini uzatadi. Kanal raqamli yoki analog yoki yerning sun'iy yo'ldoshi bo'lishi mumkin. Raqamli kanal tezligi 64 Kbit/s. Analog kanal uzatish tezligi esa 4,8 Kbit/s bo'ladi.

2. Xabarlarni uzatish tizimchasingin ikkinchi darajasi (kanal) MTR2 (signalizatsiya zvenosi) — signal xabarlarini ishonchli uzatishni amalga oshiradi.

signalizatsiya tarmog'i yaratilgan (1.12- rasm).

So'zlashuv kanali aloqa o'rnatiganidan so'ng qo'llaniladi, ya'ni signalizatsiya trakti so'zlashuv traktidan butunlay ajratiladi. Bir necha marta yuqori tezlikka ega bo'lgan signal xabarlarini uzatuvchi kanallar yordamida ko'p sonli axborot kanallariga



1.13- rasm. Umumikanal signalizatsiyasi modeli.

3. Xabarlarni uzatish tizimchasining uchinchi darajasi (tarmog'i) MTR3 (signalizatsiya tarmog'i) signal xabarlariga ishlov berish va signalizatsiya tarmog'ini boshqarishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, xabarlarning marshrutini aniqlash, saralash, yo'nalishlarga taqsimlash signalizatsiya punkti yoki zvenosi hamda ishdan chiqqan xabar marshrutini o'zgartirish kiradi.

4. Signalizatsiya zvenosini boshqarish tizimchasi SCCP — MTR ga qo'shimcha bo'lib, tarmoq xizmatini ko'rsatishga qo'llaniladi.

CCS № 7 asosiy tushunchalari

1. Signalizatsiya punkti (SP) — signalizatsiya tarmog'idagi signal axborotiga ishlov berish va kommutatsiya tuguni.

2. Signalizatsiya punkti kodi SPC.

3. Signalizatsiya zvenosi yoki liniya kanali SL. Signal kanali — ikkita signalizatsiya punktlari orasida signal xabarlarini olib o'tish uchun qo'llaniladi.

4. Signalizatsiya zvenolarni bog'lash SLS.

5. Tranzit signalizatsiya punkti STP — bitta signalizatsiya zvenosidan qabul qilib boshqa zveno orqali ishlov bermasdan uzatuvchi signalizatsiya punkti.

6. Signal xabarni ishlab beruvchi chiqish signalizatsiya punkti (OR) qabul qilib oluvchi belgilangan punkt (DR) deb ataladi.

7. Bog'langan rejimda signalizatsiya (1.14- a rasm).

8. Kvazi bog'langan rejim.

9. Signal marshruti SR — chiqish punkti bilan belgilangan punktlar orasida signalizatsiya tarmog'i bo'yicha signal xabarlarining oldindan belgilangan o'tish yo'li.


10. Signal marshrutlar bog'lami SRS — signalizatsiya tarmog'ida xabarni uzata oladigan signal marshrutlar yig'indisi.

11. Xabarlар uzatish tizimchasi MTP — umumiy transport tizimi.

12. Foydalanuvchilar tizimchasi UP

va MTP ning bir-biri bilan bog'lanishi CCS № 7 fazali funksional maromda ko'rsatilgan (1. 14- b rasm).

Xabar MTR da to'g'ri ketma-ketlikda, yo'qotishsiz va dublsiz, xatosiz uzatiladi. Bunda barcha xatolar qabul qiluvchiga uzatilishdan oldin to'g'rilanishi kerak. Signal birligining uzunligi uzati layotgan signal axborotning miqdori bilan aniqlanadi va o'zgaruvchan bo'ladi.



1.14- rasm. CCS № 7 bazali funksional modeli.

Signal birligining 3 turi mavjud:

1. Ahamiyatli (belgilangan) signal birligi MSU.

2. Zveno holati signal birligi LSSU.

3. To'ldiruvchi yoki kuch signal birligi FISU.

Bunda: MSU — signal birligi tarkibida signal axboroti beriladi.

LSSU — signalizatsiya zvenosi holatini boshqarish uchun qo'llaniladi.

FISU — signal axboroti yo'qligida musbat va mansiy tasdiqlashni uzatish uchun qo'llaniladi.

Signal birligi qayd etilmaydigan sondan iborat. Ahamiyatli signal birligining signal axboroti maydoni (SIF) foydalanuvchi tizimchaning (UP) axboroti va MTP marshrut belgisidan tashkil topgan, uzunligi 278 bitdan o'tmaydi. MSU formati 1.15- rasmida keltirilgan.

Signal birligining boshlanishi va oxiri «Bayroq» bilan aniqlanadi. Yakunlovchi «Bayroq» yangi signal birligini boshlovchi «Bayroq» bo'lishi mumkin. F standart bayroq 0 1111110.

BSN — «teskari tartib raqami» qabul qiluvchi signalizatsiya manzili uzatilgan signal birligini qabul qilganini tasdiqlash uchun qo'llaniladi. Bu maydonda SU ning raqami yozilgan bo'ladi.

BIB — «teskari bit indikatori» — qabul qiluvchi signalizatsiya manzili uzatilgan SU ni qabul qilgantigini tasdiqlash uchun qo'llaniladi.

FSN — «to'g'ri tartib raqam» — SU tartib raqamini yozish uchun qo'llaniladi.

FIB — «to'g'ri bit indikatori» qabul qilish adresi SU noto'g'ri qabul qilganda uni qayta uzatish kerakligini ko'rsatadi.


LI — SU uzunligi indikatori. Signal birligi turini aniqlaydi. Agar LI=0 bo'lsa, SU turi FISU. LI=1 yoki 2 bo'lsa LSSU. LI=3—63 bo'lsa MSU. Uzunlik indikatori LI dan keyin CQ gacha nechta bayt borligini ko'rsatadi. LI olti bitdan iborat bo'lib, (0—63) qiymatlarni qabul qiladi ($2^6 = 64$). Agar LI = 63 yoki undan katta (max-272 bayt) bo'lsa, LI ga 63 yozilaveradi. SU maksimal uzunligi 278 bayt, ya'ni 272 bayt (SIF+SIO)+1 bayt F+1 bayt (BSN+BIB)+1 bayt (FSN+FIB)+1 bayt LI (6 bit+2 bit zaxira)+2 bayt CRC.

SIO — signal axborotning bayti yoki xizmat ma'lumotlar bayti 2 qismidan iborat. Har bir qism 4 bitdan iborat. Birinchi qismi tarmoq turi:

Mahalliy yoki ichki mintaqaviy 1100

Shaharlararo 1000

Xalqaro 0000



Ikkinchi qism foydalanuvchining turi:

1. Boshqarish ma'lumotlari 0000.

Bayroq	Tekshiruv bitlari	Signal axboroti maydoni	Signal axborotining bayti	Uzunlik indikatori		To'g'ri ketma- ketma-ketlik raqami	Tushuni ketma-ketlik raqami	Bayroq
				SIO	Zahira			
F	CK	SIF				FIB	FIN	
8	16	8n	32	8	2	6	1	7

UP axboroti	Signalizatsiya ya zvenolari bog'lами	Chiqish signalizatsiya punktı	Belgian- gan punkt	Tarmoq turi	Zaxira	Foydalanuv- chi turi
	SLS	OPS	DPS	N!		SI
8n	4	14	14	2	2	4
Signal axboroti	Signal turi	12 bit	40 bit			

I.15- nismi. MSTU formati.

2. Signalizatsiya tarmog'ini tekshirish va ekspluatatsiya qilish ma'lumotlari 0001.
 3. SCCP – tizimi ma'lumotlari – 0011.
 4. TUP – telefoniyaning foydalanuvchisi – 0100.
 5. ISUP ISDN foydalanuvchisi – 0101.
 6. DUP – ma'lumotlarni uzatish foydalanuvchisi – 0111.
- TCAP tranzaksiya imkoniyatlarni boshqarish tizimi ma'lumotlari:
SIF – ma'lumot maydoni (signal axboroti maydoni). Bunda quyidagi tizim ma'lumotlari uzatiladi.

TUP – telefon tarmog'ida signalizatsiya funksiyalarini bajarishini ta'minlaydi.

ISUP – ISDN tarmoqlarida.

TCAP – intellektual tarmoq, uyali aloqa tarmoqlari turi va xizmat ko'rsatish markazlarida signalizatsiya funksiyasini hamda ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish, tarmoqlarni masofadan foydalanishini boshqarish va nazorat qilish (OMAP) funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi.

SIF – n baytga teng bo'lib, turli tizim ma'lumotlari uchun turlichalbo'ladi. Ularga:

DPC – ma'lumotlarni qabul qilish adresi (14 bit).

OPC – uzatish manzili (14 bit).

SLS – signalizatsiya zvenolari bog'lami (IKM N).

CIC – vaqt kanali N («So'zlashuv» kanali identifikatori) ma'lumot turi (8 bit).

Ma'lumotlar maydonida stansiyalar o'rtaida uzatilishi kerak bo'lgan signalizatsiya ma'lumotlari uzatiladi. M: ISUO uchun:

LAM – boshlang'ich manzil ma'lumotlari OPC, DPC, tanlangan so'zlashuv kanali A abonentning raqami, V abonentning raqami va hokazo.

ACM – manzil raqami yetarli (DPC, OPC, tanlangan so'zlashuv kanali N).

ANC – abonent javobi.

REL – ozod qilish.

RLC – ozod qilish tamom bo'ldi.

CK – tekshirish maydoni – axborotlarni uzatishdag'i xatolarni aniqlash va to'g'rilash vazifalarini bajaradi. Bu davr ortiqligini tekshiruvchi nazorat yig'indi.

Zvenolar hosil qiluvchi LSSU formati 1.15- rasmida keltirilgan.

LSSU – signalizatsiya zvenosi holatini boshqarish uchun qo'llaniladi.

F	CK	SIF		LI	FIB FSN	BIB	BSN	F
8	16	8 yoki 16	2	6	1 7	1	7	8

1.16- rasm. LSSU formati.

Agar signalizatsiya zvenosining qabul qiluvchi tomonida yuklanish yoridan kattaligi aniqlansa, uzatuvchi tomonga yuklanish uzatilgani qidagi axborot LSSU yordam beradi. Bunda LSSU «band» holat indikatsiyasi bilan uzatiladi va tushayotgan hamma SB lariga tasdiqlovchi signalni kechiktiradi. Agar bu signal 6 s dan ortiq bo'lmasa, signalizatsiya zvenosida nosozlik bor deb hisoblanadi.

FISU — to'ldiruvchi SB — signal axborot uzatilmayotgan paytda musbat va mansiy tasdiqlashni uzatish uchun qo'llaniladi. Musbat tasdiqlash uzatishni to'g'ri bajarilganini bildiradi. 1.17- rasmda FISU formati keltirilgan.

F	CK		LI	FIB	FSN	BIB	BSN	F
8	16		2	6	1	7	1	7

1.17- rasm. FISU formati.

Xatolarni to'g'rilash faqat MSU va LSSU larda bajariladi. CCS № da signal axborot mayjud bo'lmaganda FISU uzatiladi. Bu xatolar monitoringini amalga oshirishga imkon beradi. Nosoz signalizatsiya zvenosini tez topish uchun amalga oshiriladi. Xatolarni to'g'rilashning 2 xil yo'li qo'llaniladi: xatolarni korreksiya qilishning bazali usuli (VESM) va majburiy (preventiv) davriy usuli (PSR).

Birinchi usulda mansiy tasdiqlash (NACK) kelganda, ya'ni qarama-qarshi tomonidan tasdiq olmagan ahamiyatli signal birligining hammasi takrorlanadi. Musbat tasdiq oxirgi qabul qilingan SB ning to'g'ri tartib raqami FSN ni, qarama-qarshi yo'nalishga uzatilayotgan SB ni teskari tartib raqami tomon uzatish yo'li bilan hosil qilinadi.

Mantiqiy tasdiq teskari bit indikatorini invertirlash yordamida hosil qilinadi ($BIB = 0$). Har bir tartib raqami FSN, VSN 7 bit uzunlikka ega. Demak, musbat tasdiqlashsiz uzatiladigan xabarlar maksimal soni 127 bo'ladi ($2^7 = 128$). 1.18- rasmda xatoni korreksiya qilishning bazaviy usuli ko'rsatilgan.

FISU (FSN=1, FIB=1, BSN=1, BIB=1)

FISU (FSN=1, FIB=1, BSN=1, BIB=1)

MSU (FSN=2, FIB=1, BSN=1, BIB=1)

FISU (FSN=1, FIB=1, BSN=2, BIB=1)


MSU (FSN=2, FIB=1, BSN=2, BIB=1)

MSU (FSN=3, FIB=1, BSN=2, BIB=1)

1.18- rasm. Xatoni korreksiya qilishning bazaviy usuli.

Ikkinchchi usul. Agar signal birligi uzatish tomonida biron qiymatga ega bo'lsa, unda uzatilgan sikl raqami ketma-ketligi saqlangan holda xotira buferiga yoziladi. Qabul qiluvchidan orqaga qaytish sikl raqamlari kelishi bilan xotira buferidan kelgan orqaga qaytish sikl raqami tasdiqlangan SB o'chiriladi. 119- rasmida xatoni majburiy davriy takrorlash usuli keltirilgan.

Agar tasdiqlanmagan MSU soni me'yordan ortsa, siklli qaytarish prosedurasi xatolarni to'g'rilamayapti, deb belgilaydi. Bu hol yuklanish katta bo'lganda bo'lishi mumkin (qayta uzatish tezligi kamayadi). Bunda majburiy davriy qaytarish faollashtiriladi va yangi MSU yuborish to'xtatiladi. Tasdiqlanmagan MSU uzatiladi. Bu tasdiqlanmagan MSU soni me'yordan pastga tushgunga qadar takrorlanadi. Bu ahamiyatli SB (MSU) signal hammasi qayta uzatiladi, ya'ni ahamiyatli SB (MSU) yo'qligida amalga oshiriladi.



1.19- rasm. Xatoni majburiy davriy takrorlash usuli.

Musbati tasdiq oxirgi qabul qilingan SB ning to'g'ri tartib raqami FSN ni, qarama-qarshi yo'nalishda uzatilayotgan SB ning teskari tartib raqami tomon o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bazali usul, odatda, yerdagi aloqa liniyalari uchun qo'llaniladi. PCR usul – sun'iy yo'ldoshlar uchun qo'llaniladi. PCR ni yerdagi aloqa liniyalari uchun ham qo'llansa bo'ladi.

Signalizatsiya tarmog'ining funksiyasi signal xabarlariga ishlov berish, signalizatsiya tarmog'ini boshqarish, marshrutlash, saralash, ya'ni ajratish va xabarlarni taqsimlashni o'z ichiga oladi. 7- raqamli signalizatsiya tizimida SB ni uzatish quyidagicha: uzatish tomonida «qiymatga ega SB uzatilgan sikl raqami ketma-ketligini saqlagan holda xotira buferiga yozadi. Qabul qiluvchidan orqaga qaytish sikl raqamlari kelishi bilan

xotira buferidan kelgan orqaga qaytish siki raqami tasdiqlangan SB o'chiriladi. Orqaga qaytish indikator biti o'zgarsa, xotira buferidan tasdiqlanmagan SB dan boshlab qayta uzatiladi. Xotira buferidan qayta uzatish tugallangandan so'ng normal ishga o'tiladi. Orqaga qaytish indikator bitining holati o'zgarishi bilan to'g'ri indikator biti o'z holatini o'zgartiradi.

Uzatishga so'rov bo'lmasa, oxirgi uzatilgan «qiymatga ega» birlikning to'g'ri siki raqamini saqlagan holda «BO'SH» signal birligi uzatiladi. Qabul qilishda kodli tekshirishdan o'tgan Bayroq» va ortiqcha nollari yo'qotilgan SB lar tahlil qilinadi. So'ngra to'g'ri siki raqami mos tushishi va SB ning qiymatlari tahlil qilinadi. Qabul qilish tomonida «qiymatga ega» va «qiymatga ega bo'lмаган» signal birliklarini qabul qilish uchun ikkita amal bo'lishi kerak.

Agar SB qiymatga ega bo'lmasa va to'g'ri siki raqami oxirgi qabul qilingan «qiymatga ega» SB ning to'g'ri siki raqamiga teng bo'lsa, unda bu SB qo'llanilmaydi. Agar to'g'ri va orqaga qaytish siki raqamining mosligi buzilgan bo'lsa va to'g'ri indikator biti orqaga qaytish indikator bitining holati bir xil bo'lsa, unda SB ni takrorlashga so'rov yuboriladi.

Buning uchun orqaga qaytish indikator bitining inversiyasi yuboriladi. Agar uzatilayotgan to'g'ri indikator biti orqaga qaytish bitidan farqlansa, unda bu SB ham qo'llanilmaydi. SB «qiymatga ega» bo'lsa va to'g'ri siki raqami oxirgi to'g'ri qabul qilingan SB ning raqamiga mos tushsa, bu SB indikator bitining holatidan qat'iy nazar yo'q qilinadi.

Agar oxirgi qabul qilingan SB ning to'g'ri siki raqami «1» dan ortiq bo'lsa (maksimal siki raqamining moduli bo'yicha), unda bu SB qayta ishlashga yuboriladi. Agar to'g'ri siki raqami birdan kattaga farqlansa, unda u bekor qilinadi. Agar bu holatda qaytish indikator bitining holatiga to'g'ri kelsa, unda orqaga qaytarish indikator bitining teskarisi olinib qaytarishga so'rov uzatiladi. Bu ko'rilgan SB uzatish va qabul qilish jarayoni ixtiyoriy signal axboroti uchun bir xil bo'ladı.

Demak, 7- sonli signalizatsiya tizimi strukturasi 4 ta funksional bosqichga ega:

1. Trakt orqali ma'lumotlari uzatilgan uning fizik, elektrik va funksional xarakteristikalari aniqlanadi.
2. SB ni ketma-ket takrorlashda nazorat xatolarini tuzatishni aniqlash «Bayroq»lar yordamida SB ning chegarasini o'rnataladi.
3. SB ni qayta ishlash, signalizatsiya tarmog'ini boshqarish, uzatish yo'nalishini tanlash, ma'lumot manzilini qayta ishlash, axborotlarni taqsimlash va marshrutlash vazifalarini bajaradi.
4. Telefon tarmog'ida qo'llash vositalarini o'z ichiga oladi. 4-bosqichida telefon axborot funksiyalarini, signal formatini, telefon axborot kodini, telefon ularshni o'rnatish amallarini bajaradi.

Sinov savollari

1. Sinxronlashning vazifasini keltiring.
2. IKM-30 traktining tuzilishini keltiring.
3. Taktli chastota bo'yicha sinxronlash nima uchun mo'jallangan va qanday bajariladi?
4. Siklli sinxronlash nima uchun mo'jallangan va qanday bajariladi?
5. O'tasiklli sinxronlash nima uchun mo'jallangan va qanday bajariladi?
6. Signalizatsiya nima? Tushuntiring.
7. 1- sonli signalizatsiya to'g'risida tushuncha bering.
8. Signal turlariga misollar keltiring.
9. 2- sonli signalizatsiya to'g'risida tushuncha bering.
10. Abonent signalizatsiyasini tushuntiring.
11. Boshqarish signali haqida tushuncha bering.
12. 3- sonli signalizatsiyani tushuntiring.
13. Liniya signallari deganda nimani tushunasiz?
14. Signalizatsiyaning rivoqlanish davrlarini keltiring.
15. 5- sonli signalizatsiya nima?
16. R1; R1,5; R2; CAS signalizatsiyalar nima?
17. 6- sonli signalizatsiya nima?
18. 7- sonli signalizatsiya nima?
19. Hamma turdag'i signalizatsiyalarning kamchiliklari va afzalliklarini sanab bering.
20. Stansiya ichidagi signalizatsiyani tushuntirib bering.
21. Stansiyalararo bog'lanishda signalni uzatish algoritmi qanday?

II BOB. RAQAMLI ALOQA TARMOQLARI

2.1. Aloqa tarmog'ining evolyutsiyasi

IXKRT ni barpo etish uchun quyidagi ikki masalani hal etish zarur:

- ixtiyoriy turdag'i axborotni transportlashning yagona usulini topish;
 - axborotning barcha turlari uchun yagona kommutatsiya usulini ishlab chiqish.
- 2.1- rasmida IXKRT (ISDN) arxitekturasi keltirilgan.

Hozirgi vaqtida birinchi usul qo'llanilmoqda. U ixtiyoriy turdag'i axborotlarni raqamli shaklda tasvir etish yo'li bilan hal etilgan. Ikkinci masalani hal etish uchun tarmoqni barpo etish ikki bosqichda amaiga oshirilishi ko'zda tutiladi. 1- bosqich qurama kommutatsiyali tugunlarning toryo'lakli raqamli tarmoqlarini tuzish bilan xarakterlanadi. Toryo'lakli tarmoqda uzatish tezligi 64 Kbit/s ni tashkil etadi. Qurama tugun —kanallar kommutatsiyasi va paketlar kommutatsiyasidan iborat kommutatsiya tugundi. Bu tovushli axborotlar kommutatsiyasi uchun hanuzgacha paketlar kommutatsiyasining samarali usullari ishlab chiqilgani yo'q.

2- bosqich 140 Mbit/s uzatish tezligiga ega keng yo'lakli tarmoq barpo etish zarur. Kommutatsiya tuguni faqat paketlar kommutatsiyasi tartibida ishlaydi. IXKRT MKKTT tavsiyasiga binoan quyidagi turdag'i ma'lumotni uzatishi lozim:

«a» — turidagi ma'lumot — tovushli ma'lumot, chastota yo'lagi 0,3–3,4 kHz;

R — paketli tartibda ishlovchi 16 Kbit/s uzatish tezligida past tezlik-dagi raqamli ma'lumotlarni uzatish.

Hisoblash texnikasi vujudga kelishi bilan telefoniyada jadal sur'atlar bilan mikroprosessorlar qo'llanila boshlandi. Endi telefon tarmoqlarining rivojlanishiga o'ziga xos to'siq hosil bo'ldi, buning asosida, bir tomondan kanalli jihozlarning uzluksizligi va hisoblash texnikasi vositalalarining raqamli bo'lishi, ikkinchi tomondan, uzluksiz jihozni raqamli hisoblash texnikasi vositalarini boshqarish kabi bir qator muammolar tug'ildi.


Bu borada raqamli telefoniyaga o'tish tabiiydir, mikroelementlar bazasiga tayangan holda diskret elementlardan kanalli apparaturani hain qo'shganda to'la foydalinish mumkindir. Masalani raqamli telefon stansiyalarini (RTS) amaliyotda qo'llab, yangilik bilan hal qilsa bo'ladi. Bir tekisda o'tish maqsadida bosqichma-bosqich o'tish jarayonini

amalga oshirish lozim. 2.2- rasmida IXKRT ga o'tish bosqichlari ko'rsatilgan.


Birinchi bosqich. Bu bosqich uzatish kommutatsiyaning raqamli usullariga o'tish bilan xarakterlanadi, ya'ni ISDN turidagi integral raqamli tarmoq quriladi, bu tarmoq uzlusiz abonent liniyalari va uzlusiz telefon stansiyalaridan iborat bo'ladi. Bu bosqichda kanallar kommutatsiyasi va paketlar kommutatsiyalanuvchi ma'lumotlarni uzatish tarmog'i (MUT-SPD) saqlanib qoladi.

Ikkinci bosqich. Xususan, raqamli tarmoq (IXKT) tuziladi (integral xizmat ko'rsatish tarmog'i), u telefon tarmog'ini va raqamli telefon kanallaridan foydalanuvchi MUT ni birlashtiradi. Bu bosqichda abonent bog'lovchi liniyalar bo'yicha raqamli shaklda so'zlashuvning uzatilishini ta'minlaydi.

Uchinchi bosqich. Xususan, IXKT ining ikkinchi avlodiga o'tishligini bildiradi, ular keng yo'lakli integral xizmat ko'rsatish tarmog'i bo'lib, u integral xizmat ko'rsatish tarmog'ining birinchi avlodidan televizion dasturlarni, fayllarni yuqori tezlikda uzatish, videokonferensiyalarni tashkil etish imkoniyati bilan farq qiladi. S -- ajratilgan signallash kanallari bo'yicha uzatish uchun signallash ma'lumoti yuqorida keltirilganlardan tashqari keng yo'lakli tarmoqlarda qo'shimcha tariqasida quyidagi ma'lumot turlari uzatiladi: w-n 64 Kbit/s tezlikdagi raqamli ma'lumot; n-w dan katta tezlikdagi raqamli ma'lumot.



2.1- rasm. ISDN arxitekturasi.



2.2- rasm. IXKRT ga o'tish bosqichtari.

Ma'lumotning barcha turlarini uzatish uchun IXKT da quyidagi kanallar tashkil etiladi: A turdag'i kanallar – analogli kanal; V kanal – 64 kHz li asosiy raqamli D kanal – S turdag'i ma'lumotni 16 Kbit/s yoki 64 Kbit/s tezlikda uzatish uchun mo'ljallangan.

E kanal – kommutatsiya tugunlari o'rtaсидаги umumiy signallash kanali.

- NO – 384 Kbit/s tezlikda uzatuvchi raqamli kanal;
- N1 – 1536 Kbit/s tezlikda uzatuvchi raqamli kanal;
- N2 – 30 Mbit/s tezlikda uzatuvchi raqamli kanal;
- NZ – 70 Mbit/s tezlikda uzatuvchi raqamli kanal;
- N4 – 140 Mbit/s tezlikda uzatuvchi raqamli kanal.

Aloqa texnikasidagi zamonaviy holat ko'rib chiqilsa shu narsa ma'lum bo'ladiki, jahonda yakka aloqa uchun ko'p sonli turli aloqa tizimlaridan foydalanuvchi muvoziqlashgan tarmoqlar va xizmatlar mavjud. Biroq so'zlashuv, matn va hokazo uchun alohiда aloqa tizimlarining hamkorlikda ishlashi faqat istisno tariqasida bo'lishi mumkin. Tarmoqqa

kirish jarayonlari va aloqani boshqarish turlari o'ziga xosdir. Lekin yagona raqamli tarmoqning yaratilishi bilan ma'lumotning barcha turlarini uzatish imkonи tug'ildi. Bunday tarmoq yordamida ikkita maqsadga erishish mumkin. Birinchisi – texnikaning integratsiyasi.

Bunda, birinchidan, turli xizmatlar uchun texnika shunday birlash-tirilgan bo'lshi kerakki, bunda, masalan, abonent liniyasi bo'yicha bir xil vositalalar bilan tovushli signallar hamda matn signallari uzatiladi.

Ikkinchidan, tarmoqda kommutatsiya va uzatish funksiyalarini bajaruvchi texnika integratsiyalashgan bo'lshi kerak. Masalan, raqamli tarmoqda guruhli signalni kommutatsiya stansiyasiga kirishda ham fazoviy, ham vaqt bo'yicha kanallar taqsimoti amalga oshiriladi.

Xizmatlarni integratsiyalash xizmatlarga yangi va katta qulayliklar ta'minlashdan iboratdir. Bu degani, chetki qurilmalar va tarmoq o'rtasidagi yagona tutashuv kiritilishi bilan hamda bog'lanishlarni o'rnatish va buzish yagona jarayondir.

Intellektual tarmoq

An'anaviy telefon xizmatidan (POTS- Plain Old Telephons Service) tashqari qo'shimcha xizmatlar, intellektual tarmoq xizmatlari, kompyuter va IP- telefoniya (intellektual perferiya-telefoniya) xizmatlari, WEB-kontakt-markaz va boshqa yangi xizmatlar bor. Qo'shimcha xizmatlar stansiya darajasida beriladi. Bularga qisqa raqam terish, termasdan ulanish, chiqish aloqasini man etish, kiruvchi chaqiriqni boshqa adresga yo'naltiradi, chaqiriqni kutishga qo'yish, so'zlashuv vaqtida aloqa olmoq, avtomatik uyg'otish va hokazo.

1980- yilda AQSH da bitta LTS chegarasidan birinchi xizmat kiritilgan. Bu xizmat servis telefon kartasi bo'yicha aloqa tarmoq ma'lumotlar bazasini qo'llanishga asoslanadi. Tezda abonentlarning ishbilarmon sektorlari uchun ko'pgina xizmatlar paydo bo'ldi. Uning nomi shaharlارaro telefon aloqa kiruvchi xizmatlar INWATS (Inward Wide Area Telecommunications Service) deb ataldi. U ko'pincha yangi funksional imkoniyatlarga ega hisoblanadi.

Tarmoq ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarni saqlash vositasi bo'limida saqlanadi. Uning funksiyasiga faqatgina ATS dan tushgan so'rovga javob berish emas, balki ATS ga chaqiriqda qanday xizmat ko'rsatishni ko'rsatuvchi buyruq uzatish ham kiradi. Shunday qilib, xizmatlarni boshqarish tuguni SCP (Service Control Point) nomi paydo bo'ldi. SCP bilan hamkorlik qiluvchi kommutatsiya tugunlari va stansiyalar xizmatlarni kommutatsiya tuguni SSP (Service Switching Point) deb atala boshlandi. Bundan tashqari SSP ga to'g'ri ulanuvchi, funksional SCP o'xhash qo'shimcha boshqarish tuguni (adjunct, AD), SCP va intellektual perferiya IB funksiyasini bajaruvchi, lekin AD o'xhash

xizmat tuguri service qode, SN); xizmatni yaratish muhiti tuguni SCEP; xizmati ekspluatatsiyaviy boshqarish tuguni SMP bor.

SCEP va xizmatlarni dasturlash hamda xizmat berish jarayonida qatnashuvchintiqiy obyektlar bo'yicha ularni bajarish uchun kerak bo'lgan dastur ma'lumotlarni uzatish uchun xizmat qiladi.

IN – intellektual tarmoq bugungi konsepsiysi bazaviy tez yangi telekommuniya xizmatlarni yaratishdir. Bu xizmatlarning har biri uchun spesifiklari bilan mos ravishda yaratish PSTN abonentlariga bu xizmatlari vaqtida va hamma joyda qo'llanish imkoniyatini ta'minlashning oshirish kerak.

Uchinchi kompyuter telefoniyasi texnologiyasi asosida, bugungi ishlab chiqaritgan intellektual kommutatsiya platformalar o'zlarini integratsiyalag kommutatorlar va xizmatlarni qo'llovchi prosessorlari hisoblanadi. Bu xizmatlarga to'lov haqini hisoblaydi. Bu VIN tugundan intelti tarmoq chetiga olib chiqadi. Masalan, shaxsiy kompyuter.

Kompyutermog'i – Internet 1969-yilda AQSH mudofaa vazirligi tomonidan ket o'z rivojini boshladi. 1983-yilda bu tarmoq ikkiga bo'lindi: harha suqaro. Bu ikkala qism bir-biri bilan bog'langan va Internetni taf qiladi.

Internet mog'i global va axborotlashtirilgan tarmoq hisoblanadi. U axborot knutatsiya tarmog'i asosida quriladi. Internet tarmog'i yordamida yechining xohlagan nuqtasi bilan aloqa o'rnatish mumkin. Buning uchur xil nuqtada joylashgan kompyuterlarni bir-biri bilan muloqot munni yaratish kerak. Bu muhit kompyuter tarmog'i hisoblanadi. Istoq axborotlarni bir-biriga uzatish muhiti bilan bog'liq ko'pgina kontierlarni birlashtirishi mumkin.

Tarmoq turi mavjud:

– LAN (Local Area Networks) – mintaqada kompyuterlarni birlashtiruvchahalliy lokal tarmoqlar;

– WAN (Wide Area Networks) – har xil shaharlar va davlatlardagi kompyuterlari lashtiruvchi global tarmoqlar;

– MAN (Metropolitan Area Networks) – shahar tarmoqlari.

Internet mog'i ikki qismdan iborat. Birinchi qism asosiy bo'lib, magistral dedadi. Magistral katta tezlikda axborot paketini kommutatsiyalaydi. Ichki qism – bu foydalanuvchi tarmoqni o'z ichiga oluvchi lokal tarmoqdir. Bu qismda axborot paketi kichikroq tezlik bilan kommutyalanadi.

Internet mog'i ko'pgina global va lokal tarmoqlardan yaratiladi. Uning mag'lid tarmog'ida Internet xizmatlarining kommutator provayderlari SS (Internet Service Provider) bor. Ular global tarmoq ulanishlarini kommutatsiyalaydi. Uzoqlashtirilgan lokal tarmoqlar LAN o'z ISP larga. Ular global tarmoq bilan aloqa o'rnatadi. Bundan

tashqari ISPSS to‘g‘ri tanlash uchun dominlarning qarshi tizimi DSN (Domain Name System) ga ularadi. Dominlar yuqori, mintaqaviy, lokal (LS) bo‘lishi mumkin.

Raqamlı tarmoqlarda yangi xizmat ko‘rsatishning turlari

SSIO-IXKRT yaratishda quyidagi xizmatlarni kiritish ko‘zda tutiladi:

Telefon aloqasi xizmati. Kelajakda USK bo‘yicha abonent terminalidan boshlab signallash tizimini tashkil etish mo‘ljallanmoqda (belgilangan signallash kanali). Bu xizmat ko‘rsatishning algoritmini sezilarli darajada soddalashtirish imkonini beradi, chunki bu holda so‘zlashuv kanali butunlay xizmat ko‘rsatishga oid ma’lumotlarni uzatishdan xoli bo‘ladi. Bundan tashqari IXKRTni yaratishda telefon aloqasi xizmati abonentlarga juda ko‘p sonli qo‘s himcha xizmat turlarini ko‘rsatishi mumkin.

Teleks xizmati (abonent telegrafi). Bu xizmat 50 Bit/s uzatish tezligida besh elementli kod bilan harf va raqamlarni uzatishni ta‘minlaydi.

Teletekst xizmati (telematn). Bu xizmat abonent terminallari o‘rtasida matnli ma’lumotni uzatish uchun qo‘llaniladi. Telematnli terminal xotiraga ega bo‘lgan elektron yozuv bosma mashinkasidir. Uzatuvchi terminalning xotirasida teleks varaqlarini dastlabki shakllantirilishi amalga oshiriladi. Bundan so‘ng bu ma’lumotni aloqa tarmog‘i bo‘yicha 2400 Bit/s tezlikda qabul qiluvchi terminalga uzatiladi. Uzatish uchun yetti elementli kod qo‘llaniladi.

Faksimil va telefaks xizmati. Bu xizmat asosiy ma’lumotning asl nusxasini uzatishni ta‘minlaydi. Maxsus terminalli qurilma uzatish tomonida skanerlash usuli bilan ma’lumotni elektr signallariga o‘zgartirishni ta‘minlaydi. Qabul qiluvchi terminalda bu varaqni bosishning nuqta-matritsa usuli bilan qayta tiklash amalga oshiriladi. A4 formatdagi bitta varaqni analog rejimda uzatish uchun 1 minutga yaqin vaqt, raqamli rejimda esa 5 sekund vaqt kerak bo‘ladi. Raqamli rejimda uzatish tezligi 64 Kbit/s ni tashkil etadi.

Videomatnli xizmat. Bu xizmat abonentlarga turli xizmatlar tavsiya eta oladi (aviabiletlar buyurtmasi, ob-havo ma’lumoti, taksi chaqirish, ya’ni buyurish va hokazo). Bu xizmat standart telefon kanalidan foydalanadi.

Eshittiruvchi videoteleks xizmati. Videomatnli xizmatdan farqli o‘laroq bu xizmat bir taraflamadir, ya’ni abonent bilan teskari aloqa ko‘zda tutilmaydi.

Ma’lumotlarni uzatish (MU) xizmati (D-kanali bo‘yicha uzatish). MU tushunchasiga abonentga aloqa tarmog‘i ko‘rsatadigan barcha xizmat turlari kiradi, jumladan: telemetriya uchun boshqaruv (hisoblagich ko‘rsatkichlarini olish), xavfsizlik xizmati va distansion (masofadan)

boshqaruv xizmati. Bunday qo'shimcha xizmatlarni o'tkazish imkoniyati
signalash kanali D ning yuklanishiga bog'liq holda o'zgaradi. O'tkazish
imkoniyati 16 Kbit/s bo'lgan D kanali bo'yicha signalni 10 Kbit/s gacha
o'rtacha tezlikda o'tkazish mumkin.

Videotelefon aloqasi xizmati. Bu xizmat harakatidagi tasvirlarni
ularning tovushli signallari bilan uzatish uchun xizmat qiladi.

1. Qo'shimcha xizmatlar.

Bog'lanishga bog'liqli xizmat ko'rsatish mumkin bo'lgan xizmatlar.
Mazkur qo'shimcha xizmatlarga tez va qulay bo'lgan ISDN turidagi
bog'lanishlarni o'rnatuvchi, maxsus turdag'i bog'lanishlarni bajaruvchi,
oraliq saqlash yordamida axborotlarni uzatish va ma'lum bog'lanishlarni
cheklash, undan tashqari maxsus bog'lanishlar va o'zgartirishlar xizmati
kiradi. Tez va qulay bog'lanishlarni o'rmatish va qulay aloqa deganda:
qisqartirilgan terish – ko'p chaqiriluvchi abonentlar uchun, foydalanuvchi
bog'lanish o'rmatish uchun ikki raqamli qisqartirilgan nomerni
qo'llanish mumkin, MATS abonentiga to'g'ridan- to'g'ri terish. Takror
chaqiruvlar, terilgan nomerlarning oxirgisi xotirlanadi.

Terishni takrorlash: ma'lum tugmachani bosishdan yoki avtomatik
tarzda ma'lum muddatdan so'ng bajariladi. Olingan holatda terish:
alohida mikrofon orqali tovushli aloqa.

2. Maxsus turdag'i bog'lanishlarni bajarish.

Bandlik holatida kutishga qo'yish, indikatorli chaqiruv kelganligi
to'g'risida axborot-bog'lanish o'rnatilib bo'lingandan so'ng chaqiriluvchi
abonent akustik signal yoki vizual tarzda chaqiriluvchi foydalanuvchining
nomerini indikatsiyalash bilan bog'lanish o'rmatishga qo'shimcha istagi
mavjudligi to'g'risida ma'lum qilinadi. Abonent quyidagi bog'lanishlar
o'rnatishi mumkin:

– Chaqiruvchilarni qayta adresatsiya qilish – foydalanuvchi barcha
kiruvchi chaqiruvlarni boshqa ixtiyoriy liniyaga uning nomerini kiritish
yo'li bilan qayta yo'naltirishi mumkin.

Chaqiruvlarni qayta ulash – chaqiriluvchi abonent e'tibor bermagan
holat, bunda foydalanuvchi abonent javob bermaganda istagan nomerini
berishi mumkin.

Joyida bo'limgan holda topshiriq berish – avtojavob bergich.

3. Ma'lum bog'lanishlarni cheklash.

– aloqani butunlay man etish – abonentning arizasiga binoan
kiruvchi va chiquvechi bog'lanishlar o'rmatish taqiqlanadi;

– abonentning arizasiga binoan chiquvechi aloqalar taqiqlanadi,
masalan, shaharlararo, xalqaro va qit'alararo aloqa cheklangan vaqtga
mo'ljallangan kiruvchi aloqa taqiqlanadi.

Maxsus bog'lanishlar.

To'lojni to'langanligini munzazam nazorat qilish: chaqiriluvchi
abonent kiruvchi chaqiruvlarda bog'lanish uchun to'lojni to'laligicha

o‘z zimmasiga oladi. Alovida hollarda to‘lovni to‘lashini nazorat qilish — chaqiriluvchi abonent bir holatdan ikinchi holatgacha o‘z zimmasiga bog‘lanishning barcha vaqtini yoki uning bir qismini olishi mumkin.

Avtomatik uyg‘otkich.

Konferens-aloha, uchta yoki undan ortiq abonentni ularash.

Ma‘lumot bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat.

Ko‘rsatish mumkin bo‘lgan xizmatlar.

To‘lov to‘g‘risida ma‘lumot, tarmoq to‘g‘risida ma‘lumot, ma‘lumotnomalar va hokazo.

IXKRT — ochiq turdagи tarmoq hisoblanadi, shuning uchun bu yerda xizmatlar soni cheklanmagan.

2.2. Integral tarmoqqa ulanish imkoniyati o‘zaro hamkorlik bayonnomalari va tutashuvlari (interfeyslar)

Bazaviy va birlamchi imkoniylik — imkoniylik tizimining ikki turi bo‘lib, ular orqali IXKRT kommutatsiya tugunlariga chetki terminallar ulanadi. Bazaviy imkoniylik aksariyat chetki terminallar uchun asosiy aloqa uchun xizmat qiladi, birlamchi imkoniylik esa chetki tizimlar uchun o‘ta yuklanganlik qobiliyatiga ega, masalan, katta tashkilotlarning kommutatsiya tizimlari, ma‘lumotlar bazasi, muassasa lokal tarmoqlari uchun qo‘llaniladi. Bazaviy imkoniylik bir-birining uzatish tezligi 64 Kbit/s bo‘lgan va bitta abonent punkti uchun uzatish tezligi 16 Kbit/s signallahsh kanalini ta‘minlaydi, ya‘ni $BD = 2V + D$ bazali imkoniylikni tashkil etish uchun 144 Kbit/s nominal tezlikka ega bo‘lgan standart ikki simlik abonent liniyasi qo‘llaniladi. Lekin interfeysning tarmoq bilan tutashgan nuqtasida, uzatishning summar tezligi 192 Kbit/s bo‘lishi kerak. Chunki raqamli oqimni boshqarish va sinxronlashni ta‘minlaydigan axborotni uzatish zarur bo‘ladi.



Ch.T

2.3- rasm. Bazaviy imkoniylik.

2V — (tovush, ma‘lumot va hokazo)


D — (signallahsh, ma‘lumotlar)

Birlamchi imkoniylikni tashkil etish uchun uzatish tezligi 64 Kbit/s ega 32 kanaldan iborat mayjud IKM 30—32 uzatish tizimi qo‘llaniladi. Odatdagidek, 0- kanal sinxronlash va boshqarish uchun qo‘llaniladi. 16-kanal uzatish tezligi 64 Kbit/s bo‘lgan D kanal sifatida qo‘llaniladi. Qolgan 30 ta kanal V kanal sifatida qo‘llaniladi. Shunday qilib, $PD =$

30B+D nominal uzatish tezligi 1984 Kbit/s, 0- kanalni hisobga olgan holda haqiqiy uzatish tezligi 2048 Kbit/s bo'ldi.


Asosiy kirish imkoniyatini beruvchining strukturasi. Asosiy kirish imkoniyatini beruvchining funksional sxemasi

BD IXKRT kommutatsiya tuguniga chetki uskunalarning ikki turini ulashni ta'minlaydi. 2.4- rasmda asosiy kirish imkoniyatini beruvchining chizmasi keltirilgan. Birinchi turdag'i TE1 chetki uskuna bir funksional yoki ko'p funksional intellektual uskunalardan iboratdir, ular foydalanuvchi-tarmoq interfeysi bo'yicha XTTKK tavsyanomasiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan va asosiy imkoniylik orqali IXKRT ga ulanish uchun mo'ljalangan.



2.4- rasm. Asosiy kirish imkoniyatini beruvchining chizmasi.

TE2 – bu hozirgi kundagi barcha mavjud uskunalaradir. Bu uskunalar turli maqsadlarda aloqa tarmoqlarida ishlataladi. Ular uskunali adapter (TA) deb ataluvchi maxsus uskuna yordamida IXKRT ga ulanishi mumkin. 2.5- rasmda U interfeysning sikl tuzilishi keltirilgan.



2.5- rasm. U interfeysining siklli tuzilishi.

NT2 tarmog'ning chetki qurilmasi bo'lib, yuklanmaning chetki uskunalar guruhi uchun kommutatsiya va konsentratsiya funksiyasini bajaradi. NT2 buzilishlarni to'g'rilash bilan turli TE1 va TA dan keluvchi signallarni tekislashni amalga oshiradi. Har bir NT2 chetki uskunalarini

ulash uchun bir necha S interfeysli portlarga ega bo'lishi mumkin, bunda Ita port 8 tagacha uskunani ulash imkonini beradi. Agar faqat 1 ta interfeysli port zarur bo'lsa, u holda S va T qo'shilib ketadi. Demak, NT12 va NT1 fizik jihatdan yagona yaxlit interfeysni tashkil qiladi.

NT1 144 Kbit/s nominal uzatish tezligiga ega bo'lgan ikki simli abonent liniyasiga ulanadigan fizik va elektrik chetki uskunasi. LT kommutatsiya tugunidagi abonent liniyaning chetki uskunasidir. LT va NT1, odatda, bir turdag'i uskuna bo'lib, ular abonent liniyaning chetlariga oynali qilib ulanadi. Bu uskuna sinxronlash va boshqaruvni ta'minlaydi (fizik sathda) hamda V interfeysni amalga oshirish uchun axborot uzatish tezligini bir xilda saqlab turadi. ET- signallash bo'yicha chetki stansiya komplekti funksiyasini bajaruvchi uskuna, bundan tashqari ET paketli XK siga ega va paketli axborotga ishlov berishni ta'minlaydi.

Interfeys V asosiy imkoniylikni tashkil etish uchun oddiy ikki simli telefon abonent liniyasi qo'llaniladi. Bu liniyadan raqamli axborot uzatiladi, ya'ni uzatish tezligini, sinxronlash usulini, dupleks aloqani tashkil etish liniyali kodni bog'lovchi fizik sathdagi bayonnomalardir.

Abonent liniyasi bo'yicha nominal uzatish tezligi 144 Kbit/s ni tashkil etadi. Abonent liniyasini sinxronlash - V interfeysning siklli strukturasi. Uzatilayotgan raqamli oqim vaqt bo'yicha har biri 4 ms bo'lgan sikllarga bo'linadi. Bitta sikl 640 bitdan iborat bo'lib, ular 34 ta segmentga bo'lingan, shu jumladan, 32 ta segment W1-W32 sinxroso'z segmenti SYN va boshqaruv segmenti. Har bir XVI segment 19 bitdan iborat, bundan 8 bit V1 kanal, 8 bit V2 kanal va 2 bit D kanal uchun, bittasi esa doimiy «0» qiymatga ega. SYN segmenti 19 bitdan iborat bo'lib, barcha bitning qiymati «1» ga teng. S segmenti 13 bitdan iborat bo'lib, shulardan 12 tasi fizik sathning boshqaruv axborotini uzatish uchun, bir bit esa doimiy «0» qiymatga ega. Shunday qilib, 4 ms ichida 640 bit ma'lumot uzatilishi amalga oshiriladi, bu esa uzatish tezligining 160 Kbit/s ga to'g'ri keladi. Dupleks aloqani ikki usul bilan tashkil qilish mumkin:

1. «Ping-pong» deb ataluvchi ikki simli abonent liniyasi bo'yicha dupleks aloqani tashkil etish.

2. Differensial tizim asosida tashkil etish.

«Ping-pong» usuli bo'yicha NT1 va LT o'rtaida o'zaro ma'lumot almashinuvni navbatma-navbat amalga oshiriladi, ya'ni NT1 dan LT ga va LT dan NT1 ga ma'lumot turli vaqtarda uzatiladi. Bu usul apparatli jihozlarga ko'p xarajat talab qilmaydi, lekin uzatish tezligini ikki marta orttirish zarur bo'ladi. Differensial tizim qo'llanilganda ma'lumot uzatish ikkala yo'nalishda bir yo'la amalga oshiriladi. Biroq differensial tizimning nomukammalligi va liniya ulanganda aniq

moslashtirishga erishishi mumkin bo'lmaganligi tufayli aks-sado (exo) deb ataladigan signal paydo bo'ladi. Bu signalni qoplash uchun maxsus adaptiv filtr qo'llaniladi, u qabul qilgichning chiqishida aks-sado signalini qoplashni ta'minlaydi.


Bu usul apparatli uskunalar qo'llanilishi tufayli murakkab bo'lishiga qaramay, amaliyotda «Ping-pong» usuliga qaraganda aloqaning yaxshi sisatini ta'minlaydi. S va T interfeyslar (foydalanuvchi tarmog'i) S interfeys tarmoq va foydalanuvchi apparati o'rtaida chegara bo'lib xizmat qiladi. Foydalanuvchi har bir S interfeysning standart portiga IXKRT talablariga javob beradigan S tagacha chetki uskunalar ulash imkoniga ega. S interfeysining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bitta portga 8 tagacha chetki uskunalar ulash imkoniga ega. 2.6-rasmda «V» interfeysining tuzilishi keltirilgan.

Bir necha chetki uskunalar uchun bir yo'la ma'lumot almashinuvining ta'minlash imkonini beradi.

Kelayotgan chaqiruvlarni ularning vazifasiga qarab chetki uskunalar o'rtaida taqsimlash.

6 dB dan ortiq bo'lmagan so'nish bilan S interfeysning hududida ma'lumot uzatishni ta'minlash.

S interfeysdan (chetki uskunagacha) bo'lgan liniya uskunali liniya deb ataladi va u har doim 4 simlik bo'ladi. Yuqorida zikr qilingan vazifalarni amalga oshirish N12 ga yuklatilgan. NT 2 S- daraja vazifalarini, qisman 2- daraja hamda chetki uskunalarni ulashغا bir necha port bo'lsa, u holda 3- daraja vazifasini bajaradi.



2.6- rasm. «V» interfeysining tuzilishi.

LT guruhidan keluvchi raqamli oqimlarni multipleksorlashni ET ta'minlaydi. ET ni unifikatsiyalash nuqtai nazaridan 312 kanaldan iborat standart uzatish tezligi 2048 Kbit/s bo'lgan birlamchi raqamli uzatish tizimini qo'llanish maqsadga muvofiqdir.

Sinov savollari

1. *ISDN tarmog'ining arxitekturasini tushuntiring.*
2. *ISDN tarmog'ida qo'llaniladigan kanallarni keltiring.*
3. *ISDN tarmog'ida uzatiladigan axborot turlarini keltiring.*
4. *Baza imkoniylikning vazifasi nimalardan iborat?*
5. *Baza imkoniylikning strukturasini keltiring.*
6. *NT1, NT2 vazifasi nimalardan iborat?*
7. *LT vazifalari nimalardan iborat?*
8. *S interfeysi strukturasi va bajaradigan funksiyasini tushuntiring.*
9. *U interfeysi strukturasi va bajaradigan funksiyasini tushuntiring.*
10. *V interfeysi strukturasi va bajaradigan funksiyasini tushuntiring.*
11. *Intellektual tarmoqning qurish asoslari nimalardan iborat?*
12. *NGN tarmoqlarining tuzilishini keltiring.*

III BOB. RAQAMLI KOMMUTATSIYA TIZIMLARI

3.1. Alkate 1000 S-12 kommutatsiya tizimi

3.1.1. S-12 texnik tavsifi, tuzilmasi

S-12 tizimi mahalliy, tranzit, shaharlararo, xalqaro stansiyalar tariqasida xohlagan darajadagi tarmoqda qo'llash uchun mo'ljallangan. Tizim 24 kanal va 32 kanalli IKM tizimi bilan ishlay oladi. Stansiya sig'imi keng oraliqda o'zgarishi 100000 (500000) abonent liniyasigacha bo'lishi mumkin.

Tizim tugunli sifatida qo'llanilsa, tizim uskunasi 60000 ularash liniyasi ulab bera oladi. Tizim kommutatsiya maydoni 25000 Erl telefon yuklanishini o'tkazishi mumkin. Eng katta yuklanish soatida stansiya 750000 chaqiruvga xizmat ko'rsata oladi. Telefon apparatining elektr ta'minoti sifatida 48V (60V) kuchlanishli markaziy batareya ko'zda tutilgan. Abonent liniyasi himoya qobig'ining minimal qarshiligi 15 kOm. Abonent liniyasiidan Raqamli axborotni impuls ko'rinishda ham chastotali kod bilan qabul qila oladi. Abonentlarni 20 ta kategoriyyaga bo'lishi mumkin.

Tizimda abonentlarga har xil qo'shimcha xizmat turlari berish mumkin. Tizimda to'liq taqsimlangan boshqarish tuzilmasi qo'llanilgan. Shuning uchun stansiya sig'imi ravon oshirish mumkin. Butunlay taqsimlangan boshqarish prinsipi tizimning mustahkamligini orttiradi va o'sib borayotgan talablarga, ishlash shartlarini o'zgartirishga imkon beradi.


Boshqaruvchi uskunalar modullar ko'rinishida bajarilgan. Boshqaruv qurilmalari asosiga INTEL-8038, 80386 turidagi mikroprosesorlar qo'yilgan. Boshqaruv qurilmalari ikki turga ajralgan: modul boshqaruv qurilmalari (TSE) va qo'shimcha boshqaruv qurilmalari (ASE). Modul boshqaruv qurilmasi modulning ish jarayonini boshqaradi va raqamli kommutatsiya maydonida ularash o'rnatadi. ASE terminal uskunasi yo'q. Ular abonent va ularash liniyalarini chaqiruvini boshqarish vazifasini hamda tizim vazifalarini (ma'muriy resurslarni boshqarish va hokazo) bajaradi.

S-12 tizimi har xil axborot manbaini ularashga yo'l beradi. 3.1- rasmida S-12 tuzilishga ulanadigan liniyalar turi keltirilgan:

- analog abonent liniya;
- ISDN abonentini;
- korxona ATS abonentlarini;
- konsentratorni va hokazo.

Bundan tashqari tizim paket kommutatsiya tarmog'i, keng polosali (tasmal) ISDN tarmog'i, aloqani boshqarish tarmog'i, uyali tarmoq va hokazolar bilan hamkorlikda ishlay oladi.

Tizimda raqamli texnologiya qo'llanilgan, chunki uni boshqarish va ishlashi mikroprosessorlarda bajarilgan dasturli boshqaruv qurilmasi yordamida amalga oshiriladi. Axborot taqsimlash raqamli kommutatsiya maydoni yordamida bajariladi.



3.1- rasm. S-12 ga ulangan liniyalar.

Rasmdagi belgilar:

Analog Subscriber – Analog abonent;

Remote Subscriber – chiqarilgan abonent bloki (konsentrator);

ISDN Subscriber – ISDN abonenti;

Network Service Center – tarmoqda texnik xizmat ko'rsatish markazi;

Public Switched Telephone Network – umumiy foydalaniладиган коммутатсиya телефон тармоғи;

Packet Switching Network – пакетли коммутатсиya тармоғи;

Broad Band Network – кенг полосали (тасмал) тармоқ;

Cellular Network – uyali aloqa тармоғи.

S-12 tizim arxitekturasi modul asosida ko'rilgan. Bunday arxitektura ishlab turgan tarmoqda ham, raqamli tizim integral xizmat tarmoq'ida ham ishlay olishini ta'minlaydi. Tizim asosiga terminal va tizim

modullaridan tashkil topgan taqsimlangan boshqarish qo'yilgan. Bu modullar raqamli kommutatsiya maydoniga 1KM trakti yordamida ulanadi. Bu ikki traktlar tizimning ichki vazifalarini bajarish uchun moslashtirilgan.

Terminal modullar maxsus vazifalarni bajaradi va bu modulga ulangan liniyadagi boshqarish liniya axborotni kommutatsiya maydoni bilan moslashtirish uchun kerak. Tizim va terminal modullar ulash o'rnatish jarayonida markaziy boshqaruv qurilmasining ba'zi bir konfiguratsiyasini hosil qiladi. Ulash o'rnatish jarayonida modullarning bir-birlari bilan aloqasi raqamli kommutatsiya maydoni orqali bajariladi.

Raqamli kommutatsiya maydoni DSN (Digital Switching Network) raqamli kommutatsiya element (multiport) asosida quriladi va murakkab tuzilmaga ega. Maydon DSN ning tuzilishi stansiya sig'imiga va kerakti bo'lgan o'tkazuvchanlik qobiliyatiga bog'liq.

Har bir modul maydonga ikkita moslashtirilgan 1KM trakt yordamida ulanadi. Bu modullar turidan qat'iy nazar yagona protokol bilan muloqotda bo'ladi. Hamma modullar boshqarish elementi SE (control element) ga ega. Boshqaruv elementi mikroprosessoridan, xotiradan va kommutatsiya maydoni bilan bog'lanish uchun standart interfeysdan iborat. Boshqaruv elementi terminal boshqarish elementi (TSE) va qo'shimcha boshqarish elementi (ASE) bo'lishi mumkin.

Terminal boshqaruv elementi klaster uskunaga ega. Bu klaster shu modulning maxsus vazifasini bajarishga mo'ljallangan. Misol uchun analog abonentning liniya uskunasi, raqamli traktning liniya uskunasi va hokazo. Klaster bilan interfeys vazifasini standart interfeys bajaradi. Prefiks tahsil qilish, xatolarga ishlov berish, resurslarni taqsimlash va hokazo o'ziga xos masalalarini yechish uchun ASE turidagi boshqaruv element qo'llaniladi. Bular klaster yoki boshqa uskunalarga ega emas ASE TSE ni qo'llash vazifasini bajaradi.

3.2- rasmida S-12 tiziminining tuzilish sxemasi keltirilgan. Sxemada markaz bo'lib raqamli kommutatsiya maydoni (DSN) hisoblanadi. Unga hamma boshqarish modullari ulangan. Terminal modullar boshqaruv elementi (TSE) va terminal uskunasidan iborat. ASM (Analog Subscriber Modul) – analog abonent liniyasining moduli, TSE- boshqaruv elementi va analog abonent liniyasini (RKM) ulab beruvchi terminal AST dan tashkil topgan. AST ga odatdagisi telefon apparati, taksofon, yuqori ustunlikka ega apparat va hokazolar ulanishi mumkin. Terminal qismi BORSCHT vazifasini bajaradi.

DTM Digital Trunk Module – raqamli ulash liniyalar moduli. Bu modul boshqa kommunikatsiya tugunlarni RKM ga ulash uchun qo'llaniladi. Modul 24 kanalli yoki 32 kanallli 1KM tizimli raqamli ulash liniyalarini boshqarish va ulash uchun qo'llaniladi.


STM – Clock and Tones Module – takt va tonal signallari moduli.

RJM – Remote Interface Modul – chiqarilgan abonent bloki (konsentrator) bilan interfeys moduli. Modul DTM moduli kabi quriladi. Blokni boshqarish (16 kanalda tashkil qilingan) umumkanal signallash (UKS) usuli bilan bajarilgan. Modulda RSUTT qo'llaniladi.

RSUTT – Remote Subscriber Unit Trunk Terminal – chiqarilgan abonent bloki bilan trakt terminali.

SCM-Service Circuit Modul – xizmat komplektlar moduli. Modulda ko'p chastotali qabul qiluvchi va uzatuvchi terminal (MR/ST) qo'llaniladi. Modul boshqa ATS bilan aloqa o'rnatilayotganda boshqaruv va hamkorlik signallarini hamda abonentning telefon apparatidan ko'p chastotali usulda raqamni qabul qilish uchun qo'llaniladi. Bu modul tizimning hamma qurilmalariga taqsimlanadigan asosiy takt chastotasini (8MHz) ishlab chiqaradi. Yana har xil akustik signallar raqamli ko'rinishda ishlab chiqariladi.

CPM – Computer Peripherals Modul – mashina periferiyasi moduli. Bu modul tashqi xotirani va «kishi-mashina» dialogi uchun terminalni boshqarish uchun qo'llaniladi. Modul tizimga texnik xizmat ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi.



3.2- rasm. S -12 tuzilish sxemasi.

ISDNSM-ISDN — abonent moduli. Bu modul har xil turdag'i aborotni (telefon, paket va boshqa) uzatishni ta'minlaydi.

ISDNTM — integral abonentlar tarmog'i bilan aloqani ta'minlash moduli. Modul 2048 Kbit/s tezlikda ishlaydigan guruhli 32 kanallli traktga xizmat ko'rsatadi. U ma'lumot paketi yoki signallashga ishlov beradi.

ISDNJM-ISDN — chiqarilgan abonent blokining interfeysi moduli. Bu modul analog — raqamli aralash konsentratori bo'lib hisoblanadi. Bu shahar va qishloq sharoitiga mos loyihalashtirilgan modul. Konsentrator 976 gacha chiqarilgan analog abonentlarini ulashga yo'l beradi. Modul RKM ga abonent guruhini raqamli ulash liniyasi bo'yicha ulashni ta'minlaydi.

HCCM-HJGH-Common Channel Modul 7 sonli — UKS moduli (yuqori unumadorlik umumkanal moduli).


ASE — qo'shimcha boshqaruv qurilmasi.

DSN — raqamli kommutatsiya maydoni.

DSN vaqt — fazoviy kommutatsiya tizimidan iborat. Maydon har xil chaqiruvga xizmat ko'rsatish bosqichida har xil terminal modullar va tizim modullar orasida ulash o'rnatish uchun qo'llaniladi. S-12 tizimida o'liq taqsimlangan boshqarishga ega bo'lgani uchun va «umumiy shina» bo'lmagani uchun modullar orasidagi hamkorlik RKM orqali hosil qilingan traktdan bajariladi.

3.1.2. Raqamli kommutatsiya maydonining qurilish strukturası

Raqamli kommutatsiya maydoni multiportlardan yig'iladi. Multiportlar shunday ularadiki, bu multiportlarga ulangan boshqaruv modullariga ulana olish imkonini yaratadi. Bunday ichki bandlik ehtiomi minimal bo'ladi. 3.3- rasmda RKM ning tuzilish chizmasi keltirilgan.



3.3- rasm. RKM ning qurilish tamoyili.

Kommutsiya maydon arxitekturasi tizim ekspluatatsiya qilinayotganida keng sig'im diapazonida maydon sig'imini tekis oshirish mumkinligini ko'zda tutadi.

Multiport kommutatsiya maydoni qurish uchun asosiy element hisoblanadi va 16 portga ega, portlarga to'rt simli IKM traktlar ulangan.

Raqamli kommutatsiya maydon ikkita izlash bosqichiga, bir zvenoli imkon bosqichiga (IB) va guruhli izlash bosqichiga (GIB) ega. GIB kommutatsiya maydoni sig'imiga va talab qilingan o'tkazuvchan qobiliyatiga qarab to'rtta tekislikdan iborat bo'lishi va har bir tekislikda bittadan uchtagacha zvenolar bo'lishi mumkin.

Imkon bosqichining tuzilishi

Imkon bosqichi kirish kommutatorlaridan iborat. Terminal va tizim modullari AS (Access Switch) kirish kommutatorlariga ularadi. Har bir kommutator multiportdir. Kirish kommutatori portlari quyidagicha taqsimlanadi:

- 0 — 7 — portlar terminal modullarini ulash uchun qo'llaniladi;
- 12 — 15 — portlarga tizim modullari ularadi;
- 8 — 11 — portlarga tekisliklar ularadi.

Shunday qilib, kirish kommutatorlari terminal va tizim modullarini Raqamli kommutatsiya maydonga ulash hamda tushayotgan telefon yuklanishini har xil tekisliklarga taqsimlash uchun qo'llaniladi.


Modullar imkon bosqichining juft multiportlariga (AS) ularadi. Modullar xizmat ko'rsatadigan yuklanishga qarab 2 ta kirish kommutatorlari (AS) ga 4 ta yoki 8 ta modullar ularishi mumkin. Bunday konstruksiya terminal subbloki TSU (Terminal Subunit) deb nom oldi. 3.4- rasmida subblockning tuzilishi ko'rsatilgan.

Imkon bosqichi 1024 gacha kirish kommutatoriga ega bo'lishi mumkin. Bulardan juftlik (512 juftlik) hosil qilinadi. Shunday belgilash kerakki, agar ularishi kerak bo'lган modullar bitta kirish kommutatoriga ulangan bo'lsa, ular orasidagi ularish shu kommutator orqali GI bosqichisiz o'tkaziladi.

Bitta kirish kommutatoriga 8 ta AL terminal modullarini yoki 2 marta kam ulash liniya (UL) larini ulash mumkin. Bunda 1 ta kirish kommutatoriga ulash mumkin bo'lган AL va ulash terminal modullarning bir-biriga nisbati: 8/0, 6/1, 4/2, 2/3, 0/4; kirish kommutatoriga ularadigan tizim modullar soni chegaralanmasa ham bo'ladi.

Lekin tizim modullar soni terminal modullar sonidan birmuncha kam, shuning uchun ular 4 tadan ularadi.

Agar tizim modullari kirish kommutatoriga ularmagan bo'lsa, bu portlar qo'llanilmay qoladi. Bitta subblockdagi modullar orasidagi ularish kerakli kirish kommutatori ichida bajariladi. Har xil terminal subblockka



3.4- rasm. Terminal subblokning tuzilishi.


kirgan modular orasidagi ulanish GI bosqichi resurslaridan foydalaniб bajariladi. Agar 4 ta terminal subblokidan 1 ta guruh tashkil qilinsa, ularning hamkorligi uchun GI bosqichida 1 ta multiblok ajratiladi. Bunda «Terminal blok» hosil bo'ladi.

Terminal blok tuzilishi

GI bosqichi sifatida bitta multiportning qo'llanilishi kichik sig'imli ATS qurishga imkon beradi. Bunda multiportning hamma 16 porti terminal va tizim modullarini ulash uchun qo'llanilishi mumkin. Lekin ATS sig'imini oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun S-12 tizimli stansiyalarda GI bosqichining birinchi zvenosidagi multiportining O-7 portlari terminal subbloklarni ulash uchun ajratilgan, qolgan 8-15 portlar keyinchalik raqamli kommutatsiya maydonining sig'imini orttirish uchun qo'llaniladi. Bunday konfiguratsiya terminal blok (TU) deb nom oldi.

Ulash o'rnatilayotganda multiport faqat ishga tushirilgan portlarni qo'llanadi. 3.3- va 3.5- rasmlardan ko'rindaniki, terminal modullar kommutatsiya maydonining bir tomonida joylashgan. Bunday maydon o'ralgan maydon deb ataladi. Demak, kommutatsiya maydonida

xohlagan ikkita modulni ularash uchun to'g'ri trakt o'rnatish va maydonning ba'zi bir joyida (aks ettirish nuqtasida) bu trakt chaqirilayotgan modul tomon qaytarilishi kerak. Terminal subblokda aks ettirish nuqtasi birinchi zvenodagi multiportning ma'lumotlar shinasi hisoblanadi.




3.5- rasm. Terminal blok TU ning tuzilishi.

Seksiya tuzilishi

O'rta va katta sig'imli ATS larning kommutatsiya maydonini qurishda bir necha terminal blok qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ular orasidagi hamkorlikni bajarish uchun kommutatsiya maydonida ikkinchi zveno qo'yiladi. 3.6- rasmda seksiya tuzilishi keltirilgan. Shunday qilib, har bir zveno modullarning yangi guruhini ulaydi. Bu zvenolar GI deb ataladi. Zvenolar orasidagi aloqa uchun 1- zvenodagi multiportning 8—15 portlari va ikkinchi zvenodagi multiportning 0—7 portlari qo'llaniladi. Bunday konfiguratsiya seksiya deb ataladi (Section). Ikkinchi zveno multiportlarning 8—15 portlari kommutatsiya maydonining sig'imini orttirish uchun qo'llaniladi. Bunda uchinchi zveno kiritiladi. Agar uchinchi zveno qo'llanilmasa, bu port qo'llanilmaydi.

Birinchi va ikkinchi zvenolar orasidagi aloqani aniqlovchi birinchi zveno multiportning raqami ikkinchi zveno port raqamiga teng.
8 ga ($n=8$) kamaytirilgan birinchi bosqich port raqami ikkinchi zveno multiport raqamiga teng.




3.6- rasm. Seksiya tuzilishi.

Uchta GI zvenoli RKM ning tuzilishi

RKM ning sig'imiga qarab 1 dan 16 gacha seksiya qo'llanilishi mumkin. Seksiyalar bir-biri bilan hamkorlikda bo'lishi uchun GI zvenosi o'llaniladi. Bu bosqich oxirgi hisoblanadi va multiportdagи hamma portlar seksiyalarni ulash uchun qo'llaniladi. 3.7- rasmda RKM ning tuzilishi ko'rsatilgan.

Uchinchi bosqich 8 guruhdan tashkil topgan, har bir guruhga 8 multiport kiradi. Bu multiportlarning har biri hamma seksiyalar bilan ulangan. Seksiya va guruh yig'indisi ikkilikni bosil qiladi. Xizmat ko'rsatilayotgan telefon yuklanishiga qarab, RKM da 4 ta gacha tekislik bo'lishi mumkin. RKM dagi mustahkamlikni orttirish uchun 2 ta tekislikdan kami qo'llanilmaydi. Tekisliklar kirish kommutatorining AS (8—11 portlari) mos portlari bilan bog'langan.



3.7- rasni. RKM ning tuzilishi.

Mahalliy ATS larni qurish uchun ikkita tekislik qo'llaniladi. Tranzit tugunlarida va AMTS larda 3 yoki 4 ta tekislik qo'llaniladi. Shunday qilib, RKM da 2 tadan 4 gacha tekislik bo'lishi mumkin. Har bir tekislikda 1 tadan 3 tagacha zveno (GI bosqichi) bo'lishi mumkin. 3.7- rasmda keltirilgan RKM ni ko'ramiz. GI bosqichlardan birida o'rnatilgan multiportlar soni tushayotgan yuklanish va stansiya sig'imiga bog'liq. Birinchi GI bosqichdagi multiportlar soni kirish kommutatorlar soni bilan aniqlanadi. $N_{TM} = N_{AS}/8$. Birinchi GI bosqichi (zveno) dagi har bir RKE 8 ta (0–7) portlari kirish kommutatorlarini ulash uchun qo'llaniladi, qolgan 8 ta chiqish (8–15) 2 – GI bosqichi tomon ketadigan oraliq liniyalarni ulash uchun qo'llaniladi. Har bir tekislikda faqat bitta RKE multiporti bo'ladi. Bu multiportga 4 gacha juft kirish kommutatori ulanadi. Agar tekislikda ikkita zveno (GI bosqichi) bo'lsa, birinchi zvenoda RKE (DSE) guruhlari tashkil qiladi. Har bir guruhda 8 tagacha multiportlar bo'lishi mumkin.

Agar tekislikda 3 zvenoli sxema qo'llanilsa, birinchi zvenoda 16 tacha multiportlar guruhini tashkil qilish mumkin. 2 - zveno multiportlari ham har birida 128 tagacha multiportga ega bo'lishi mumkin. Uchinchi zvenoda 8 guruh, har birida 8 tagacha multiport bo'lishi mumkin.

Jinchchi zveno RKE dagi (DSE) hamma 16 portlar seksiyalarni ulash un qo'llaniladi. GI bosqichining bunday yig'ilishi RKM sig'imini matni to'xtatmay oshirishga yo'l beradi.

RKM dagi kommutatsiya jarayoni. Boshqaruvechi buyruqlar

RKM multiport DSE larda tashkil topgan. Har xil portlarni qabul uchchi va uzatuvchilari orasida kommutatsiya qilish uchun boshqarish ilmasi bor. Bu BQ kommutatsiya jarayonini bajarish uchun boshqaruvchi buyruqlarni olishi kerak. Bu buyruqlar boshqaruv qurilmasi ilportiga ulagan IKM traktlarning kirish kanallaridan tushadi. Boshqaruvchi buyruqlar manbai modullarning boshqaruv qurilmalari SE (ACE) hisoblanadi. Kommutatsiya maydoni orqali 4 simli ulash xtlarining kommutatsiyasida bir-biri bilan ulanadigan 2 ta modul nashadi.

Shunday qilib, 2 ta modul orasida qabul qilish va uzatish trakti qilish kerak. Bu traktlar ikkita qabulga kommutatsiya qilinadi. To'g'ri yo'nalishda ulash-o'rnatishni chaqirayotgan modulning boshqaruv elementi SE (TSE yoki ASE) boshqaradi. Teskari yo'nalishda ikkita modul orasida kommutatsiya natijasida ikki yo'nalishli (dupleks nalihi) 4 simli ulash trakt o'rnatiladi. Kommutatsiya jarayonida dan buyruqlar portlar qabul qiluvchilarining boshqaruv qurilmalariga hadi. Buyruq bitta multiportning qabul qiluvchisi va uzatuvchisi usidagi kommutatsiyani boshqarish uchun mo'ljallangan. Kommutatsiya jarayonida bir necha ketma-ket ulagan multiportlar nashishi mumkin. Shuning uchun chaqirilayotgan modulning boshqaruv elementi SE bir necha buyruqlarni berishi kerak. Demak, bitta ulanilganiga bog'liq.

Har bir buyruq RKE (DSE) ning qabul qiluvchi portiga tushadi va uvdan o'tadi. Buning uchun to'g'ri axborot olib beruvchi buyruqlarning aniq maydoni tahlil qilinadi. Kanal so'zi 16 bit axborotga. Buyruq so'zi 4 ta qism (maydon)ga bo'lingan. Kanal so'zining uni aniqlash uchun kanal 2 ta boshqaruv biti bor. Kanal axboroti bil qilinayotganda boshqaruv bitlarni tahlil qiladi. Bu uzatiladigan borot turini aniqlash uchun bajariladi.

01 – bayonnomma (Tanlash) multiportning qabul qiluvchi va uzatuvchisi orasida ulash o'rnatish lozimligini ko'rsatadi.


11 – bayonnomma (SPATA- Speech and Data) – kanal So'zlash nali yoki ma'lumotga ega.

10 – bayonnomma (ESCAPE) – kanalda prosessorlararo xabar bor.

00 – bayonnomma (bo'sh, bo'shatish) – kanal bo'sh bo'lishi kerak yoki kanal bo'shligini indikatsiya qilish (yuklanish yo'q).

Shunday qilib, bayonnomma bitlari so'zdagi boshqa bitlar bilan qanday operatsiyani bajarishini ko'rsatadi.

3.8- rasmida boshqaruv buyruqlarining turi ko'rsatilgan.




3.8- rasm. Boshqaruv buyruqlarining turi.

Erkin izlash bo'lsa, buyruqda ulash o'rnata oladigan portlar ro'yxatini aniqlovchi axborot yozilgan bo'ladi. Xohlagan bo'sh kanal tanlanadi. Yo'naltirilgan izlash bo'lsa, buyruqda chiqish portining raqami ko'rsatilgan bo'ladi va shu port bilan bog'langan IKM traktidan xohlagan kanalni qidirishga ko'rsatma beriladi. Texnik xizmat ko'rsatilayotganda buyruqda kerakli port va kerakli kanal raqami beriladi. Chaqirilayotgan modulning boshqarish elementi SE har xil izlash bosqichi qabul qiluvchisiga ketma-ket uzatayotgan «Tanlash» buyrug'i asosida kommutatsiya maydoni orqali ulash o'rnatiladi.

Kerakli modulga ulanish maqsadida aks etish nuqtasiga yetguncha ketma-ket maydon ichida surib ulash o'rnatiladi. Ulash eng qisqa yo'l bo'yicha o'rnatiladi. Shuning uchun bitta terminal subblock tarkibiga kirgan modullar uchun imkon bosqichining (Access Stage) kirish kommutatorida AS (Access Switch) aks etish nuqtasi joylashgan bo'ladi. Bitta terminal blok tarkibidagi modullar uchun aks etish nuqtasi birinchi bosqich First Stage GI bosqichida GS- Group Switch bo'ladi.

Bitta terminal blok tarkibidagi modular uchun aks etish nuqtasi ulashgan bo'ladi. Bitta seksiya modular uchun aks etish nuqtasi ikkinchi bosqichda (Second Stage) bo'ladi. Agar modular har xil seksiyalarda esa, aks etish nuqtasi uchinchi bosqichda (Third Stage) bo'ladi.

3.9- rasmida aks etish nuqtasining kommutatsiya maydonida ulashishi ko'rsatilgan.



3.9- rasm. Aks etish nuqtasining joylashishi.

Ulash o'rnatishda qo'llaniladigan zvenolar soniga qarab «Tanolash» yurug'inining soni 1, 3, 5 yoki 7 ta bo'lishi mumkin. Ulash matilayotganda chaqirayotgan modulning boshqaruv elementi SE hqaruv buyruqlarini beradi. RKM dagi aks etish nuqtasigacha ulash xotining surilish harakati erkin izlash vazifasini aniqlovchi buyruq sirida bajariлади. Aks etish nuqtasidan chaqirilayotgan modulga trakt naltirgan izlash buyrug'i ta'sirida o'rnatiladi. Misol uchun har xil siyallardagi modular orasida ulash o'rnatishni ko'ramiz. Bu holda etish nuqtasi uchinchi zvenoda (Third Stage) joylashadi.

Ulash o'rnatish uchun quyidagi 7 ta buyruqni ketma-ket uzatish shak:

- (1) 8 dan 11 gacha xohlagan port, xohlagan kanal.
- (2) 8 dan 15 gacha xohlagan port, xohlagan kanal.
- (3) 8 dan 15 gacha xohlagan port, xohlagan kanal tanlang.
- (4) 15 port, xohlagan kanal tanlang.
- (5) 7 port, xohlagan kanal tanlang.
- (6) 1 yoki 1—4 port, xohlagan kanal tanlang.
- (7) 2 port, xohlagan kanal tanlang.


Ulash-o'rnatish prinsipi

RKM ga ulangan har bir modul tizim adresiga NA (Networg Adress) ega. Bu adres RKM (DSE) ga modulning ulash nuqtasini aniqlaydi. Tizim adresi 13 razryadli so'z tariqasida beriladi. U 4 ta simvoldan Z,Y,X,W (3.10- rasm) iborat. Bu simvollar quyidagilarni bildiradi:

Z—seksiya (0—15) raqamini ko'rsatadi, ya'ni G1 bosqichi 3 zvenosidagi multiportning port raqamini 0—15 aniqlaydi (4 bit).

Y—har bir tekislikdagi ikkinchi bosqich terminal blok ulangan multiport raqamini (0—7) aniqlaydi (3 bit).


X—har bir tekislikdagi birinchi zveno. DST kommutatorini terminal subblock ulangan portning kichik raqamini (0—3) aniqlaydi (2 bit).



3.10- rasm. 3 ta zveno orqali trakt.

W — modul ulangan kirish kommutatorining port raqamini (0—7 yoki 12—15) aniqlaydi (4 bit).

Har bir Z simvoliga Y,X ,W koordinata guruhi to'g'ri keladi. Har bir Y simvoliga X, W koordinata guruhi to'g'ri keladi. Har bir X simvoliga W koordinata to'plami to'g'ri keladi. Uchta GI bosqichli RKM (DSE) dagi maksimal adreslar soni $12 \times 4 \times 8 \times 16 = 6144$ ni tashkil qiladi. Bu RKM ga ulana oladigan modullarning maksimal sonini aniqlaydi. 3.11- rasmda modul koordinati ko'rsatilgan.



3.11- rasm. Modul koordinati.

Ulash o'rnatilayotganda chaqirayotgan modulning boshqaruv elementi SE chaqirilayotgan modul ulangan joyini aniqlaydi. Bu chaqirilayotgan modul adresini Z,Y,X,W chaqirayotgan modulning maxsiy adresi Z,Y,X,W bilan solishtirish usuli bilan bajariladi. Adreslarni solishtirish kattadan boshlab simvollarni ketma-ket solishtirish usuli bilan jariladi. Solishtirish natijasida aks etish nuqtasi joylashgan zvenoni aniqlaydi. Topilgan aks etish zvenosi chaqirilayotgan modulga ularash bo'li nechta zveno orqali o'rnatilishini ko'rsatadi. Shunday qilib, boshqaruv buyruqlar soni aniqlanadi.

Adreslarni solishtirish quyidagi natijalarni beradi. Agar Z qiymati mos tushmasa, bu modullar har xil seksiyaga ulanganini va aks etish nuqtasi 3- zvenoda joylashganligini bildiradi, shuning uchun 7 ta buyruqni shakllantirish kerak. Agar Z qiymati teng bo'lsa, lekin U qiymati farqlansa, bunda modullar bir seksiyadagi har xil terminal blokiga ulangan. Demak, aks etish nuqtasi ikkinchi zvenoda joylashgan. Shuning uchun 5 buyruq yaratish kerak.

Agar Z va Y qiymatlar mos tushsa, lekin X qiymati teng bo'lmasa, modullar bitta terminal blokidagi har xil terminal subblokiga ulangan. Aks etish nuqtasi birinchi zvenoda joylashgan. Shuning uchun 3 ta buyruq yaratish kerak. Agar faqat W qiymati farqlansa, modullar bitta terminal subblokka ulangan va aks etish nuqtasi kirish kommutatori (AS) da joylashgan. Shuning uchun bitta buyruq yaratish kerak. Buyruqlardan har biri RKM dagi bitta zvenodagi biri RKM dagi bitta zvenodagi ularash o'rnatishni boshqaradi. Agar RKM (DSN) kamroq venolar bilan ko'rilgan bo'lsa, adresdagi Z va Y koordinatalari mos shadi.


Ulash o'rnatish jarayonini boshqarish uchun kerak bo'lgan boshqaruv buyruqlar soni aniqlangandan keyin chaqirilayotgan modul SE ulana madigan ikkita kirish kommutatoridan biriga ulanishi amalga oshiriladi, anlangan IKM traktidan bo'sh kanalni band qiladi. Bu kanal bo'yicha boshqaruv buyruqlar ketma-ketligi uzatiladi. Birinchi buyruq RKM

dagi tekislikni tanlaydi. Kirish kommutatori chiqish IKM traktlaridan birida bo'sh kanalni tanlaydi va buyruq kelgan kanalga uni ulaydi. Keyingi buyruq birinchi zveno multiportiga tushadi va ikkinchi zvenodagi multiportlardan birinchi tanlash jarayonini boshqaradi.

1- va 2- zvenolardagi multiportlarni ulovchi IKM traktida bo'sh kanal tanlaydi. Keyingi buyruq ikkinchi zvenodagi tanlangan multiportiga tushadi va uchinchi zvenodagi multiportlardan biriga ularish jarayonini boshqaradi. Uchinchi zveno multiportidan chaqirilayotgan modul tomon faqat bitta IKM trakt bor.

Shunday ikkinchi zveno multiportiga va chaqirilayotgan modul tomon bitta IKM trakti mavjud. Shuning uchun 4 - va 5 - buyruqlar yo'nalgan izlashni boshqaradi va bu buyruqda kerakli IKM traktining (n) adresi bo'ladi. Birinchi zveno multiportida va chaqirilayotgan modul joylashgan imkon bosqichida 2 ta IKM trakti bor, shuning uchun 6- buyruqda n yoki $n+4$ IKM liniyaning adresi bor.

Kirish kommutatoriga berilayotgan 7- buyruqda kerakli modulga ulab bera oladigan IKM traktining (n) raqami bor. 3.12- rasmida berilayotgan buyruqlar soniga bog'liq ravishda har xil zvenolar soni orqali ulashni o'rnatish algoritmi ko'rsatilgan.




3.12- rasm. Ulashni o'rnatish algoritmi.

3.12- rasmdan ko'rindik, ulash o'rnatish tasodifiy o'tadi, chunki oldindan aniq ulash trayektoriyasi ma'lum emas. Har bir «Tanlash» buyrug'i multiportda bajariladi va ulashda qatnashgan uzatuvchi port qabul qiluvchi portga «Ulash o'rnatiladi» degan tasdiqlovchi signal uzatadi. Agar «n portini, xohlagan kanalni tanlash» buyrug'ini bajarayotgan vaqtida u bilan ulangan IKM trakt bo'sh kanalga ega bo'lmasa, unda uzatuvchi port qabul qiluvchi portga tasdiqlovchi signal

zatmaydi. Natijada kirish kanali «Tasdiqlovchi signal yo'q» (NACQ) olatiga o'tadi.

Qabul qiluvchisi buni eslab qoladi. Oldingi o'rnatilgan ularash chastkalari keraksiz bo'sib qoladi va bo'shatiladi. Buning uchun ularashda tashashgan IKM traktlarining 16 kanali bo'yicha chaqirilayotgan modul boshqaruv elementi SE ga «Tasdiqlovchi signal yo'q» degan signal zatiladi. Bu signalni olgan Boshqaruv elementi SE kirish kommutatori a boshqa tekislikdagi GI bosqichi orasidagi boshqa traktni qo'llanib, ularash o'rnatishga yangidan urinish qilishi mumkin. Shunday qilib, Tekislikdagi GI bosqichining to'liq hajmini hisobga olganda, 4 marta ularash o'rnatishga harakat qilishi mumkin. Modul va kirish kommutator asida tanlab olgan kanal hamma qayta ularash o'rnatishda saqlanib oлади. Agar shu kanal orqali hamma qayta ularash o'rnatishlar natijasiz o'llsa, modul 2- kirish kommutatoriga ulanadi va ularash o'rnatish jarayoni vom etadi.

3.13- rasmida GI bosqichi birinchi zvenosi multiportida kanallar o'qligi tufayli ularash oxiriga yetmagan, ya'ni «tasdiqlovchi signal yo'q» signalini uzatish jarayoni ko'rsatilgan.



3.13- rasm. «Tasdiqlovchi signal yo'q» signalini uzatish.


Terminal moduldan kirish kommutatoriga [1] i vaqt kanali orqali rakt o'rnatilgan. Bu vaqt kanal kirish kommutatorida j kanali bilan kommutatsiya qilingan [2], [3]. Multiportda aks etish nuqtasi joylashgan. Yaholanki, tanlab olingan chiqish portida bo'sh vaqt kanali yo'q ekan (Switching Not Possible), ularash mumkin emas, chunki T5 portida bo'sh kanal yo'q — T5 With no free channels. Shuning uchun 5- port 1-portga tasdiqlovchi signal bermayapti. Chaqirilayotgan modul tomon 6 kanal bo'yicha kirish kanal identifikatori (bu holda j) ni birinchi

bosqichga uzatadi [4]. Birinchi bosqich multiporti ulash haqidagi axborotni qo'llanib chaqirayotgan modul Boshqaruv elementi SE ga 16 kanal bo'yicha kirish kanal identifikatorini yuboradi [5]. Terminal boshqaruv element TSE identifikatorni o'qiydi va qayta ulash o'rnatishiga harakat qilib ko'radi.

Agar ulash o'rnatilgan bo'lsa, hamma vaqt davomida bu ulash ushlab qolinadi, chunki kanal axborotidagi buyruq bitlari trakt holati faolligi to'g'risidagi signalni berib turadi. O'rnatilgan traktni bo'shatish uchun kanal axborotidagi buyruq bitlarida 00 signal paydo bo'lishi kerak. Trakt bo'shatilayotgan vaqtida xato bo'imaslik uchun bo'shatish buyrug'i 2 marta ketma-ket uzatiladi.

Axborotni to'g'ri, xatosiz uzatish uchun kanallarni sinxronlashtirish kerak. Buning uchun har bir sikl (davr) dagi nolinchi kanal qo'llaniladi. Nolinchi kanaldan keluvchi axborot yordamida tizim sinxronizm holatiga kiradi va o'rnatilgan traktdan vaqt bo'yicha surilmagan axborotni uzatish bajariladi. Ikkita juft portlar orasida sinxronizatsiya yo'qolsa yoki nolinchi kanal uskunalari ishdan chiqsa, ikkala modul Boshqaruv elementiga SE avariya signali yuboriladi (3.14- rasm). Avariya signalining tushishi 0 kanal buyruq bitlaridagi axborot o'zgarishini belgilaydi. Clear signalining o'rniga Spata signali beriladi. Avariya haqidagi xabar «Tanzhsh» buyrug'i ostida kommutatsiya qilinmaydigan nolinchi kanaldan uzatiladi.

Har bir multiportda bor spiral kommutatorlar yordamida kommutatsiya qilinadi. Bu hol uchun 0-7- va 8-15 raqamli portlarning kommutatsiyasi ko'zda tutiladi. Bunda ulash «Tunnel» deb ataladi. Bunda ulash qabul qiluvchi portning nolinchi kanalidan tushayotgan axborot K+8 uzatuvchi portining nolinchi kanali orqali uzatiladi va aksincha. Shunday qilib, ikkala modul ham avariya haqidagi axborotni oladi va kerakli chorani ko'radi.



3.14- rasm. Avariya signalini uzatish.

Ba'zi bir holda tizimda butunlay to'liq bo'limgan kommutatsiya maydoni qo'llaniladi. Bu sig'im to'liq bo'limgan stansiyalarda bo'lishi mumkin. Bunda kommutatsiya maydonida GI ning hamma zvenolari

‘rnatilmaydi. Bu holda multiportdagи 8–15- portlar qo‘llanilmaydi. Bunday qilib, bunday kommutatsiya maydonida tunnel hosil qilib o‘lmaydi. Demak, avariya signalini faqat bitta modul boshqaruv elementi SE ga uzatish mumkin. Bu holda tunnel «Gor» deb ataladi.


3.1.3. Apparat ta’minotining tuzilmasi, modulning namunaviy strukturasi. Terminal interfeysi.

Boshqaruvlarni fizik amalga oshirish.

Analog abonent moduli (AAM), tonal va takt signal moduli (T va TM), PTXM (P&L), xizmat komplektlar moduli (SCM), traktlarni testlash moduli (TTM)

Apparat ta’minotining tuzilmasi 3.1.1- bo‘limda bat afsil yoritilgan. S-12 tizim hamma boshqaruv modullari bir-biri bilan raqamli kommutatsion maydonda ulovchi traktlar orqali ularanadi. Tizimning hamma modullari bir xil tuzilgan. Modul ikki qismdan iborat. Terminal elementi yoki terminal va boshqaruv elementi TSE dan. Terminal sxemalar (Terminal Circuits) bu maxsus uskuna bo‘lib, modulning vazifasiga uvoqiq ish bajaradi. Terminalning boshqaruv elementi TSE yoki terminal boshqaruv elementi xotirali (Memoru) mikroprosessorlardan (Processor) va terminal interfeysi (Terminal interface) deb nomlangan uskunadan iborat.

Modul tuzilishi 3.15- rasmida ko‘rsatilgan.



3.15- rasm. Modul tuzilishi.

S-12 tizimi terminalsiz modullar ham bor. Bunday modullar o‘shimcha boshqaruv uskunalar yoki o‘shimcha boshqaruv elementlari ASE deyiladi va terminal interfeysi orqali raqamli kommutatsion maydonga ularanadi. ASE tizimning qolgan boshqaruv uskunalarini uchun ordam berish vazifasini bajaradi. Ular tarifikatsiyani tahlil qilishadi, kanallar resurslarini taqsimlaydi, statistikaga qayta ishlov beradi va boshqalar. Terminal boshqaruv elementi TSE ikkita pechatli platadan tashkil topgan. Bittasida (RVA) prosessor va xotira, boshqasida terminal interfeysining (TERA) pechatli platasi joylashgan. Hozirgi vaqtida aralash


pechatli plata — prosessor — xotira — terminal interfeys (MSIA) ishlah chiqilgan.

Prosessор (mikroprosessor Intel - 8086) boshqaruv elementining asosiy qismi bo'lib, bajaradigan jarayonlarni boshqarish uchun mo'ljallangan taktli chastota shu platada joylashgan taktli generator yordamida generatsiya qilinadi. Prossessor platosi shikastlangan joylarni aniqlashini ta'minlaydi va ularni korreksiya qiluvchi vositalariga ega. Bundan tashqari taymerni nazorat qilish va xotirani himoya qilishni ham bajaradi.

SE boshqaruv elementining dastur ta'minoti xotirada saqlanadi. Xotira 256 Kbayt li dinamikli *OZU* mikrosxemalardan tuzilgan. Xotira 1 Mbayt axborotni saqlash uchun mo'ljallangan xotira bloki yagona xatolarni aniqlaydi. Xotiraga murojaat qilish uchun prosessor yuqori tezlikdagi HSB shinasi qo'llaniladi.

Bu shina terminal interfeysni boshqarish uchun qo'llaniladi. Terminal sxemani boshqarish uchun past tezlikdagi *LSB* shinasi qo'llaniladi.


Terminal interfeys TI terminal va raqamli kommutatsion maydoni DSN orasidagi interfeys bo'lib hisoblanadi. U boshqaruv elementining kommutatsion maydonning IKM kanallariga kirishni ta'minlaydi. TI orqali Boshqaruv element ma'lumotlar paketlari boshqa TSE lar bilan almashivi mumkin. 3.16- rasmida terminal interfeys tuzilishi ko'rsatilgan.



Terminal interfeysi TERA platasida joylashgan. TI ishini bajarish uchun juft qabul qilib uzatuvchi portlarga ega. Juft port terminal va 2 ta juft port esa raqamli kommutatsion maydon bilan aloqa qilish uchun xizmat qiladi. Boshqaruvning bitta qabul qiluvchi porti (Port controller-Poco) takt impulslarini, ovozli signallarni va joriy vaqtidagi signallarni taqsimlash tizimi bilan ulangan.

Ikkita qabul qiluvchi va ikkita uzatuvchi portlar mikrosxema QUAP turida bajarilgan. Hamma port multipleksli shina TDM- Time Division Multiplex bilan bog'langan. Boshqaruv portini bog'lovchi trakt orqali har biri o'zining vaqtli kanalidan tonal signallar uzatiladi.


Har bir TDM shinasi orqali kiruvchi kanal xohlagan chiquvchi kanal bilan ulanishi mumkin. Bu har qanaqa tonal signalini istalgan chiquvchi kanalga bosqaruv prosessori boshehiligida kerakli port va kanallari yordamida kommutatsiya yo'li bilan uzatishga imkon beradi. Bu shina orqali axborotni terminal va kommutatsiya maydoni orasida uzatish mumkin. Terminal interfeysi tarkibida (Pacqet RAM 2/4 Kbait) xajimli paketli OZU bor. TSE prosessori bu xotiradagi ma'lumotlar paketini qabul qilish va uzatish uchun qo'llaniladi. Har bir modul alohida ko'rib chiqiladi. ASM — analog abonent liniya moduli terminaldan va terminal interfeysidan iborat. 3.17- rasmida ASM modulining strukturasini keltirilgan.



3.17- rasm. ASM modulining strukturası.

Terminalda joylashgan abonent interfeysi AI BORCHT bajaradi. AI lar soni 64 yoki 128 bo'lishi mumkin, tushayotgan yuklamaga qarab tanlab olinadi, ular platalarida joylashgan. Platalar soni 8 ta, 2 xil turdag'i platalar bor. 8 tadan AI joylashgan plata ALCN. 16 tadan AI joylashgan piata ALSB. Bundan tashqari terminalda chaqiruv signalini uzatish uchun chaqiruv signal generator (RG) va test sinovlaridan o'tkazuvchi qurilma joylashadi.

ASM ning har bir moduli 8 ta pechatli platadan tashkil bo'lgan va ularning har biriga 8 ta abonent ulangan. Shuning uchun har bir ASM 64 ta abonent liniyaga ulanish imkoniyatini ta'minlaydi. ASM KM orqali o'tkazish uchun kiruvchi signallarni 32 kanalli bitli oqimga o'zgartiradi. ALSB 8 ta platasi RNGA chaqiruv generator platasi, TAUU testlash platasi va avariya signalizatsiyasi RLMA platasi bilan birligida IKM ning 2 ta kanali orqali MCUA turidagi boshqarish elementiga ulanadi. (TAUU va RLMA) platalarini ASM ning ayrim modullariga ulanadi. Har bir ikki modulga 2 tadan TAUU va RLMA to'g'ri keladi. Har ikki boshqaruv elementi abonent komplektlari bilan shunday ulanganki, ularning har biri 2 guruh abonent komplektlariga kirishni ta'minlaydi va ularning bittasi ishdan chiqsa, 8 ta abonent komplektlari ikkinchisi bilan boshqariladi. Hamma platalar va modular manba bilan CONV orqali bajariladi. 3.18- rasmida ALCB platasining funksional bloklari keltirilgan.



3.18- rasm. ALCB platasining funksional bloklari.

MCUA platasi abonent modullari va xizmat komplektlarida modullarida Boshqaruvning terminal elementi sifatida qo'llaniladi. Unda 1 Mbayt hajmli xotirasiga adreslangan 8086 mikroprosessor kiritilgan. RNGA platasining uning vazifasiga chaqiruv signalini generatsiya qilish va uni har xil liniya bo'yicha uzatish kiradi. Plata ikkita chaqiruv tokli generatordan iborat bo'lib, ular ALSB ning 32 ta platasi bilan ulangan. TAUU platasi o'lchash uchun mo'ljallangan va ikkita har xil bo'lakdan iborat: birinchisi, apparat vositalariga ega bo'lib, signallarni qabul qiladi va uni shakllantiradi, ikkinchisi esa qiyta ishlash jarayonini bajaradi. Analog abonent liniyalar modulining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- abonent liniyalarini manba bilan ta'minlash;

- shleyfni nazorat qilish;
- chaqiruv tokini generatsiya qilish;
- 16 KHz chastotasida tarifikatsiyalash impulsini generatsiya qilish;
- ARB va RAU (ASP va SAP);
- IKM – multiplekslash;
- 2 simli liniyadan 4 simli liniyaga va orqaga o'tkazish usul gibriddi **rezexema**;
- liniyaviy va ichki tekshiruvlarni o'tkazish uchun kirish;
- Adaptirlangan programmali ta'minlash bilan abonent liniyalarning so'nishini ta'minlash.

ALCB liniya komplektlarining har birida quyidagi funksional bloklar joylashgan:

1. Chaqiruv toki va testlash shinalarini hosil qilish uchun kiruvchi **rezistr** va releli kontaktlar.

2. Uzatish interfeysi (liniyaga bitta).

3. Signalni raqamli qayta ishslash bloki:

— analog-raqamli o'zgartirgich (har 4 ta liniyaga bitta).

MCUA interfeysi bloki – plataga bitta.

Har bir blokning asosiy vazifalari quyidagicha:

1. Kirish interfeysi:

— yuqori kuchlanishdan muhofazalanish (liniyali muhofaza);

— liniyani ulash uchun rele, chaqiruv tokini uzatish;

— stansiya va liniya tomon testlarini bajarish;

— trubkani ko'tarish va joyiga qo'yish holatini aniqlashni bajaradigan **rezistorlar**;

— tok ko'payishida muhofazalanish.

2. Uzatish interfeysi:

— tovushli diapazon signalini liniyaga ulash;

— abonentga doimiy tok (48/60 V) uzatadi;

— 2 simli o'tkazgichli liniyadan 4 simli liniyaga o'tkazadi.

3. Signallarni raqamli qayta ishslash:

— ARO' va RO'A analog ovoz signalini 8 razryadli kodli kombinatsiyaga o'zgartirish;

— raqamli va analogli filtrlar;

— darajani boshqarish: kerakli uzatish darajasini hosil qilish maqsadida **abonent** liniyadan kuchaytirish va pasaytirish;

— AKS signalini bostirish (so'ndirish);

— DRTS (ikki simli terminal nazoratchi);

— abonent terminalлari va just hamda toq TSE orasidagi interfeys;


— TSE dan buyruqni qabul qilingandan keyin liniya vazifalarini **boshqarish**:

— apparat qismidagi holatlar, o'zgarishlar (holatlar, trubka olib qo'yilgan) to'g'risida TSE ni xabardor qilish.

Raqamli prosessorli qayta ishlovchi ikki blokining kiruvchi va chiquvchi IKM oqimlari birlashadi va DPTS prosessori interfeysiiga ulanadi. Keyin ular kanal kommutatoriga keladi. U yerda kerakli boshqaruv natijasida MSUA ga keluvchi ikkita IKM traktlarning har bir liniyasining qayd qilingan kanali hosil qilinadi.

STM takt va tonal signallar moduli

STM – 8 MGs li asosiy taktli chastotani generatsiya qilish uchun mo‘ljallangan, keyin u hamma multiportlarga va Boshqaruv elementlarga taqsimlanadi va butun tizimning ishini sinxronizatsiya qilishini ta’milaydi. STM da stansianing nazorat signallari va real vaqtning signallarini ishlab beradi. Bu modulda tonal generator – TG va takt generatori joylashgan. Takt generatori 8 MGs li asosiy taktli chastotani ishlab chiqaradi va stansianing hamma SE (Boshqaruv elementiga) va DSN ning hamma multiportlariga taqsimlanadi. 3.19- rasmida CTM modulining strukturasi keltirilgan. Tonal generatori tonal signallarni ishlab chiqaradi va hamma terminal interfeyslarga taqsimlaydi.




3.19- rasm. STM modulining strukturasi.

STM ning asosiy funksiyalari:

1. Tayanch taktli signallar va tayanch signallar (2048 KHz) datchiklarini boshqaradi (MKKTT tavsiyasi asosida).
2. Taktli signallarning markaziy generatori. Generatorming ishonchligi bir kunda $2 \cdot 10^{-10}$ qisqa vaqtli davomiylikni ta’milaydi.
3. Tonal signallar chastotasining raqamli generatori sifatida qo‘llaniladi.
4. Mexanik ovozning raqamli qurilmasi yozib olingan ovozni generatsiya qiladi. Ovoz kombinatsiyasi qayta dasturlash o‘zgarmas xatda raqamli holda yozilgan.

SCM – xizmat komplektlar moduli

Ko'p chastotali signalizatsiya moduli IKM usuli bilan kodlangan signallar bo'lib, ular ko'p chastotali registrli signalizatsiya uchun kerak. Bu modul IKM usuli bilan kodlangan tonal signallarni tahlil qiladi va raqamli ko'rinishga aylantiradi. Abonent liniyasidan ko'p chastotali usulda terilgan raqamlarni ko'p chastotali qabul qilgich DTMT qabul qiladi. Ulash liniyadan uzatilayotgan boshqarish signallarni ko'p chastotali qabul qilgich va uzatkich MFRS, MF/ST qabul qiladi. 3.20-rasmida SCM modulning strukturasi keltirilgan.




3.20- rasm. SCM modulining strukturasi.

DTMF – ko'p chastotali qabul qilgich. Abonent liniyasidan «8» tadan «2» kodi asosida raqamlarni qabul qiladi.

MFRS – qabul qilgich va uzatkich va MF/ ST – boshqa stansiyalaridan ko'p chastotali kod R1, R1,5,R2 qabul qiladi va uzatadi. Bu qurilmalardan tashqari konferens-aloqa bloki SCB mayjud.

SCM ning ikkita varianti mavjud.


1. 32 MF R/S yoki DTMF. Bu variant 22,8 Erlang yuklamaga mo'ljallangan.
2. 16 ta MF R/S yoki DTMF. Bu variant 9,5 Erlang yuklamaga mo'ljallangan. 3.21- rasmida shu variant ko'rsatilgan.



3.21- rasm. SCM yig'ilish varianti.

SCB konferens-aloqa bloki 5 tadan abonent liniyasi bo'lgan, 6 ta guruh uchun konferens aloqa tashkil qilish uchun qo'llanilishi mumkin.

SSM umumkanal signalizatsiya moduli. Umumkanal signalizatsiya moduli SSM 7- sonli signalizatsiyaga ishlov berish uchun mo'ljallangan 7- sonli signalizatsiyaga ishlov berish ikki variantda bajariladi: asosiy va qisqartirilgan. Qisqartirilgan variant CAS signalizatsiyani DTM qabul qiladi va unga ishlov beradi. Asosiy variant CCSN 7 signalizatsiyasini SSM qabul qiladi va unga ishlov beradi. SSM modulining strukturasi 3.22- rasmida keltirilgan.




3.22- rasm. SSM modulining strukturasi.

Bitta terminalda 8 ta qurilma bo'ladi.

SSM moduli quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Boshqa ATS lardan umumiyligi ketuvchi va keluvchi UKS №7 signalizatsiyani qabul qiladi va uzatadi.
 2. Qabul qilingan axborotni baholash, ya'ni UKS № 7 ga ishlov berish.
 3. O'z-o'zini nazorat qilish va topilgan xatolarni to'g'rilash.
- Ikki raqamli ATS lar o'rtaida signalizatsiya vazifasini bajaradi.

DTM – Raqamli ulovchi liniyalari moduli



3.23- rasm. DTM modulining strukturasi.

DTM-S-12 tizimi kommutatsiya maydonini boshqa kommutatsiya stansiyalariga boruvchi va keluvchi raqamli ulovchi liniyalarni ulaydi.

Chiquvchi liniya signallari IKM-32 ning «16» kanali orqali, sinxronizatsiya va avariya signallari «0» kanali orqali uzatiladi. Qolgan 30 ta kanallar 64 Kbit /s tezlikda So'zlashuv signallarini uzatish uchun

qo'llaniladi. Agar CCS №7 qo'llanilganda, signalizatsiya har bir kanal orqali uzatilishi mumkin, shunda 31 ta kanal So'zlashuv uzatish uchun va 1 ta kanal sinxronizatsiya uchun qo'llaniladi.

DTM ning asosiy vazifalari:


1. Raqamli ulash liniyalar interfeysi.
2. HDB-3 yoki AMI boshqa turdag'i liniya kodini o'zgartirish.
3. Tashqi taktning tiklanishi va regeneratsiya qilinishi.
4. Siklli sinxronizatsiyani amalga oshirish.
5. Test uchun shleyflarni ta'minlash.
6. Avariya signallarini aniqlash va uni uzatish.
7. Avariya signallarini va holatini nazorat qilish.
8. Taktli signallarni sinxronizatsiya qilish va taktli ketma-ketlikni tiklash.
9. Signallarni o'zgartirish.

DPTC sxemasi. Kanal kommutatori

DPTC bir nechta registr va 16 ta axborot jadvaliga ega bitta abonentga bitta jadval to'g'ri keladi (3.24- rasm).

Interfeys bilan terminal o'rtaida muloqot.

TSE dan buyruq qabul qilingandan so'ng, liniya funksiyasini boshqaradi. Apparat qismida ro'y bergan hodisalarni TSE ga ma'lum qiladi.



3.24- rasm. Ikki prosessorli terminal qurilma.

Agar terminal yoki ALCB da qandaydir signal hosil bo'lsa, u ma'lum axborot jadvaliga yoziladi. Axborot jadvalida bit holati o'zgaradi. Keyin DPTC bu to'g'rida TSE ga xabar beradi. Bu holat «0» kanal orqali avariya signalini yuborish bilan bajariladi, u TSE ning OXX paketiga yoziladi. TSE DPTC ga 16 kanal bo'yicha bo'ladigan harakatlar to'g'risida buyruq yuboradi.

(P&L) yuklash va numeratsiya uskunasi moduli **SPM – mashina periferiya moduli**

Stansiyaning texnik xizmati qo'llanishi quyidagi vazifani bajaradi.

Qo'llanilish vazifalari:

Abonent – stansiya, ulash liniyalari – kommutatsiya maydoni o'zaro munosabatini Boshqaruvchi axborot terminallardan uzatilgan buyruq yordamida o'zgartiriladi.

Hamma vazifalar bo'limlar bo'yicha taqsimlangan:

- abonent xizmati;
- marshrutizatsiya xizmati;
- o'lchash xizmati;
- umumstansiya xizmati;
- narx hisobti xizmati;
- pereferiya uskunasi xizmati.

Texnik xizmat vazifalari:

— vaqtli texnik xizmat – nosozlik sabablarini aniqlaydi;
— to'g'rilash t.x. lokalizatsiya bilan bog'langan va nosozliklarni yo'qotadi.

EKS va t.x. ni bajarilish vazifalari P&L ini binoan uzviy bog'langan.
P&L har xil TSE yuklanishni hosil qiladi.

P&L moduli rezervlashtirilgan bitta har doim ish holatida, ikkinchisi esa aktiv holatda turadi. (Xotiraga qaytadan yozilganlari o'qish uchun)
Ikkala modul P&L tarmoq adresiga ega.

Modul tashqi xotirani va terminal odam-mashina dialogini, texnik xizmat va ekspluatatsiya funksiyalarini boshqaradi.

3.1.4. Kommutatsiya tizimining dasturiy ta'minoti.

S-12 tizimi. DT arxitekturasi. Operatsion tizim va ma'lumotlar bazasi (OT va MB).

Dasturlash modulining tuzilishi


ALCATEL-1000 S-12 tizimining dasturli ta'minoti 6 ta qism tizim-larga bo'lingan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. 3.25- rasmida Alcatel 1000 S-12 dasturiy ta'minotning tarkibi berilgan.

Operatsion tizim OS – bu qolgan barcha tizimning dasturiy quvvatlashni ta'minlaydigan qism tizimi. Chunki u har bir prosessorning xususiy resurslarini (har bir prosessorning vaqt va xotirasi) boshqaradi.

OS ning umumiyl tuzilishi.

S-12 ning OS ikkita asosiy tavsifga ega:

1. Ko'p iste'molli.
2. Ko'p prosessorli.



3.25- rasm. Alcatel 1000 S-12 dasturiy ta'minotining tarkibi.

Ko'p iste'molli deganda, bir vaqtning o'zida bir necha dasturning ishlashi mumkinligi tushuniladi.

Ko'p prosessorli deganda, bir necha prosessorlarning ishlashi tushuniladi.

S-12 tizimda 8086 prosessorlari qo'llanilgan. Prosessorlar o'z vazifasini bajarishi uchun 1Mbit li xotira bilan ta'minlanadi. lekin manzilli shina 16 razryaddan iborat bo'lgani uchun vaqt birligida 64 Kbit ga ega segment bilan ishlashi mumkin. S-12 da OS juda katta dasturni egallaydi. Bu esa uni 64 Kbit li segmentga sig'dirish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Shuning uchun OS ning bazaviy funksiyalari va kommutatsion funksiyalarini belgilovchi masalalar birqalikda bitta segmentga guruqlashtiriladi. Bu segment OS ning yadrosi – OSN deviladi. Kam qo'llaniladigan proseduralar yoki avtonom masalalarini tashkil etuvchi muolajalar OS ning kernellari deb yuritiluvchi alohida segmentlarga joylashtiriladi. 80386 turdag'i prosessorlar qo'llanilgan bo'lsa, u bir necha nazorat jadvallariga ega bo'ladi:

1. Global deskriptorlar jadvali Global Descriptor Table.
2. Lokal deskriptorlar jadvali Local Descriptor Table.
3. Uzilishlar deskriptorlar jadvali Interrupt Descriptor Table.
4. Masala holatlариниң bir necha segmentлари Tasq State Segments.

Ma'lumotlar bazasi. Ma'lumotlar bazasi to'g'risida tushuncha

Yuqorida ko'rsatilganidek, dasturiy ta'minotning hamma funksiyalari abonent va stansiya ma'lumotlarini qayta ishlash bilan mashg'ul bo'lgan FMM, SSM yoki alohida OS modullar ko'rinishida shakllangan. Avval ko'rib o'tilgan tizimlarda har dastur o'zining xususiy ma'lumotlar fayliga ega edi. Biroq bu usul ortiqchalik va nomuvofiqlik kabi kamchiliklarga ega.

Ortiqchalik – aynan bir xil ma'lumotlar bittadan ortiq dasturda saqlanishi mumkin.

Nomuvofiqlik – bu dastur xuddi shunday ma'lumot saqlab turgan boshqa dasturlarning fayllariga mos o'zgartirish kiritmasdan o'z faylidagi ma'lumotlarning bir qismini yangilash vaqtida yuz beradi.

Dasturiy ta'minotning modulli tuzilishini e'tiborga olgan holda shuni aytish muhimki, turli FMM lar modulning o'zida joylashgan ma'lumotlardan tashqari boshqa ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Taqsimlangan boshqaruvi tufayli bu iste'molchilar turli CE larda joylashgan bo'lishi mumkin. Demak, shunday usul topish kerakki, bunda tizimning turli modullarida saqlanayotgan ma'lumotlarning ixtiyoriy qismiga imkoniylikni barcha foydalanuvchilariga ta'minlash mumkin bo'lishi kerak.

Ma'lumotlar bazasi (MB) – bu turli dasturlar birqalikda qo'llaniladigan moslashgan ma'lumotlarning «birlashgan fondi».

Ma'lumotlar SE xotirasining zonalarida yoki diskda saqlanadi. Agar FMM larning birortasiga ma'lumotlarning biror qismi kerak bo'lib qolsa, u holda u shu qismini topishi kerak. Ma'lumotlar zarur qismining fizik manzilini hisoblab topish muammosi bevosita ma'lumotlar bilan ishlaydigan dasturni yaratish bilan hal qilinadi. Bu dasturlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- prosedurali chaqiruv ko'rinishida FMM lardan so'rovnomalarni qabul qilish (xabarlarni emas);
- ma'lum joyda talab qilingan ma'lumot qismiga ruxsat berish;
- foydalanuvchiga uning talabi bo'yicha ma'lumotlarni uzatish.

Bu dasturlar majmuasi ma'lumot bazasini boshqarish tizimi (MBBT) DBMS nomini olgan.

RKT MB da qo'llaniladigan ta'riflar

S-12 tizimida qo'llaniladigan ma'lumot bazasi relatsion tuzilishga ega, ya'ni ma'lumotlar munosabat (Relation) deb ataluvchi ikki o'lchamli jadvallar ko'rinishida ifodalanadi.

Shunday qilib, relatsion jadval – bu ikki o'lchovli matritsadir. Uning satrlari yozuvlar (tuple), ustunlari esa maydon (domain) deyiladi. Bitta

indvalda barcha satrlar bir xil domenlarga ega. 3.26- rasmida relatsion jadvalga misol keltirilgan.

Ko'rilayotgan misolda har bir yozuv 4 ta domenga ega:

D_TN – terminal raqami;

D_LCE_ID – SE ning mantiqiy identifikasiyasi (tarmoq manzili);

D_DN – abonentning direktorli raqami;

D_SUB_TYP – abonent turi (1- oddiy abonent, 2- taksofon, 3- im'lumotlar liniyasi);

D_T	D_LCE	D_DN	D_SUB_TYP
1	H'30	3226865	1
59	H'30	2134564	1
70	H'30	32134908	2

3.26- rasm. Relatsion jadvalga misol.

Bitta abonent to'g'risidagi axborot bitta yozuv ichida saqlanadi. Yozuvlar majmuasi munosabat jadvalini tashkil qiladi.

MBBT (Data Base Management System – DBMS) har bir yozuvni betakror tarzda identifikatsiyalash kerak. Bu kalit domeni (Key domain) orqali amalga oshiriladi. Yuqorida misolda D_TN domeni bo'lib hisoblana olmaydi, chunki turli SE lar ichida bir xil TN lar uchraydi. Shuning uchun D_TN K D_LCE_ID domenlari birgalikda har bir abonent uchun betakror bo'lib, kalit domenlarini hosil qiladi.

Agar foydalanuvchi biror-bir yozuvning mazmunini olmoqchi bo'lsa, DBMS (MBBT) ga unga qanday relatsion jadval kerakligi to'g'risida axborot beradi. Bunda foydalanuvchi yozuvning raqami (indeksi)ni bilishi kerak. Misol uchun u quyidagi yozuvni olmoqchi:

D_DN-2163920 (D_DN – kvalifikatsion domen va 2163920 – qidiruv argumenti). DBMS quyidagi imkoniylik qidiruv mexanizmlarining bittasini qo'llanadi:

1. Ketma-ket qidiruv.
2. Indeksli qidiruv.
3. Binarli qidiruv.

Ketma-ket qidiruv kvalifikatsion domenning mazmuniga bog'liq bo'Imagan holda yozuvlar qanday saqlanayotgan bo'lsa, shunday fizik tartibda o'qiladi. DBMS so'ralganni topish uchun yozuvlarni birin-ketin tekshiradi.

Indeksli qidiruv. Kvalifikatsion domen indeksiga ega. Indeks – bu yozuv raqami (birinchisi – indeks1, ikkinchisi – indeks2 va hokazo). Indeks – bu virtual domen bo'lib, uning tarkibi fizik saqlanishga ega

emas. Indeks kalit domeni bo'lishi mumkin. DBMS ga relatsion jadvalning boshlang'ich manzili hamda undagi yozuvlar soni ma'lum. Shunday qilib, so'ralgan yozuvga siljishni osongina hisoblash mumkin.

Binarli qidiruv kvalifikatsion domenning tarkibini tahlil qiladi. DBMS domenlar tarkibini o'rtasi bo'yicha baholaydi va bu «X» qiymatini izlanayotgan argument bilan solishtiradi, agar ular teng bo'lsa, izlanish tugallanadi. Agar «X» izlanayotgan argumentdan kichik bo'lsa, kvalifikatsion domendan barcha yozuvlar past yoki «X» ga teng qilib baholanadi. Agar «X» bu argumentdan katta bo'lsa, barcha yozuvlar «X» dan yuqori yoki «X» ga teng qilib baholanadi. Bu algoritm yozuvlar bilan takrorlanishi mumkin. Bu algoritm qidirilayotgan argument «X» ga teng bo'lmaguncha qidirishdan to'xtamaydi. Binarli qidiruv ketma-ket qidiruvga qaraganda ancha tezroq amalga oshadi.

Relatsion jadvallarning asosiy turlari

Ma'lum SE da saqlanadigan hamma relatsion jadvallar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: **real va virtual relatsion jadvallar**.

Real relatsion jadvallar SE xotirasida yoki diskda fizik saqlanadi, chunki ular oldindan aniqlangan. Agar foydalanuvchi bunday relatsion jadvalning satrini talab qilsa, u holda unga bu jadval butunligicha taqdim etiladi. Virtual munosabatlardan tuziladi. Bu holda ular virtual munosabat bazasi deb yuritiladi.

Virtual munosabatlar

Tuzilish usuliga qarab virtual jadvallar bir nechta turlarga bo'linadi: **qayta aniqlangan; tuzilmali; prosedurali**.

Qayta aniqlangan (Redefined Relation) – bu munosabat yagona bazaviy munosabatdan tashkil topgan va uning ustun (domen)lari bazaviy munosabat domenlarining tanlovi hisoblanadi. Qayta aniqlangan munosabatning kalit domeni xuddi bazaviy munosabatdagidek bo'lishi kerak. Foydalanuvchi qayta aniqlangan munosabatning satrini so'raganda, MBBT (DBMS) bu satrni mos real munosabatdan topadi. Foydalanuvchiga esa qayta aniqlangan munosabatga tegishli domenlarning bir qismi ajratib olinadi va taqdim etiladi. Bu munosabat real bazaviy munosabat nomidan farqli nomga ega bo'ladi. Biror real relatsion jadval berilgan bo'lsin (3.27- rasm).

D_TN – qurilmaning terminal (ASM liniyasi) raqami;

D_LCE_ID – tarmoqli manzil;

D_OBS_LIST – agar TRUE bo'lsa, u holda liniya operator nazorati ostida bo'ladi;

D_LN_TYP2 – liniya turi, normal yoki ustuvorli liniya;

D_SUB_TYP – abonent telefon qurilmasining turi;

CBSET – kombinatsiyalangan telefon apparati;

PBSET – impuls terishli telefon apparati;

DLSET – tonli terishli telefon apparati;

D_DN – abonentning direktorli raqami.

R_ELCOS2

D_TN	D_LCE_ID	...	D_OBS_LIST	D_LN_TYP2	D_SUB_TYP	D_DN
0	H'30	...	FALSE	PRIOR	CBSET	645080
1	H'30	...	TRUE	NORM	PBSET	645082
		...				
125	H'30	...	FALSE	PRIOR	CBSET	645084
126	H'30	...	TRUE	NORM	PBSET	645086
127	H'30	...	FALSE	NORM	DLSET	645196
1	H'30	...	FALSE	PRIOR	DLSET	645200
0	H'30	...	FALSE	NORM	CBSET	645267
		...				

3.27- rasm. Real relatsion jadval R_ELCOS2.

Bu jadval uskunananing terminal raqami (D_TN), uning tarmoqli manzili (D_LCE_ID), liniyaning operator ostidaligi to‘g‘risidagi ma‘lumot (D_OBS_LIST), abonent telefon apparatining turi (D_SUB_TYP) va uning direktorli raqami (D_DN) o‘rtasidagi hamkorlik bilan ifodalanadi.

Qayta aniqlangan aloqa R_SUB_TYP (abonentlarning telefon apparatlari turlari) qurilma raqami, uning tarmoqli manzili va abonentlarning telefon qurilmalari turlari to‘g‘risidagi axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik bilan ifodalanadi (3.28- rasm).

Tuzilmali virtual munosabatlar (Multitarget Relation) ikki yoki undan ortiq real munosabatlar domenlaridan tashkil topadi. Bu munosabatlar qatoridan bittasi bazaviy boshlang‘ich bo‘ladi. Shuning uchun birikmali munosabatning kalit domeni aynan bazali realdagidek bo‘ladi. Boshqa virtual munosabatlarning tashkil etuvchilarini bilan bog‘lanish birlashtirish amali yordamida umumiylar orqali amalga oshiriladi (3.29- rasm).


Misol tariqasida real relatsion jadval R_ELCOS2 dan foydalananimiz va unga modul qurilmalari orasida o‘zaro aloqani (D_LCE_ID) hamda

ularning stansiyaning katostrofik holatida (D_CATASTRO) ishlash qobiliyatini ko'rsatuvchi R_EXCH_CON jadvalni qo'shamiz (3.30-rasm). Katostrofik holat deganda, stansiya orqali grafikning o'ta yuklanishi tushuniladi.

R_SUB_TYP

D_TN	D OBS LIST	D SUB TYP
0	H'30	CBSET
1	H'30	PBSET
125	H'30	CBSET
126	H'30	PBSET
127	H'30	DLSET
1	H'30	DLSET
0	H'30	PBSET
126	H'30	PBSET
127	H'30	PBSET

3.28- rasm. Qayta aniqlangan jadval R_SUB_TYP.



3.29- rasm. Tuzilmali virtual munosabatlarni tashkil etish.

Bu holda faqat TRUE kattalikka ega bo'lgan D_CATASTRO domeni bo'yicha modullarning ustuvorlik liniyalariga xizmat ko'rsatiladi. O'ta yuklanish sodir bo'lganida, faqat D_CATASTRO domenlaridagi TRUE (faqat ustuvorlik liniyalari)ga xizmat ko'rsatiladi.

R_EXCH_CON

D_LCE_ID	D_CATASTRO
H'30	TRUE
H'30	FALSE

3.30- rasm. Real relatson jadval R_EXCH_CON.

Dasturlash modulining tuzilishi

Dasturli ta'minotning modullari bir-biridan to'la erkin mustaqil hisoblanadi. Dasturli ta'minotning hamma modullari har xil apparatura modullarida taqsimlangan holda saqlanadi va har bir modul dasturli ta'minotning bo'lagini o'ziga ishlashi uchun tarkibida saqlaydi.

Boshqa tomondan (OS i DBMS – CUBD) quvvatlash dasturi xotirada har doim bo'ladi, chunki har doim tez-tez qo'llaniladi va hamma SE (stansiyaning boshqaruvi elementlarida) taqsimlangan.

Dasturli ta'minlash tuzishdagi asosiy masalalar bu:

- modulli tuzilishni kiritish;
- apparatli mustaqil dasturli ta'minotni yaratish.

Bu maqsadga erishish uchun bir qator fundamental konsepsiyanı olib borish kerak:

1. Virtual mashina.
2. FMM ma'lumotlarining oxirgi avtomatlari.
3. SSM sistemali quvvatlash dasturlari.

Virtual mashina konsepsiysi

Ishlab chiqaruvchilar maqsadi dasturli ta'minotning apparaturasining texnologik o'zgarishlarida to'la mustaqillikka erishish hisoblanadi.

Shunday bo'lishi kerakki, texnologiyalar taraqqiyoti oqibatida stansiyaning uskunalar qismi o'zgorganida mustaqillikka erishishda dasturli ta'minot modifikatsiyasi minimal bo'lishi kerak.

Har bir stansion qurilma bevosita yagona DT ning moduli bilan boshqariladi, bu **qurilmaning qayta ishlovchisi** deb yuritiladi.

Masalan: liniya komplektlarining ishini o'rganishda biz ko'rib turibmizki, har xil stansiya dasturlar ma'lum vaqtida ular bilan o'zaro hamkorlikda bo'lishi kerak.

– «Chaqiruvlarni qayta ishlash» – band signalini aniqlash. Raqam terishga taklif etish uchun signal yuboriladi, terilgan raqam impulslarini qabul qilish va hokazo.

– «Texnik xizmat dasturlari» – profilaktik va korrektiv xizmat hamda rad etishlarni yo'qotish.

– Ma'muriylashtirish – operator talabiga ko'ra uskunalarni uzish.

Agar hamma dasturlar uskunalarga to'g'ri kirishga ega bo'lsa, unda har xil yo'nalishdagi dastur ishlab chiqaruvchilarga apparaturaning ichki tuzilishini chuqur bilishi kerak bo'lar edi va har qanday apparatning o'zgarishi har bir dasturning har xil turiga olib kelar edi.

Shuning uchun bitta dastur ishlab chiqildi. Faqat unga liniya komplektlariga kirishga ruxsat etilgan. Agar qolgan dasturlar klaster bilan ishlashi kerak bo'lsa, ular qurilmaning qayta ishlovchisiga buyruq – so'rovnama yuboradi va u apparatura ustidan aniq ish bajaradi. Har xil dasturlar qurilmalarini qayta ishlovchi simvolik buyruq yordamida shunga murojaat etadi va hamma texnologik o'zgarishlarda: band qilish, uzish o'zgarmay turadi. Bu buyruqlar qayta ishlovchi tomonidan uskunalarga tushunarli signallarni translyatsiya qiladi.

Shunday qilib, har bir dastur liniya komplektiga uning tuzilishini bilmay turib kirishga ruxsat olishi mumkin. Shu sababli liniya komplekti unga tegishli qurilmaning qayta ishlovchisi bilan birlgilikda virtual mashina deyiladi. Virtual mashina o'z ichiga apparatura va dasturni oladi, ular esa rasmiy qoidalarga asosan apparaturani boshqarishni ta'minlaydi.

FMM ina'lumotining oxirgi avtomati (Finite message machine) FMM – ta'rif va xususiyatlari


FMM dasturli ta'minotning asosiy funksional bloki bo'lib hisoblanadi va quyidagi xususiyatlarga ega:

– U boshqa FMM lar bilan faqat ma'lumotlar yordamida bog'lanishi mumkin.

– Tashqaridan FMM ni qora qutiga o'xshatish mumkin, ya'ni uning ichki tuzilishi qolgan asosiy tizimga ma'lum emas. Xatti-harakati esa u yuborayotgan va qabul qilayotgan ma'lumotlar yig'ish bilan aniqlanadi.

– U bir necha holatning birida bo'lishi va bir holatdan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Misol sisatida FMM ni chaqiriqni qayta ishlashda ko'rishimiz mumkin (3.31- rasm). Bu misolda modul kirishiga 2 ta ma'lumot tushadi: M1 – chaqiruv turi – chiquvchi, M2 – kanal nomer to'g'risida axborot.

Modul chiqishida 3 ta ma'lumot bo'ladi. M3 – LDC ga axborot (dasturli ta'minot moduli liniya signalizatsiyasiga javob beradi), M4 – kanalni tanlash, M5 dasturli ta'minotni aktivlashtirish Sall Control (CACO).



FMM interface

→ $M_1 \rightarrow M_3, M_4$

→ $M_2 \rightarrow M_5$

3.31- rasm. FMM ning tuzilishi.

M_1 ma'lumot – «chiquvchi chaqiruv» 2 ta M_3 chiquvchi ma'lumot – LDC axborot, M_4 – kanalni tanlashni hosil qiladi. M_2 ma'lumot – kanal nomeri haqida axborot esa faqat bitta ma'lumot hosil qiladi.

FSM holatining oxirgi avtomati (Finite State Machine)

FMM ta'rif bo'yicha bir necha holatning birida bo'lishi mumkin.

FMM bitta yoki ko'proq ma'lumot yuborishi yoki ma'lumot qabul qilgandan so'ng o'z holatini o'zgartirishi mumkin va FSM holatining oxirgi avtomati konsepsiyasiga olib keladi (3.32- rasm).

Konsepsiyanı tushuntirish uchun misol ko'rib chiqamiz.


FMM modulli A,V,S ma'lumotlarni qabul qiladi va D:E ma'lumotlarini jo'natadi. FMM xatti-harakat qabul qiluvchi va uzatuvchi ma'lumotlarning ketma-ketligi bilan aniqlanadi. Bizning misolda bu shunday D ma'lumotini uzatish uchun FMM A yoki S ma'lumotni keyin esa V ni qabul qiladi. E ma'lumotini uzatish uchun FMM V ni, keyin esa A ni qabul qilishi kerak.

INIT ish algoritmi uch holat yordamida tuzilgan bo'lishi mumkin – boshlang'ich holat FMM A, V va S ma'lumotini kutishini ko'rsatadi. Agar u A ma'lumotni qabul qilsa, unda u D ma'lumotni uzatadi va boshlang'ich holatga o'tadi. Agar u V ma'lumotni qabul qilsa, unda V REG holatiga, agar S bo'lsa, S REG – V REG holatiga o'tadi.

Bu holat FMM V ma'lumotni qabul qilishini va hozir A ma'lumotning kelishini kutishini belgilaydi.

Bu ma'lumot kelgandan keyin FMM E ma'lumotini yuboradi va boshlang'ich holatga o'tadi.

3 S – REG holat ko'rsatadiki, FMM S ma'lumotni qabul qildi va V ma'lumotni kutmoqda, u qabul qilingandan keyin FMM D ma'lumotni uzatadi va boshlang'ich holatga o'tadi.



3.32- rasm. FMM – FSM ish asosi.

FMM turi

Har xil turdag'i FMM ni ko'rishdan oldin jarayon atamasiga ta'rif beramiz. FMM aniq dasturli qismidan tuzilgan. U «jarayonni aniqlash» va «jarayon ma'lumotlari» deyiladigan ma'lumot saqlovchi bo'lakdan iborat.


«Jarayonni aniqlash» o'ziga mos «jarayon ma'lumotlar» bilan birgalikda jarayonni tashkil etadi. Endi har xil turdag'i FMM larni aniq misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Monoprosessorli FMM

Prefiks analizini ko'rib chiqamiz. Eslang: prefiks tahlil nima? Uning maqsadi nima? Bu topshiriqni bajarish jarayonini FMM aniqlaydi. Shu jarayonda chaqiruvni (mahalliy yoki chiquvchi) tayinlaydi. Mahalliy chaqiruv nima?

FMM jarayonini aniqlash ta'rifni topshirig'inining talabini eggandan keyin bajarishni boshlaydi. U «jarayon ma'lumotlari» ma'lumotlarni qo'llaydi (3.33- rasm). Topshiriq bajarilgandan so'ng, FMM ma'lumot uzatadi va ma'lumot shu so'rovga kerak emas sharti uchun FMM kirishiga prefiks tahlil qilish uchun so'rovi bir yangi ma'lumot

kelsa yana «jarayonni aniqlash» prosedurasini bajarishga to‘g‘ri keladi. Bunda axborot joyi qo‘llaniladi. Demak, shu turdagи FMM uchun yagona axborot joyi kerak bo‘ladi. Bunday FMM larni **monoprosessorli** deyiladi. Chunki ma’lum vaqtida faqat 1 ta jarayon aktiv bo‘lishi mumkin.



3.33- rasm. Monoprosessorli FMM.


Ko‘p jarayonli FMM

Abonentlar tarifikatsiyasini bajaruvchi FMM ni ko‘rib chiqamiz. Berilgan FMM bitta abonent tarifikatsiyasiga ko‘ra ma’lumotni generatsiya qilganda, u shu abonent bo‘yicha ma’lumotni yozish uchun ma’lumotlar joyini qo‘llanadi.

Bu FMM shu ma’lumotlarni uzoq vaqt qayta ishlab turadi. Agar shu vaqt davomida boshqa abonentdan chaqiruv kelsa, FMM unga ham tarifikatsiya boshlashi kerak bo‘ladi, lekin FMM oldingi ma’lumotlar joyidan foydalana olmaydi, chunki u 1- abonent bilan band. Agar FMM bir necha abonentga bir vaqtida xizmat ko‘rsatish kerak bo‘lsa, unda mustaqil ma’lumot joylari tashkil bo‘lishi kerak (har bitta abonentga alohida). Bunday FMM lar ko‘p jarayonli deyiladi (3.34- rasm). Bunday holda har bir yangi chaqiruvga mustaqil ma’lumot joyi tashkil etiladi. Bu masala bajarilgandan so‘ng ma’lumot joyi bo‘shaydi.

Ma’lumotlar joyini taqdim etuvchi va bo‘shatishga javob beruvchi FMM qismi **supervizor qism** deyiladi va u o‘zining ma’lumot joyiga ega.

FMM ishini bajarilishiga (mas’ul) qismi biriktirilgan qism deyiladi. Supervizor qismining bajarilishi **supervizor jarayon** deyiladi. O‘z joyida prikladli qismning bajarilishi esa **prikladli jarayon** deyiladi. Bu shuni bildiradiki, ko‘p jarayonli FMM da har doim 1 ta supervizor jarayon va u o‘zgaruvchan miqdorda prikladli prosessor bor.



3.34- rasm. Ko'p prosessorli FMM.

Ko'p manbali FMM

Shunday qilib, biz 2 ta har xil turdag'i bir jarayonli va ko'p jarayonli FMM ni ko'rib chiqdik, ular o'z tuzilishi va ish xususiyatiga ega. Yuqorida ko'riganidek ko'p jarayonli FMM ma'lum bir vaqtida faqat 1 ta chaqiruvni bajarishi mumkin. Lekin FMM ning maxsus turi mavjud, unda mavjud chaqiruvda bir nechta chaqiruv bir vaqtida bajarilishi mumkin.


Masalan: liniya komponentlarini skaner qiluvchi FMM bor. Nima uchun liniya komplektlarini skaner qilish kerak?

Liniya komplektlari soni oldin ma'lum va cheklangan, bundan tashqari skaner uzliksiz bajarilib turiladi, bunday holatlarda har bir komplektda bitta ma'lumot joyi kerak bo'ladi, lekin bu joylar soni qat'iy belgilangan. Bu jarayonni ko'p jarayonli qilish mumkin edi, lekin bu holatda FMM ning supervizor qismi har bir liniya komplektiga faqat bir marta genesskolizatsiya vaqtida prikladnoy jarayonni hosil qilish kerak bo'ladi.

Shu jarayonlar hamma vaqt davomida mavjud bo'lishi kerak, chunki skanerlash uzliksiz davom etishi lozim. Agar bularning hammasini e'tiborga olsak, bunday qarorni optimal hisoblaymiz.

Monoprosessorli FMM alternativ hisoblanadi va u har bir qurilmada o'z ma'lumot joyini qo'llanadi. Natijada qat'iy belgilangan sonli uskunalar bilan boshqaruvchi yagona jarayonni hosil qilamiz. Bunday FMM lar bir jarayonli ko'p manbali hisoblanadi (3.35- rasm). Belgilangan turdag'i modullar uchun uskunalar soni doimiy bo'ladi. Masalan: ASM

modul 128 ta abonentga xizmat qiladi, n uskunalar soni 128 ga teng, DTM moduli uchun n uskunalar soni 30 ga teng.



3.35- rasm. Ko'p manbali FMM.

Overleyli FMM

Ko'rib chiqilgan 3 turdag'i FMM dan tashqari yana bitta turdag'i FMM mavjud, unga kamdan-kam murojaat qilinadi va boshqaruv elementlari xotirasida juda ko'p joyni band qiladi. Bunday FMM tar overleyli hisoblanadi va ular SE xotirasida har doim bo'lmaydi. Ular diskda yozilgan va boshqaruv elementi xotirasiga kerak bo'lganda yuklanadi. Yuklanish faqat qachon jarayon overleyli FMM ga bazali ma'lumot yuborgandan keyingina boshlanadi.

Ma'lumotlar (xabar) ta'risi va tavsiyi

Shunday qilib, FMM orasidagi aloqa xabar deb nomlangan axborot strukturasi yordamida bajariladi. Ular quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Xabar yuborilganda axborot xabar buferi deb nomlangan 64 baytli ma'lumot strukturasiga joylashadi.
- SE Boshqaruvining har bir elementi ma'lum miqdorda zaxiradagi xabar buferlariga ega.
- Xabar buferi ikki qismidan iborat: **sarlavha** va **matn**. Sarlavha tayinlangan FMM yo'nalishi bo'yicha xabar marshrutizatsiyasi uchun

xizmat qiladi va 16 baytni egallaydi. Sarlavha tarkibiga quyidagilar kiradi:

- * Axborot qismining uzunlik indikatori.
- * Uning prioriteti.
- * Xabar identifikatori.
- * Xabar turi.
- * Tayinlash kodi.
- * Manba kodi.

Xabar matni 2 qismidan iborat:

- 1- qism — tekst, (Max 40 bayt) axborotga ega.
- 2- qism — Os uchun zaxiralangan va 8 baytni egallaydi.

Xabar strukturasi

Har bir xabar tuzilishi avtonom aniqlangan va har xil FMM larga ma'lum. Agar FMM ga xabar yuborish kerak bo'lsa, unda u oldin bo'sh xabar buferlaridan birini so'rashi kerak bo'ladi.

Operatsion tizim bo'sh buferni topadi va chaqirayotgan FMM ga xabar buferining boshlang'ich adres ko'rsatkichini yuboradi. Bunday ko'rsatkich buferga xabar yozish uchun qo'llaniladi. Xabarda mavjud xuddi shunday ko'rsatkich belgilangan FMM ga yuboriladi va tarkibida yuqori bo'lgan axborot o'qish uchun qo'llaniladi.

Ma'lumotlar turlari

Hozirgacha biz xabarni FMM orasidagi aloqa vositasi deb gapirar edik. Aslida esa ular jarayonlar orasidagi aloqa uchun ham qo'llaniladi. Tayinlangan jarayon: jarayon manbasiga ma'lum bo'lishiga qarab 2 xil xabar mavjud:

— Bazali xabar. Bu bazali xabar yuborilganda tayinlangan jarayon adresi ko'rsatilmaydi. Tayinlash jarayonini aniqlash OS ning vazifasi hisoblanadi.

Misol: raqamlarni qabul qiluvchi FMM.


Yangi abonent nomer raqamlarini terganda, uni qayta ishlash jarayoni hali yaratilmagan, ya'ni xabar jo'natganda raqam terish, xabar boshlanishini qabul qilganda tanlangan jarayon ko'rsatiladi.

— To'g'ri xabar. Har doim tayinlangan jarayon adresi ma'lum bo'ladi. Jarayon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ma'lum tanlangan jarayonga yuboriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan misolda abonent chaqiruv vaqtida raqamning uchligi raqamni terganda inisiallovchi jarayon raqamlarni qayta ishllovchi jarayonning qaysisi shug'ullanishini biladi. Shunday qilib, manba-jarayon to'g'ri xabar hodisasi to'g'risida ma'lum qiladi.

Xabarni yuborish va qabul qilish ikki qoida bo'yicha bajariladi. Bajarish 3.36- rasmida ko'rsatilgan.

1. Supervizor jarayoni har xil xabarlarni (bazali va to'g'ri) uzatish va qabul qilish mumkin.
2. Qo'llanilgan jarayon faqat to'g'ri xabarlarni qabul qilishi mumkin, lekin har xil xabarlarni uzishga qodir.



3.36- rasm. Har xil jarayonlar tomonidan xabarlarni qabul qilish-uzatish.

Bir jarayonli xabarni qabul qilish-uzatish. Monoprosessorli FMM da faqat bitta jarayon, u supervizorli deb hisoblashi mumkin, ya'ni bir jarayonli FMM ikki turdag'i xabarlarni uzatadi va qabul qiladi.

Qo'llaniladigan jarayonning amaliy jarayonini tuzish

Bir jarayonli monoprosessorli FMM da qo'llaniladigan jarayonni tuzish mexanizmini ko'rib chiqamiz.

Jarayon

1. Allaqanday jarayon FMM ning supervizor jarayonining bazali xabarini yuboradi. Natijada bu supervizor jarayon o'zining amaliy qismida jarayon yaratishni qaror qiladi, bu jarayon xabarga qabul qilingan so'rovni bajaradi.

2. Supervizorli jarayon qo'llaniladigan jarayonni tashkil qilishi uchun OS yordamidan foydalanadi. Yangi jarayon supervizorli jarayon tomonidan yaratilgandan boshlab tayinlangan identifikatori yonadi.

3. Shu paytdan boshlab supervizorli jarayon yangi tuzilgan qo'llaniladigan jarayonga to'g'ri xabar uzatishga qodir, chunki qo'llaniladigan jarayon identifikatori ma'lum. Bu xabar bazali xabarda supervizorli jarayon tomonidan qabul qilingan axborotlarni o'z ichiga oladi.

4. Qo'llaniladigan jarayon to'g'ri xabar qabul qilgan axborotni o'qiydi va vazifani bajara boshlaydi. Natijasi boshqa jarayonni bazali xabar yoki birinchi bazali xabar yuborgan jarayonga to'g'ri xabar bo'lishi mumkin. Shu paytdan boshlab jarayon to'g'ri xabar yordamida qo'llaniladigan jarayon bilan aloqa qilib turadi.

Sistemali quvvatlash dasturlari. SSM ta’rifi va tavsifi

Asosan dasturli ta’minlash modullari FMM ko’rinishida bajariladi va yuqori darajali CHILL tilida yoziladi. O’zining afzalliklari (modulli tuzilishi va ixchamligi)ga qaramasdan FMM apparati o’z kamchiliklariga ega. Dasturli vositalar har doim «apparatli uzilishlar» deb nomlanuvchi aniq hodisalarни qayta ishlovga tayyor bo’lishi kerak. Bu tayyorgarlikni FMM yordamida ta’minlash mumkin emas, chunki FMM ni faqat unga xabar yuborilgandan keyingina qo’llanib yuboriladi.

Faraz qilaylik, bizda quvvatlanishning ayrim umumiy muolajalari bor va ularni mustaqil modullarga guruhshtirishimiz kerak bo’lsin. Buni FMM ni qo’llanish orqali amalga oshirish mumkin. Lekin ha doim bu proseduralarning bittasidan foydalanishga zarurat paydo bo’lsa, tarkibida jarayon saqlavchi FMM ga xabar yuborish kerak bo’ladi. Bu ko’p miqdorda xabar olishga va ularni qayta qabul qilishda hamda uzatishda vaqt yo’qotish bilan haddan ortiq yuklanishga olib keladi.

Shu mulohazalar asosida FMM ga qo’shimcha xizmat qiluvchi va yuqoridagi muammolarni hal qilishda yordam beruvchi boshqa modul tuzildi. Bu modul SSM – sistemali quvvatlash dasturidir. SSM – bitta yoki bir necha FMM uchun yordamchi funksiyalarni bajaruvchi, o’z ichiga bir qator vazifalarni oluvchi modul hisoblanadi. Bu proseduralarga murojaat qilish xabar orqali emas, muolaja chaqiruvlari yordamida bajariladi, lekin SSM lar FFM ga xabar yuborishi mumkin.

SSM dagi muolajalar turi. Interfeysli

Bu muolajalar FMM tomonidan prosedurali chaqiruvlari yordamida ishga tushiriladi va dasturni chaqiruvchiga o’xshab bajariladi. Interfeysli proseduralar to‘g’ri xabarlarni qabul qilishi va uzatishi mumkin. Masalan: FMM ning o’ziga ilgari yuborilgan xabarga qayta javob xabarini uzatadi. Bu SSM ning FMM jarayoni tomonidan chiqarish mumkin bo’lgan yagona prosedurasi. Bundan tashqari jarayon bu muolajadan foydalanishi mumkin bo’lsa, shu jarayon bitta SE da prosedura bilan birga joylashgan bo’lishi kerak.

Davriy (Vaqtli)


Bu proseduralar vaqt-i vaqt bilan ishga tushiriladi. Ular, aosan, telefon qurilmalarini skanerlash uchun qo’llaniladi. Bu proseduralarni bajarish vaqtida uzilishlar niqoblanadi, shunday qilib taymer yoki apparatli hodisalar tomonidan uzilishi mumkin emas.

Uzilishlar muolajalari

Bu muolajalar apparatli uzilishlar kelganda bajariladi, xuddi davriylarga o'xshab ular niqoblangan uzilishlar bo'lganda kelib chiqadi. Shu sababli davriy va uzilish muolajalari tez paydo bo'ladi, chunki apparatli uzilishlarni yo'qolishlari bo'lmasligi uchun. Shunday qilib, ular xabarni qabul qilish va uzatishni bajarmaydi, chunki bu ko'p vaqtini band qilishi mumkin. Bu proseduralarga o'zining bajarilishiga yoki xabar uzatish uchun uzoq vaqt talab qilinadigan funksiyalar topshirish mumkin emas. Bu maqsad uchun «hodisalarni qayta ishlovchi» xizmat qiladi.

Hodisalarni qayta ishlovchi

Bu muolajalar ruxsat berilgan uzilishlarda ro'y beradi va xabarlar yuborishga qodir. Ularning asosiy vazifasi davriy va uzilishlar proseduralari tomonidan taqdim etgan ma'lumotlarga asoslangan xabarlarni tayyorlashi va uzatish hisoblanadi. Bu muolajalarga tegishli bayroq (hodisa bayrog'i) qo'yiladi. U davriy va uzish proseduralar yoki FMM jarayoni tomonidan o'rnatiladi va hodisani qayta ishlovchini qo'llanish mumkinligi to'g'risida OS ga signal bo'lib xizmat qiladi. 3.37- rasmda SSM ning boshqa modullar bilan o'zaro ta'siri keltirilgan.



3.37- rasm. SSM ning boshqa modullar bilan o'zaro ta'siri.

3.1.5. S-12 tizimida ichki stansiya aloqa o'rnatish jarayoni. Ichki stansion aloqa o'rnatish jarayoni

Agar abonent A telefon apparatining raqam teruvchisi tugmachali bo'lsa, u holda SCM ning o'zi «Stansiya tayyor» signalini uzatadi. Agar abonent A TA ning raqam teruvchisi diskli bo'lsa, u holda «Stansiya tayyor» ASM Idan uzatiladi.


Aloqa o'rnatish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat.

1- bosqich: a) chaqiriqni qabul qilish;

b) stansiya tayyor signalini uzatish.

3.38- rasmida 1- bosqichga ulash ko'rsatilgan.

Ab A



3.38- rasm. 1- bosqichda ulash.

1. Terminal moduli ASM 1 shu modulga ulangan abonent liniyasidagi tushgan chaqiriqni har doim qabul qilishga tayyor rejimda turadi. A abonent mikrotelefon go'shagi ko'rsatilgan ASM 1 orqali topiladi. Chaqiriqqa xizmat ko'rsatish bosqichining algoritmiga asosan ASM 1 DSN orqali ACE 1 ning chaqiriqni boshqarish qurilmasi bilan aloqa o'rnatadi. Shu o'rnatilgan trakt orqali TCE 1 dan ASE 1 ga chaqirilayotgan abonentning liniya raqami haqidagi axborot uzatiladi.

2. ASE 1 bu axborotni eslab qoladi va TSE 1 ga tushgan chaqiriqqa xizmat qilishga tayyorligi to'g'risida teskari trakt o'rnatadi.

3. ASE 1 o'zining xotirasidan chaqirayotgan abonent A ning kategoriyasini aniqlaydi. Bizning holatda abonent A ning TA tastaturali ASE 1 ASE 2 bilan ulovchi trakt o'rnatadi va unga chaqirayotgan abonent liniya raqamini va chastotali qabul qilgich ulash zarurligi haqida axborot uzatadi.

4. ASE 2 bo'sh SCM ni tanlaydi, chaqirayotgan abonent to'g'risida ma'lumotni uzatadi va abonent liniyasiga kerakli bo'sh qabul qiluvchini ulash zarurligi haqida axborot uzatadi.


5. SCM ning modulni boshqarish qurilmasi kerakli tastaturali qabul qilgich tanlaydi va ASM 1 o'rtasida trakt o'rnatadi, TSM 1 ga unga qabul qilgich ulanganligi haqida axborot uzatadi, stansiya tayyor signalini uzatishga tayyorligini haqida signal uzatadi.

6. TCE 1 SCM tomon teskari ulovchi trakt o'rnatiladi. Abonent A ga 5 trakt orqali stansiya tayyor uzatiladi va sistema raqamlarni qabul qilish rejimiga o'tadi.

7. SCM ACE 1 ga abonent A liniyasiga tastaturali qabul qilgich ulanganligi to'g'risida ma'lumot uzatish uchun trakt o'rnatiladi.

2- bosqich. Terilgan raqamlarni qabul qilish va tahlil qilish (3.39- rasm).


TSE (SCM) 6- traktdan 1 raqam terilganligi to'g'risida ma'lumot qabul qilib, 5- traktdan stansiya tayyor signalini uzatadi. TSE (SCM) ACE 1 ga 7 orqali 1 raqam qabul qilinganligi to'g'risida axborot uzatadi.



3.39- rasm. 2- bosqichda ulash.

ASE 1 ASE 2 trakt 3 orqali qabul qilingan raqamning tahlili to‘g‘risida ma‘lumot uzatadi, ya‘ni nechta raqam qabul qilish kerak, keyingi tahlilgacha SCM qabul qilingan raqamlarni ASE 1 ga uzatishni davom ettirib, yana nechta raqam kerakligi va uning tahlilini ASE 2 ga uzatadi. Agar ASE yangi tahlil ichki stansion Aloqasini aniqlasa, ASE2 ASE1 ga to‘liq abonent raqamlarini qabul qilish uchun yana nechta son kerakligi haqida axborot uzatadi. To‘liq raqam qabul qilib bo‘lgandan so‘ng ASE 2 qabul qilgan raqamni pozitsiyalni raqamga aylantiradi va ASE 1 ga abonent B uchun ishtirok etadigan ASE 3 raqamini uzatadi.

3- bosqich. Raqam qabul qilish, qabul qilgichni bo‘shatish (3.40- rasm).



3.40- rasm. 3- bosqichda ulash.

1. ASE1 oxirgi raqamni qabul qilganda, qabul qilgichni bo‘shatish buyrug‘ini uzatish uchun 9- trakt orqali ulash o‘rnatadi.

2. 5- va 6- trakt bo‘shatish uchun buyruq bajariladi.

3. SCM ASE 2 ga qabul qiluvchi bo‘shaganligi to‘g‘risida axborotni uzatish uchun traktni o‘rnatadi. ASE 2 o‘zinig xotirasida qabul qiluvchi bo‘shligini va yangi ulashda qo‘llanish mumkinligini qayd qiladi.

4. SCM ASE 1 qabul qilgichni bo‘shatish tugaganligi to‘g‘risida ma‘lumotni 7- trakt orqali uzatadi.


4- bosqich. Chaqirilayotgan abonent liniyasiga ulash (4.41- rasm).

1. ASE 1 TCE 1 ga chaqirilayotgan abonentning pozitsion raqami va shu abonent ulangan ASM 2 raqamini uzatadi.

2. TSE 1 ASM 2 bilan 11 trakt orqali to‘g‘ri yo‘nalishda ulash o‘rnatadi va TSE 2 ga chaqirilayotgan abonent liniyasi to‘g‘risida ma’lumot bildiradi.

3. TSE 2 ASM 1 bilan teskari 12 trakt o‘rnatadi. Ikki tomonlana dubbleks ulash sodir bo‘ladi.

Ab A




3.41- rasm. 4- bosqichda ulash.

4. TSE 2 chaqirilayotgan abonent liniya kategoriyasini, uning bo‘shligini tekshiradi va bu liniyani band etadi. TSE 2 ASE 3 ga 13 trakt orqali ulash o‘rnatilganligi to‘g‘risida ma’lumotni uzatish uchun ulash o‘rnatadi.

ASE 3 ASE 1 ga chaqirilayotgan abonent bilan aloqa o‘rnatilganligi to‘g‘risida ma’lumot uzatadi (14 trakt).

5- bosqich. Chaqiriq signali va Chaqiriq signalining nazoratini uzatish (3.42- rasm).

Ab A



3.42- rasm. 5- bosqichda ulash.


1. ASE 1 TSE 1 ga chaqirayotgan abonent A ga Chaqiriq signali nazoratini aniqlovchi buyruq yuboradi.

2. ASE 1 15 traktdan ASE 3 chaqirilayotgan abonent B liniyasiga Chaqiriq signalini ulash uchun signal yuboradi.

3. ASE 3 TSE2 ga abonent B liniyasiga Chaqiriq va abonent A ga uni nazorat signalini ulash uchun buyruq yuboradi (16 trakt).

4. TSE 2 Chaqiriq va uning nazorat signalini uzatishni ta‘minlaydi.

6- bosqich. Chaqirilayotgan abonentning Chaqiriqqa javobi va So‘zlashuv holati (3.43- rasm).




3.43- rasm. 6- bosqichda ularash.

1. Abonent B javobi TSM 2 orqali aniqlanadi. TSE 2 PV signalini uzatadi va TSE 1 ga abonent B tomonidan javob sodir bo'lganligi haqida xabar qiladi (12 trakt).

2. TSE 2 ASE 3 ga abonent B ning Chaqiriqqa javobi haqida va So'zlashuv holatiga o'tganligini bildiradi (13 trakt).

3. ASE 3 ASE 1 ga abonent B ning Chaqiriqqa javobi haqida va So'zlashuv holatiga o'tganligini bildiradi (14 trakt).

7- bosqich. So'zlashuv tugashi va uzish (3.44- rasm).



3.44- rasm. 7- bosqichda ularash.

1. Abonent A birinchi bo'lib, MT go'shangini qo'yganligi TSE 1 orqali aniqlanadi va bu haqida ASE 1 xabar qiladi (1 trakt).

2. ASE 1 TSE 1 ga bu xabarni qabul qilgani to'g'risida tasdiq signalini yuboradi (2 trakt).


3. TSE 1 TSE 2 So'zlashuv tugaganligi haqida axborot jo'natadi (4 trakt).

4. TSE 2 ASE 3 ga So'zlashuv tugaganligini xabar qiladi (13 trakt).

5. ASE 3 ASE 1 bilan birgalikda bo'shatish yoki uzish jarayonini tayyorlaydi (14 trakt).

8- bosqich Bo'shatish (3.45- rasm).

1. ASE 1 ASE 3 ga abonent B ning liniyasini dastlabki holatiga o'tkazish kerakligi haqida ma'lumot beradi (15 trakt).



3.45- rasm. 8- bosqichda ulash.

2. ASE 3 TSE 2 ga abonent B liniyasini, uning tomonidan chaqiruv tamom bo‘lganligini kutish holatiga o‘tkazish buyrug‘ini uzatadi (16 trakt).
3. ASE 1 TSE 1 ga abonent 1 ning liniyasini bo‘shatish haqida buyruq beradi (2 trakt).
4. TSE 1 TSE 2 teskari yo‘nalish traktini uzish haqida buyruq beradi. Keyingi TSE 1 to‘g‘ri yo‘nalish traktini bo‘shatadi.

TSE 2 teskari yo‘nalish traktini bo‘shatadi va abonent tomonidan go‘shakni qo‘yishini kutadi. Go‘shak qo‘yilganligi to‘g‘risida signal paydo bo‘lishi bilan TSE 2 abonent B liniyasini dastlabki holatiga o‘tkazadi. Bitta stansiyada ishtirok etgan ikki abonent orasidagi ulashda qatnashgan uskunalar to‘liq bo‘shaladi.

3.1.6. S-12 tizimini boshqarish

S-12 tizimi keng ma’noda taqsimlangan boshqaruv tizimiga ega. Chaqiruvga xizmat qilishda alohida boshqaruv modullaridan konfiguratsiya tuzilishi kerak. Bu boshqaruv modullar shu turdagি chaqiruvga xizmat ko‘rsatadi. Boshqaruv modullarining o‘zaro ta’siri uchun umumiyl shina ko‘zda tutilmaganligi sababli boshqaruv tuzish uchun raqamli kommutatsiya maydoni orqali o‘rnatalgan IKM trakti qo‘llaniladi.

Ulashni o‘rnatish jarayonida kommutatsiya maydonida ulangan IKM traktlari yordamida bir modulni ikkinchisiga ulash ishini bajarishga imkon beradi. Bu traktda aniq ulash uchun vaqtli kanal ajratiladi.


Modullararo ulash traktni yaratish algoritmiga muvofiq bir tomonlama (bir yo‘nalishli) va ikki tomonlama bo‘lishi mumkin. Aniq vaqtli kanal raqami har bir multiportning boshqaruv uskunasi tomonidan tanlanadi. Ikki tomonlama aloqa vaqtida boshqaruv modullari orasida qaytish trakti o‘rnataladi. Shu bilan birga ikki trakt bir-biriga qarshi emas va raqamli kommutatsiya maydonida bitta marshrut bilan cheklanmaydi.

Qaysi bir yo'nalishda o'rnatilgan trakt ko'pgina marshrutlar bo'yicha o'tishi mumkin, lekin ularash o'rnatilgandan keyin tanlangan trakt uzilgancha boshqa o'zgarmaydi.

Ulash o'rnatish jarayoni chaqirilayotgan liniyalar orqali boshqariladi. Belgilangan boshqaruv modullar bilan aloqa har bir ularash o'rnatish bosqichida RKM (DSN) orqali sodir bo'ladi.

Misol tariqasida turli xil qurilmalarning bir-biriga o'zaro ta'sirini stansiya ichidagi aloqani o'rnatish jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz. Bu xil ularishni o'rnatish jarayonida turli xil modullar qatnashadi.

3.46- rasmida boshqaruv qurilmasining konfiguratsiyasi keltirilgan.



3.46- rasm. BQ konfiguratsiyasi.

Boshqaruv modullari ikki guruhga bo'lingan:

- terminal modullarini boshqarish qurilmasi;
- qo'shimcha boshqarish qurilmasi.

Birinchi guruhga:

ASM 1 – chaqirilayotgan A abonent moduli.

ASM 2 – chaqirilayotgan V abonent moduli.

SCM – xizmat komplekt moduli.

Ikkinci guruhga qo'shimcha boshqaruv qurilmalari kiradi:

ACE 1 – chaqirilayotgan abonent tomonidan tushgan chaqiriqni boshqarish moduli (LCACO) ASM 1.

ACE 2 - ACE1 ga (PATED;LSIF) raqamini aniqlashga yordam beradi va raqamlarni tahlil qiladi.

ACE 3 – chaqirilayotgan abonent tomonidan tushgan chaqiriqni boshqarish moduli (LCACO).

3.2. EWSD kommutatsiya tizimi.

3.2.1. Umumiy tavslifi, tizimchalar, ularning vazifasi va qo'llanilishi

EWSD tizimi mahalliy, tranzit, tandem, shaharlararo, xalqaro stansiyalar tariqasida xohlagan darajadagi tarmoqda ishlash uchun mo'ljallangan. Tizimda signallarni impuls-kodli modulyatsiyasi qo'lla-

nilgan. Unga IKM – 24, IKM –32 uzatish tizimlarini ulash mumkin. Bu tizim Germaniyada ishlab chiqilib, 1980- yilda tarmoqqa taʼbiq qilingan.

Mahalliy telefon stansiyasi 250 000 abonentgacha boʻlgan xohlagan sig‘imga ega boʼlishi mumkin. Tranzit (tandem), AMTS funksiyasini bajaruvchi EWSD tizimi 60 000 gacha chiqish, kirish, ikki tomonlama ulash liniyalarini ulashga moʼljallangan. Tizim kommutatsiya maydoni 25 200 Erlang yuklanishini oʼtkazishi mumkin. Eng katta yuklanish soatida (ChNN) tizim 800 000 chaqiriqqa xizmat koʼrsata oladi. Kuchlanish manbai 48 V yoki 60 V boʼlishi mumkin. Abonent signalizatsiya quyidagi turda boʼlishi mumkin:

- impulsli 5 – 22 impuls/s;
- koʼp chastotali kod 8 tadan 2 tasi.

ISDN abonentlari uchun:

- asosiy kirish (BK) 2V +D + sinxron $2 \cdot 64 + 16 + 16 = 160$ Kbit/s;
- birlamchi kirish (PD) $30 \text{ V} + D + \text{sinxron} = 30 \cdot 64 + 64 = 2048$ Kbit/sek – maʼlumotlar uzatish uchun;

Ulash liniya signalizatsiya quyidagi turda boʼlishi mumkin:

- bazali kirish $2V + D = 2 \cdot 64 + 16 = 144$ Kbit/s;
- birlamchi kirish 2048 Kbit/sek – maʼlumotlar uzatish uchun;
- R2 signalizatsiyasi tizimi;
- ichki kanal signalizatsiyasi SAS;
- umumikanal signalizatsiyasi CCS;
- 4 yoki 5 yoki R 1,5 signalizatsiyasi.

Sinxronlash tizimidagi taktli impulslar aniqligi plezioxronli rejimda (PDH) $1 \cdot 10^{-9}$, sinxron rejimda (SDH) $1 \cdot 10^{-11}$. Grafikni marshrutlashda 7 ta yuqori sifatli yoʼl va bitta oxirgi tanlangan yoʼl olinadi. Soʼzlashuv narxini qayd qilishda impuls hisoblash davri maksimum 127 zona, har bir zonada eng koʼp 6 ta tarif qoʼllash mumkin.

Impuls-kodli modulyatsiyada davr chastotasi 8 KHz qoʼllanilgan. Kvantlash qonuni nochiziqiy A, μ boʼlishi mumkin. Tizimda abonentlarga har xil qoʼshimcha xizmat turlari berish mumkin.

EWSD tizimida markazlashmagan boshqarish usuli qoʼllanilgan. U bir-biriga bogʼliq boʼlmay ishlay oladigan mikroprosessorlarga ega, yaʼni taqsimlangan boshqarishli avtonom boʼlakchalardan iborat. Shuning uchun stansiya sig‘imini ravon oshirish mumkin. Bu boshqarish usuli ishonchliligini oshiradi va oʼsib borayotgan talablarga ishlash shartlarini oʼzgarishga adaptatsiya qilish imkonini beradi. Prosessor turlari analog AI, modulining prosessori SLMCP, guruh prosessori GP, koordinatsion prosessor SR. Dastur taʼminoti CHILL, SDL tilida yozilgan. Birlamchi multipleksorlashda 32 kanalli, tezligi 2048 Kbit/s va ikkilamchi multipleksorlashda 128 kanalli, tezligi 8192 Kbit/s Raqamli oqim qoʼllanilgan.

Egallash maydoni 1 ta abonent raqamiga 0,004 kV metr to'g'ri keladi. 24 000 sig'imli stansiya 92 kV metr joyni oladi.

Havo harorati $5 \div 40^{\circ}\text{C}$, namligi 10% – 80% bo'lgan xonada iqlim texnika yordamida nominal harorat 22°C ($180 \div 25^{\circ}\text{C}$) namlik 70% ehlay oladi.

Bitta EWSD harakatdagi obyektlar kommutatsiya markazi 65000 ta radio telefonli abonentlarga xizmat ko'rsatadi.

Qishloq telefon stansiyasi bir necha yuzdan 7500 gacha abonentga xizmat ko'rsatadi. Qishloq telefon tarmoqlarida ularash liniya sifatida raqamli ularash liniya yoki radiostansiya orqali tashkil qilingan radiokanalallar qo'llaniladi.

EWSD tizimi xalqaro telefon stansiyalarida qo'llaniladigan hamma maxsus funksiyalarni bajarishni ta'minlaydi. Bularga xalqaro signalizatsiya tizimi, kontinentlar orasidagi va yerning sun'iy yo'ldoshi orqali aloqa ma'muriyat bilan hisob-kitob uchun statistik ma'lumotlarni yig'ish kiradi.

EWSD tizimiga ularish imkonini tashkil qilish 3.47- va 3.48-nasmarda keltirilgan.

PSTN – umumfoydalanishdagi telefon tarmog'i;

ISDN – integral xizmat ko'rsatuvchi raqamli tizim;

RSU – uzoqlashtirilgan konsentrator;

PSM – paketli kommutatsiya tarmog'i;

BBN – keng polosali tarmoq;

NSC – tarmoqda texnik xizmat ko'rsatish markazi;

CN – uyali aloqa tarmog'i;

PBX – korxona ATS;

NSC – Network Servise Centre – tarmoqqa texnik xizmat ko'rsatish markazi;

PSTN – Public Switcked Telephone Network – umumiy foydalaniladigan kommutatsiya telefon tarmog'i;

PSN – Pacqe Switcking Network – paketli kommutatsiya tarmog'i;

BBN – Broad Band Network – keng polosali tarmoq;

SN – Cellular Network – uyali aloqa tarmog'i.

– raqamli abonent bloki DLU;

– liniya guruhi LTG;

– kommutatsiya maydon SN;

– koordinatsion prosessori SRI;

– xabarlar buferi MVI;


– umumikanal signalizatsiyasini boshqarish qurilmasi CCNC;

– taktili impulslar markaziy generatori CCG;


– tizim paneli SYP;

– tashqi xotira qurilmasi EM;

– texnik xizmat va ekspluatatsiya uchun oxirgi terminallar OMT.



3.47- rasm. Ulanish imkonи.



3.48- rasm. EWSD tizimining tuzilish chizmasи.

Raqamli abonent bloki analog abonent liniyalarini, ISDN abonentlarini, korxona ATS larini stansiyaga ulaydi, yuklanishni konetratsiya qiladi va analog AL uchun BORSCHT funksiyasini bajaradi.

Liniya guruhi kommutatsiya maydon uchun interfeys hisoblanadi. Liniya guruhiga DLU, multipleksor SC – MUX orqali analog ularash liniyalarini va Raqamli ularash liniyalarini ularadi. Liniya guruhi har xil turdag'i signalizatsiyani stansiya ichki signalizatsiyasiga moslashtirish, boshqarish signallarini ko'p chastotali kod asosida terilgan raqam qabul qilish, akustik signallarni uzatish, Raqamli signalni multipleksirlashtirish funksiyalarini bajaradi. LTG hamma turdag'i signalizatsiya bilan ishlay oladi.

Kommutatsiya maydon SN vaqt va fazoviy kommutatsiya bosqichlaridan iborat. SN, asosan, bog'lanish traktlarini yaratish va ularni uzish uchun qo'llaniladi.

Koordinatsion prosessor SRU ma'lumotlar bazasini, koordinatsiya va konfiguratsiya funksiyalarini boshqaradi.

Takt impulsarning markaziy generatori CCG stansiyani sinxronlash uchun qo'llaniladi.

Tizim kanali SYP ichki avariya signallarini, koordinatsion prosessorning tavsiyanomalari va yuklanishini ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Tashqi xotira qurilmasi EM zaxira dasturlar va ma'lumotlarni, statistik ma'lumotlarni saqlash uchun qo'llaniladi.

Xabarlar buferi MVU-CP, SN, LTG, CCNC orasidagi ichki xabarlar trafikasini koordinatsiya qilish uchun qo'llaniladi.

Umumkanal signalizatsiyasini boshqarish qurilmasi 7- sonli signalizatsiyasiga ishlov beradi.

EWSR tizimi quyidagilardan iborat (3.49 - rasm):

DLU – raqamli abonent bloki;

LTG – liniya guruhi;

SN – kommutatsiya maydon;

CCNC – umumkanal signallash tarmog'ining boshqarish qurilmasi;

CP – koordinatsion prosessori;

EM – tashqi xotira;

OMT – texnik xizmat va ekspluatatsiya terminali;

SYP – tizim paneli;


MV – xabarlar buferi;

CCG – sinxronli impulslar va taktli chastotalar ishlab chiquvchi markaziy generator;

SC – MUX – signalni o'zgartiruvchi – multipleksor.

DLU Raqamli abonent bloki yoki konsentrator abonent liniyasini stansiyaga ularash, yuklanishni konsentratsiya qilish, abonent tomon uzatiladigan analog signallar uzatish (Chaqiriq signali, mikrofonga manba

berish) analog signalni Raqamli signalga aylantirish va teskarisini bajarish, difsistemasini tarzida ishlash va hokazolar funksiyalarini bajaradi.



3.49- rasm. EWSD tizimining strukturaviy chizmasi.

LTG – liniya guruhi stansiya atrofidagi muhit va raqamli kommutatsiya maydon SN orasida interfeys hosil qiladi. Liniya guruhi chaqiriqa ishlov berish, ishonchhlilikni oshirish, ekspluatatsiya va texnik xizmat funksiyalarini bajaradi. Bundan tashqari abonent tomon tonal signallarni uzatish ko‘p chastotali kod bilan terilgan raqamlarni qabul qilish va hokazo funksiyalarini bajaradi.

SN – kommutatsiya maydon so‘zlashuv traktini hosil qilish, LTG, SR va CCNC larni bir-biri bilan bog‘lash funksiyasini bajaradi.

Koordinatsion prosessor SR ma'lumotlar bazasini, konfiguratsiya va koordinatsiya funksiyalarini boshqaradi.

MV xabarlar buferi bitta stansiya ichida SR, SN, LTG va CCNC orasida ichki axborot almashinuvini koordinatsiya qildi.

CCG – takt chastotalar markaziy generatori stansiya sinxronizatsiyasini ta’minlaydi.

SYP – tizim paneli ichki avariya signalizatsiyani, xabarlarini, tavsiyani va SR yuklanishini indikatsiya qiladi.

CCNC – umumkanal signalizatsiya tarmog‘ining boshqarish qurilmasi umumkanal signalizatsiya CCS № 7 ga ishllov beradi.

LTG va DLU orasida boshqarish axborotlarini uzatish uchun umumkanal signalizatsiya CCS qo‘llaniladi.


LTG va DLU o‘rtasida to‘liq imkonli liniya qo‘llanish ko‘zda tutilgan. DLU da ishonchli ishlashini ta’minlash maqsadida bitta DLU 2 ta LTG ga ulanadi va 120 kanal hosil qiladi.

DLU da modul asosida sig‘imini oshirish mumkin. Har bir modul 8 ta AK ga ega. Agar DLU LTGF ga ulansa tezlik 4096 Kbit/s. Agar DLU LTGB ga ulansa tezlik 2048 Kbit/s. DLU bloki LTGB ga IKM orqali (tezligi 2048 Kbit/s) ulanadi. Agar DLU stansiyaning o‘zida o‘rnatalgan bo‘lsa, LTGF orqali SN ga 4096 Kbit/s tezlik bilan ulanadi.

DLU LTG ga ulash uchun shisha tolali optik va mis tolali liniya qo‘llaniladi.

EWSD tizimidagi bo‘laklarni boshqarish qurilmalari o‘z zonasida hosil bo‘layotgan hamma masalalarni hal qiladi va bajaradi.

3.50- rasmda EWSD tizimidagi taqsimlangan boshqarish ko‘rsatilgan.



3.50- rasm. EWSD tizimidagi taqsimlangan boshqarish.

**3.2.2. Raqamli abonet bloki DLU, uning tuzilmasi va
blok sxemasi. Shinalar tizimi. Tarifikatsiya va chaqiruv
toklarining generatsiyasi. Abonent komplekti moduli.
DLU uchun dasturiy ta'minot. DLU stativining konfiguratsiyasi.
Uzoqlashtirilgan DLU (RSU)**

EWSD tizimida abonent liniyalari va kichik yoki o'rta sig'imli korxona ATS lari DLU ga ulanadi. DLU stansiyaning o'zida yoki Uzoqlashtirilgan konsentrator (RSU) sifatida ulanishi mumkin. Kommutatsiya maydoniga (SN) LTGB, F orqali ulanadi.

DLU blokining tavfsifi:

- 944 gacha abonent liniya ulanadi;
- o'tkazuvchanlik qobiliyati 100 Erl;
- signalizatsiya CCS orqali bajariladi.

DLU blokiga batareya impulsli, ko'p chastotali kod asosida ishlaydigan abonent liniyalari, 12–16 KHz tarif impulsli nazorat hisoblagichlari, taksofonlar, kichik va o'rta sig'imli korxona ATS lari ulanadi.

Analog abonent liniyalari analog abonent liniya moduli SLMA ga ulanadi (3.51- rasm). Analog abonent liniya moduliga 8 ta abonent interfeysi (komplekti) SLCA joylashadi. Bitta DLU blokida 118 ta SLMA va har bir SLMA da 8 tadan SLCA joylashadi. Demak, hammasi bo'lib 944 abonent interfeysi joylashadi. SLCA ikkita raqamli interfeys bilan ulangan to'g'ridan-to'g'ri uzatish 2 ta tarmog'iga ega:

- «0» — 4096 Kbit/s DIUD0;
- «1» — 4096 Kbit/s DIUD1.

Har bir tarmoqning tezligi 4096 Kbit/s. Har bir kanalning uzatish tezligi 64 Kbit / s. Kanallar soni 128 ta. Ulardan 120 tasi so'zlashuv vaqt kanallari, 8 tasi vaqt kanallari boshqarish signallari uchun qo'llaniladi. Har bir SLMA moduli o'z mikroprosessori SLMCP ga ega. Bu mikroprosessorning boshqarish tezligi 136 Kbit/s.


DLU bulardan tashqari 2 ta boshqarish qurilmasi DLUC0, DLUC1 ga sinov bloki TU ga, 2 ta boshqarish tarmog'iga ega.

Uzatish tarmog'i SLM va DLUD orasida foydalanuvchining axborotini uzatish qo'llaniladi.

Boshqarish tarmog'i SLM va DLUC orasida boshqarish axborotini uzatish uchun qo'llaniladi.

Sinov bloki TU telefon apparatni, abonent liniyalarni va zanjirlarini testlash uchun qo'llaniladi.

DLU ning o'zi ikki tomonlama DIUD0 va DIUD1 yuklanishni bo'lish rejimida ishlaydi. DLU avariya rejimida ham ishlaydi. Avariya rejimi ish jarayonida DLU ni boshqarish qurilmasi (EMSP) ulash o'rnatish jarayonini boshqarishni o'z zimmasiga oladi, buzilish joyini aniqlaydi.




3.51- rasm. DLU ning tuzilish sxemasi.

DLU stativi 2 xil bo'ladi:

- kengligi 2450 mm 944 abonent liniyasi uchun;
- kengligi 2130 mm 816 abonent liniyasi uchun.

DLU ning LTG ga masofadan ulanish sxemasi 3.52- rasmida keltirilgan. DLU da ishonchli ishlashni ta'minlash maqsadida bitta DLU 2 ta LTG ga ulanadi. DLU bilan GP o'rtaсиda 2 ta LTG da 7-sonli umumkanal signalizatsiya tizimining komplekti umumkanallি signalizatsiyasi uchun qo'llaniladi



3.52- rasm. DLU ning LTG ga ulanishi.

DLU bilan LTG o'rtaida 2 variantda aloqa tashkil qilish mumkin:

– 4 tali PDC 120 kanal, tezligi 2,048 Mbit/s;

– 2 tali PDC 60 kanal.

Ikkala yo'nalishda PDC0 va PDC2 dagi 16- kanal umumkanal signalizatsiyasi uchun qo'llaniladi.

DLU ning asosiy tuzilishi


DLU blokining o'zida abonent liniyasi analogli abonent liniya moduliga (SLMA) ularadi. Tastaturali va dekadali raqam teruvchi telefon apparatlar uchun har bir modulda 8 ta SLCA (AK) va bitta SLMCP abonent moduli uchun bir prosessorli bitta boshqaruv seksiyasi joylashgan. Maksimal bitta DLU blokiga 118 SLMA moduli, 944 analog abonent komplektlari joylashishi mumkin.

DLUD raqamli abonent bloki uchun SLCA 2 ta raqamli interfeys bilan «0» tarmoq va «1» tarmoq orqali 1 DIUD1 bilan 4096 Mbit/s tezlikda ikkita tarmoq orqali ularadi.

Har bir tarmoq ikkala uzatish yo'nalishida 64 juft kanalga ega, ya'ni SLCA bilan DIUD tarkibida 128 ta juft kanal bor. Bularidan 120 tasi foydalanuvchilar axborotlarni uzatadi.

3.53- rasmda DLU ning LTG ga lokalli ularishi keltirilgan.

DLU ning LTG ga lokalli ularishida 4,096 Mbit/s optik tolali va mis tolali liniya trakti qo'llaniladi. SLMCP prosessori qarori asosida SLCA 120 ta kanalning xohlaganiga to'liq imkonli ularishga ega. O'z shaxsiy mikroprosessoriga ega bo'lgan, hamma SLMCP va qolgan hamma



3.53- rasm. DLU ning LTG ga lokalli ularishi.

modular DLUC0 va DLUC1 ikkala boshqaruv tarmoqlari yordamida raqamli abonent bloki uchun ikkita boshqaruv qurilmalari bilan hosil qilingan.

Bu ikki tarmoq ikkita uzatish yo'nalishida boshqaruv axborotlarini uzatish uchun qo'llaniladi:

- DLUC dan SLMCP ga kanallarni uzatish;
- SLMCP dan DLUC ga ma'lumot va signalizatsiyani uzatish.

DIUD va DLUC sherik qurilmalar bitta DIUD interfeys bo'lib namoyon bo'ladi:

- DLU ichida tarmoq orasida 4096 Mbit/s tezlik bilan; DLU tushqarisida ikkita PDC traktlari;
- unga biriktirilgan DLUC orasida va PDC ning bitta traktidagi 16 juft kanalida.

«0» va «1» boshqaruv tarmog'i yordamida DLUC blokini boshqaradi. Har bir DLUC ham o'ziga biriktirilgan DIUD va birlamchi raqamli tizimining 16 kanali yordamida LTG ning bitta guruhiga boshqaruv axborotini uzatadi va qabul qiladi.

DLU o'z generatoridan CG 4096 KHz va 8 KHz bitli sikel yordamida sinxronizatsiya qilinadi


PDC ga keluvchi taktli impulslar yordamida LTG da sinxronlash umalga oshiriladi.

DLU ning funksiyasi

DLU ikkita asosiy ishni bajaradi:

- odatdag'i ish sharoitidagi ulanishni o'rnatish;
- avariya rejimida ulanishni o'rnatish.

SLMA – analog abonent liniya modulini ko'rib chiqamiz.




3.54- rasm. SLMA chizmasi.

Bitta modul 8 ta SLCA va 1 ta SLMCP boshqaruv seksiyasiga ega (3.54- rasm).

SLCA – BORSCHT funksiyasini bajaradi:

- DLU ichidagi 4096 Kbit/s li 2 ta tarmoq va SLCA orasidagi interfeys;

- Signal axborotlarni oldindan qayta ishlash;
- DLUS bilan ma'lumotlarni almashtirish;
- SLCA komplektlarni boshqarish;
- DLU ichidagi ikka-la boshqaruv tarmoqlari ustidan nazorat qilish, taktli impulsleri bilan ta'minlanishini nazorat qiladi;
- DIUD – raqamli abonent bloki uchun raqamli interfeys (3.55-rasm).



3.55- rasm. DIUD strukturasi.

DIUD quyidagi funksiyalarni bajaradi:


- 2 PDC maksimal moslashadi;
- DLU ichidagi bitta 4096 Kbit/s li bitta tarmoq uchun interfeys hisoblanadi;
- DLU dagi impulsli davrlar bilan PDC ga kiruvchi siklli impulslni sinxronlaydi;
- LTG dan keluvchi baytlarni multipleksirlaydi, SLCA komplektiga ularni uzatadi va LTG ga uzatish uchun SLCA dan keluvchi baytlarni demultipleksatsiya qiladi;
 - CCS ni qayta ishlaydi;
 - bitta PDC da 16 kanal orqali LTG ga DLUS dan Boshqaruv ma'lumotini uzatadi;
 - PDC ishini nazorat qiladi;
 - PDC avariya holatini indeksatsiya qiladi va boshqalar.

Faqat avariya rejiimida ishlaganda abonentga akustik signal uzatish va shleyfni rutin sinashda tonal signallarni uzatish uchun qo'llaniladi (3.56- rasm). 4096 Kbit/s tarmog'idagi 2 ta birlamchi PDC larning baytlarini multipleksirlash va LTG tomoniga SLCA dan yuborilgan signallarni demultipleksirlash blok sxemasi.


DLUS funksiyasi (3.57- rasm):

- DLUS bitta ichki tarmoq uchun interfeys bo'lishi mumkin;
- o'zining shaxsiy MP t'olgan SLMCP va boshqa bloklarni siklli so'rash. Bu uzatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash uchun kerak,

- DLU va LTG orasidagi just umumiy kanal signalizatsiyani boshqarish;
- DLUS va SLMA funksiyalarini nazorat qilish;
- rutin sinash;
- nosozliklar diagnozi;
- MP si bor aniqlovchi SLMCP va boshqa bloklarga yo‘naltiruvchi buyruqni uzatish.



3.56- rasm. DLUS ni Boshqaruq qurilmasining blok sxemasi.



3.57- rasm. DLUC tuzilishi.

DLU ni dasturli ta'minlash

EWSD tizimi amaliy dasturlar tizimi (APS) ga ega. Bu APS 1000 moduldan ortiq modulga ega. Biriktirilgan dastur tizimiga DLU ni dasturli ta'minlash kiritilgan.

Bu dasturli ta'minot quyidagilardan iborat:

- DLU ma'lumotlaridan;
- DLU ma'lumotlariga kirish imkoni dasturi;
- texnik xizmat dasturi;
- himoyalash dasturi;
- Chaqirqlarni qayta ishlash dasturi;
- ma'muriy dastur.

Sistemani birinchi qo'llanib yuborishda koordinatsion prosessori (SR) o'z-o'zini inisializatsiya qildi va APS kompleks tizimini ish bilan yuklaydi. Keyin SR DLU bloklarini boshqaruvchi dastur va ma'lumotlarni qabul qildi. LTG ni yuklash tugashi bilan SR LTG guruhlariga konfiguratsiya (ish holati) to'g'risida buyruq yuboradi. LTG guruhlari aktiv holatiga o'tib va periferiya qurilmalariga xizmat ko'rsatishni boshlaydi. DLU LTG ga yuklanishga uzlusiz chaqiruv yuborib turadi. DLU ichidagi SLMCP qurilmasi DLUS ga yuklanish uchun chaqiruv uzatib turadi. LTG DLU ning talablarini tasdiqlaydi va uni ma'lumotlar bilan yuklaydi. DLUS yuklangandan keyin LTG SR ga kerakli hisobotni SR ga yuboradi. Keyin SR DLUS qurilmasiga konfiguratsiyalash buyrug'ini yuboradi, ya'ni DLUS va DLU aktivlashadi. Keyin DLUS SLMCP yuklanishga kelayotgan talablarni tasdiqlashi mumkin.

Bu, o'z navbatida, SLMCP SLCA komplektlarini yuklaydi, SLMCP konfiguratsiya to'g'risidagi va boshqa hamma ma'lumotlarni qabul qilgandan keyin ular o'z-o'zidan aktiv holatga o'tadi va chaqiriqni qayta ishlash boshlanishi mumkin.

Dastur va ma'lumotlarni yuklash yo'lini ko'rib chiqamiz (3.58- rasm).

DLU ning dasturli ta'minoti, asosan, taqsimlangan dastur apparatlari vositalari ko'rinishida saqlanadi. Shuning uchun quyidagilarga taqsimlangan, ularning har birida shu bloklar bor.


DLUS – DIUD va IOP;

SLMA – SLMCP;

DIUD – DIUD nazoratida;

EMSP modulida;

TU ning har bir modulida.



3.58- rasm. Dastur va ma'lumotlarni yuklash yo'li.

Dasturli ta'minot DLU ning hamma prosessorlarida ishlaydi va uchta ish darajasiga ega:


- qo'llanib yuborish darjasи;
- real vaqt darjasи;
- masala darjasи.

DLU boshqa prosessorlarining ishi:

- IOP – SLMCP ni skaner qilish, Boshqaruv ma'lumotlarini tarmoqda saqlash;
- SLMCP – abonentlardan kelgan signalni va DLUS buyruqlarini qayta ishlash;
- DIUD kanallари – 4096 Kbit/s tarmoq va CCS kanalini boshqarish hamda akustik signallarini generatsiya qilish;
- EMSP – chastota ma'lumot tahlil qilish, ish vaqtida avariya rejimini terish;
- DSE da – 4096 Kbit/s sinxron tarmoqlarini boshqarish.

3.2.3. LTG – liniyaiar guruhi. LTG ning tuzilmasи, turlari va vazifasi. LTG ning funksional bloklari: LIU, DIU, SU, GS, GP. GP ning dasturiy ta'minoti

Guruqli liniya traktining blok sxemasi 3.59- rasmda keltirilgan.




3.59- rasm. LTG ning blok sxemasi.

LTG quyidagi bloklardan tashkil topgan:

- liniyalarni ulash bloki – LTU;
- guruqli ulagich – GS;
- guruqli prosessor – GP;
- signalli komplekt – SU;

- LTG bilan SN orasidagi interfeys moduli (LIU).
 - Har bir blokning vazifasi, sxemasini batafsil ko'rib chiqamiz.
 - Liniyalarni ularash blokining funksional sxemasi (LTU) 3.60- rasmida keltirilgan.



3.60- rasm. LTU ning funksional sxemasi.

Rasmda: SU – LTG dagi signalli komplekt;

SIH 1 – kirish zichlashgan signalli liniya;

SIH 0 – chiqish zichlashgan signalli liniya;

SPH 1 – kirish zichlashgan So'zlashuv liniyasi;

SPH 0 – chiqish zichlashgan So'zlashuv liniyasi;

SDC – ikkilamchi zichlashgan liniya.

LTU ni ularash bloki mantiqiy blok bo'lib, bir necha funksional bloklaridan tashkil bo'lган, ular ulangan liniyalarni ichki interfeyslar bilan moslashishi va kechikishni kompensatsiya (stansiya va liniya takhti impulsalarining sinxronizatsiyasi) qilish uchun qo'llaniladi. Bu bloklar yana ulangan liniyaga keluvchi va ulardan ketuvchi signallarni qayta ishlaydi.

LTU—(SIH 0) zichlashgan signalli liniya chiqishi orqali GP dan keluvchi buyruqni qabul qiladi va (SIH 1) zichlashgan signalli liniyaning kirishi orqali GP ga perefisriyadagi jarayonlar to'g'risida ma'lumot beradi.

GP dan LTU va SU ga keluvchi adresli signallar zichlashgan signalli va So'zlashuv liniyalarini (SPH va SIH) boshqaradi, ular LTU ni GS/SPMX va GP bilan ulaydi.

LTU ga quyidagi funksional bloklar ularishi mumkin:

1. DIU – raqamli interfeys.
 2. OLMD – operatorni ulovchi raqamli modul.
 3. COVB modul-V -- konferens aloqa bloki.
 4. CR – kodli qabul qilgich.
 5. ATE:T – ulovchi liniyalar uchun sinovga avtomatik uskuna.
- DIU – DLU yoki PA (ISDN birlamchi kirish) ni ularash uchun qo'llaniladi. Bunda (CAS) ajratilgan kanal va (CCS) umumiy kanaldaagi signalizatsiya qo'llaniladi.

OLMD operatorni ularash raqamli moduli raqamli kommutatorni ularash uchun qo'llaniladi.

COVB – konferens-alloqa bloki – konferens aloqa o'rnatadi. Har bir COVB modul 4 ta konferens - alloqa blokiga ega, ularning har biri 8 ta kanalni ularadi (masalan: 8 ta abonent).

CR – kodli qabul qilgich (CRM) ko'p chastotali signalizatsiya (CRR) tastaturali terish uchun qo'llaniladi.

ATE:T – ulovchi liniyalar uchun sinovchi avtomatik uskuna – LTGF da (TOG akustik signallar generatori) va ularash liniyalarda sinov o'tkazish uchun qo'llaniladi, quyidagi sinovlarni o'tkazish mumkin:

- telefon stansiyaning hamma ulovchi liniyalarini sinash;
- telefon stansiyaning hamma akustik signallar generatorlarini sinash;
- o'z-o'zini tekshirish.

ATE:T ishini GP boshqaradi. Kerakli dasturli ta'minot GP dasturli ta'minotning bo'lagi hisoblanadi. Sinash obyekti to'g'risidagi ma'lumotlar GP va SP ga tushadi.

ATE:T uskunalarini o'z-o'zini tekshirishni ta'minlaydi. Sinov dasturi o'z-o'zini tekshirish uchun kerak va u GP da joylashgan.

Guruhi ulagich – GS.


Guruhi ulagichning funksional bloki GP tomonidan boshqarilayotgan vaqtli kommutatsiyaning blokirovka qilinmaydigan bosqichi bo'lib hisoblanadi.

GS LTGF da DLU yoki RA ga kirish/chiqishning 12 ta zichlashgan So'zlashuv liniyalarini ularash uchun kerak. (SPH 0/1 0....11) guruhi ulagich GS LTU, SU ni funksional bloklarini ularadi. SPH 0/1 0....11 orqali GR va GS orasidagi sinovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatadi.

GS – guruhi ulagich 6 ta LTU (0,1,2,...,6) agar LTGV:OSS bo'lsa, 8 tagacha LTU 0...7 xizmat ko'rsatadi. Har bir zichlashgan so'zlashuv liniyasining chiqishi (SPH 0) va kirishi (SPH 1) 32 ta kanalga ega. SN dan keluvchi va ketuvchi foydalanuvchi ma'lumoti va axboroti zichlashgan so'zlashuv liniyasining kirish/chiqish LIU (SPH 0/I L) ga yuboriladi. Uzatish tezligi $128 \cdot 64 = 8192$ Kbit/s yoki 8 Mbit/s ga teng.

GS – parallel kodni (PSS) ketma-ket kodga o'zgartiruvchi, MSAA – asosiy modul (konferens aloqa uchun vaqtli bosqich xotirasasi) va GSS – guruhi ulagichning boshqaruv qurilmasidan iborat (3.61- rasm).

PSS – zichlashgan so‘zlashuv liniyalar bilan LTU, SU va GP dan 2Mbit/s li SPH I kirishni, LIU dan keluvchi 8 Mbit/s LIU (SPH 0/I L) kirishni birlashtiradi. LTU, SU dan SPH I ga uzatilayotgan foydalanuvchi ma'lumotlar SN ga LIU orqali keluvchi foydalanuvchi ma'lumoti LTU va SU uchun mo'ljallangan.



3.61- rasm. GS funksional sxemasi.

3.1- jadvalda LTG ning zichlashtirilgan so‘zlashuv va signalli liniyalari keltirilgan. Zichlashgan so‘zlashuv liniyasi (SPH) orqali foydalanuvchi ma'lumotlar uzatiladi, zichlashgan signalli liniyadan (SIH) axborotlar uzatiladi.

3.1- jadval

INTERFEYS	ZICHLASHTIRILGAN SO‘ZLASHUV LINIYA	UZATISH TEZLIGI
GS/SPMX-LIU	SPH0/I L	8 Mbit/s har biri
SU – GS/SPMX	SPH0/I, SPH1 SPH0/D SPH0/I (faqat SPMX)	2 Mbit/s har biri 2 Mbit/s har biri 2 Mbit/s har biri
LTU – GS/SPMX	SPH0/I 2.....8 SPH0/I 9 (LTGF bilan DLU yoki PA holatidan tashqari)	2 Mbit/s har biri 2 Mbit/s har biri 2 Mbit/s har biri
SILC – GS (LTG bilan DLU yoki PA uchun)	SPH0/I 9, SPH0/I 10	2 Mbit/s har biri
GS/SPMX – GP	SPH0/I 11	Sinash natijasidan uzatiladigan ma'lumotlar


SIH zichlashtirilgan signalli liniya – axborotlar uchun		
SU – GP	SPH0/I – 0, SPH0/I – 1	DTMF abonentidan har bir signalga uzatish tezligi 2 Mbit/s
LTU - GP	SPH0/I 2.....9	Faqat stansiyalar orasidagi ajratilgan kanal uchun har bir uzatishning effektiv tezligi 64 Mbit/s
GS/SPMX - GP	CDL/CDA	GS/SPMX ga Boshqaruv o'rnatiiadigan buyruqlarni uzatadi
LIU - GP	LIU 0/I	Hisobot ma'lumotlarni uzatadi

Guruqlik prosessor – GP

GP mustaqil boshqaruv bloki hisoblanadi. U LTG ning funksional bloklarini boshqaradi va o'z ichiga quyidagi funksional qurilmalarni kiritadi (3.62- rasm): SMX – multipleksor; MU – xotira bloki; PU/SIB signalli bufer qayta ishlash bloki; GSG:LTG – liniyali guruh uchun taktli chastotaning guruhli generatori; SILS LTGF – xotirada signallash traktining boshqarish uskunasi; SMX – ko'rsatilgan bloklarga interfeys keltirilgan. U LTU, SU, GS va LIU dan olingan signallarni birlashtiradi, (SIBI) kirishining signalli buferini alohida liniyasiga uzatadi va ularni SIB ning signalli buferiga yuboradi, u esa signallarni guruhli prosessorning PU siga uzatadi, u yerda signallar GP dasturli ta'minlashi bilan qayta ishlanadi va kerak bo'lganda GP guruhli prosessorining MU sida buferlanadi. MU va RU (SIB) birga aralash blok, xotira blokini hosil qilishi mumkin.

PMU prosessorlari

SR dan LTG ga buyruqlar PU bloki tomonidan SIB ga uzatiladi, u keyin buyruqni (SIB0) chiquvchi signal buferining liniyasi orqali SMX ga yuboradi, u esa buyruqlarni LTU, SU, GS va LIU larga taqsimlaydi. SIN0 – 14/15 yordamida SMX LIU ga SPH sinash va ulash uchun kerak bo'lgan Boshqaruv signallarini uzatadi. LIU ga keluvchi adresli signallar SIN0 – 14/15 ni bo'shatadi, GSG:LTG generatori LTG ning funksional blokiga taktli impulslarni uzatishni boshqaradi. Generator DLCI, DMA, WDU ma'lumotlar uzatish kanallaridan iborat va SR da ma'lumotlarning almashuvini boshqaradi. Ular SR dan guruhli prosessor MU ga keluvchi buyruqlarni yozib oladi yoki DMA xotirasiga to'g'ri kirish orqali MU dan GP ga keluvchi ma'lumotlarni o'qydi.



3.62- rasm. GP ning funksional sxemasi.

GP har bir SN0 va SN1 ma'lumotlar kanali uchun bitta DLC qurilmasiga ega. MCA ning bitta kanali faol hisoblanadi, boshqasi esa zaxirada bo'ladi. WDU qo'riqlov sxemasi bloki taymerlarni GP da dasturlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Uzish dasturlari tomonidan o'rnatilgan taymerning vaqtiga (10 s) tugashi bilan CP GP ning dasturlarining oshishini aniqlaydi. Hamma tashqi qurilmalar WDU buyrug'i orqali oldingi holatiga qaytadi.

GSG taktli chastotasining guruhli generatori LIU, PU/SIB, SU, GS, SMX uchun taktli impulslarni ishlab chiqaradi va taqsimlaydi. Taktli impulslar LIU SN orqali taktli chastotaning CCG markaziy generatoridan qabul qiladi.

LTGF ga DLU bilan yoki RA prosessoriga qo'shimcha SILC bloki biriktiriladi. M:SILC moduli DLU yoki RA dagi ma'lumotlar almashuvini boshqaradi, chunki bu holda umumiyligi kanal signalizatsiyasi usuli qo'llaniladi. DIU raqamli interfeysi ma'lumotlarni ajratadi va ularni GS ga yuboradi, u esa ma'lumotlarni SPH 09 va SPH 010 orqali SILC ga yuboradi. SILC esa ma'lumotlarni tahrirlaydi va GP ning axborot uzatish tezligi bilan moslashtiriladi.

Har bir SILC 2 ta CCS kanaliga xizmat qiladi. Teskari yo'nalishda ma'lumotlar SILC dan GS ga SPH 09 va SPH 010 orqali yuboriladi, u yerdan DIU ga yuboriladi. DIU ma'lumotlarni (injeksiya) to'g'rilaydi.

Guruhli prosessoring dasturli ta'minlanishi. Funksiyalar: dasturli ta'minlash LTG – funksional bloklarini boshqaradi. Yana LTG dan o'tuvchi jarayonlarni nazorat qiladi va LTG hamda pereferiyadagi holatlarni qayta ishlaydi. Bu chaqiriqlarning qayta ishlashi, ma'muriy

boshqarish va mustahkamligini ta'minlash uchun kerak bo'ladi. Liniya guruhlari SSR (prosessorlararo aloqa) bilan doimiy aloqada bo'ladi. SR iyerarxiyada yuqori darajali prosessor bo'lib hisoblanadi, shuning uchun GP ga buyruqlarni yuboradi, GP esa, o'z navbatida, ma'lumotlarni SZ ga uzatadi. GP lar bilan hisobotlar almashadi. U byulletenlar yordamida CCS tarmoqlari boshqarish qurilmasi (SSNC) bilan bog'lanadi.

GP ning dasturli ta'minoti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- prosessorlararo aloqa;
- LTG funksional bloklarini boshqarish;
- taymerlarni boshqarish;
- tarif;
- kirishni ta'minlash (konfiguratsiya, aniqlikni tekshirishni tiklash, avariya signallariga qayta ishlov berish);
- zonalar jadvalini ma'muriy boshqarish; yuklanishni o'chash;
- o'tish va yarim o'zgarmas ma'lumotlarni ma'muriy boshqarish.

SU – signalli komplekt


SU – mantiqiy blok bo'lib, unda quyidagilar joylashgan:

1. TOG – tonal signallarni generatsiya qilish uchun;
2. Ko'p chastotali kod tonal liniya uchun – MFC;
3. Tastaturali terish uchun kodli qabul qilgichning CRM yoki CRP si.
4. DSR – raqamli kodli qabul qilgich.
5. DES – aks sadoni to'suvchi.


SU – signalli komplekt GS ga SPH 0/1 va GP ga SIH 0/1 orqali ulangan. GP dan buyruqlarni SIH 0 orqali qabul qiladi va GP ga SIH 1 oraliq voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatadi. SIH 0/1 va SIH 0/1 boshqarish GP dan SU va LTU ga boruvchi adresli signallar yordamida bajariladi. LTG CCS bilan qo'llanilganda SU da uzlusizlikni nazorat qilish uchun qabul qilgich moduli (RM:STS) ulanadi. R2 MFC ko'p chastotali kod bilan signalizatsiya qo'llanilganda, So'zlashuv spektoridagi SPH 1 orqali GS ga uzatiladi. U yerda SPH 0 orqali CRM ga o'tkaziladi. CRM signallarni baholaydi va natijalarni GP ga uzatadi. SU ning funksional sxemasi 3.63- rasmida keltirilgan.

LTG va SN orasidagi interfeys moduli (LIU)

LIU moduli LTG ni SN bilan ulaydi. U GS dan SPH0L orqali kelgan foydalanuvchi ma'lumotni ikkita parallel SDC orqali zaxiralashtirilgan SN ga uzatadi. Orqaga qaytish yo'nalishida u SN ning aktiv yarmida ikkita parallel SDC orqali foydalanuvchi ma'lumotni qabul qiladi va GS ga SPH1L orqali yuboradi. LIU – interfeys modulining chizmasi 3.64- rasmida keltirilgan.



3.63- rasm. SU ning funksional bloki.



3.64- rasm. LIU – interfeyes modulining chizmasi.

LIU interseysi moduli

LIU moduli ma'lumotni sinxronlashtiradi, bu ma'lumot liniyalı guruhning ichki taktli impulsi bilan SN dan SDC ga keladi va 8 MHz taktli impuls uzatadi. Generator CCG GCG: LTG dan. U SN (MSN) dan kelayotgan SDC ikkilamchi raqamli oqimning «0» vaqtli intervali ichidan SR dan GP ga boruvchi buyruqni ajratadi va buyruqni LIU kirishi orqali guruholi prosessorning DLC iga yuboradi. Teskari orqaga yo'naliishida LIU, DLC dan SR ga keluvechi ma'lumotlarni LIU0 chiqishi orqali uzatadi. Bu ma'lumotlar SDC ikkilamchi raqamli oqimning «0» vaqtli intervali uchun mo'ljallangan va SR ga uzatiladi. LIU moduli – SN ning aktiv yarmi yordamida o'rnatilgan ulanishlarni stansiya ichida nazorat qiladi. Stansiya ichidagi nazorat SOS stansiyaning ulanish yo'llarining ishga tayyorligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Tekshiruv (SOS) davomida sinovga bitli kombinatsiya LIU dan chaqiruvchi abonent va chaqiriluvchi abonent LTG ga yuboriladi.

Bitli kombinatsiya qaytish tizimi bo'yicha qaytadi va LIU tomonidan qabul qilinadi. Avval qabul qilingan LIU kombinatsiyani uzatilgani bilan taqqoslaydi, agar to'g'ri kelsa, o'rnatilgan ulanish orqali ma'lumotni uzatishga ruxsat beradi. Agar to'g'ri kelmasa (nosozlik bor), unda LTG o'rnatilgan ulanishni uzadi va ikkinchi marta ulanishni o'rnatishga harakat qiladi. Agar ikkinchi marta ham ulanish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, unda chaqiruvchi abonentga ulanishga rad javob beriladi.

LTG dagi qo'llaniladigan funksional bloklar soni va turi unga ulangan liniyalarga va signallashni uzatishda qo'llaniladigan usullarga bog'liq. F(LTGF) liniyalı guruh. LTGF ga quyidagilar ulanishi mumkin:

- DLU uchun uzatish tezligi 2 Mbit/s li 4 ta raqamli uzatish trakti (PDC);

- o'rta va katta ISDN uchun 4 ta liniya (RA);
- raqamli ulovchi liniyalar uchun raqamli trakt (PDC).

LTGF modulining kassetada joylashishi

F:LTG F

LTU-LTU 4				SU	GS				LIU								GP				
D	D	D	D	T	G	M	M	P	L	S	G		P	U	M	M	C	C	C	D	
I	I	I	I	I	O	S	C	C	S	I	M	C	M		S	S	R	R	R	C	
U	U	U	U	G	C	A	A	C	U	X	G	U		I	I					C	
30	30	30	30		B	B				L			L	L							

3.2.4. Kommutatsiya maydoni SN va SN(V).
SN252- LTG va SN(V)- 63 LTG va SN. 504 LTG.
Kommutatsiya yo‘iiari, xabariar uzatishning
kommutatsiya yo‘iiari

EWSD tizimi IKM signali asosida ishlaydi. Kommutatsiya maydoni SN vaqt – fazo – vaqt (T-S-T) kommutatsiyasi asosida qurilgan.


Kommutatsiya maydon ishonchlikni oshirish uchun zaxiralashtirilgan (asosiy A, zaxira V).

Kommutatsiya maydon SN abonent va ulash liniyalarini hamda boshqarish qurilmalarini bir-biri bilan bog‘laydi. Ya’ni, liniya guruhi LTG, koordinatsion prosessor SR va umumikanal signalizatsiyasini boshqarish qurilmasini bir-biri bilan bog‘laydi. U asosiy 3 ta vazifani bajaradi: ulovchi yo‘llarda ulashni bajarish, takli impulslarni taqsimlash va ularni sinxronlash, zaxira yo‘l hosil qilish.

Kommutatsiya maydon SN vaqt va fazo kommutatorlaridan iborat. Vaqt kommutatorida ko‘p kanalli shinalardagi kommutatsiya qilinadigan oktetlar vaqt intervalini o‘zgartiradi. Fazo kommutatori shu oktetlarning vaqt intervalini o‘zgartirmay ko‘p kanalli shinasini o‘zgartiradi.

Vaqt kommutatorining parametri 4×4 . Bunday kommutatorlardan stansiyada 128 ta bo‘lishi mumkin.

Fazo kommutatorining parametri: 8×15 , 16×16 , 15×8 bo‘lishi mumkin. Agar bitta fazo kommutatori qo‘llanilsa, 16×16 parametrli olinadi. Agar 3 ta fazo kommutatori qo‘llanilsa, birinchi 8×15 parametrli, ikkinchi 16×16 parametrli, uchinchi 15×8 parametrli kommutatorlar o‘rnataladi. Bunda birinchi va uchinchi zvenodagi kommutatorlar maksimal soni 64 ta, ikkinchi zvenodagi kommutatorlar maksimal soni 60 ta olinadi (3.65- rasm).



Min.	8 Mbit/s multipleks liniyalar soni	Vaqt kommutatori soni	Multipleks liniyadan kanallar soni	
Maks.	4	1	128	= 512 kanal, har biri 64 Kbit/s
	4	128	128	=65536 kanal, har biri 64 Kbit/s

3.65- rasm. SN dagi vaqt va fazo kommutatorlari.

EWSD tizimi juda katta quvvatli kommutatsion maydon (SN) bilan jihozlangan. SN turli xil aloqa xizmatlariga (telefon, faks, teletekt, ma'lumotlarni uzatish) hamda raqamli tarmoqqa mo'ljallangan.

Kommutatsion maydonga asosan liniya guruhlari LTG ularadi. Shuning uchun kommutatsiya maydon SN sig'imi liniya guruhi soni bilan belgilanadi. SN ni turli qurilish variantlari 3.2- jadvalda keltirilgan.

3.2- jadval

Kommutatsion maydon bosqichining sig'imi LTG soni	SN:504 LTG	SN:252 LTG	SN:126 LTG	SN:63 LTG	SN:15 LTG
SN orqali o'tadigan eng katta yuklanish (Erl)	504	252	126	63	15
Mahalliy ATS da abonent liniya soni	25200	12600	6300	3150	750
Tranzit ATS da ularash liniya soni	250000	125000	60000	30000	7500
	60000	30000	15000	7500	1800

Kommutatsiya maydon SN ning ko'p funksiyalarini bir necha turdag'i modullar bajaradi. Ularga:

1. LIL – TSM va LTG orasidagi interfeys moduli.
2. TSM – vaqt kommutatsiya bosqichi moduli.
3. LIS – TSG va SSG orasidagi interfeys moduli.
4. SSN 8 / 15 - fazoviy kommutatsiya bosqichi moduli 8/15.
5. SSN 16 / 16 - fazoviy kommutatsiya bosqichi moduli 16/16.
6. SSN 15 / 8 - fazoviy kommutatsiya bosqichi moduli 15/8.
7. LTM – SGC va MBU: SGC orasidagi moduli.

Bulardan tashqari kommutatsiya maydonga ularish uchun tashqi interfeyslar (SDC) o'rnatiladi. Ularga (3.66- rasm.):

1. SDC – LTG – bu interfeys SN va LTG orasida o'rnatiladi. Bundagi 0 vaqt kanali LTG va SR orasidagi hamda ikkita LTG guruhlari o'rtasidagi xabarlar almashinuvni uchun qo'llaniladi. 1- 127 vaqt kanallari abonentlarni bir-biri bilan bog'lanishi uchun qo'llaniladi.


2. SDC - CCNC – bu interfeys umumkanal signalizatsiyasi uchun qo'llaniladi.

3. SDC – TSG – bu interfeys SN va MBU: LTG orasidagi interfeys hisoblanadi. U koordinatsion prosessor SR, SR va LTG orasidagi almashinuv, LTG orasidagi almashinuvni uchun qo'llaniladi.

4. SDC – SGC – bu interfeys SN va MBU: SGC (CP) orasida bog'lanish va uzish o'rnatish uchun qo'llaniladi.

Interfeyslar uzatishning 2 yo'nalishi uchun raqamli ma'lumot shinalariga ega. Har bir yo'nalishni sinxronlash va davr belgilash bitlari shinalarini uzatib boradi:

– 8192 Kbit/s ma'lumot shinasi;



3.66- rasm. SN tashqi interfeyslari.

— 8192 KHz stansianing sinxronlash shinasi.

Bu interfeyslarda uzatishning ikki yo‘nalishi ekranlashgan, lekin ular texnik xizmatning bitta kabelida joylashgan. Har bir uzatish yo‘nalishi uchun bitta davrni belgilash bitining shinasi, stansianing bitta sinxronli impulslar shinasi, ma’lumot uchun ikkilamchi raqamli oqim bor.

Kommutatsiya maydonda uzatish tezligi 8192 Kbit/s, ba’zi bir paytda 32768 Kbit/s bo‘lishi mumkin. Masalan: 16×16 fazoviy kommutatsiya bosqichi bir paytda 1024 ularash o‘tkazishi mumkin.

EWSD tizimining kommutatsiya maydoni ikki variantda chiqariladi: birlamchi variant SN, takomillashtirilgan gabariti kengaytirilgan variant SN (V). Kommutatsiya maydon dubllashtirilgan (ikkilangan).

Kommutatsiya maydon vaqt kommutatsiya bosqichi guruhi TSG va fazoviy kommutatsiya guruhi SSG bo‘linadi. Kommutatsiya maydon sig‘imiga qarab kommutatsiya bosqichlar soni aniqlanadi.

SN 504 LTG uchun: bitta kirish vaqt kommutatsiya bosqichi TSI, uchta fazoviy kommutatsiya bosqichlari: SS 8×15 , SS 16×16 , SS 15×8 , bitta chiqish vaqt kommutatsiya bosqichi TSO olinadi.

SN 63 LTG uchun: bitta TSI, bitta SS 16×16 , bitta TSO olinadi.

Bu vaqt va fazoviy kommutatsiya bosqichlari (funksiyali bloklar) modullarda joylashadi. TSI va TS0 TSM modulida, SS 8×15 va SS 15×8 SSM 8/15 modulida, SS 16×16 ega SSM 16/16 modulida joylashadi.


SN 63 LTG da ikkita modul (LIS va SSM 8/15) qo‘llanilmaydi.

SN 504 LTG da hamma 7 ta tur modul qo‘llaniladi.

TSM modullar soni LIL modullar soniga teng, ya’ni LIL ham 4 ta kiruvchi va chiquvchi raqamli traktga mo‘ljallangan. 4 ta 8192 Kbit/s zinchlashgan liniya TSI kirishiga va 4 ta 8192 Kbit/s zinchlashgan liniya

ISO chiqishdan LIL gacha boradi. Bitta LIL 4 ta bir xil sxemaga ega. ulardan har biri kabel yordamida ma'lum LTG bilan ulangan. Har bir kabel o'z ichiga 8192 Kbit/s li ma'lumotlar va sinxronlash shinalarini oladi (3.67- rasm).

LIL ning vazifasi kommutatsiya maydoniga LTG va MBU LIG dan uzatiladigan ma'lumotni kechikishlar orasidagi farqni to'ldirish (kompensatsiya) dir. Har bir TSM moduli bitta kirish vaqt kommutatsiya bosqichi TS1 va bitta chiqish vaqt kommutatsiya bosqichi TSO ga ega.



3.67- rasm. LIL va TSM modullarning ko'rinishi.

SSM 8/15 moduli ikkita fazoviy kommutatsiya bosqichlari SS8/15, SS 15/8 dan iborat. Bu modul to'g'ri yo'nalishi: LIS → SSM 8/15 → SSM 16/16, teskari yo'nalishi: SSM 16/16, → SSM 15/8 → LIS da uzatish uchun qo'llaniladi. Vaqt kommutatsiya bosqichi guruhi TSG o'z ichiga LIL va TSM modullaridan 16 tasini va 8 ta LIS modulini yoki 4 ta SSM 16/16 olishi mumkin. Fazoviy kommutatsiya bosqich guruhi 16 ta LIS va SSM 8/15 modullarini, 16 ta SSM 16/16 modullarini o'z ichiga oladi.

TSG va SSG o'z raqamiga ega XX. Birinchi raqam tekislik raqami. ikkinchisi guruh raqamini ko'rsatadi. Har bir TSG va SSG o'z boshqarish qurilmasiga ega. Har bir boshqarish qurilmasi kommutatsiya guruh boshqarish qurilmasi SGC dan, SGC va MBU: SGC orasidagi interfacey moduli LIM dan iborat. LIM tarkibiga MBU: SGC bilan interfacey, apparat nazorati HWC va takt chastotasi generatori kiradi.

SGS — kommutatsiya guruhining boshqaruvi qurilmasi — xotirali va tashqi integral sxemali mikroprosessorda tuzilgan. Ularning hammasi adresli ma'lumot shinasi va boshqaruvi shinasi orqali o'zaro bog'langan.

SGS — quyidagi vazifalarni bajaradi:

- buyruqlarga ishllov berish (holatni o'rnatish);
- axborotni shakllantirish yoki saflash (hisobotlar tartibi va so'rov natijalarini baholash).

Impulslar taktlari generatori quyidagi vazifani bajaradi:

- interfeys — SGC va SR orasida buyruq va axborot almashishi bajariladi;


- apparat qismini nazorat qiladi;

- ulashni so'rab chiqadi.

SN 63 LTG ning umumiy ko'rinishi 3.68- rasmida keltirilgan. Uning tarkibiga 16 ta LIL moduli, 16 ta TSM moduli, 4 ta SSM 16/16 moduli, 1 ta SGC va 1 ta LIM moduli kiradi.

SN 63 LTG da ulash o'rnatish trakti 3.69- rasmida ko'rsatilgan.


Vaqqli bosqichning TSM moduli kiruvchi vaqtli kommutatsiya bosqichi TS1 va chiquvchi vaqtning kommutatsiya bosqichi TSO ga ega. LIL dan TS1 gacha o'tuvchi 4 ta zinchashgan liniya va TSO dan



3.68- rasm. SN 63 LTG chizmasi.

LIL gacha 4 ta zichlashgan liniya o'tadi. TSO kirishiga va TS1 chiqishiga 4 ta zichlashgan liniya TSG va SSG orasidagi 4 ta har xil interfeys moduli va SSM 16/16 moduli bilan ulaydi. Har bir zichlashgan liniyada 128 ta kanal bor.

Bu kanallar kommutatsiya maydonini 125 mos vaqt davrlari va vaqtli intervallari bilan sinxronlashtiradi.



3.69- rasm. SN 63 LTG da ularash o'rnatish trakti.

SN 15 LTG shunga o'xshash quriladi, lekin TSM dan 4 ta, 1 ta SSM dan, 4 ta LIL olinadi.

SN 126 LTG, SN 252 LTG, SN 504 LTG larda TSM, SSM 8/15, SSM 16/16, LIL, LIS, LIM, SSM 15/8 modullari qo'llaniladi (3.70-rasm).

SN 252 LTG uchun kommutatsiya maydon qurilish prinsipini ko'ramiz. Bu SN 252 LTG da TSG dan 4 ta, 2 ta SSG olinadi (3.71-rasm).


SN 126 LTG da 32 ta TSM, 16 ta SSM 8/15, 15 ta SSM 16/16 olinadi. Guruhlar soni 2 ta TSG va 1 ta SSG.

SN 504 LTG da TSM dan 128 ta, SSM 8/15 dan 64 ta, SSM 16/16 dan 60 ta olinadi. Guruhlar soni TSG – 8 ta, SSG dan 4 ta.

Koordinatsion prosessor SR bilan kommutatsiya guruhi boshqarish qurilmasi SGC zichlashgan raqamli liniya orqali bog'lanadi.

Bu aloqa yo'lida xabarlar buferi MV hamda tashqi interfeys SDC va ichki interfeys LIM joylashgan (3.72, 3.73- rasmlar).

Ma'lum vaqtida ikkita MBU:SGS aktiv IOP:MB dan ma'lumotlarni shina tizimlari orqali qabul qiladi. MBU:SGS va kerakli LIM orasidagi



3.70- rasm. SN 126 LTG chizmasi.


ulanish ikki tomonlama ma'lumotlarni uzatish uchun alohida zichlashgan liniyalardan iborat. Ular SR dan SGS ga uzatadi va buyruq deb ataladi. SGS yordamida SR ga uzatiluvchilar esa ma'lumot deb ataladi.

SGS uchun SR buyruqlari quyidagilar uchun qo'llaniladi:


- qo'llanib yuborish uchun;
- sinash uchun;
- yo'llar o'rnatish uchun;
- yo'llarni uzish.

TSG va SSG ulash 126-50 LTG li katta hajmli stansiyalar uchun SN va SR o'zaro zichlashgan liniya orqali kommutatsiya qilinadi. Bunda tashqi interfeys SDC: SGC va xabarlar buferi qatnashadi. Buyruq bajarish natijasida olingan ma'lumotlardan tashqari SGC SR tomon talab qilinmagan ma'lumotlarni uzatadi, ya'ni:


- SGC/LIM nosozligi;
- buyruqlarni qabul qilishga tayyorgarligi.



3.71- rasm. SN 252 LTG chizmasi.




3.72- rasm. SR va SGC orasidagi aloqa.



Bayroq
Belgilangan manzil
Signal turi
Yuboruvchi manzili
Axborot
Oxirlovchi
Oxirlovchi
Bayroq

3.73- rasm. CP bilan SGC muloqoti.

SGC va SR orasida aloqani hozirgi paytdagi nazorat qilish uchun tasdiqlangan sinxronlashli va olib tashlash signallari almashinuvidan tashqari buyruqlar va ma'lumotlar almashinuvni bajariladi. (HDI, C bayonnomasi), ikki yo'nalishdagi uzatish tezligi 64 Kbit/s ga teng Chaqiruvchi tomondan chaqiriluvchi tomonga hosil bo'ladigan ularish yo'llari rasmida keltirilgan (3.74- rasm).



3.74- rasm. Chaqiruvchi va chaqiriluvchi tomon ulash yo'llari.

LTGX dan SN gacha keladigan zichlashgan liniyalar 128 ta vaqtli intervallardan biriga chaqiriluvchi abonentlar komplektidan qabul qilingan j-bitli kodli so'zlarni ulashni o'tkazadi. SN kiruvchi TS1 vaqtli bosqich 4 ta zichlashgan liniyalarning biridagi 128 ta vaqtli intervalning biriga kiruvchi kodli so'zni ulashni o'zgartiradi. 4 ta zichlashgan liniyalarning har biri fazali bosqichning har xil qismiga boradi.

Fazali bosqichning har bir qismi bitta zichlashgan liniya yordamida chiquvchi (TS0) vaqtli bosqich bilan birlashadi. Boshqacha aytganda, $128 \times 4 \times 512$ kommutatsiya maydonidan o'tishi mumkin bo'lgan oraliq yo'llari bor.

Kodli So'zlar kiruvchi vaqtli bosqichdan ma'lum intervalda uzatiladi. Chiquvchi vaqtli bosqich bu kodli So'zlarni 128 ta vaqtli intervalning bittasiga LTGY yo'nalishida zichlashgan liniyalardan ulashni o'tkazadi.

LTGY dagi ulashni o'tkazuvchi guruh kodli so'zlarni chaqiriluvech abonent komplektiga uzatadi. Yarmi doimiy holatlar har doim EWSID SN – kommutatsiya maydoni orqali ularishni bajaradi.

3.2.5. Koordinatsion prosessor CP va tizim paneii.


CP 113 tuzilmasi. Asosiy prosessor va Chaqiriqqa ishllov berish prosessori. Dasturiy ta'minot. Modul kasseta va stativlarning konfiguratsiyasi tizim kanalining tuzilmasi va vazifasi. Tizim kanallarining BQ uchun modul kassetasi

CP bazasini va koordinatsiya funksiyalarini boshqaradi. Bi funksiyalarga:

- abonent, stansiya, dasturiy ma'lumotlarni boshqarish va eslash;
- tanlanilgan yo'l, narxni hisoblash, marshrutizatsiya uchun olingan ma'lumotlarni qayta ishlash;
- texnik xizmat va ekspluatatsiya markazi bilan aloqa;
- xatolarni aniqlash va uning tahlili;
- odam-mashina interfeysi boshqarish.

Agar mahalliy tarmoqda ATS sig'imi o'rta va katta bo'lsa, CP-113 turi qo'llaniladi va uning sxemasi 3.75- rasmda keltirilgan.


Katta sig'imli ATS lar CP-113 turi ishlataladi



3.75- rasm. CP-113 turidagi CP.

3.2.6. CCNC ning boshqarish uskunasi. CCNC strukturasi. CCNC blok sxemasi. CCNC prosessori. Stativ va modul kassetasi konfiguratsiyasi.

CCNC ga raqamli yoki analog trakti orqali maksimal 254 ta signalizatsiya kanali ulanishi mumkin (3.76- rasm).



3.76- rasm. CCNC ning boshqarish uskunasi.


CCNC SN ga zichlashtirilgan liniya orqali ulanadi. Bu liniyaning uzzatish tezligi 8 Kbit/s. Har bir tekislikka 254 ta kanal ulangani uchun umumiy kanallar soni $2 \cdot 254 = 508$ kanal. Analog signal trakti CCNC ga Modem orqali ulanadi.

Ishning mustahkamligini oshirish uchun CCNC dublashgan prosessorga CCNR ega. CCNR koordinatsion prosessor bilan dublashgan shina tizimi bilan bog'langan.

CCNC quydagilardan iborat:

1. SILT – 8 signal traktining oxirgi qurilmasi 32 ta guruh (SILT0-SILT31).

2. Bitta dublashgan UKS bo'yicha signalizatsiya tizimi prosessori CCNP (CCNP0 – CCNP1).



3.77- rasm. CCNC ni SN orqali CP shinasiga ulanish chizmasi.

3.77- rasmida CCNC ni SN orqali CP shinasiga ularish chizmasi keltirilgan.

3.2.7. Chaqiriqqa xizmat ko'rsatish jarayoni. Stansiya ichida aloqa o'rnatish jarayoni

Quyidagi jadvalda EWSD tizimida chaqiriqqa xizmat ko'rsatish algoritmi keltirilgan.

1	Chaqirilayotgan ab.A mt / go'shagini ko'taradi.
2	SLCA-AQ (Analogni AK) shleyf ulanganligini aniqlaydi.
3	A-SLMCP Raqamli abonent bloki abonent liniya SLMCP – skanerlashda A-SLCA da Aloqa o'rnatish uchun so'rov borligi aniqlanadi va ma'lumotni A-DLUC ga o'tkazadi (Raqamli abonent blokini Boshqaruvchi qurilma).
4	A-DLUC axborotni A-DIUD orqali A-GP ga yo'naltiradi.
5	A-GP - chaqirilayotgan abonent A ning kategoriyasini, liniya raqamini ro'yxat raqami bilan solishtiradi, vaqt intervalini belgilab va bu haqda A-SLMCP xabar beradi.
6	A-SLMCP A-SLCA da vaqt intervalini belgilaydi.
7	A-GP A-DLU blokida A-LTG dan A-SLCA ga A-GS ni ulaydi va uzatish traktini A-LTC da tekshirish uchun teskari ularash o'rnatadi.
8	Tekshirish muvaffaqiyatli tugagandan so'ng A-GP A-SLMCP bilan A-GS ga So'zlashuv traktini va raqam terish uchun A-SLCA orqali ularash uchun buyruq beradi.
9	A-SU dan TOG A-SLCA ga «Stansiya tayyor» signalini uzatadi.
10	A-SLCA ga A-SLMCP TA orqali «Stansiya tayyor» signalini uzatish uchun buyruq beradi.
11	A-SLCA stansiya tayyor signalini ulaydi.
12	Abonent A-1 - raqamni teradi, A-CR terilgan raqamni qabul qiladi, 1 - raqam qabul qilingandan so'ng A-GP dan stansiya tayyor signalini uzatish to'xtatiladi.
13	Abonent ketma-ket qolgan raqamlarni terishni davom ettiradi.
14	A-CR qabul qilingan raqamlarni Raqamli ko'rinishga aylantirib, A-GP ga uzatadi.
15	A-CR terilgan raqam axborotiga ushlangan axborotlarni qo'shib CP ga uzatadi.
16	CP o'zining xotira qurilmasidan chaqirilayotgan ab.V ning bo'shligi va ab.V uning DLU va SLCA kerakligi aniqlanadi. Agar ab.V bo'sh bo'lsa, CP o'zining xotira qurilmasida ab.V liniyasini band deb belgilaydi.
17	CP SGC (Kommutatsiya guruhini Boshqaruvchi qurilma) ga A-LTG va B-LTG o'rtaida ularash yo'llini SN orqali hosil qilish uchun uzatadi. Bir vaqtning o'zida ichki stansiya nazorat buyrug'i uzatiladi.
18	Ichki stansiya nazorati muvaffaqiyatli tugasa, A-GP A-GS KM orqali tekshirish natijasi B-GP beriladi.
19	B-GP vaqt intervalini belgilab va bu haqda B-SLMCP ga xabar beradi.
20	B-SLCA da B-SLMCP vaqt intervalini belgilaydi.

21	B-GP B-GS orqali B-LTG dan B-SLCA va teskari B-LTG ga uzatish traktida tekshirish uchun ulash hosil qiladi.	
22	B-SU ga TOG dan sinash toni uzatiladi, CR,B-SU dan bo'shash tonini qabul qilib, natijani B-GP ga uzatadi.	
23	Agar tekshirish muvaffaqiyatl tugasa, u holda B-GP B-GS ga ab. A uni Chaqiriq signalini nazoratini (KPV) ulash uchun buyruq uzatadi.	
24	TOG B-SU dan sinash tonini uzatadi CR B-SU dan bu tonni qabul qiladi va bu nazorat muvaffaqiyatl bo'lsa, B-GP Chaqiriq buyrug'ini (PV) B-DLUC ga uzatadi.	
25	B-GP B-GS orqali ab.A ga KPV uzatadi.	
26	B-DLUC ab.V ga PV ni uzatishni ta'minlaydi.	
27	Ab.V SNC A dan Chaqiriq signalini qabul qiladi.	
28	Ab.V ni Chaqiriqqa javobi B-SLCA ularishi bilan aniqlanadi.	
29	B-SLCA B-SLMCP da skanerlashda Ab.V ni Chaqiriq signalini qabul qilganligi aniqlanadi.	
30	B-SLCA B-SLMCP da skanerlashda Ab.V ni Chaqiriq signalini qabul qilganligi aniqlanadi.	
31	B-DLUC da ulash shleyfi hosil bo'lganligi haqidagi ma'lumot B-SLMCP ga uzatiladi.	
32	B-DLUC Chaqiriq signalini uzadi va bu haqda B-GP ga ma'lum qiladi.	
33	B-GP ab.A dan KPV ni uzadi va B-GS orqali ulovchi yo'lni ulaydi.	
34	B-GP abonent V dan Chaqiriqqa javobini A- GP ga uzatadi.	
35	A va V abonentlar o'tasida kerakli ulash o'rnatiladi (A-SLCA B-SLCA A-GP B-GP).	
36	A-GP telefon So'zlashuv uchun ma'lumotlar qayd qiladi va So'zlashuv tugagandan so'ng CP ga uzatadi.	
37	So'zlashuv tugagandan so'ng abonent mt/ go'shakni qo'yadi.	
38	A-SLCA va V-SLCA abonent liniyasining uzulishini aniqlagach, bu axborotni A-GP va B-GP uzatadi.	
39	A-GP va B-GP qabui qilingan axborotlarga ishlov beradi va So'zlashuv traktini uzish haqidagi buyrug'ini SR ga uzatadi.	
40	SR SGC (kommutatsiya guruhi Boshqaruvchi qurilmalari) ga SN da So'zlashuv traktini uzish uchun buyruq beradi.	

Mahalliy Chaqiriqlarga xizmat ko'rsatish

No	1	2	3
1	TA-A	SLCA	A abonent mt / go'shagini ko'taradi
2	SLMCP-A	SLCA	AK da tekshirish o'tkazadi
3	SLMCP-A	DLUC-A	Chaqiriq borligi haqida ma'lum qiladi
4	DLUC-A	GP-A	DIUD va DIU orqali GP-A yuboradi
5	GP-A	SLMCP-A	Abonent ma'lumotlari aniqlanadi (TA turi, abonent ma'lumoti va uning vaqtli kanal ajratadi - TS)

6	SLMCP-A	SLCA	Abonent interfeysida vaqtli kanalni yuklash
7	GP-A	GS-A	GS-A gacha ularishni o'matadi va LTG-A dan to SLCA gacha yo'lni tekshiradi.
8	SU(TOG)	SU(CR)	LTG-A dan SLCA gacha yo'lni tekshirish
9	GP-A	SLMCP-A	SLCA orqali So'zlashuv traktini ularash.
10	SLMCP	SLCA-A	«OC» signalini uzatish uchun traktni ularash.
11	TOG	SLCA-A	STS eshitish va SR terilgan raqamlarni qabul etish.
12	TA-A	CR (SU)	MF (8 tadan 2) qabul qiladi
13	CR	GP-A	Chastotali ko'rinishni, raqamli ko'rinishga aylantiradi va GR-A ga uzatadi.
14	GP-A	TOG	«OC» signalini uzadi.
15	GP-A	CP	Abonent ma'lumoti chiqishi axborotlari, abonent B raqamlari uzatiladi.
16	CP	CP	Qabul qilingan raqamlarni tahlil qiladi, V abonent liniya holatini aniqlaydi. Agar A abonent bo'sh bo'lsa, DLU, SLCA identifikatsiya qiladi, XK sida abonent B iiniyasi markirovka qilinadi.
17	CP	SN (SGC)	SN orqali LTG-A - LTG-B orasida ulovchi liniyani ularash uchun buyruq.
18	GP-A	GS-A	SN orqali ularishni o'rnatish uchun buyruq va GP-B koordinatalarini ma'lum qiladi.
19	GP-B	SLMCP-B	Ulanishni o'rnatish uchun TS vaqtli kanalni belgilaydi.
20	SLMCP-B	SLCA-B	TS vaqtli kanalni yuklaydi.
21	GP-B	GS-B	Traktning ularishi.
22	TOG	CR-B	Tekshirish tonini uzatadi.
23	GP-B	DLUC-B	B abonentga «PV» signalini uzatadi.
24	GP-B	GS-B	«KPV» signalini uzatadi.
25	DLUC-B	SLCA-B	«PV» signali bilan ta'minlaydi.
26	SLCA	TA-B	SLCA-B orqali V abonentning Chaqiriq signalini qabul qiladi.
27	TA-B	SLCA-B	SLCA da V abonentning javobi aniqlanadi.
28	SLMCP-B	SLCA-B	Skanerlash natijasida V abonentning javobi aniqlanadi.
29	SLMCP-B	DLUC-B	V abonentning Chaqiriqqa javob bergani haqida signal uzatadi.
30	DLUC-B	TOG-B	«PV» signalini uzadi.
31	DLUC-B	GP-B	«PV» uzish haqida ma'lumot uzatadi.
32	GP-B	TOG-B	A abonent tomon «KPV» signalini uzatadi.

33	GP-B	GS-B	LTG-B orqali trakt ulanadi.
34	GP-B	GP-A	B abonentning javobi borligini ma'lum qiladi.
35	A va V abonentlar orasida kerakli bog'lanish o'rnatildi.		
36	GP-A	tarifikatsiya	GP – A telefon so'zlashuv narxini hisobi ma'lumotlarini registratsiya qiladi va o'z registrlarining birida uni eslab qoladi.
37	GP-A	CA	So'zlashuv tugagandan so'ng SR ga tarifikatsiya uchun bu ma'lumotlarni uzatadi.

3.3. NEAX-61E kommutatsiya tizimi

3.3.1. Tizimning umumiyyatini tasvifi. Tuzilmaviy sxemasi. Qo'llanilish sohasi

Yaponiya korporatsiyasi NEQ(NEC) ning NEAX-61E tizimi katta sig'imli raqamli kommutatsiya tizimi hisoblanadi. U kommutatsiya tarmog'ining turli amaliy funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Tizim yozilgan dastur bo'yicha boshqariladi va integral xizmat ko'rsatuvchi raqamli tarmoq (ISDN) xizmatlarini taqdim etishi mumkin. ISDN xizmatlarini berish ikki simli analog abonent liniya bo'yicha umumfoydalanishdagi kommutatsiyadanigan tarmoq, ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, raqamli liniyalari bo'yicha paketlarni kommutatsiya orqali ma'lumotlarni uzatish tarmog'i bilan o'zaro hamkorlik yo'li bilan ta'minlanadi. NEAX-61E kommutatsiya tizimi birinchi marta 1977- yilda jahon tarmog'ida qo'llanila boshladi. Bu tizim hozirgacha telekommunikatsiyada, kompyuterlarda, elektronika sohasida uchrayotgan yangi g'oya va ishlab chiqarishlar asosida takomillashtirilmoqda.

NEAX-61E tizimining qurilmalar majmuasi mahalliy, shaharlararo, xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarida ishlashga mo'ljallangan. U hamma turdag'i ATS va SHATS lari bilan o'zaro aloqani ta'minlaydi.

Agar tizim mahalliy tarmoqda ishlatilsa, stansiyaning maksimal sig'imi 350000 abonent liniyalari yoki 18450 ularash liniyalariga teng bo'ladi. Stansiya o'tkazuvchan qobiliyati 27000 Erlan ga teng bo'ladi. Agar shaharlararo va xalqaro tarmoqlarda qo'llanilsa, stansiyaning maksimal sig'imi 60000 ularash liniyalariga teng bo'ladi. Konsentrator sig'imi 4096 abonent liniyalariga teng. Eng katta yuklama soatida stansiya 1500000 chaqiriqqa xizmat ko'rsata oladi. Tizim maksimal 512 marshrut hosil qiladi. Hamma turdag'i nomerlash tizimida ishlay oladi.

Tizimga hamma turdag'i abonent va ularash liniyalarini ularash mumkin. Shuning uchun NEAX-61E tizim hamma turdag'i abonent signalizatsiyasi (impuls, ko'p chastotali «8 dan 2» kod) va hamma registr turdag'i signalizatsiyasi (batareya impulsleri, ko'p chastotali kod «6 dan 2», «5 dan 2», -MF/MFC, ITU-T tavsiyalar asosidagi 1, 4, 5, 6, 7, R1, R2,

ramkali antenna signali – E 8 M, liniya signallari, umumkanal signalizatsiyasi) bilan ishlay oladi. Hamma turdag'i tarifikatsiyani qo'llash mumkin.

NEAX-61E tizimining kommutatsiya maydoni vaqt-fazo-fazo-vaqt (T-S-S-T) tamoyili bo'yicha qurilgan. NEAX-61E tizimida markazlashgan boshqarish usuli qo'llanilgan. Bu yuklamani taqsimlashga, tizim tuzilmasini soddalashtirishga va qo'llaniladigan modullar sonini kamaytirishga erishiladi. Tizim $48 \div 5V$ kuchlanishli o'zgarmas tokdan oziqlanadi. NEAX-61E tizimining qo'llanilish varianti va sig'imni 3.3.1-jadvalda keltirilgan.

3.3. I- jadval

Ishlatilish varianti	Maksimal sig'im	Maksimal yuklama (Erlang)
Mahalliy stansiya	100000	27000
Uzoqlashtirilgan kommutatsiya bloki RSU	10000	1200
Uzoqlashtirilgan kommutatsiya bloki RLU	4000	400
Shaharlارaro tranzit stansiya	60000	27000
Trafikaga xizmat ko'rsatish tizimi	512 ishchi joyi	—

Tuzilmaviy chizmasi

Tizim modulli tuzilma asosida yaratilgan. U mustaqil modullar apparat vositasidan va dasturiy ta'minotdan tashkil topgan. Unda qurilma modullarni taqsimlangan boshqarish, kommutatsiya maydon va boshqarish qismi bilan standart o'zaro hamkorlik ko'zda tutilgan. Bu xizmat ko'rsatishni soddalashtiradi va nosozliklarni topish hamda bartaraf qilishga yo'naltirilgan ishlarni bajarishni yengillashtiradi. Modulli tuzilma stansiyaning sig'imni keng oraliqda o'zgartirishni ta'minlaydi.

NEAX-61E tizimi 4 ta funksional tizimchalaridan iborat (3.78- rasm).


1. Amaliy tizimchasi.
2. Kommutatsiya tizimchasi.
3. Prosessor tizimchasi.
4. Ekspluatatsiya va texnik xizmat tizimchasi.

Tizimning amaliy tizimchasi har xil turdag'i abonent va ulash liniyalarini kommutatsiya maydoniga ulash hamda yuklanishni konsentratsiya qilish vazifasini bajaradi. Analog abonet liniyasini va taksofonni ulash uchun liniya moduli N-LM, analog ulash liniyasini ulash uchun ulash liniya moduli TM, Raqamli ulash liniyasini ulash uchun Raqamli uzatish interfeys moduli DTIM, ISDN abonentlarini ulash uchun ISDN moduli qo'llaniladi. Bundan tashqari amaliy tizimchada Raqamli abonent konsentratori, birlamchi multipleksor

PMUX, mahalliy kontrolyor LOC, Raqamli uzatish interfeysi kontrolyori DTIC bor.

Tizimning kommutatsiya tizimchasi (kommutatsiya maydoni) 4 zvenoli bo'lib, nutq traktini yaratadi yoki uzadi.

NEAX-61E multiprosessorli tizimida modulli prosessor tizimchasi qo'llanilgan. U ekspluatatsiya va texnik xizmatni, umumkanal signalizatsiya operatorining ishchi joyiga xizmat ko'rsatishni, chaqiriqqa ishlov berishni boshqarish funksiyasini bajaradi.



3.78- rasm. NEAX-61E tuzilmaviy chizmasi.

Ekspluatatsiya va texnik xizmat tizimchasi O&M odam-mashina interfeysiini ta'minlaydi. Bu interfeysi buyruqlarni kiritish va ma'muriy boshqarish reglamentli texnik xizmat ko'rsatish maqsadida ma'lumotlarni

kiritish va chiqarishga imkon beradi. Bundan tashqari u tizim ishim nazorat qilish hamda abonent va ular liniyalarini testlash imkonim beradi.

3.3.2. Apparat vositalarining konfiguratsiyasi. Amaliy tizimcha

Amaliy tizimchasi tizimning boshqa bo'laklari va telekommunikatsiya tarmog'i orasidagi interfeysni ta'minlaydi. U bir necha turdag'i xizmat interfeyslaridan iborat. Interfeyslar orqali oxirgi komplektlarni boshqaradi va kommutatsiya tizimchasi bilan 128 vaqt kanalli raqamli trakt (SHW) bo'yicha o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

Amaliy tizimcha quyidagilardan iborat: (3.79- rasm):

- analog abonent liniya moduli (LM);
- raqamni uzatish interfeys moduli (DTIM);
- analog ularash liniya moduli (TM);
- umumkanal signalizatsiya moduli (CCSM);
- asosiy ularash imkonli interfeys moduli (DLM);
- paketlar kommutatsiya moduli (BPSM);
- birlamchi ularash imkonli interfeys moduli (PRIM).


NEAX – 61E tizimida abonent liniyalarini analog abonent liniya moduli LM orqali ularadi. Uning funksiyasi nutq signallarini kerakli ko'rinishda uzatish, qabul qilish, abonent signalizatsiyasiga ishlov berish, yuklamani konsentratsiya qilish (zichlashtirish)dan iborat.

AAL moduli LM abonent komplekti LC dan, Raqamli abonent kommutatori DLSW dan, lokal kontrolyori LOC dan iborat. Abonent komplekti LC ning ikki turi mavjud. Birinchi turi analog abonent liniyalarini va shleyf asosida ishlaydigan korxona ATS laridan ishlayotgan ularash liniyalarini ularash uchun mo'ljallangan. Bu LC o'rnatilgan platada 8 ta LC joylashadi. Ikkinci turdag'i LC ga taksafonlardan kelayotgan liniyalar ularadi. Bu LC joylashgan platada 4 ta LC o'rnatish mumkin. Bitta analog abonent liniyalar moduli LM da maksimal 16 ta LC platasini ularash chizmasi 3.80- rasmida ko'rsatilgan.

LC ning bajariladigan vazifasi quyidagilardan iborat:

- abonent liniyasiga manbaa berish. (24 V, 48 V, 60 V), inqilab tilida battery-B;
- katta kuchlanishdan saqlash (over-voltage)-O;
- chaqiriq signalini uzatish (ringing)-R;
- abonent liniya shleyfini nazorat qilish (abonentdan chaqiriqni qabul qilish, impulsli ko'rinishda terilgan raqamlarni qabul qilish chaqiriqqa javob signalini qabul qilish, abonent go'shak qo'yganligini belgilash) (supervisiov) – S;

- analog signalini raqamli signalga aylantirish va uni teskarisi, ya'ni koder va dekoder sifatida ishlash (coding) – C;
- 2 simli abonent liniyasidan 4 simli ichki stansiya ulash traktiga o'tish va uning teskarisini, ya'ni differensial tizim sifatida ishlash (hybrid) – H;
- abonent liniya parametrlarini nazorat qilish, ya'ni testlash (testing) – T.




3.79- rasm. Amaliy tizimchaning blok sxemasi.

Demak, BORSCHT funksiyasini bajaradi.

Raqamli abonent kommutatori DLSW yuklamani konsentratsiya qiladi va LM chiqishiga bitta birlamchi magistral PHW hosil qiladi.

Lokal kontrolyor LOC ni B-LOC, F-LOC turlari mavjud. B-LOC analog abonent liniyalar moduli LM boshqaradi. F-LOC esa analog ulash liniyalar moduli TM ni boshqaradi.



3.80- rasm. LC platasini ulash chizmasi.

B-LOC past iyerarxiya darajali qurilmalar (analog abonent qurilmasi) va yuqori iyerarxiya darajali qurilma (kommutatsiya maydon – TDNW) orasida signallarni uzatish vazifasini bajaradi. B-LOC ma'lumotni 30 dan ortiq bo'lgan PHW dan qabul qiladi va 4 SHW orqali uzatadi hamda teskarisini bajaradi. Demak, har bir B-LOC 3840 analog abonent liniyasiga xizmat ko'rsatishi mumkin. Bunda konsentratsiya (zichlashtirish) koeffitsiyenti 7,6 ga teng. (3840/508). Birlamchi raqamli traktda PHW uzatish tezligi 32,768 Mbit/s, submagistraldalda SHW – 8,448 Mbit/s ga teng.

B-LOC quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- so'zlashuv trakti kontrolyori SPC bilan hamkorlikda signallarni uzatishni boshqaradi;
- birlamchi multipleksor va demultipleksor vazifasini bajaradi;
- nutq, avariya, boshqarish uchun axborot signalni, kanal signallarini (SD) taqsimlashni boshqaradi;
- test kanali va relesini boshqaradi;
- chiqish aloqasini chegaralash, Chaqiriq signalini uzatishni, terilgan raqam impulslarini qabul qilish va uzatishni, skanerlashni boshqaradi;
- liniyada uzilish yo'qligini tekshiradi.

Analogli ulash liniya moduli TM analog signalni raqamli signalga aylantirish va tekshirishni bajarish hamda birlamchi raqamli trakt hosil qilish uchun qo'llaniladi. TM moduliga bir tomonlama va ikki tomonlama analog ulash liniyalarini ulanadi. Bu modulga chiqish aloqasi uchun OGJ (outgoing trunk), kirish aloqasi uchun ICT (incoming trunk), 2WI (two way trunk) ikki tomonlama analog ulash liniyalarini uchun

komplektlari kiradi. Har bir komplektda joylashgan KODEK yordamida igaqellarini aylantirish amalga oshiriladi. TM modul ishini F-LOC kontrolyor boshqaradi.


Raqamli uzatish interfeys moduli

Raqamli uzatish interfeys moduli DTIM NEAX-61E tizimini uzoqlashgan stansiyalar, 2,048 Mbit/s tezlik bilan axborotni uzatuvchi raqamli ulash liniyalarini bo'yicha bog'lash uchun xizmat qiladi. Bundan tushqari liniyaviy kodlarni (HDB-3, B8ZS, CMI) ichki stansiya kodiga aylantiradi, uni teskarisini bajaradi, davr sinxronizatsiyasini va sinxronizatsiya himoyasini ta'minlaydi, multiplekslaydi, demultiplekslaydi, ishdagi buzilishlarni joriy nazorat qiladi, uzoqlashgan stansiya tomon liniyaviy igaqellarini uzatadi va qabul qiladi.

DTIM quyidagi elementlardan tashkil topgan (3.81- rasm):

- Raqamli uzatish interfeysi DTI;
- multipleksor MUX, demultipleksor DMUX;
- Raqamli uzatish interfeysining kontrolyori DTIS.

Raqamli uzatish interfeysi DTI birlamchi guruh interfeysining oxirgi liniyaviy elementi hisoblanadi. U DTIM yuklangan vazifalarni bajaradi.




3.81- rasm. DTIM ning funksional chizmasi.

Multipleksor raqamli uzatish interfeyslaridan (DTI) tushgan nutq igaqellarini hamda xabar va signal bitlarini zichlashtiradi va DTIC ga TDW orqali uzatadi. Demultipleksor DTIC dan qilgan zichlashtirilgan igaqellarini yoyadi va DTI orasida taqsimlaydi.

Raqamli uzatish interfeysining kontrolyori DTIM ishini boshqaradi.

DTIC ni bajaradigan asosiy vazifalari quyidagicha: buyruqlarni, jivooblarni uzatish va qabul qilish; birlamchi darajada multipleksorlash/demultipleksorlash; SD signallarini taqsimlash va skanerlash signallarini boshqarish; terilgan raqam impulslarini qabul qilish va uzatish; uzilish va'qligini tekshirish; birlamchi interfeys kanallarini tekshirish.

Umumkanal signalizatsiya moduli CCSM 7-sonli signalizatsiyasi asosida umumkanal signalizatsiyasi bo'yicha boshqarish va o'zaro hamkorlik signallarini uzatadi, qabul qiladi va ishlov beradi. CCSM kommutatsiya maydoniga xizmat ulash liniyalar moduli SVTM orqali ulanadi. CCSM quyidagilardan iborat (3.82- rasm):



3.82- rasm. SSSM chizmasi.

- 7- sonli signalizatsiya signal interfeysi N7SI;
- umumkanal signalizatsiyasining kontrolyori CCSC.

Interfeysi N7SI 7- sonli signalizatsiya tizimi talablariga asosan uzoqlashgan tizimlar orasida umumkanal signalizatsiya vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan. Bu interfeysi Raqamli liniya bo'yicha 64 (Kbit/s) uzatish tezligini ta'minlovchi yoki analog liniyalar bo'yicha 4,8 Kbit/s uzatiish tezligini ta'minlovchi signalizatsiya traktiga xizmat ko'rsatadi. Shu interfeysi tizim kanallar kommutatsiyasi bilan umumfoydalanishdagi ma'lumotlar uzatish tarmog'i (CSPDN) CCS – trakti bo'yicha SVTM hamda DTIM yordamida ulanadi.

Asosiy ulash imkonli interfeysi moduli DLM. Bu modul interfeysi ISDN foydalanuvchi tarmog'i 2V+D (U - interfeysi) va oxirgi tarmog' qurilmasi NT hamda terminal adaptori TA kabi abonent qurilmalar orasidagi aloqa liniyasini quvvatlaydi.

DLM moduli ikkita V - kanali va bitta D - kanaliga (2V+D) ulanuvchi asosiy ulash imkonli abonent liniyali U - interfeysiga xizmat ko'rsatadi. V kanalda uzatish tezligi 64 Kbit/s, D- kanalda esa 16 Kbit/s. Ulangan asosiy ulash imkonli liniyalar 30V+D birlamchi magistralga zichlashtiriladi va multipleksorlanadi. Birlamchi magistral abonent boshqarish prosessori moduli LCPM bilan bog'langan LCPM birlamchi ulash imkonli liniyalarni submagistralga multipleksorlaydi.

Birlamchi ulash imkonli interfeysi moduli PRIM raqamli uzatish interfeysidan DTI va birlamchi ulash imkonli interfeysi prosessori PRIM dan iborat. Bitta modulga 4 ta 30V+D ulash mumkin. Birlamchi ulash imkonli interfeysi abonent qurilmasi bilan 30V+D ISND interfeysi ta'minlaydi.

Paketlar kommutatsiya moduli paket ma'lumotlarini uzatish xizmati bilan ISDN abonentlarini ma'lumotlar bazasiga ulana olish qobiliyatini beradi. U PSDN ga ularash liniya orqali ulanadi.

DLM, PRIM va VRSM lar ishini LCPM boshqaradi.

Amaliy tizimchadagi modullarni joylashtirish uchun abonent va ularash liniya stoykasi qo'llaniladi. Qanday modul o'rnatilganiga qarab:

- abonent va ularash liniyalar stoykasi U - LTF;
- Raqamli abonent va ularash liniyalar stoykasi – DLTF;
- umumkanal signalizatsiya prosessori stoykasi SSSPF tanlanadi.

LTF da LM va TM modullari joylashadi.

DLTF da DTIM yoki DLM, PRIM, BPSM, LCPM modullari o'rnatiladi.

U-LTF stoykasining quyidagi turlari mavjud:

- 1792 analog A.L. ularashga mo'ljallangan stoyka;
- 120 analog ularash liniyasini ularashga mo'ljallangan stoyka;

D-LTF turlari:

- 5760 Raqamli UL ularashga mo'ljallangan stoyka;
- 4860 Raqamli UL ularashga mo'ljallangan stoyka;
- 32 Raqamli trakt ularashga mo'ljallangan stoyka.

Stoykaga o'rnatilgan modullar soni va turi tizim konfiguratsiyasiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Bu stoyka uchun modullar joylashishining variantini ko'pgina ko'rinishi ko'zda tutilgan. Har bir stoyka qattiq metall karkasdan iborat. Unda maksimal sakkiztagacha plata o'rnatsa bo'ladi. Har bir stoykada ventilyatorlar moduli FANM, radiator RAD, saqlagichlar paneli FUSE, o't ketish signalizatsiyaning harorat datchigi bloki ITSU joylashadi.


LTF stoykasida joylashtirish variantlari:

- a) 6 DTIM;
- b) UTM;
- d) 14 LM;
- e) 16 LM va XM.

Kommutatsiya tizimchasi

NEAX-61E tuzimini kommutatsiya tizimchasi vaqt-fazo-fazo-vaqti (T-S-S-T) turidagi to'rt zvenoli sxema asosida ko'rilgan. Kommutatsiya tizimchasi tarkibida maksimum zaxiralaشتirilgan 22 ta kommutatsiya maydoni hosil qilish mumkin. Har bir kommutatsiya maydon mustaqil bo'lgan Chaqiriqqa xizmat ko'rsatish prosessori CLP bilan boshqariladi.

Har bir kommutatsiya maydon 2880 kommutatsiya portlarini multipleksorlashni ta'minlay oladi. Kommutatsiya maydon birlamchi



3.83- rasm. Kommutatsiya maydon konfiguratsiyasi.

fазо коммутатори $6 \cdot 24$ ва иkkilamchi fazo kommutatori $24 \cdot 6$ ga ega (3.83- rasm).


Kommutsatsiya maydonining maksimal o'tkazuvchanlik qobiliyati 27000 Erlang ni tashkil etadi. Kommutsatsiya tizimchasi quyidagi 5 bloq modulidan tashkil topgan (3.84- rasm):

- nutq traktlarining moduli SPM;
- nutq traktlarining kontrolyori SPC;
- boshqarish prosessorining moduli SPM;
- xizmat ulash liniyalar moduli SVTM;
- takt generatori moduli CLQM.

Nutq traktining moduli SPM 4 zvenoli kommutatsiya maydonida iborat. SPM ikkita asosiy funksional blokni o'z ichiga oladi: vaqf kommutatori bloki TSW va fazo kommutatori bloki SSW.

SPM quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- LOC, DTIC yoki SVTM dan qabul qilingan boshqarish buyruqlarini SPC ga uzatadi;



3.84- rasm. Kommutatsiya tizimchasining blok sxemasi.

- SPC dan uzatilgan axborotga asosan nutq ma'lumotlarining fazo va vaqt kommutatsiyasini bajaradi;
- SPC dan qabul qilingan boshqarish buyruqlarini LOC, DTIC, SVTM larga uzatadi;
 - o'z-o'zini diagnostika qiladi;
 - multipleksorlash demultipleksorlash jarayonini amalga oshiradi.
- Nutq traktining kontrolyorini SPC boshqarish prosessori moduli SPM boshqaradi va quyidagi funksiyalarini bajaradi:
 - SPM bilan muloqot;
 - trakti tizimi konfiguratsiyasi haqida axborotni saqlaydi va taqsimlaydi;
 - nutq trakti tizimini texnik xizmati haqidagi axborotni yig'ish va rad javoblarini yig'ib, SPM moduliga uzatish;

- takt generatori modulidan nutq trakti qurilmalariga takt impulslarini va o‘ta davr impulslarini taqsimlash;
- abonent liniyasidan tushayotgan chaqiriqa javob signalini, uzish signalini aniqlash va SPM moduliga uzatish;
- Amaliy kontrolyordan raqamli axborotni olish;
- SPM va TSM, SSM, SPM orasidagi boshqarish signallarini interfeysi sifatida qo‘llaniladi;
- o‘z-o‘zini diagnostika qiladi.

Bundan tashqari SPC amaliy tizimchadagi LOC, DTIS, LCPM ni ham boshqaradi. Bitta SPC 2880 ta kanallarini boshqara oladi.

SVTM moduli registrli signallarni uzatadi va xizmat tonal signallarini taqsimlaydi.

SVTM tarkibiga ko‘p chastotali o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi signallarning qabul qiluvchi-uzatuvchi – MFCREC /SND, ko‘p chastotali signallarning qabul qiluvchi-uzatuvchi MFREC/SND, tastaturali terish signallarining qabul qiluvchi-uzatuvchi PBREC/ SND va tonal signallar generatori TNG kiradi (3.85- rasm).

Multipleksorlash iyerarxiyasi


Raqamli kommutatsiya maydoni 4 ta zvenodan iborat. Har bir chaqiriq uchun ikkita kommutatsiya trakti (uzatish, qabul qilish) kerak. Bunday katta sig‘imni hosil qilish uchun 3- darajali Raqamli multipleksorlash qo‘llaniladi. Bu ikki bosqich bilan amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda amaliy tizimcha ichidagi analog abonent liniyalaridan tushayotgan signal kodlashtiriladi va 120 kanal submagistral PCM ga konsentratsiya qilinadi (3.86- rasm).

Xuddi shunday analog liniyalaridan tushayotgan signal kodlashtiriladi va 30 kanalli PCM magistrali raqamli ko‘rinishga keltiriladi. 4 ta shu magistrallar multipleksorlanib 132 ta fizik intervaliga va 120 nutq uzatish kanalli bitta submagistral hosil qilinadi. Submagistral darajasidagi axborot uzatish tezligi 8,448 Kbit/s. Kodlashtirilgan ma’lumotlar ketma-ket joylashgan, ya’ni har bir kanal 8 bitdan iborat, ular ketma-ket joylashgan. Nutq kanallar 120 ta, shuning uchun uzatish tezligi 120·64 Kbit/s = 8192 Kbit/s.

Ikkinci bosqich kommutatsiya maydomini birinchi zvenosida ikkilamchi multipleksorlash/demultipleksorlash bajariladi. 4 ta submagistral 8484 Kbit/s olinib, ularni 528 vaqt intervalli va 480 nutq kanalli bitta magistralga multipleksorlanadi.

Lekin har bir magistraldagi uzatish tezligi 33792 Kbit/s dan 4224 Kbit/s gacha kamayadi. Chunki 8 razryadli parallel shinaga almashtiriladi. 3.87- rasmda vaqt intervallarining konfiguratsiyasi keltirilgan.


Kommutatsiya tizimchasi fizik vaqt kommutatori va chaqiriqqa ishlov berish prosessor stoykasida TSCPF joylashadi. Bu stoykada nutq traktini moduli SPM, 2 ta zaxiralashtirilgan SPC, CPM, SVTM va CLKM o'rnatilgan (3.88- rasm).



3.85- rasm. Multipleksorlash ierarxiysi.

Nomi	32 SN RSM magistrali	Sub-magistral	Magistral	Ulash magistral	magistral	Submagistral	32 SN RSM magistral
Qisqartirma	HW 32 PCM	SHW	HW	JHW	HW	SHW	32 PCM HW
Taktli	2,048 MGs	8,448 MGs	4,224 MGs	8,448 MGs	4,224 MGs	8,448 MGs	2,048 MGs
Tezlik	2,048 Mb/s	8,192 Mb/s	4,096 Mb/s	8,172 Mb/s	4,096 Mb/s	8,192 Mb/s	2,048 Mb/s
Ma'lumot formati	8 razryadli Ketma-ket		8 razryadli parallel	4 razryadli parallel	8 razryadli parallel	8 razryadli	
FIZIK VI	32 TS	132 TS	528 TS			132 TS	32 TS
Ulaydigan VI	32 TS	128 TS	512 TS			128 TS	32 TS
Xabar uzatish kanali	30CH	120CH	480CH			120CH	30CH

3.86- rasm. KM vaqt intervallarining parametrlari.




3.87- rasm. VI konfiguratsiyasi.

TSCPFI	
FUSE	
CL M0	CL M1
CPM	CPM
SPC	SPC
SPM	SPM
FANM	FANM
SVTM	SVTM
RAD	RAD

3.88- rasm. TSCPFI stoykasi.

3.89- rasmida SPM konfiguratsiyasi keltirilgan.



3.89- rasm. SPM konfiguratsiyasi.

Prosessor tizimchasi

Prosessor tizimchasi Chaqiriqqa ishlov berish, ekspluatatsiya va texnik xizmat, unumkanal signalizatsiyaga ishlov berish va operator ishchi joyiga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi. NEAX-61E ning multipleksor tizimi modulli prosessor tizimida qo'llanilgan. Hamma operatsiyalar yozilgan dastur bo'yicha CP 101E turidagi mikroprosessorlar qo'llanish bilan bajariladi. Prosessor tizimchasinining asosiy vazifalarini boshqarish prosessor CP lari bajaradi. SR ni quyidagi nomlar bilan qo'llaniladi:

- ekspluatatsiya va texnik xizmat prosessori OMP;
- Chaqiriqqa ishlov berish prosessori CLP;
- ishchi joyni boshqarish prosessori PCP;
- umumkanal signalizatsiya prosessori CCSP.

Tizim SR prosessoridan 32 tagacha ega bo'lishi mumkin. CLP, PCP, SSSP dan 22 gacha va bitta OMP (3.90- rasm).

CP prosessorlar orasida Aloqa 3 ta turdag'i interfeysi orqali bajariladi (3.91 - rasm):

- tizim shinasi interfeysi SB;
- multipleksor kontrolyori interfeysi MPC;
- umumi xotira interfeysi CMI.


SB interfeysi CP prosessorlar orasida markaziy prosessor bergan buyrug'i asosida buyruqlarni yoki ma'lumotlarni uzatadi. Prosessorlar bu shinaga tizim shina prosessori SBP orqali ulanadi.

MPC interfeysi faqat tizimni tiklash operatsiyasi uchun qo'llaniladi.

CMI interfeysi bir vaqtida bir necha SP prosessorlariga bir xil ma'lumot uzatilganda qo'llaniladi.

Har bir SR prosessori operativ xotira (MM) ga va hamma SR uchun umumi bo'lgan umumi xotiraga (SM) ega.

Umumi xotira adaptero CMADP ikkita xotira bilan SR ishlashiga imkon beradi. MM maksimal sig'imi $20 \div 64$ Mbit/s. Unda 4 Mbit/s



3.90- rasm. Prosessorlarning tizimda joylashishi.

sig‘imli RAM mikrosxemasi qo‘llaniladi. SM esa 16-64 M so‘z. Markaziy prosessorning so‘z o‘lchami 32 bit. CMM ga 4 tagacha CMIM, CMIM ga esa 8 tagacha SPM ulash mumkin.

MPC har bir boshqarish prosessorini va umumiy xotirani markazi boshqarishini hamda nazorat qilishni ta’minlaydi. Bosh pult (MCSL) bilan birlgilikda MPC quyidagilarni bajarishi mumkin:

- har bir boshqarish prosessor holatini aks ettirish (avariya signallarini va tizim konfiguratsiyasini);
- boshqarish prosessorda qo‘l mehnati bilan operatsiyalarni bajarish (dastlabki dastur yozish);
- boshqarish prosessor ishlash tartibini o‘zgartirish;
- platalarни almashtirish.

Kiritish va chiqarish prosessorlari IOP har bir boshqarish prosessor operativ xotirasi va kiritish-chiqarish kontrolyori IOC orasidagi ma’lumotlarni uzatishni boshqaradi.

SR dagi har bir tur prosessor bu SRM moduldir.


CLP prosessor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- nutq traktlarini band qilish-bo‘shatishni boshqaradi;
- boshqarish axborotini kommutatsiya uchun interfeysni ta’minlaydi;
- texnik xizmatni har xil tur axborotini yig‘ish va uni OMP uzatish.

OMR prosessori quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kiritish-chiqarish qurilmalari va terminallarini boshqaradi;
- testlash modulini boshqaradi;
- texnik xizmat va ekspluatatsiyani boshqaradi.

RSR prosessori operator ishchi joyini nazorat qiladi va boshqaradi.



3.91- rasm. Prosessor tizimchasining konfiguratsiyasi.

CCSP prosessori umumkanal signalizatsiya tizimini nazorat qiladi va boshqaradi. Bundan tashqari har bir prosessor MM va SM xotiralariga kirish, tizim shinasi SB orqali boshqa SR prosessorlari bilan muloqotda bo‘lish vazifalarini ham bajaradi.

SR prosessorlar zaxiralashtirilgan va uch xil rejimda ishlashi mumkin:

- sinxron (SYNC);
- asinxron (ASYN);
- izolyatsiya(1SL).

Prosessor tizimchasidan ERM lar prosessor turiga qarab ekspluatatsiya va texnik xizmat stoykasida (OMP) yoki vaqt kommutatori Chaqiriqa ishllov berish prosessori stoykasida (TSCP) yoki ishchi joyini boshqarish prosessori stoykasida (RSRF) yoki umumkanal bo‘yicha signalizatsiya prosessori stoykasi (CCSPF) da joylashishi mumkin. Lekin agar 16 ta boshqarish prosessori qo‘llanilsa, boshqa qurilmalar bilan stoyka MISCF o‘rnatalidi. Bu stoyka tarkibiga SMM va SMIM ning qo‘sishma modullari kiradi. OMPF stoykasida multiprosessor kontrolyori MRS

(00, 01, 10, 22), boshqarish moduli prosessori SRM, umumiy xotira moduli SMM (0, 1), umumiy xotira interfeysi moduli SMIM (00, 01, 10, 11, 12) o‘rnatilgan. Har bir stoyka konfiguratsiyasi 3.92- rasmida keltirilgan.

OMP	
<i>CPM</i>	
<i>FANM</i>	
<i>MPC 01</i>	
<i>CMM 0</i>	
<i>FANM 00</i>	
<i>CMIM 02</i>	
<i>CMIM 01</i>	
<i>CMIM 00</i>	
<i>FANM 01</i>	

<i>TSCP</i>	
<i>FUSE</i>	
<i>CPM</i> (CLP)	<i>CPM</i> (CLP)

CCSPF

3.92- rasm. Prosesorlar joylashgan har xil stoykalar konfiguratsiyasi.

SRM, MRS,SMM,SM1M modullar konfiguratsiyasi 3.93- rasmida keltirilgan.

a) Boshqarish prosessori moduli SRM.

PWR—manba bloki;

SSP—tizimga xizmat ko'rsatish prosessori;

IOP-k/ch prosessori;

SPI—nutq traktining interfeysi;
 SBP—tizim shina prosessori;
 SBADP—tizim shina adapteri;
 BSC—shina o'zgartirgichi;
 CPU—markaziy prosessor;
 CMADP—umumiyl xotira adapteri;
 MM—operativ xotira;
 MXC—kross-kontrolyori tuzilishi.
 b) Multiprosessor kontrolyori.

02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
									H		T		H		T		M	M	G
P	P	P						I		E		I		E		C	C	P	
W	W	W						B		R		B		R		S	S	R	
R	R	R						O		M		1		M		L	L	S	
0	1	2						1		0		1		1		1	1	T	
								N				N				N	N		
								T				T				T	T	1	
								F				F				F	F	N	
																		T	
																		F	

HIB—integral shina.

d) Umumiyl xotira moduli.

SMIM interfeysi. Umumiyl kontrolyor. Haftalik magistri. SMM o'qish registri. Xotira.

02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
												C	E	C		C	T	C	C
P				I		I		I		I	M	R	M		M	I	M	M	
W			N		N		N		N	R	E				M	M			
R			T		T		T		T	R					1	Q	C	C	
0		F		F		F		F	E	C						T	T		
									Q	T						L	L		

Hatolik generatori. Sinxro generatori. Adres generatori.

e) umumiy xotira interfeysi moduli SMIM.

02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
P					I	I	I	I		I		I	I	I	I	I	I	I	I
W				D	D	D	D		D	D	D	D	D	D	D	D	D	D	D
R			R	R	R	R		R	R	R	R		R	R	R	R	R	R	R
O		O		1	0	0		1		1	0		1			Q			

Kabel drayverini qabul qilish. Shina drayverini qabul qilish.
Ustuvorlikni boshqarish.

f) Shina kontrolyori.

02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
R	R		C	C						C	C					C	C		
W	W		D	D						D	D					D	D		
R	R		/	/						/	/					/	/		
		C	C							C	C					C	C		
		R	R							R	R					R	R		

VS _____ VS _____ VS _____ VS

Asosiy ish qo'shimchasi qo'shma qo'shimcha
(SR 00÷0,7) (SR 08÷15) (SR 16÷23) (SR 24÷31)

3.93- rasm. Prosessor tizimchasining modular konfiguratsiyasi.

Ekspluatatsiya va texnik xizmat tizimchasi

Bu tizimcha (O&M) boshqarishni ma'murlashtirish va reglamentli texnik xizmat maqsadi uchun buyruqlarni kiritish va ma'lumotlarni chiqarishga imkon beruvchi odam-mashina interfeysi ta'minlaydi. Bundan tashqari bu tizimcha tizim ishini nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi. NEAX-61E tizimi to'g'ri ishlayotganini tekshirish uchun kerak bo'lgan ularash va abonent liniyalarining testlarini o'z ichiga oladi.

O&M tizimchasi har xil turdag'i kiritish-chiqarish qurilmalari (I/O) dan, testli qurilmalardan iborat. Bu qurilmalar yordamida ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatuvchi ishchi testlarni bajarish hamda hamma

avariya signallarini o‘z ichiga oluvchi tizim holati haqida batasil ma’lumotlar olishi mumkin.

NEAX-61E tizimining ekspluatatsiya va texnik xizmat qurilmalari quyidagilardan iborat:

- texnik xizmat va boshqarish terminali MAT;
- lentada va diskda magnit yig‘uvchilar MTU va DKU;
- satrli printerlar LP;
- liniyaviy testlar pulti LTC;
- tizim testlar pulti STC;
- avariya axborot displayi ALDISP;
- bosh pult MCSL va boshqa periferiya qurilmalari;

O&M tizimchasining asosiy vazifalari quyidagilar:

– NEAX-61E tizimi holatini markaziy nazorat qilishni ta’minalash (OMR dan boshqarish bilan);

– ekspluatatsiya va texnik xizmat uchun kerak bo‘lgan testlarni bajarish;

– avariya holatlarida chiqish aloqasini chegaralashni boshqarish;

– texnik xizmat markaziga nosozliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzatish;

– manba va tizim qurilmalaridagi sinxron chaqiriq signallarini nazorat qiluvchi signallarini ta’minalash.

MAT har xil buyruqlarni kiritish uchun hamda o‘rnatish testlarini bajarishda dasturni sozlash uchun qo‘llaniladi. Buyruqlar ro‘yxatiga abonent kategoriyasini va abonent joylashtirishning pozitsiyasini o‘zgartirish, nosozlik to‘g‘risidagi xabarini yoki trafika to‘g‘risini pechatga chiqarish kabi xizmatlarga buyurtma berish (SOD) kiradi.

MTU multiprosessorli tizimda xotirasini zaxiralashtirish uchun va trafika to‘g‘risidagi axborotni yozish, xabarlar avtomatik hisobga olish (AMA) vazifasini bajarish uchun qo‘llaniladi.

DQU har xil dastur va ma’lumotlarni yozish uchun xotirani zaxiralashtirish tizimi sifatida qo‘llaniladi.

LP katta hajmli dasturlar yoki ma’lumotlarni yuqori tezlik bilan pechatga chiqarish uchun qo‘llaniladi.

LTC – abonent liniyalarni, abonent komplekti (LC) larni va telefon apparatlarini tekshirish uchun qo‘llaniladi.

STC – har xil tizim testlarini (ulash liniya komplektlar testlari, tizim holati aks ettirish uchun va A.L. dagi yuklamani boshqarish uchun bog‘lash testlari).

ALDISP – bu pult avariya va ishchi holatini aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

MCSL – bu ma’muriy pult, boshqarish prosessorlari SR ni qo‘lda boshqarish va ularni nazorat qilishni ta’minalaydi.

3.3.3. DASTURIY TA'MINOT

Tizimli dasturiy ta'minot dasturlashning ikki tilini qo'llanish bilan yozilgan: PL/C aloqa tizimi uchun dasturlash tili va Assembler tili. Tizimda quyidagi turdag'i dasturiy ta'minot qo'llanilgan:

- kommutatsiyani boshqarish (chaqiriqqa ishlov berish, ekspluatatsiya va texnik xizmat);
- yordamchi dasturiy ta'minot;
- qurilmalar testlari.

Fizik tizimli dasturiy ta'minot uchta asosiy qismdan tashkil topgan:

- SR modulining dasturiy ta'minoti DT (chaqiriqqa ishlov berish, ma'muriy boshqarish va ma'lumotlar bazasini boshqarish vazifalariga ishlov berish);
- abonent boshqarish prosessori moduli DT (ISDN) ning amaliy dasturlari;
- PSM ning DT (amaliy dasturlar).

Bu qismlardan har biri, o'z navbatida, operatsion tizim (OS) va amaliy tizim (AS) dan tashkil topgan. Bu ikki tizim (OS va AS) hamma kommutatsiya operatsiyalarini boshqaradi.

Operatsion tizim OS ijrochi boshqaruvi dasturdan, rad javoblarga ishlov beruvchi dasturdan va diagnostik dasturdan tashkil topgan.

Amaliy tizim AS chaqiriqqa ishlov berish dasturidan, ma'muriy dasturdan va stansiya ma'lumotlaridan tashkil topgan. AS dasturlarida dasturiy ta'minotning, ko'p darajali tuzilmasi qo'llanilgan. Bu CLP prosessor ichi yoki CLP prosessorlar orasidagi modullar mustaqilligini ta'minlaydi.

Ijrochi boshqaruvi dasturi vaqtini ajratish rejimida multiprosessorli ishlov berish asosida ishlaydi va taymerlashni boshqaradi.

Rad javoblarga ishlov berish dasturi rad javobini topilganda tizim oqibatlarini zaxira komponentlariga ulash yo'li, dastur va stansiya ma'lumotlarini qayta yozish bilan bartaraf etadi.

Diagnostika dasturi apparat vositalari komponentlarini avtomatik tekshiradi va tizim komponentlarini qo'l bilan testlashda operatorlar uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Chaqiriqqa ishlov berish dasturi ulash o'rnatish va nazorat bo'yicha oddiy kommutatsiya operatsiyalarini boshqaradi.

Ma'muriy dastur quyidagilarni bajaradi:

- trafikaning nazorati;
- stansiya ma'lumotlar o'zgargan vaqtida oddiy kommutatsiya operatsiyalarini bajarishni qo'llash;
- to'lovlar hisoboti va statistikani yig'ish bo'yicha operatsiyalar uchun axborot berish;

— stansiyaga texnik xizmat ko'rsatish va odam-mashina interfeysni boshqarish bo'yicha operatsiyalarni bajarish.


Stansiya ma'lumotlari fayllarida stansiya sharoitiga tegishliligini aks ettiruvchi aniq stansiya uchun spesifik axborot saqlanadi. Ular oddiy kommutatsiya operatsiyalarni bajarish uchun kerak bo'ladi. Stansiya ma'lumotlarini o'zgarishlarga mos ravishda operator yangilaydi. Stansiya ma'lumotlariga abonent ma'lumotlari ham kiradi.

3.3.4. Chaqiruvga xizmat ko'rsatish – ulash o'rnatish jarayoni

Chaqiriqa xizmat ko'rsatishni aloqa turiga qarab ichki stansiya, chiqish mahalliy, kirish mahalliy, shaharlararo va hokazo bo'lishi mumkin (3.94- rasm). Misol tariqasida ichki stansiyani aloqa uchun ko'rib chiqamiz. Bu jarayon bir qator bosqichlardan iborat: A abonentdan chaqiriqnı qabul qilish, terilgan raqamlarni qabul qilish, b abonent bilan ulanish, chaqiriq signalini va uning nazoratini uzatish, B abonentning chaqiruvga javobi, So'zlashuv, tugallanish va uzish, bo'shatish.

I bosqich. A abonentdan chaqiruvni qabul qilish, raqam qabul qilgichni ulash, «stansiya tayyor» signalini uzatish.

Abonent kompleksi LC ni boshqaruv qurilmasi LOC kontrolyori komplekt holatini doimo skanerlaydi. Abonent go'shangini ko'targanida abonent shleyfi ulanadi. LC o'zining boshlang'ich holatini o'zgartiradi va chaqiriqnı belgilaydi. LOC 30 ta moduldan abonent modulli LM raqamini shu modul abonent liniya raqamini aniqlaydi va SPC ga skanerlash signalini uzatishni ta'minlaydi. SPC o'z navbatida bu axborotni CLP ga uzatadi. Shundan so'ng CLP prosessori bilan kommutatsiya maydoni orqali ulash trakt o'rnatiladi. Shu trakt bo'yicha LOC kontrolyori CLP prosessoriga axborotni uzatadi. CLP o'z xotirasiga murojaat qilib,



3.94- rasm. Abonentga «stansiya tayyor» signalini berish va terilgan raqamlarni qabul qilish chizmasi.

abonent liniya nomeri va kategoriyasini o'qiydi. CLP ishslash dasturini tanlaydi. Shu dastur asosida SVTM modulidagi TNG generatorini uzatish traktiga ulash va shu moduldagi tastaturali raqam terishni qabul qiluvchi RVREC ni (xususan RVOR) bo'shini topib, qabul qilish traktiga ulash buyruqlarini ishlab chiqadi va SPC ga uzatadi.

Agar impulsli raqam terish bo'lsa, LOC dagi DPOR qabul qilgich ulanadi. SPC ulash o'rnatganidan so'ng generatordan (TNG) abonent tomon stansiya tayyor signali uzatiladi.

Bu signal raqamlari ko'rinishda uzatiladi va LC da joylashgan kodek yordamida analog shaklga aylantiriladi. Abonent bu signalni eshitgach raqam tera boshlaydi.

II bosqich. Terilgan raqamlarni qabul qilish va uning tahlili.

Birinchi raqam qabul qilgichga tushishi bilanoq CLP ga bu xabar uzatiladi. CLP stansiya tayyor signalini uzishni amalga oshiradi. Har bir terilgan raqam CLP da tahlil qilinadi va aloqa turi aniqlanadi. Agar ichki stansiya aloqani o'rnatilayotgan bo'lsa, B abonent liniya ulangan LC ni qidirishi kerak.

Oxirgi raqam qabul qilingandan so'ng CLP qabul qilgichni bo'shatish buyrug'iini beradi.

III bosqich. V abonent bilan bog'lanish.

Qabul qilingan V abonent raqamiga asosan CLP prosessorida kerakli abonent liniyasi ulangan LS, u joylashgan LM raqami aniqlanadi. LM ga xizmat ko'rsatuvchi LOC kontrolyori LC holatini skanerlaydi va bu axborotni CLP ga uzatadi. Agar shu vaqt daqiqasida abonent liniya band bo'lsa, CLP A abonent liniyasiga SVTM modulini ulanishiga buyruq beradi. SVTM modulidagi TNG generatoridan «band» signali uzatiladi.

IV bosqich. Chaqiriq va uning nazorat signallarini uzatish.

Agar abonent liniyasi bo'sh bo'lsa, SVTM modulidagi TNG generatoridan A abonent liniyasiga «chaqiruvni nazorati signali» beriladi. V abonentni abonent komplekti LC dan V abonent tomon Chaqiriq signali uzatiladi. LC dagi chaqiriq relesi ishini boshqarishni LOC kontrolyori amalga oshiradi.

V bosqich. Chaqiruvotgan abonentning javobi.

Chaqiriq signaliga V abonentning javobini LOC skanerlash yo'li bilan aniqlaydi va bu axborotni CLP ga uzatadi. CLP ichki akustik signalni uzishga buyruq beradi. CLP ikki abonent orasida bog'lanish traktini hosil qilish uchun buyruq beradi. Abonentlar orasida ulash o'rnatiladi. Telefon apparatlar mikrofonlariga elektr manba o'z LS laridan beriladi.

VI bosqich. Uzish.

Abonentlardan biri, masalan, A abonent tomonidan go'shak qo'yilsa, abonent liniyaning bu holatini LOS skanerlash yo'li bilan aniqlaydi va bu xabarni CLP ga uzatadi. CLP V abonent abonent liniyasiga SVTM

ni ularish buyrug'ini beradi. SVTM dagi TGN dan «band» signali uzatiladi. V abonent bu signalni eshitib, go'shakni qo'yanidan so'ng LOC skanerlash yo'li bilan buni aniqlaydi va CLP uzatadi.

CLP ichki stansiya ularishni o'rnatishda band bo'lgan hamma umumstansiya komplektlarini va kommutatsiya maydon elementlarini tinch holatga qaytarishga buyruq beradi. Tizim tinch holatga qaytadi.

Abonent tomon va stansiyalararo signallar aloqa liniyalari (so'zlashuv trakti)dan uzatilsa ichki polosali deb ataladi.

3.4. DAEWOO telekom LTD


3.4.1. DTS-3100 tizimi tavsifi. Tuzilmaviy sxemasi.

Tizim quriiish tuzilmasi. Apparat ta'minoti.

Dasturiy ta'minoti. Chaqiruvga ishlov berish prosedurasi

DTS-3100 katta sig'imga ega raqamli kommutatsion tizimdir. U mahalliy, tugun va tranzit stansiya sifatida qo'llanilishi mumkin. Tizimni yengil (oson) kengaytirish va modifikatsiyalash imkonini beruvchi modulli ishlashini ta'minlash uchun DTS-3100 tizimning bosh stansiyasidan (u o'z ichiga uch turdag'i tag tizimni oladi) hamda RASM (olislashtirilgan imkoniylik) dan iborat. Keyinchalik tizim strukturasi va har bir tag tizimning funksiyalari yoritiladi.

DTS-3100 ning bosh stansiyasi 3.95- rasmda ko'rsatilganidek uchta asosiy qismlar: ASS (kommutatsiyadan foydalanish tagtizimi), INS (o'zaro hamkorlik tagtizimi) va CCS (Markaziy nazorat tagtizimi) dan iborat.



3.95- rasm. Tizimning umumiyl strukturasi.

ASS analog abonent liniyalariga, analog bog'lovchi liniyalarga va raqamli bog'lovchi liniyalarga xizmat ko'rsatadi. U vaqt kommutatsiyasi qurilmasidan va turli signallash qurilmalaridan tashkil topgan INS ASS lar o'rtasida so'zlashuv traktini o'rnatadi va uzatadi. U fazoviy kommutator va tarmoqli sinxronlovchi uskunadan iborat bo'lib, milliy sinxronlash tarmog'iga ulangan. CCS nazorat va tizimga xizmat ko'rsatish hamda statistikani yig'ish funksiyasini bajaradi. 3.95- rasmida ko'rsatilganidek, bitta bosh stansiyada 63 tagacha ASS o'rnatilishi mumkin.

3.1- jadvalda tizimning tipovoy tavsiflari keltirilgan.

3.1- jadval.

Tizim tavsiflari

Ko'rsatkich	DB-3100 tizimi	ASS
Liniyalar soni	120.000 ta analogli liniya	8.192 ta analogli liniya
	Asosiy ISDN dan foydalanuvchi 50.000 ta liniya	Asosiy ISDN dan foydalanuvchi 4096 ta liniya
	60.480 ta bog'lovchi liniyalar	1920 ta raqamli bog'lovchi liniyalar
Yuklama	27.000 Erlang	2048 analogli bog'lovchi liniyalar
Mahsuldarlik	1.200.000 chaqiruv EKYUS da	920 Erlang 100.000 chaqiruv EKYUS da

DTS-3100 ning mantiqiy strukturası 3.96- rasmida ko'rsatilgan. 3.95- rasmida ko'rsatilganidek, ASS, INS va CCS DTS -3100 ning tizimlaridir.

ASS — abonentlar yoki bog'lovchi liniyalar chaqiruvlarining so'rovlarini aniqlaydi, abonent va ASS o'rtasida aloqa o'rnatadi. U yana turli signallarni yuboradi va qabul qiladi. ASS quyidagi tagtizimlardan iborat:

- LSS (mahalliy kommutatsion tagtizim) vaqt kommutatorini o'z ichiga oladi. U fazoviy kommutator yo'nalishi bo'yicha vaqt uyachalar va liniyaviy interfeyslar o'rtasida ma'lumotlar almashinushi funksiyasini bajaradi.

- SSS (Signallash va xizmatlar tagtizimi) signallash qurilmalaridan iborat bo'lib, vaqt kommutatoriga va undan DTMF, R2MFC, CCT (davomiylikni tekshirish toni) signallarini qabul qiladi va jo'natadi.

- ASMS (kommutatsion imkoniylikka xizmat ko'rsatish tagtizimi) ASS dagi telefon qurilmalarigi xizmat ko'rsatadi. U telefon qurilmalarini testlaydi va diagnostikalaydi (tashxislaydi), (bog'lovchi liniyalar, vaqt kommutatori, signallash qurilmalari va hokazo) hamda nosozliklarni qayta ishlaydi.


– LTAS (Bog'lovchi liniyalar va kanallardan foydalanish tagtizimi) analogli abonent, ISDN abonentlari, analogli va raqamli bog'lovchi liniyalarni nazoratlashni va interfeyslarni nazoratlashni amalga oshiradi.

– SMHS (signallovchi axborotlarni qayta ishlovchi tagtizim). CCITT №7 signallash tizimi axborot uzatishning 2 va 3 qism darajalari funksiyasi uchun signallovchi axborotlarni qayta ishlaydi.

– CAS (tarifikatsiya va to'lov tagtizimi) – aloqaning davomiyligi va masofasiga bog'liq holda to'lov to'g'risidagi informatsiyani qayta ishlaydi. Informatsiya foydalanuvchiga uzatiladi yoki diskka yoziladi.

– MSS (o'lchovlar va statistika tagtizimi) – davriy ravishda yoki talabnomaga bo'yicha yuklama va tizimning ishi sifati bo'yicha ma'lumotlarni yig'adi.

– S7MS (№7 – signallashni boshqaruvchi tagtizim) – №7 CCTTT signallash tizimining Axborotni Uzatish Qismning uchinchi darajasi funksiyasi uchun tarmoqli signallash boshqaruvini bajaradi. U yana axborotlarni uzatish qismini testlaydi va unga xizmat ko'rsatadi.



3.96- rasm. DTS-3100 ning mantiqiy sxemasi.

– TCS (trafikni nazoratlash tagtizimi) – ulanishdan uzilishgacha bo'lgan vaqt oralig'ida aloqa o'rnatishning barcha jarayonlarini nazoratlaydi.

– OSS (Xizmatlarni tanlash tagtizimi) – tanlanayotgan xizmatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi, bularga chaqiruvni kutish, chaqiruvlarni qayta yo'llash, ko'pyo'llik chaqiruv, qisqartirilgan terish va hokazo kiradi.

INS TAGTIZIMI

INS ASS dan olingan raqamli axborotni tahlil qiladi. Ushbu tagtizimni ASS lar o'rtasidagi tovushli traktni fazoviy kommutatorni nazoratlash yo'li bilan o'rnatadi va uzadi hamda tarmoqli sinxronlash funksiyasini bajaradi.

INS quyidagi tagtizimlardan tashkil topgan:

- CIS (O'zaro aloqani nazoratlash tagtizimi) taqsimlangan proses-sorlar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi.
- INMS (O'zaro hamkorlik tarmog'iga xizmat ko'rsatish tizimi) – Kommutatsion aloqaning ahamiyatini ta'minlaydi. INS tagtizimidagi nosozliklarni aniqlaydi, ularni izohlaydi (ajratadi), shunga mos ravishda kommutatsion tarmoqni rekonfiguratsiya (qayta tuzish) qiladi va nosozlikni bartaraf etadi.
- CSS (Markaziy Kommutatsiya tagtizimi) fazoviy kommutatorni o'z ichiga oladi va fazoviy bog'lanish hamda tarmoqli sinxronlash funksiyalarini amalga oshiradi.
- NHS (Nomerni qayta ishlash tagtizimi) raqamli axborotni tahlil qiladi va marshrutlash funksiyasini bajaradi, shu bilan CCS dagi tarmoqni boshqarish tagtizimi bilan birgalikda tizim tavsiflarini yaxshilaydi.
- SNS (Kommutatsiya tarmog'ining tagtizimi) kommutatsion tarmoqda chaqiruv traktini o'rnatadi va bekor qiladi hamda kommutatsion tarmoqni testlaydi va unga xizmat ko'rsatadi. Undan tashqari konferensiya – chaqiruv, avtojavobbergich kabi xizmatlarni ta'minlaydi.

CCS TAGTIZIMI

CCS kuzatish tizimga xizmat ko'rsatish hamda statistik axborotni yig'ish funksiyasini bajaradi. Tarifikatsiyasi to'g'risidagi axborotni yig'adi va operator hamda tizim o'rtasida aloqa imkoniyatini beradi.

CCS quyidagi tizimlardan iborat:

- CCMS (Markaziy nazoratli xizmat ko'rsatish tagtizimi) I/O portlarining nosozligini qayta ishlaydi (disklar, magnitli tasmalar, CRT, TTY,). Operatorning so'rovi bo'yicha tizim holatini o'zgartirishni amalga oshiradi.
- MMS (Odam-mashina tagtizimi). Kiritish-chiqarish, muloqot tartibi va formatini ta'minlash yo'li bilan operator va tizim o'rtasida aloqa imkonini beradi.
- MCS (Xizmat ko'rsatishni nazoratlash tagtizimi) qurilmalarni nazoratlaydi, tizimdagi nosozliklarni diagnostikalaydi va operator uchun operativ axborotlarni chiqaradi.
- DHS (Ma'lumotlarni qayta ishlash tagtizimi) disk fayllariga xizmat ko'rsatadi va operatorga disk faylida ma'lumotlarni qidirish yoki o'zgartirish imkonini beradi.

— MMS (Tarmoqni boshqarish tagtizimi) katta yuklama bo'lganda yoki tizimda nosozliklar ro'y berganda, chaqiruvlarni qayta ishlash mahsuldorligini optimallashtirish uchun trafikni qo'lli-avtomatik tarzda nazoratlash funksiyasiga ega.

UMUMIY TAGTIZIMLAR

ASS, INS, CCS da quyidagi tagtizimlar mayjud:

— DPS (Ajratilgan prosessorlarning tagtizimi) prosessorli uskunaga ega.

— SMS (Tizimga xizmat ko'rsatish tagtizimi) tizimni ishga tushirish yoki yuklash qayta yuklashni amalga oshiradi. Prosessorlarning statuslarini nazoratlashni olib boradi, qurilmalarning nosozliklarini bartaraf etadi, nosozliklar yuz beragan holda tizim konfiguratsiyasini o'zgartiradi.

— DBS (Ma'lumotlar bazasi tagtizimi) ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatadi. Zaxiraviy yozuv va ma'lumotlarni tiklash funksiyasiga ega.

RASM TAGTIZIMI

RASM ASS ning barcha funksiyalariga ega hamda HOST da ma'lumotlar zvenosida nosozliklar yuz beragan holda alohida modul funksiyasini bajaradi. Quyidagi tagtizimlar RASM ga kiritilgan va ASS ning alohida moduli rejimidagi aynan funksiyalarni bajaradi.

— RCAS (Olislashirilgan tarifikatsiya va to'lov tagtizimi).

— RCCMS (Xizmat ko'rsatishni nazoratlashning markaziy olislashirilgan tagtizimi).

— RLS (Olislashirilgan bog'lanishning tagtizimi).

— RMSS (Olislashirilgan o'chamlar va statistika tagtizimi).


TIZIM TUZILISHINING STRUKTURASI

DTS-3100 boshqaruv tizimi bosh va chetki prosessorlar ichida tashkil etilgan. Bosh prosessorlar chaqiruvni qayta ishlashning yuqori darajali funksiyasiga javob beradi, chetki prosessorlar esa telefon va xizmat ko'rsatuvchi qurilmalarni nazoratlash va tekshirishga javob beradi. Prosessorlar o'rtaida axborot CI (o'zaro hamkorlikni nazoratlash) orqali uzatiladi, u axborotlar kommutatsiyasidan biri ko'rinishida ko'rinishi mumkin. 3.97- rasmda DTS-3100 ning bosh prosessor, qurilmalar va CI tarkibida fizik strukturasi ko'rsatilgan.

KOMMUTASIYADAN FOYDALANISH TAGTIZIMI

3.97- rasmda ko'rsatilganidek ASS lar abonent liniyalari (ASS-S) yoki kanallarning bog'lovchi liniyalari (ASS-T) uchun ixtisoslashtirilgan.

ASS chaqiruvlar so'rovlarini qayd qiluvchi quyidagi komponentlardan foydalanuvchi, ASS o'rtaida aloqa traktini o'rnatuvchi, bekor qiluvchi, qabul qiluvchi va jo'natuvchi signallardan iborat:



3.97 - rasm. Tizningning tuzilish strukturası.

– ASP (imkoniylik prosessori) turli qurilmalarni nazoratlovchi chetki prosessorlarni kuzatishni amalga oshiradi, tarifikatsiyalash axborotini yig'adi va ASS ga xizmat ko'rsatadi.

– ASMR (Imkoniylikka xizmat ko'rsatish prosessori). ASS dagi signallash uskunasini boshqaradi va testni kiritishlar chiqarish funksiyasini bajaradi.

ASI (Analogli foydalanuvchining interfeysi) analogli abonentlarning interfeyslari.

– RG (Qo'ng'iroq generatori) abonent liniyasida chaqiruv tokini ta'minlaydi.

– TSL (Vaqt kommutatorining zvenosi) vaqt kommutatorini ulaydi, o'zadi hamda ASS va INS o'rtaida axborotlarni uzatish uchun elektr signalini optik signal va teskarisiga o'zgartirishni amalga oshiradi.

– LSI (Mahalliy xizmat interfeysi) abonentlar va bog'lovchi liniyalarga hamda ulardan turli signallarni qabul qiladi va jo'natadi.

– DTI/DCI (Raqamli TI interfeysi/raqamli CEPT interfeysi) TI/CEPT signallash metodini qo'llovchi raqamli bog'lovchi liniyalarning interfeyslari.

O'ZARO ALOQA TARMOQ TAGTIZIMI

INS quyidagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ular raqamli axborotni qayta ishlash, ASS lar o'rtaida aloqa traktini o'rnatish va bekor qilish hamda raqamli sinxronlash funksiyalarini bajaradi:

– INP (o'zaro hamkorlik tarmoq prosessori) fazoviy kommutator chegarasida so'zlashuv kanal traktiga xizmat ko'rsatadi va uni qidirishni amalga oshiradi.

– NTP (nomerni o'tkazish prosessori) qabul qilingan raqamli axborotni tahlillaydi va tarmoqni boshqarish uchun marshrutlash jarayonini nazoratlaydi.

– SSW (fazoviy kommutator) fazoviy kommutatorni bog'laydi va uzadi.

– CDL (ma'lumotlarning markaziy zvenosi) elektr signalni optik signalga va teskarisiga o'zgartiradi, INS va ASS o'rtaida axborotni ko'chiradi.

– NES (tarmoqni sinxronlash) tarmoqni sinxronlash funksiyasini bajaradi va milliy sinxronlash tarmog'iga ulangan.

– VMH (tovushli axborotni qayta ishlash) avtojavobbergich xizmatlari uchun tovushli axborotlarni yozadi va tiklavdi.

– CMX (konferen-minsher) uch yo'llik va konferens chaqiruvni amalga oshirish imkonini beradi.

– CSI (Global xizmatlar interfeysi) VMH va CMX kabi global xizmatlar uchun SSW yo'nalishi bo'yicha so'zlashuv traktidan foydalanish imkonini beradi.

MARKAZIY NAZORAT TAGTIZIMI

CCS kuzatish funksiyasi va tizimga xizmat ko'rsatish hamda statistik axborotni yig'ishni bajaruvchi quyidagi komponentlardan iborat:

– OMP (Operativ xizmat ko'rsatish prosessori va Odam-mashina prosessori) tizim darajasida xizmat ko'rsatishni bajaradi. Statistik axborotni va tarifikatsiya axborotini yig'adi so'ngra uni magnit yoki diskka yozadi.

– ICMP (INS va CCS ga xizmat ko'rsatuvchi prosessor) INS va CCS dagi signallash apparaturasini hamda avariya signallash panelini boshqaradi. U yana bog'lovchi liniyalarni testlash funksiyasini bajaradi.

– ARU (avariyali signallash panelining bloki) u avariyanı signallashni boshqarish uchun qurilmalar uskunasidir, u ICMP nazorati ostida uncha sezilarli bo'limgan, sezilarli va jiddiy avariyali holatni aks ettiradi.

Apparatli ta'minotning nosozligi jiddiy ravishda katta sondagi chaqiruvlarga ta'sir ko'rsatishi tufayli prosessorlar va kommunikatsion traktlar takrorlangan.

– Bosh prosessorlar takrorlangan, bunda ikkalasi ham sinxron tartibda ishlaydi. Ulardan bittasi ishchi holatda, ikkinchisi esa zaxirada bo'ladi.

Avariyalı holatda ularning statusi o'zgaradi.

– Ko'pchilik chetki prosessorlar takrorlangan va taqsimlangan yuklanish tartibida ishlaydi.

– CI o'rtaida shina takrorlangan.

– 3.26- rasmida ko'rsatilganidek, kommunikatsion traktlar ham takrorlangan. Vaqt kommutatori, fazoviy kommutator va TSL hamda CDI o'rtaсидаги ма'lumotlar zvenolari takrorlangan, NES (tarmoqli sinxronlovchi) uchta qilib bajarilgan, RG- takrorlangan.

APPARATLI TA'MINOT. UMUMIY TAVSIF

DTS-3100 uchta tagtizimdan iborat. Imkoniylik tagtizimi (ASS), o'zaro hamkorlik tarmog'i tagtizimi (INS), markaziy nazoratlash tagtizimi (CCS). Tarmoq kommutatori T-S-T (vaqt-fazo-vaqt) strukturasiga ega bo'lib, IKM li (RSM) 64000 ta kiruvchi va chiquvchi kanallarni ta'minlaydi. Arxitekturaviy vaqt kommutatori ASST, fazoviy kommutator esa INS da joylashgan. Foydalanuvchi liniyalari va/yoki bog'lovchi liniyalarni moslashtiruvchi ASS signallash funksiyalarini va chaqiruvni qayta ishlashni ta'minlaydi. ularning maksimal sig'imi – 8122 ta abonent liniyalari yoki 1920 ta bog'lovchi liniyalardir. Ba'zi bir ASS lar ixtisoslashtirilgan bo'lishi mumkin: foydalanuvchilar liniyalari uchun ASS-S, bog'lovchi liniyalari uchun ASS-T, paketli kommutatsiya uchun ASS-P, CCITT №7 umumkanal signallash uchun ASS-7. Qo'llanishni osonlashtirish uchun ASS-S va ASS-T ni qurama qilish imkon mavjud.

Har bir ASS va INS o'rtasidagi o'zaro aloqa yuqori tezlikdagi optik-tola orqali amalga oshiriladi.

INS, ASS lar va CCS bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

INS uchlangan tarmoqli sinxronlashtiruvchi (NEC) ga ega, u milliy sinxronlash tarmog'iga ulangan. CCS tizim darajasida xizmat ko'rsatish va boshqarish funksiyalarini bajaradi. CCS printerlar, videoterminallar, magnit tasmalar va disklar ko'rinishidagi I/O bloklar tizimiga ega. DTS-3100 ko'p prosessorli arxitekturani quvvatlaydi, u orttirishning modulligi va to'xtashlardan himoyalariishga intildi.

3.4.2. DTS-1100 va 1100A tizim tavsifi. Tuziimaviy sxemasi.

Tizim qurilish tuzilmasi. 1100 ni 1100A dan farqi.

Apparat ta'minoti. Dasturiy ta'minoti

Raqamli kommutatsiya tizimi DTS-1100A ni Koreyaning DEU Telekom LTD firmasi yaratgan. Bu tizim turli xizmat turlarini oladi va har xil imkoniyatlarni ta'minlaydi. DTS-1100A standart elektron kommutatsiya tizimi umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'i (PSTN) da mahalliy va tugunli stansiyalar sifatida qo'llanilishi mumkin. DTS-1100A tizimi iyerarxiyalı boshqarish usulida ko'rilib, ya'ni ko'p prosessorli strukturaga ega. Bunda 32 va 16 bitli mikroprosessorlar qo'llanilgan. Bular hamma Chaqiriqlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi dasturli taqsimlangan boshqarish tizimini ta'minlaydi. DTS-1100A tizimi 8192 abonent liniyalarida va 1080 Raqamli uzatish liniyalariga xizmat ko'rsata oladi.

Tizim kommutatsiya maydoni 1200 Erlang yuklanishga mo'ljallangan. Eng katta yuklanish soatiga 100000 Chaqiriq xizmat ko'rsata oladi.

Nazorat funksiyasi yuqori darajali prosessor yordamida bajariladi. Yuqori darajali prosessor bosh prosessor MR deb ataladi. U yuqori darajali funksiyalarni boshqaradi. Bularغا Chaqiriqqa xizmat ko'rsatish. Chaqiriqni shifrlash, kommutatsiyani nazorat qilish, ekspluatatsiya va boshqarish kiradi. Past darajali prosessor liniya prosessori LP deyiladi. U past darajali funksiyalarni boshqaradi. Bularغا monitor va real vaqtiga qarab signalga ishlov berish kiradi. Kommutatsiya maydonida vaqt-vaqt-vaqt (T-T-T) kommutatsiya tamoyili qo'llanilgan. U to'liq imkonli 4K vaqt yacheykalariga ega.

Bosh prosessor xotirasi 4 Mbayt ga, liniya prosessoriniki 512 Kbayt ga teng. Qattiq diskniki 540 Mbayt ga, kartridj tasmasining xotirasi 150 Mbayt ga teng.

DTS-1100A tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan signalizatsiya turlari:

- Abonent liniyasida impulsli, DP, ko'p chastotali DTMF;
- Impulsli (DP) va ko'p chastotali registrni signalizatsiyasi uchun terish (MF);
- Shleyfli, audio-nutqli terish (E&M);

– 7- sonli umumkanal signalizatsiyasi (SSSN 7).

Uzoqlashtirilgan kommutatsiya moduli RSM 480/120 sig'imiga ega. Tarifikatsiya multimetrajli vaqt bo'yicha va zona bo'yicha bo'lishi mumkin. Darhol So'zlashuvdan keyin, talabga ko'ra, hisobni bosib chiqarish amalga oshiriladi. Bunda A abonentning raqami aniqlanadi va uzatiladi. Mahalliy xabarlar avtomatik hisobga olinadi.

Stansiya elektr ozuqasi o'zgarmas tok DC, kuchlanishi 48 V - (42–576). Maksimal yuklanishda iste'mol qilinadigan quvvat 0,6 Watt/liniyaga.

Tizimga quyidagi liniyalarni ulash mumkin:

- diskli raqam tergichli telefon apparati TA;
- tastaturali raqam terishli TA;
- korxona ATS dan olayotgan liniya;
- 12/16 KMZ impulsli va qutbni o'zgartirishli taksofonlar;
- ISDN abonentlari (2V+D, 30V+D).

Tizim abonentlarga 21 turdag'i qo'shimcha xizmat turlarini bera oladi. Tizimda qo'llanilgan dasturlash tili Si, ASM (Assembler).

DTS - 1100 A tizimining tuzilishi.


DTS-1100A tizimining umumiyligi konfiguratsiyasi.

Tizimning apparat ta'minoti 3 qism (tizimcha)dan iborat:

- kommutatsiya imkonii ASS;
- uzoqlashgan imkon RSS;
- kiritish-chiqarish tizimchasi IOS va 7- sonli umumkanal CSM signalizatsiya moduli CSM.

Kommutatsiya imkonii tizimchasi ASS tizimning asosiy qismi hisoblanadi va stansiyada uchtagacha o'rnatish mumkin (3.98- rasm). Har bir ASS imkon modulidan AM, kommutatsiya modulidan SM, signalizatsiya va tekshirish modulidan STM va nazorat modulidan CM iborat.

Uzoqlashgan imkonii RSS bu ASS ga o'xshash, lekin stansiyadan uzoqlashtirilgan va bosh stansiya tizimi nazoratida bo'ladi. RSS lar maksimal soni 9 ta bo'lishi mumkin.




3.98- rasm. DTS-1100A ni apparat qismining umumiyligi strukturasi.

Kiritish-chiqarish tizimchasi IOS operator bilan bog'lanish interfeysiini ta'minlaydi. U quyidagi dastur funksiyalarni bajaradi: ASS ga dastur yozish; zaxira ma'lumotlarini yozish; So'zlashuv haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni eslab qolish va tahlil qilish; display holatining xabarlarini va odam-mashina kommunikatsiya va operator ma'lumotlarini eslab olib qolish va tahlil qilish.

ASS dagi nazorat moduli SM (3.99- rasm) bosh prosessordan MR va liniya prosessorlardan LP, kiritish-chiqarish prosessorlaridan IOP va 7 sonli umumkanal signalizatsiya prosessori CSP dan iborat.

Bosh prosessor 32 bitli mikroprosessor MS 68020 hisoblanadi va yuqori darajali boshqarish funksiyasini bajaradi. Bularga chaqiriqlar ma'lumotlariga ishlov berish, raqamni shifflash, kommutatsiyani boshqarish, tizim ishini koordinasiya qilish (tizimni ma'muriy va boshqarish funksiyalarini boshqarish).

Bosh prosessor liniya prosessori LP, stansiyalar orasidagi qurilmalar nazoratchisi bilan, kiritish-chiqarish prosessori IOP bilan, 7- sonli umumkanal signalizatsiyasi prosessori CSP bilan hamkorlikda ishlaydi. Buning uchun B,T,L shinalaridan foydalanadi. Bosh prosessor abonent liniyasidan tushayotgan chaqiriqlarga ishlov berishni nazorat qiladi; LP dan berilayotgan abonent holati va terilgan raqamlar haqidagi axborotni qabul qiladi va unga ishlov beradi; iyerarxiyalgi prosessorlariga kerakli ko'rsatma beradi; ular traktini hosil qilish funksiyasini bajaradi; vaqti kommutatorini nazorat qiladi; liniyaning band qilish va stansiyalar orasidagi liniyalarni bo'shatish LP dan tushayotgan so'rovini boshqaradi; avtojavobni boshqaradi, ya'ni ovozni uzatish traktini tanlaydi va uni bo'shatadi, kerakli javobni ANM yacheykalaridan o'qishni boshqaradi; konferens-aloqani boshqaradi, ya'ni uch tomonlama so'zlashuvni ularغا so'rovga ishlov beradi; prefiks va B abonent liniya raqamini uzatish, maxsus xizmat (qisqa raqam terish, issiq liniya xizmati va hokazo)ni man etishni ro'yxatga olish; umumiyligi holatni boshqarish va har xil



3.99- rasm. Nazorat moduli SM.

testlash kabi tarmoqlarga tegishli funksiyalarni amalga oshiradi; haq to'lash, statistik ma'lumotlarni yig'ish, odam-mashina aloqani va ma'lumotlarga ishlov berish kabi tizimni boshqarishga tegishli funksiyalarni amalga oshiradi; abonent liniyasidan ko'p chastotali usulda raqamlarni qabul qilgich DTMF ni va ulash liniyalariga ko'p chastotali usulda qabul qilgich-uzatgich MFR/S ni nazorat qiladi va boshqaradi.

MR ni uzatish tezligi 8192 Kbit/s. MR-DSP 116 prosessorda joylashgan. Liniya prosessori LP 16 bitli prosessor MS 68302 ega va past darajaga javob beradi. Uni uzatish tezligi 8192 Kbit/s.

Liniya prosessori abonent liniyalar va ulash liniyalar holatini tahlil qiladi va ularni boshqaradi. Bu axborotni bosh prosessorga uzatadi. Bosh prosessor MR nazorati ostida abonent liniyasi bo'yicha kerakli funksiyalarni amalga oshiradi. LP stansiyalararo raqamli ko'rinishdagi axborotni MR ga uzatadi. MR ko'rsatmasi bo'yicha ulashni band qilish, bo'shatish, kerakli axborotni uzatish funksiyasini bajaradi. LP ISDN terminalidan olingan xabarni MR ga uzatishni va aksini bajaradi. Har bir liniya prosessori 512 ta abonent va 120 Raqamli ulash liniyalarini boshqaradi. Bir paytda 128 tagacha analog va 120 Raqamli UL ga xizmat ko'rsata oladi. Har bir MR ga 6 tagacha LP ulanadi. LP-DSP-117 platada joylashgan.

7- sonli umumkanal signalizatsiya prosessori CSP quyidagi funksiyalarni bajaradi:

— 7- sonli signalizatsiya zvenosining holatini kuzatadi va boshqaradi. MR ga bu to'g'risida xabar beradi. MR nazorati ostida signalizatsiya zvenosida kerakli funksiyalarni amalga oshiradi;

— MR nazorat ostida signal nuqtalaridan xabarlarni uzatadi va qabul qiladi.

Kiritish-chiqarish prosessori IOP quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- dastur yozish va o'chirish;
- zaxira ma'lumotlar bazasi;
- haq to'lash to'g'risidagi ma'lumotlar va ular tahlili zaxirasи;
- statistik ma'lumotlar zaxirasи;
- kiritish-chiqarish qurilmalarini zaxiralashtirish va ularni nazorat qilish;
- avariya kanalini ulovchi qismi.

ASS dagi imkon moduli (AM) ga quyidagilar kiradi:

- analog liniya interfeysining apparat ta'minoti ALIH;
- stansiyalar orasidagi analog ulash liniyalar interfeysining apparat ta'minoti ATIH;
- liniya interfeysi apparat ta'minoti ILIH;
- stansiyalar orasidagi raqamli ulash liniyalarining apparati ta'minoti DTIH;
- umumkanal signalizatsiya apparat ta'minoti CSH;
- raqamli liniya konsentratori DLC.

ALIH asosiy abonent liniyasini, taksafondan kelayotgan liniyani va korxona ATS dan kelayotgan liniyalarni ulash uchun qo'llaniladi. Bu interfeysda uzatish tavsifi bo'yicha muvozanatlashgan tarmoq CCITTG712 va G517 tavsifiga mos tushuvchi va kirishida qarshilikni qabul qilish-uzatish dasturlangan kuchaytirgich qo'llanilgan ALIH liniya turiga qarab har xil platalari bor:

1. DSP-141 — analog AL uchun bitta platada -32 interfeys joylashgan.
2. DSP-142 impulsli turdag'i.
3. DSP-143 — 16 KHz.

ILIH ga ikki xil ISDN abonent ularishi mumkin: asosiy darajasi BRI (2B+D); dastlabki (birlamchi) darajali PRI (30V+D). Asosiy darajali abonentni ISDN tarmog'i ulashda umumiy tezlik 2B+D q 2·64+16 = 144 Kbit/s tashkil qiladi.

Birlamchi darajali abonentni ISDN tarmog'iga ulashda umumiy tezlik 30V+D q 30·64+64=1984 Kbit/s tashkil qiladi. Bu interfeys joylashtirish uchun quyidagi plata turlari qo'llaniladi: DSP -144 — asosiy daraja (30V+D) bitta platada bitta E1 asosiy usulda uzatish kodi FCH, birlamchi esa NOV.

ATIH — analog ulash liniyani ulashga mo'ljallangan. Ulash liniyadagi signalizatsiya turiga qarab har xil tur platalar yaratilgan:

1. DSP 153 2600 Hz bir chastotali liniya signalizatsiyali ATIH. Bitta platada 8 ta liniya.
2. DSP — 154 impulsli qarama-qarshi terish LD. Bitta platada 8 ta liniya.
3. DSP — 155 shleyfli, audio-nutqli terish E&M.
4. DSP — 158 COCA signalizatsiyali.


DTIH Yevropa standarti bo'yicha (SSII tavsiyasi) raqamli oqimni uzatishga mo'ljallangan. Bu raqamli oqim SERT (E1). Raqamli liniya interfeysining ikki xil plata turi bor:

DSP-152 (4E1); DSP-151 (2E1) DITH kanal signalizatsiyasini ham ta'minlaydi. Uzatish tezligi 2048 Kbit/s. Liniya kodi HDV-3 qo'llanilgan. AQSH standarti (24 kanalli) uchun DSP-156, DSP-157 platalar ishlab chiqilgan.


DLC — Raqamli liniya konsentratori abonent liniyalar, ulash liniya va stansiya kommutatsiya maydonini SWH orasida nutq traktini ta'minlaydi.

DLC 32x32 vaqt kommutatori hisoblanadi (3.100- rasm). U abonent liniya yuklanishini zichlashtirish uchun qo'llaniladi. Zichlashtirish koeffitsiyenti 2:1, 4:1, 8:1, 16:1 nisbatda bo'ladi. DLC da abonent liniyalari ALIH dan keyin DLC ni 16 ta kirishiga 32 kanalli Raqamli oqim sifatida ulanadi.

Bu kirishlar SWH tomon ulagan 8 ta chiqishga ulana oladi. Shuning uchun 16->8. Agar zichlashtirish koeffitsiyenti 2:1 nisbatda bo'lsa,



3.100- rasm. DLC ning tuzilishi.



3.101- rasm. DLC ning sxemasi.

16->8 qoladi, 4:1 bo'lsa 16->4, 8:1 bo'lsa 16->2, 16:1 bo'lsa 16->1. DLC multipleksordan MUX, demultipleksordan DMUX, vaqt kommutatoridan ITX, attenuuatoridan DAP, distribyuter DDC dan va nazorat qurilmasi PGC dan iborat (3.101- rasm).

DDC distribyuter takt generatori bo'lib, quyidagi chastotalarni ishlab chiqaradi.

$$SR_0 = 32,768 \text{ MHz}$$

$$SR_1 = 16,384 \text{ MHz}$$

$$SR_2 = 8,192 \text{ MHz}$$

$$SR_3 = 4,046 \text{ MHz}$$

$$SR_4 = 2,048 \text{ MHz}$$

$$SR_5 = 1,024 \text{ MHz}$$

$$SR_6 = 512 \text{ KHz}$$

$$SR_7 = 256 \text{ KHz}$$

$$SR_8 = 128 \text{ KHz}$$

SR9 = 64 KHz

SR10 = 32 KHz

SR11 = 16 KHz

SR12 = 8 KHz

Multipleksor MUX 32 ta 32 kanalli raqamli oqim SHW (uzatish tezligi 2048 Kbit/s) ni 1 ta 1024 kanalli raqamli oqimga aylantirib beradi. Bu o'ta zichlashtirish usulida tezlik 8192 Kbit/s bo'ladi. Uzatish davri 125 mks ligicha qoladi. Demultipleksor DMUX multipleksorning aksini bajaradi. DAP – signal amplitudasini o'zgartirish uchun qo'llaniladi.

Vaqt kommutatori ITX vaqt bo'yicha kommutatsiya jarayonini amalgalashiradi. Uning parametri 1024×1024 . Nutq xotira qurilmasida ketma-ket yozish, ixtiyoriy o'qish qo'llanilgan adresli XK da esa ixtiyoriy yozish, ketma-ket o'qish qo'llanilgan. PGC – konsentrator ishini nazorat qiladi.

Demak, konsentrator 32 ta ma'lumotlar shinasiga ega. Ulardan 16 tasi abonent magistrali hisoblanadi. 4 tasi ularash liniya magistrali, 8 tasi kommutatsiya maydoniga kelayotgan magistrallar va 4 tasi boshqarish magistrali (ichki sinxronizatsiya, signalizatsiya) hisoblanadi.

DLC bajaradigan funksiyasi: liniya prosessori bilan o'zaro muloqot; nazorat xotirasidan ($2K \times 16$ bit) o'qish va unga yozish; multipleksorlash (demultipleksorlash); nutq xotirasi ($2K \times 8$ bit); nutq traktini testlash. DLC DSP-117 platada joylashgan.

Kommutatsiya moduli SM quydagilardan iborat: vaqt kommutatori TSW, konferens Aloqa CMX, tarmoq sinxronizatsiyasi uchun apparat ta'minoti NESH. Vaqt kommutatori TSW markaziy kommutatsiya qurilmasi hisoblanadi. Uni bosh prosessor boshqaradi. TSW vaqt kanallarining kommutatsiyasini bajaradi. Bundan tashqari abonent va ularash liniyani ton generatorining signal qurilmalarini o'zaro muloqotini bajaradi hamda test qurilma bilan AL sini ulaydi, ya'ni test traktini o'rnatadi.


Ikki xil vaqt kommutatori bor: 1K va 4K. 1K vaqt kommutatorini bosh prosessor nazorat qiladi. 4K vaqt kommutatori imkon kommutatsiya qismi (ASS) lari orasida trakt hosil qilish uchun qo'llaniladi. U har bir 1K vaqt kommutatori uchun 1024 VI ta'minlaydi. Hamma kommutatsiya qurilmalari zaxiralashtirilgan. TSW quydagi imkoniyatlarga ega: ASS da vaqt kommutatsiya bosqichi; ASS lar orasida Vaqt-Vaqt-Vaqt kommutatsiyasi; bir-biri bilan bog'liq bloklarga vaqtini taqsimlash; $1K \times 1K$, $4K \times 4K$ vaqt kommutatsiyasi; o'zini testlash; shleyfni testlash; zaxiralashtirilgan modullarni tanlash imkon; analog-raqamli aylantirish funksiyasini; multi yozish usuli; o'zini-o'zi diagnostika qilish.

1 KTS -1K vaqt kommutatori multipleksordan, 3 ta vaqt kommutatoridan (TM 1 va SM1, TM 2 va SM 2, TM 3 va SM 3) demultirlek-sordan iborat. 1 va 3 vaqt kommutatori DMUX ulagan (3.102- rasm).

2- vaqt kommutatori 4 KTS ga ulangan. 4 KTS chiqishi 3- vaqt kommutatorining kirishiga ulangan. MUX kirishidagi 32 SHM ga AM ulanish usuli ko'rsatilgan. 1 KTS-DSP-124 platasida 4 QTS-DSP-125 platasida joylashgan.

Konferens aloqa bloki CMX. Konferens aloqani ta'minlash uchun multikommutsiya funksiyasini bajaradi. Bosh prosessor nazorati ostida uch yo'naliшга chaqiriq signalini yuboradi. Uch abonent bitta guruhga qo'shib, uch tomonlama so'zlashuv olib borishi mumkin. 27 kanalgacha (ba'zi bir vaqtда 24 kanalgacha) uch tomonlama so'zlashuvga qo'llanilishi mumkin.

Tarmoq sinxronizatsiya uchun apparat ta'minoti NESH sinxronlashtiruvchi impuls ishlab chiqaradi. U impuls chastotasining o'zgarishiga yo'l qo'ymaydi. Uzatishni surilishi va fazali titrashni kamaytiradi. Kommutatsiya tizimidan etalon impulslar 2048 MHz tashkil qildi. Yacheykali tarmoq uchun xo'jayin-bo'y sinuvchi (RAMS) usuli qo'llaniladi. NESH tarmoqdan 2 ta etalon impulslarini oladi. Shulardan biri solishtirish uchun qo'llaniladi. Uni regeneratsiya qiladi va qurilmalarga taqsimlaydi. Etalon sinxronlash impulslarini ishdan chiqsa avtomatik ravishda yangi impulslar tanlanadi. NESH quyidagi tavsifga ega: tarmoqdan sinxronlashtirilgan 2 ta manba; asosiy sinxronlashtirilgan chastota — 16,384 MHz; tizim sinxronlashgan impuls — 8,192 MHz; davr impulslarini generatsiyasi 8 KHz; surilishni aniqlash; PAMS usulini qo'llanish; DP-PLL konturi. NESH-DSP-126 platada joylashgan. Signalizatsiya va testlash moduli STM quyidagilardan iborat: ko'p



3.102- rasm. 1 KTS va 4 KTS sxemasi.

chastotali qabul qilgich va uzatkich MFR/S, ton generatori TG, xabarlar generatori ANM, test qurilmasi TEN, Chaqiruv signali generatori RG.

MFR/S abonentdan va ularash liniyasidan tushayotgan ko'p chastotali signalga ishlov beradi. Bu signal prosessori nazoratida bajariladi. MFR/S TSM ga magistral orqali ulangan. MFR/S-DSP-132 platada joylashgan. Ton generatori tonal signallarni ishlab chiqadi. Bularni stansiya tayyor, band signali, chaqiriqning nazorat signali, yuklanish signalini ko'rsatuvchi signal va hokazo. Abonentga signallarni berish bosh prosessor nazorati ostida bajariladi. Signalni ishlab chiqish xotiradan o'qish usuli bilan amalga oshiriladi. Kerakli signal jadvaldan o'qish yo'li bilan hosil qilinadi. Ketak bo'igan paytda signalning chastotasini, takt signali va darajasini qayta dasturlash doimiy xotira qurilmasiga o'zgartirish kiritish yo'li bilan o'zgartirish mumkin.

TG maksimum 32 tur signal ishlab chiqarishi mumkin. TG-DSP-131 platada joylashgan. Xabarlar generatori ANM bosh prosessor MR nazorati ostida abonentga nutqli xabar uzatish funksiyasini bajaradi. Har bir xabarni o'zgartirish mumkin. Buning uchun qayta dasturlash doimiy XK ga o'zgartirish kiritildi. ANM 16 tur xabarni uzatishi mumkin. Har bir signal davomiyligi maksimum 12 sekund. Xabar turlari: Raqam noto'g'ri terilgan, siz tergan raqam tarmoqda yo'q, abonent raqami o'zgartirilgan va hokazo.

TEH quyidagi parametrlarni o'lchaydi: doimiy (o'zgaruvchi) tok kuchlanishini, sig'imni, qarshilikni, raqam terish impulslarining chastotasini, terilgan raqamlarni, ishlash koefitsiyentini.

TEN ichki liniya holatini aniqlashi mumkin va ALIH gacha abonent liniya konturini testlaydi.

Quyidagi parametrlarni o'lchaydi: uzatish tavsiflarni, nutq signalining buzilishlarini, yo'qotishlarni, doimiy tok bo'yicha shleyf qarshiliklarini, impulsli yoki ko'p chastotali terishni aniqlash, ayoqa o'rnatish va bo'shatish. TEN abonent liniyasi uchun DSP-161, UL uchun DSP-162 platada joylashgan.

Chaqiriq signali generatori RG. U liniya prosessori LR nazorati ostida cinaqirriayotgan abonent tomon chaqiriq signalini yuborishni ta'minlaydi. RG o'z ichiga sinusoidal to'lqin generatorini, to'g'rilagichni, chiqish kuchlanish nazorati zanjirini, chiqish nazorati zanjirini, chaqiriq signali sinusoidal oqimini generatsiya qilish uchun kesish zanjirini oladi. RG parametrlari chiqish signali sinusoida (10 % buzilishi bilan), chastota $25 \text{ Hz} \pm 3 \text{ Hz}$, kuchlanish 60 V dan 90 V gacha tok kuchi minimal 1 = 5A. RG DSP-133 platada joylashgan.


Kiritish-chiqarish moduli IOM. IOM kiritish-chiqarish prosessoridan (IOP) iborat. IOP kirishidagi va chiqishidagi tizim qurilmalarni nazorat qiladi. Bularga kartridj tasmasining privodi, qattiq disk privodi CRT, printer, avariya paneli kiradi. IOP quyidagi funksiyalarni bajaradi: dasturni

o'zgartirib qaytadan yozish, ma'lumotlarni zaxira yozuvi, so'zlashuv haqidagi ma'lumotlarning zaxira yozish, statistika ma'lumotlarining zaxira yozuvi, kiritish-chiqarishni nazoratlash va zaxira yozuv, avariya paneli (ALMH). IOP - operatsion xizmat qiluvchi terminal operator uchun tizim interfeysi ta'minlaydi. U quyidagi parametrlarga ega: CPU – intel 486, Dx 50 MHz, HDD-540 Mbayt, RAM 16 Mbayt, CASH-256 Mbayt, I/O port – 2 ta seriyali, 1 ta parallel, STD – 150 Mbayt.

Umumkanal signalizatsiya moduli CSM – umumkanal signalizatsiya prosessoridan CSP, umumkanal signalizatsiya apparat ta'minotidan CSH iborat. CSP 16 razryadli mikroprosessor asosida ko'rilgan. U real vaqtida 7- sonli signalizatsiyaga javob beradi. Bitta prosessor maksimum 4 ta signalizatsiya zveno terminalini uzatadi va nazorat qiladi. Bosh prosessorga holat haqida axborotni uzatadi. CSH CSP nazorati ostida 7- sonli signalizatsiya zvenosining xabarlarni uzatish qismida 2 daraja funksiyasini bajaradi. U ham Raqamli, ham analog signalizatsiya ma'lumotlar zvenosi SDL bilan ta'minlaydi. CSH n + k usulida zaxiralashtirilgan CSP tasviri 16 razryadli, Ms 68 302 mikroprosessori qo'llanilgan, chastota 16 MHz, xotira sig'imi 512 Kbait, aloqa tezligi 8192 Kbit/s. SSH-DSP -133 platada joylashgan.

Uzoqlashgan imkon tushunchasi RSS ASS ni uzoqlashgan varianti bo'lib, stansiya sig'imini abonent qurilmalarini olib chiqish yo'li bilan oshirish va kabelni tejash uchun qo'llaniladi. Agar ASS faqat RSS qo'llanilsa, ular maksimal sig'imi 8 ta bo'lishi mumkin.

RSM moduli 480 ta AL, 240 ISDN abonent liniyasi, 120 UL ulashga mo'ljallangan. Uning kommutatsiya moduli 400 Erl yuklanishni o'tkaza oladi. RSS quyidagilardan iborat: nazorat moduli SM, imkon moduli (AM), kommutatsiya moduli SM, signalizatsiya va testlash moduli STM (3.103- rasm).




3.103- rasm. RSS sxemasi.

Chaqiruvga xizmat ko'rsatish jarayoni

Abonent mikrotelefon go'shagini ko'targanda AL bandlanadi va ALIH o'z holatini o'zgartiradi. Shu AL xizmat ko'rsatuvchi liniya prosessori LP buni aniqlaydi va bosh prosessorga (MP) buni xabar qiladi. MR bu xotiraga ishlov beradi va abonent stansiya tayyor signalini berish, raqamlarni qabul qilgichni ularash kerakligini belgilaydi. MR kommutatsiya moduliga (SM) va STM ga buyruq beradi. Buyruq bajarilgandan keyin AI ga TG va MFR/S ulanadi (3.104- rasm).

Abonent «stansiya tayyor» signalini eshitganidan so'ng raqam tera boshlaydi. Terilgan raqamlar ko'p chastotali kod asosida MFR/S ga tushadi. MFR/S bu axborotni MR ga uzatadi. MR tahlil qilib Aloqa turini aniqlaydi, MFR/S ni bo'shatadi, abonentning pozitsiyali raqamini, V abonentning liniya holatini aniqlaydi. Agar abonent liniyasi bo'sh bo'lsa, ikkita abonent orasida So'zlashuv traktini hosil qiladi. V abonentni LP yordamida V abonentga Chaqiriq signalini A abonentga uning nazoratini TG va I QTS orqali uzatadi. Agar V abonent Chaqiriqqa javob bersa, V abonentni LP javob signalini qabul qiladi va uni MR ga uzatadi. MR signal uzatish traktini uzadi. Endi so'zlashuv trakti orqali ikkita abonent So'zlashishi mumkin. Mikrofonga elektr manba ALIH dan beriladi.




3.104- rasm. Chaqiruvga xizmat ko'rsatish jarayonidagi trakt.

DTS - 1100 A tizimining tuzilishi.

DTS -1100A tizimining konstruktiv tarkibiy qismlari yig'ilishi

DTS -1100A tizimining qurilmalari stativda joylashadi. Har bir stativ 4 ta kassetadan iborat. Kassetalarda pechatlangan platalar o'rnatiladi. Pechatlangan platalar epoksidli oynadan tayyorланади. Bu oyna izolyatsiya qarshiligi katta, past namlikni shimishga, yong'inga qarshi tura olish sifatiga va mustahkamlikka ega. Bu ko'rsatkichlar epoksid oynani FRH&NEMA dan yaxshiligini ko'rsatadi. Mis qalinligi 0,03 mm dan 0,045 gacha bo'lishi mumkin. Orqa shiddagi kontaktlar tilla bilan qoplangan. DTS -1100A ga pechatlangan plata o'lchamlari: kengligi 326 mm, uzunligi 233 mm va qalinligi 1,6 mm (3.105- rasm).



3.105- rasm. Stativlarning tuzilishi.

DSP-141 (ALIH)

D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	D S P	
1 0 3 A	1 1 7 (LP + DLS)	1 5 2 D T I H													
1 0 1 A	1 1 6 (MP)	1 2 4 K T S	1 2 5 K T S	1 2 6 N E S H	1 0 2 A	1 3 1 2	1 3 2								

3.106- rasm. Kasseta tuzilishi.

Har bir stativga 1500 AL ulanishi mumkin. Demak, tizim maksimal sig‘imga ega bo‘lishi uchun 5 ta stativ lozim (3.106- rasm). Stativ o‘lchamlari: balandligi 1320 mm, uzunligi 712 mm, kengligi 600 mm. Kassetaning tuzilishi 3.106- rasmida keltirilgan.

Bitta stativda 3 ta kasseta 512 tadan abonent liniyalariga mo‘ljallangan bo‘ladi va 1 ta kasseta umumiy hisoblanadi. Har biri o‘z asosiy orqa platasiga ega bo‘ladi. DSP-105 asos platada o‘rnatilgan

kassetada quyidagi platalar joylashadi: DSP-141(ALIH), DSP-152 (DTIH) yoki DSP-153 (ATIH) yoki DSP-154 yoki DSP-155, DSP-117 (LP+DLC), DSP-103A (ikkilamchi elektr Aloqa manbasi).

DSP-104 asosiy platasi bor kassetada quyidagilar o'rnatiladi: DSP-101A, DSp-102A, DSP-116 (MP), DSP-161, DSP-162 (TEM), DSP-133 (RG), DSP-124 (IQTS), DSP-125 (4QTS), DSP-131 (TG), DSP-132 (30 MF), DSP-126 (NESH).

DTS -1100 A tizimining «odam-mashina» hamkorligi

DTS-1100A tizimini boshqarish uchun CCITT tavsiya etgan «odam-mashina» aloqa MMS qo'llanilgan. Bu tizimni effektiv qo'llanish uchun qilingan. MMS buyruqlari tizim va operator orasidagi til vositasi sifatida xizmat qiladi. MMS yordamida stansiyani boshqarishga imkon amalgalashiriladi. DTS - 1100 A tizimini tezlik xizmat va ekspluatatsiya qilish uchun 486 turidagi kompyuter va tashqi qurilmalar: kartridj tasmasi, (STD), qattiq disk HDD, CRT, printer (PRT), avariya paneli ALMH, yumshoq disk asbobi (FDD). Kartridj tasmasida zaxira dasturlar saqlanadi. Hamma prosessorlar (MR, LP, JOP, CSP) kartridj tasmasi va prosessor (486) venchestri yordamida dastur bilan yuklanadi. Qolgan tashqi xotira qurilmalar zaxira ma'lumotlarni saqlash uchun qo'llaniladi.

DTS-1100A tizimi MMS buyruqlarini aniq qoidalar bo'yicha aniqlaydi. Tizim MMS buyruqlarini tanishi uchun CRN (buyruqlar mos raqami) o'rnatiladi va bu mos raqamni ishlatib, MMS buyruqlarini boshqaradi.

MMS 4 ta boshqarish kanaliga ega: F1—texnik xizmat va ekspluatatsiya kanali, F2, F3, F4—operatorsion tizimga yoki tizim xotirasiga kirish kanali, F2, F3, F4—boshqarish kanallar maxsus kirish paroliga ega bo'ladi.

F1—texnik xizmat va ekspluatatsiya boshqarish kanali buyruqlarni MMS ning buyruqlar varag'ida keltirilgan. Unda joylashgan buyruqlar alfavit tartibida guruhlarga bo'lingan. Guruh nomi sifatida buyruqning birinchi so'zi qo'llaniladi.

Bundan tashqari buyruq varag'ida prosessoring davriy statistikasini aks ettirish uchun frazaga ega. Buyruqlar ro'yxati «Tab» klavishasini bosish yo'li bilan displayga chiqariladi. Qizil yo'lni qo'llanib buyruq (direktiva) tanlanadi. Qizil yo'l qator bo'ylab (^, v), ham ustun bo'ylab (>, <) harakatlanadi. Tanlangan buyruq va «Enter» tugmasini bosish yo'li bilan monitorga buyruq formati hamda funksiyasi chaqiriladi va buyruq aktivlashtiriladi. Buyruq bajarilgandan keyin natija monitorga chiqariladi.

Buyruqlar ro'yxati:

ADT ACT – auditni aktivlashtirish;

ADT DACT – auditning aktivligini yo‘qotish;

ADT DIS – audit axborotini aks ettirish;

ALM DIS – avariya signalizatsiyasini aks ettirish;

ALM DIS INF – avariya signali axborotini aks ettirish.

Ba’zi bir buyruqlarni qo‘llanish misoli.

Abonent liniyasini testlash.

— TST LN : [A], [B], [C].

Bu buyruq aniq abonent liniyasiga test signalini uzatish yo‘li bilan qaytish zanjirida qutblarni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Buyruq parametrlari:

A — testlanish lozim bo‘lgan abonent liniyasi tegishli LR raqami;

V — testlanadigan birinchi AL (0,1, ..., 511);

S — testlanadigan oxirgi AL (0,1, ..., 511).

Agar hamma AL testlanadigan bo‘lsa, parametrlar qo‘llanilmaydi.

Agar bitta LP ga tegishli AL testlanadigan bo‘lsa, faqat [A] parametr, ya’ni LP raqami qo‘llaniladi.

Agar bitta LP ga tegishli bir necha AL testlansa, unda hamma parametrlar qo‘llaniladi. Agar bitta AL testlansa, LP raqami [A] va birinchi AL raqami [V] qo‘llaniladi.

Buyruqni berilish usuli:

Boshqarish kanalini tanlash — Alt F1 Enter.

Texnik xizmat jadvalini chaqirish — Tab.

Betlarni varaqlash — Caps Locq, Shift , Page Down, Page UP.

Buyruqni tanlash (Qizil yo‘l bilan).

Buyruqni terish — TST LN : LPO, 00, 10 Enter.

Quyidagi natijalar bo‘lishi mumkin:

OK — testning hamma pult natijalari me’yordagi AL to‘g‘ri keladi;
NK-testning natijalaridan bittasi xato;

BS — AL band;

NE — AL jihozlanmagan;

LN — test vaqtida aniq prosessordan javob yo‘q;

SE — test buyrug‘ida xato;

LA — LP ning xato holati;

SA — SP ning xato holati;

SN — SP dan javob yo‘q;

TF — DSP 161 (TEH) da stansiyani aniqlash axborotini uzatilayotgan-da xato aniqlangan;

DF — qurilma xatosi;

LE — LP javobi yo‘q;

SE — SP javobi yo‘q;

TN — DSP 161 javobi yo‘q;

TD — DSP 161 chetlatilgan;

TV — DSP 161 band;

SB – kommutator;

RE – SP dan axborot olingan;

EE – LP atrosidagi muhitda xato;

SM – test tugallanishi.

Sinov savollari

1. S - 12 tizimining vazifasi va texnik imkoniyati nimalardan iborat?
2. Tizimning jihozlar tarkibini keltiring.
3. Tizimning boshqaruv modullarining turi va vazifasi nimalardan iborat?
4. Boshqaruv modullarining tuzilishini keltiring.
5. Terminal interfeyslarining tuzilishini keltiring.
6. Multiportlarning tuzilishini keltiring.
7. Raqamli kommutatsiya maydonining qurilish prinsipini tushuntiring.
8. Ulash, o'rnatish jarayonini keltiring.
9. EWSD tizimining SN qaysi tur KB lari asosida qurilgan?
10. SN ning vazifasi nimadan iborat?
11. Fazo kommutatorining parametrlari nimalardan iborat?
12. Vaqt kommutatorining parametrlari nimalardan iborat?
13. SN ga ulanadigan LTG ning parametrlari nimalardan iborat?
14. SN ning ko'p fuksional modul turlarini keltiring.
15. SN ga qanday tashqi interfeyslar ulanadi?
16. SN qanday kommutatsiya bosqichi guruhlariga ega?
17. 504 LTG uchun SN da nechta TS va SS olinadi?
18. LIL – modulining vazifasi nimalardan iborat?
19. Har bir TSM moduli qanday tuzilishga ega?
20. Har bir SSM moduli qanday tuzilishga ega?
21. SGC qanday vazifalarni bajaradi?
22. CP va SGC orasidagi aloqani tushuntirib bering.
23. DTS-1100A imkoniyatlарини тушунтинг.
24. DTS-1100A tizimning apparat ta'minoti nimalardan iborat?
25. Kommutatsiya imkonini ASS bajaradigan funksiyasi va uning soni nechta bo'lishi mumkin?
26. ASS nimalardan iborat?
27. Nazorat moduli nimalardan iborat?
28. Bosh prosessor bajaradigan funksiyalarini keltiring.
29. Liniya prosessori bajaradigan funksiyalarini keltiring.
30. 7-sonli umumikanal prosessorining vazifalarini ayting.
31. Kiritish-chiqarish prosessorining bajaradigan funksiyalarini ayting.
32. Har bir prosessoring tavsiyini keltiring.
33. Imkon moduli nimalardan iborat?
34. ALIH – funksiyasi nima, qanday platada joylashgan?
35. ATIH tushuntiring va plata turini ayting.
36. ALIH – vazifasi nima va u joylashgan plata turini keltiring.
37. DTIM – funksiyasi va plata turini keltiring.

38. *CSH – vazifasini tushuntiring.*
39. *Konsentrator DLS vazifasini keltiring.*
40. *DLS nimalardan iborat, ularning vazifalarini keltiring.*
41. *Konsentratsiya koeffitsiyentini tushuntiring.*
42. *SM nimalardan iborat?*
43. *Vaqt kommutatori 1k va 4k TS tushuntiring.*
44. *SMX ning funksiyasi nimalardan iborat?*
45. *NESH bajaradigan vazifasi nimalardan iborat?*
46. *SIM nimalardan iborat?*
47. *MFR/S funksiyasi nima?*
48. *TG bajaradigan vazifasi nima?*
49. *ANM funksiyasi nima?*
50. *TEM vazifasi nima?*
51. *RG vazifasi nima?*
52. *IOM nimalardan iborat?*
53. *CSM vazifasi nima?*
54. *RSS nimalardan iborat?*
55. *DTS-1100A tizimining ishlash jarayonini tushuntiring.*
56. *DTS-1100A tizimining konstruktiv tarkibiy qismini tushuntiring.*
57. *DTS-1100A tizimining «odam-mashina» hamkorligini qanday amalga oshiriladi?*
58. *MMC funksiyasi nima?*
59. *DTS-1100A tizimida qo'llaniladigan buyruqlarni sanab bering.*
60. *Buyruq formati tuzilishi qanday?*
61. *Buyruqlarni kiritish usulini tushuntiring.*
62. *Biror buyruq natijasini tushuntiring.*
63. *NEAX-61E tizimining texnik tavsifi va funksional sxemasini tushuntiring.*
64. *NEAX-61E tizimi nechta podsistemalardan iborat?*
65. *NEAX-61E kommutatsiya maydon tuzilishini tushuntiring.*
66. *NEAX-61E tizimida signalizatsiyani tushuntiring.*
67. *NEAX-61E dasturiy ta'minot vazifasini tushuntiring.*
68. *NEAX-61E tizimida chaqiriqlarga xizmat ko'rsatish bosqichlarini har bir aloqa uchun keltiring.*
69. *DTS-.3100 imkoniyatlarini tushuntiring.*
70. *DTS- 3100 tizimning apparat ta'minoti nimalardan iborat?*
71. *DTS-3100 tizimining ishlash jarayonini tushuntiring.*
72. *DTS-3100 tizimining konstruktiv tarkibiy qismini tushuntiring.*
73. *DTS-3100 tizimining «odam-mashina» hamkorligini qanday amalga oshiriladi?*
74. *DTS-.2000 imkoniyatlarini tushuntiring.*
75. *DTS- 2000 tizimining apparat ta'minoti nimalardan iborat?*
76. *DTS-2000 tizimining ishlash jarayonini tushuntiring.*
77. *DTS-2000 tizimining konstruktiv tarkibiy qismini tushuntiring.*
78. *DTS-2000 tizimining odam-mashina hamkorligini qanday amalga oshiriladi?*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.С. Круж телекоммуникационные сети и системы. I том 2005 г.
2. И.Ф. Болгов. Электронно-цифровые системы коомунитации. М.: Радио и связь, 1988 г.
3. Р.А. Аваков, В.О. Игнатьев, А.Г. Попова. Управляющие системы электросвязи и их программное обеспечение. М.: Радио и связь, 1991 г.
4. Б.С. Гольдштейн. Системы коммутации. – СПБ.: БВХ – Санкт-Петербург, 2003 – 318 с.
5. В.И. Маевский др. Цифровые системы передачи, Пер с польского – М.: Связь, 1979 – 264 с.
6. О.Н. Иванова. Автоматические системы коммутации. – М.: Радио и связь. 1988 – 624 с.
7. З.О. Игнатьев, Б.Е. Алексеев. В.В. Россиков. Программное обеспечение АТС. М.: Раидо и связь.
8. Б.С. Гольдштейн. Сигнализации в сетях связи. М.: Связь, 1997 г.
9. Технические описание цифровых коммутационных системы. S – 12, DTS, EWSD, NEAX – 61. Изд. фирм. 1997 г.
10. Дж. Белами. Цифровая телефония. Пер. с англ. – М.: Радио и связь, 1986 – 544 с.
11. Х.И. Безир. и др. Цифровая коммутация. Пер. с нем. – М.: Радио и связь, 1984 – 264 с.
12. Ю.Ф. Кожанов. Основы автоматической коммутации. – С. – Пб.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
----------------	---

I BOB. RAQAMLI KOMMUTATSIYA TAMOYILI

1.1. IKM-30 tizimida sinxronlash. Bitli, siklli va tarmoqli sinxronlash.....	4
1.2. Sinxron va asinxron tarmoq.....	13
1.3. Signalizatsiya. Chiziqli va registrli signalizatsiya. Raqamli tizimlarda ko'p chastotali signalizatsiya. Ajratilgan kanal bo'yicha chiziqli signalizatsiya. Registrli signalizatsiya: umumikanal signalizatsiyasi CCS-№7 (7-sonli UKS).....	16

II BOB. RAQAMLI ALOQA TARMOQLARI

2.1. Aloqa tarmog'ining evolyutsiyasi.....	41
2.2. Integral tarmoqqa ularish imkoniyati, o'zaro hamkorlik bayonnomalari va tutashuvlari (interfeyslar).....	48

III BOB. RAQAMLI KOMMUTATSIYA TIZIMLARI

3.1. Alkatel 1000 S-12 kommutatsiya tizimi.....	53
3.1.1. S-12 texnik tavsifi, tuzilmasi.....	53
3.1.2. Raqamli kommutatsiya maydonining qurilish strukturasi.....	57
3.1.3. Apparat ta'minotining tuzilmasi, modulning namunaviy strukturasi. Terminal interfeysi. Boshqaruvlarni fizik amalga oshirish. Analog abonent moduli (AAM), tonal va takt signal moduli (T va TM), PTXM (P&L), xizmat komplektlar moduli (SCM), traktlarni testlash moduli (TTM).....	71
3.1.4. Kommutatsiya tizimining dasturiy ta'minoti. S-12 tizimi. DT arxitekturasi. Operatsion tizim va ma'lumotlar bazasi (OT va MB). Dasturlash modulining tuzilishi.....	80
3.1.5. S-12 tizimida ichki stansiya aloqa o'rnatish jarayoni. Ichki stansion aloqa o'rnatish jarayoni.....	97
3.1.6. S-12 tizimini boshqarish.....	102
3.2. EWSD kommutatsiya tizimi.....	103
3.2.1. Umumiy tavsifi, tizimchalar, ularning vazifasi va qo'llanilishi....	103
3.2.2. Raqamli abonet bloki DLU, uning tuzilmasi va blok sxemasi. Shinalar tizimi. Tarifikatsiya va chaqiruv toklarining generatsiyasi. Abonent komplekti moduli. DLU uchun dasturiy ta'minot. DLU stativining konfiguratsiyasi. Uzoqlashtirilgan DLU (RSU).....	110

3.2.3. LTG – liniyalar guruhi. LTG ning tuzilmasi, turlari va vazifasi. LTG ning funksional bloklari: LIU, DIU, SU, GS, GP. GP ning dasturiy ta'minoti.....	117
3.2.4. Kommutatsiya maydoni SN va SN(V). SN252- LTG va SN(V)- 63 LTG va SN. 504 LTG. Kommutatsiya yo'llari. xabarlar uzatishning kommutatsiya yo'llari.....	126
3.2.5. Koordinatsion prosessor CP va tizim paneli. CP 113 tuzilmasi. Asosiy prosessor va chaqiriqqa ishlov berish prosessori. Dasturiy ta'minot. Modul kasseta va stativlarning konfiguratsiyasi tizim kanalining tuzilmasi va vazifasi. Tizim kanallarining BQ uchun modul kassetasi.....	136
3.2.6. CCNC ning boshqarish uskunasi. CCNC strukturasi. CCNC blok sxemasi. CCNC prosessori. Stativ va modul kassetasi konfiguratsiyasi.....	137
3.2.7. Chaqiruvga xizmat ko'rsatish jarayoni. Stansiya ichida aloqa o'rnatish jarayoni.....	138
3.3. NEAX-61E kommutatsiya tizimi.....	141
3.3.1. Tizimning umumiy tavsifi. Tuzilmaviy sxemasi. Qo'llanilish sohasi.....	141
3.3.2. Apparat vositalarining konfiguratsiyasi. Amaliy tizimcha.....	144
3.3.3. Davriy ta'minoti.....	162
3.3.4. Chaqiruvga xizmat ko'rsatish-ulash o'rnatish jarayoni.....	163
3.4. DAEWOO telekom LTD.....	165
3.4.1. DTS-3100 tizimi tavsifi. Tuzilmaviy sxemasi. Tizim qurilish tuzilmasi. Apparat ta'minoti. Dasturiy ta'minoti. Chaqiriqqa ishlov berish prosedurasi.....	165
3.4.2. DTS-1100 va 1100A tizim tavsifi. Tuzilmaviy sxemasi. Tizim qurilish tuzilmasi. 1100 ni 1100A dan farqi. Apparat ta'minoti. Dasturiy ta'minoti.....	173
Adabiyotlar ro'yxati.....	189

Nafisa Anvarbekovna Zaynudinova

Nodir Sodirovich Xodjayev

Ma'mura Xalilovna Nurillayeva

Ismoil Axrorovich Sultanov

RAQAMLI KOMMUTATSIYA TIZIMLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir Xudoyberdi Po'latxo'jayev

Rassom Alyona Delyagina

Badiiy muharrir Uyg'un Solihov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhih Mahmuda Usmonova

Kompyuterda sahifalovchi Gulbayra Eraliyeva

Bosishga ruxsat etildi 04. 09. 2008. Bichimi 60×90^{1/16}, Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 12,0. Nashr b.t. 12,5. Shartnomha № 148–2008, 2060 nusxada. Buyurtma № 12-

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«NOSHIR-FAYZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent tumani, Keles shahar, K. G'ofurov ko'chasi, 97-uy.

31.264

R32

Raqamli kommutatsiya tizimlari: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll./ N.A. Zaynudinova, N.S. Xodjayev, M.X. Nurillayeva, I.A. Sultanov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi markazi. – T.: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 – 192 b.

I. Zaynudinova N.A.

5040 =